



Begzod ABDULLAYEV,
"University of economics and pedagogy" NOTM dotsenti v.b., PhD, Andijon davlat universiteti doktoranti

ADCHTI dots v.b., fil.f.d S.Abdugaxorov taqrizi asosida

STRUCTURAL STAGES OF SPEECH ACTS IN MARKET RELATIONS

Annotation

In the field of advertising, the pragmatic possibilities of language in the communicative process include the interaction between the recipient (consumer) with the subject of speech or the text, or the level of comprehensibility or misunderstanding of the information about the product, to the consumer's purchase of the product. This article is about this process.

Key words: Speech act, locution, illocution, perlocution, pragmatics, consumer.

СТРУКТУРНЫЕ ЭТАПЫ РЕЧЕВЫХ АКТОВ В РЫНОЧНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

В сфере рекламы прагматические возможности языка в коммуникативном процессе включают взаимодействие реципиента (потребителя) с предметом речи или текста, либо уровень понятности или непонимания информации о товаре, до уровня понимания потребителем. Эта статья об этом процессе.

Ключевые слова: Речевой акт, локуция, иллокуция, перлокуция, прагматика, потребитель.

BOZOR MUNOSABATLARIDA NUTQIY AKTLARNING TARKIBIY BOSQICHLARI

Аннотация

Reklama sohasida tilning pragmatik imkoniyatlari kommunikativ jarayonda nutq predmeti yoki matn bilan qabul qiluvchi (iste'molchi)ning muloqotdagi o'zaro munosabati yoki mahsulot haqidagi axborotning qay darajada tushunarli yoki tushunmovchiligidan iste'molchilarning mahsulotni sotib olishigacha bo'lgan jarayonlar majmuasini o'zida qamrab oladi. Ushbu maqolada aynan shu jarayon haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Nutqiy akt, lokutiv, illokutiv, perllokutiv, pragmatika, iste'molchi.

Kirish. Nutqiy aktlar bozor munosabatlarida kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ular xaridor va sotuvchi, yoki boshqa iqtisodiy aloqada ishtirok etuvchi tomonlar o'rtasida muvaffaqiyatli muloqotni ta'minlash uchun tarkibiy bosqichlarga ega. Ushbu bosqichlar bozor sharoitida samarali muloqot qilish va maqsadga erishishda muhim o'rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topishini barcha pragmatiklar e'tirof etishadi. Ularning ko'pchiligi nutqiy aktga uch bosqichli faoliyat sifatida qarash tarafdorlaridir. Bu bosqichlarda uch xil harakat bajariladi. Ular – lokutiv, illokutiv va perllokutiv harakatlardir. Illokutsiya shaxslararo (muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi) munosabatlarning ifodalanishidir. Nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi perllokutiv akt nomini olgan[1]. M.Buzrukovaning talqinicha, nutq akti pragmatikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, til harakati qoidalariga muvofiq, amalga oshiriladigan maqsadli kommunikativ harakatdir. Tilshuno olim Sh.Safarov ham nutqiy aktni uch bosqichli faoliyat deb, ularda uch xil harakat bajarilishini ta'kidlaydi. R.Choerunnisa nutq harakatlarini bajarishda Yule ham uchta bog'liq harakat mavjudligini taklif qilganligini ya'ni ular lokutiv, illokutiv va perllokutiv aktlarni o'z ichiga olishini nazarda tutadi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Nutqiy Aktning Boshlang'ich Bosqichi. Ushbu bosqichda kommunikatsiya jarayoni boshlanadi. Masalan:

Sotuvchi tomonidan taklif kiritish: "Assalomu alaykum, sizga qanday yordam bera olaman?"

E'tiborni jalb qilish: Reklama orqali diqqat markazini tovar yoki xizmatga qaratish.

Bu bosqichda asosiy vazifa — auditoriyaning e'tiborini tortish va suhbatning boshlanishiga zamin yaratishdir.

2. Asosiy Bosqich

Bu jarayon muloqotning mazmunli qismi hisoblanadi. Bunda sotuvchi xaridorni mahsulot yoki xizmatga qiziqtirish uchun nutqiy vositalardan foydalanadi:

Tavsif: Mahsulotning afzalliklari va imkoniyatlarini ifodalash. Masalan, "Ushbu telefon eng yangi texnologiyalar bilan jihozlangan."

Dalillar keltirish: Xaridorning ishonchini qozonish uchun faktlar va statistik ma'lumotlarni qo'llash.

Shuningdek, bu bosqichda xaridorning savollariga javob berish va uni xarid qilishga undash muhimdir.

3. Rag'batlantirish va Uzoq muddatli Aloqa

Nutqiy aktning yakuniy bosqichida sotuvchi xaridorga rag'batlantiruvchi nutqiy konstruksiyalarni qo'llaydi:

"Bugun xarid qilsangiz, chegirma olasiz."

"Keyingi xaridrlaringizda qo'shimcha sovg'alar mavjud."

Shuningdek, bu bosqichda uzoq muddatli munosabatlar o'rnatish uchun ijobiy muloqot saqlanadi. Masalan, xaridorni qoniqish holatini kuzatish va qo'llab-quvvatlash.

Nutqiy Aktning Bozor Munosabatlariga Ta'siri

Bozor munosabatlarida nutqiy aktlarning to'g'ri tashkil etilishi:

Sotuvning samaradorligini oshiradi.

Xaridorning ishonchini qozonadi.

Bozor aloqalarida barqarorlikni ta'minlaydi.

Shuni ta'kidlash o'rinli-ki, reklama sohasida tilning pragmatik imkoniyatlari kommunikativ jarayonda nutq predmeti yoki matn bilan qabul qiluvchi (iste'molchi)ning muloqotdagi o'zaro munosabati yoki mahsulot haqidagi axborotning tushunarligidan iste'molchining mahsulotni sotib olishigacha bo'lgan jarayonlar majmuasini o'zida qamrab oladi. Kommunikativ jarayon ishtirokchilari deb adresant bilan adresat matn va vaziyatga qarab amalga oshadi. Ya'ni bozor munosabatlarida yoki sotuv jarayonlarida nutqiy aktning uch bosqichli jarayonlari muloqotning qabul qiluvchisi adresat – haridorning sotuvchi savoliga javob berishiga qarab bosqichma-bosqich amalga oshadi. Reklamaning boshqa turlarida ham

haridorni oziga jalb qilganidan keyin nutqiy aktning barcha jarayonlari kuzatilishi mumkin. Bu jarayonda iste'molchi qiziqtirgan barcha ma'lumotlar reklama namoyishi vaqtida voqealanishi kerak. Chunki, reklamlarning o'zlari ham reklama mahsuloti orqali muloqot qiladigan iste'molchisi kimligini bilmaydi. Iste'molchining qiziqishi, ehtiyoji, dunyoqarashini hisobga olib reklama mahsulotini tayyorlash tavsiya etiladi.

Tahlil va natijalar. Nutqiy akt muloqotga kirishuvimizdan oldin, suhbatdoshga ta'sir ko'rsatish maqsadida ongimizda biror jumla yaratamiz va uni nutqimiz bilan adresatga yetkazamiz. Aynan shunday nutqiy jarayonda lokutsiya hodisasi yuz beradi.

Lokutiv aktlar – bu ma'lum bir tovushni talaffuz qilish yoki ma'lum belgilar qo'yish, muayyan so'zlarni ishlatish va ularni ma'lum bir tilning grammatik qoidalari va ma'lum bir his-tuyg'ularga muvofiq ishlatish va ular olingan til qoidalari ko'ra belgilanadigan ma'lum bir shaxsга murojaat qilish kabi nutq harakati.[3] Bunda ongimizda yaratilgan jumla oddiy xabar ma'nosida yuzaga chiqadi. Lokutsiya hodisasi nutqiy jarayon hosilasi bo'lib, faqat lisoniy birliklarni talaffuz qilish orqali amalga oshadi. Reklamada biror maqsad ko'zlanib gapiriladi. Bu lokutsiya hodisasi. Biror maqsad bilan tanlangan jumla voqealanishi illokutsiya jarayonini yuzaga chiqarishiga sabab bo'ladi. Illokutsiya og'zaki reklamalarda, do'konlardagi va bozorlardagi sotuvchi va oluvchining o'zaro suhbatida yuz beradi. Qashqadaryo viloyati “Yangi bozor dehqon bozori” hududidagi rastalardan birining suhbatni misol keltiramiz:

haridor: Assalomu alaykum! Opa, Gul karam bormi?

sotuvchi: Voalaykum, assalom! Bu sun'iy karam. Gul karam endi chiqadi, bozorga. Hozircha salat uchun tuzlangani bor! Sizni xolatizday ayol kishilar sho'rroq salat yegisi keladi -ku?dedi, kulib.

haridor: Men ham salatga olmoqchi edim. Ammo, ho'jayinim tuzlanmaganidan olib kel dedi-da.

sotuvchi: Ho'jayinini o'zi topib kelsin, svejisidan yegisi kelsa. Sizga salatga tuzlanganidan arzon beraman, 5000 so'm! Oling!

haridor: Mayli, arzon bo'lsa, olaman. Mana, 5000!

Bu yerda Assalomu alaykum, Opa! Gul karam qancha? jumlasini sotuvchining oldindan “Gul karam bor!” degan gapi, yoki degandek mahsulotni namoyish qilgani uchun, muloqot axborotiga javob bermoqda. Iste'molchi sotib olish, yoki narxni bilish niyatida so'z boshlashiga sabab bo'lishiga paralingvistik va lingvistik birliklar sabab bo'lmoqda. Bu – lokutiv akt jarayoni.

Illokutsiya shaxslar o'rtasidagi muloqot bo'lib, o'zaro (muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi) munosabatlarning ifodalanishidir. Masalan, yuqorida keltirilgan

Hozircha salat uchun tuzlangani bor! Sizni xolatizday ayol kishilar sho'rroq salat yegisi keladi-ku! jumlasini va “kulish” jarayoni yuz ifodasi bilan iste'molchini homilador ekanligi haqida habar bermoqda lingvistik birlik bilan birgalikda paralingvistik elementning nutqiy akt jarayonida “homilador” ma'nosini anglatmoqda. “Sizga salatga tuzlanganidan arzon beraman”, jumlasini mahsulotni sotishni maqsad qilib so'zlagani oling! buyruq fe'li harakatga undab, ta'sir jarayonini natijasini kutayotganini xabarini bermoqda – illokutiv akt jarayoni. Aynan shu kommunikativ maqsaddan “oling!” fe'li sotuv jarayonida voqelanib, sotuvchining sotish istagini bildirgani uchun nutqiy tuzilmaning illokutiv kuchi (illocutionary force) aniqlanadi.

Muloqot jarayonida nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish qismi yoki bosqichi perlokutiv akt nomini olgan. Mayli, arzon bo'lsa, olaman. Mana, 5000! jumlasini ta'sir natijasida –perlokutiv akt jarayoni sodir bo'lmoqda. Sotuvchi o'z maqsadiga erishmoqda.

«Illokutiv akt» tushunchasi pragmatiklikda inson tomonidan nutqiy jarayonda va nutqiy faoliyat vositasida bajariladigan harakat sifatida ta'riflanadi. O.G.Pochepstovning ta'rificha, 1) illokutiv harakatning ijrochisi (agenti) so'zlovchi yoki yozuvchidir; 2) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyatidan farq qiladi; 3) illokutiv akt nutq yaratilish faoliyati jarayonida yuzaga keladi; 4) illokutiv akt nutqiy faoliyat vositasida bajariladi (Pochepstov 1986: 24). Illokutiv akt bevosita muloqot

strukturasi ishtirokchisi, kommunikatsiyani maqsadli va mazmunli ko'chishini ta'minlovchi nutqiy faoliyat bo'lagidir [1].

Sotuvchi va haridor o'rtasida nutqiy muloqotda illokutiv kuch katta rol o'ynaydi. Illokutiv kuch yagona leksik birlik(so'z)dan tuzilgan sintaktik qurilma(gap) yoki bir necha gap bo'laklaridan tashkil topgan – sintaktik butunlikka ega bo'lgan holda uchraydi va uning qismlarining tuzilishi mantiqiy tartibga ega. Nutqiy muloqotda aynan shu tartib illokutiv kuchning erkinligini ta'minlaydi va uning propozitsiya aktisiz bajarilishiga imkon beradi. Binobarin, “Keling!”, “Sizga nima kerak?”, “Nima izladiz!” kabi nutqiy birliklar propozitsiya mazmuniga ega bo'lib, ular illokutiv jihatdan to'liq shaklga ega, ya'ni ular ma'lum kontekstda kommunikativ maqsad va mazmuni ifodalaydilar. Sotuvchining “Keling!” “Nima izladiz!” gaplari bozorda haridor nazar solgan buyum rastasi egasi ekanligini, mahsulot haqida ma'lumot olish va harid qilish uchun muloqotga ishtirokchi ikkinchi tomon ekanligi axborotini bermoqda. Bu jumla haridor ongida kutib oluvchi mezbob – sotuvchi ekanligi semasini dalillamoqda. Bu jumla muloqotga kirishish uchun illokutiv kuch bo'la oladi.

Ko'pchilik olimlar gaplarning struktur-semantik turlari vositasida bajarilayotgan nutqiy harakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni bir biriga bog'liq holda davom etuvchi xarakterga ega emasligini, bunday kommunikativ munosabat nutqiy harakat illokutiv kuchida deyarli uchramaydi deb hisoblaydilar. Sintaktik birlik hisoblangan gap – turli nutqiy muhitda turli illokutiv kuchga ega bo'lishi va bu bilan turli kommunikativ maqsadni ifodalash uchun vositas hisoblanadi. Sotuvchi va haridor o'rtasidagi illokutiv kuchga ega birgina “Keling!” degan gapning o'zini misol qilib olsa, bozor munosabatlarida haridor tushunchasi bo'yicha “buyum rastasi egasi” ekanligini, “mahsulot haqida ma'lumot olish va harid qilish uchun muloqotga ishtirokchi ikkinchi tomon ekanligi”ni namoyon qilmoqda. “Kelin” degan gap boshqa nutqiy muhitda boshqa illokutiv kuchga ega bo'lishi mumkin. Masalan: biror tanishini uyiga mehmonga borganingizda uy egasi fatik kommunikatsiya elementi sifatida “Keling!” deyishi (“Xush kelibsiz!” semasi), o'ziga noma'lum auditoriya muhitiga behostan kirib qolganingizda, auditoriya nazoratchisining “Keling!” deyishi (“Nega bezovta qildiz?” yoki “Kim kerak?” kabi gumon semasi), biror qabul jarayonida navbatigiz kelganda qabuldagi shaxs “Keling!” deyishi (Siz navbatdagi mijozsiz! semasi) Sintaktik birlik hisoblangan gap – turli nutqiy muhitda turli illokutiv kuchga ega ekanligidan darak bermoqda. Muhit yoki makon kommunikativ jarayonda lisoniy birliklarining muloqot mavzusini, nutqiy harakat mazmunini belgilab beradi. Demak, bozor munosabatlarida muhit va nutqiy harakat mazmuni bilan bog'liq element hisoblanadi. Agarda shunday bog'liqlik bo'lmaganda, iste'molchiga sotuvchining muloqot maqsadini, u bajarayotgan nutqiy harakat mazmunini anglash qiyin bo'lar edi. Bir narsani tan olishimiz kerak, har qanday sintaktik birlikning turli pragmatik ma'no anglatishi chegaralangan bo'lib, uning illokutiv kuchi muloqot maqsadini ifodalash imkoniyati cheklangan bo'ladi. Aytmoqchi bo'lgan fikr – har qanday sintaktik birlik o'z ma'nosida yoki ko'chma ma'noda pragmatic sema anglatish muhiti bo'ladi. Ana shu muhitga qarab muloqotning davom etishi yoki etmasligi illokutiv jarayonning keying bosqicha o'tish masalasini hal qiladi. Sotuvchining lingvistik va paralingvistik birliklarni to'g'ri qo'llashga tayyorligi nutqiy aktning barcha jarayonlari yakunlanishiga xizmat qiladi. Bu sotuvchi uchun ham iqtisodiy daromad olib keladi.

Bozor munosabatlarida yuqorida ta'riflaganimizdek, nutqiy harakat strukturasi eng oxirgi bosqichi perlokutiv akt deb qaraymiz. Nutqiy faoliyat ta'sirining natijasi sifatida tasviflanadigan perlokutiv akt oldingilaridan (lokutsiya va illokutsiya) tubdan farq qiladi. Perlokutiv aktning yuzaga chiqishi iste'molchi tomonidan amalga oshiriladi. Demak, perlokutiv akt oldindan yuzaga chiqishi noma'lum jarayon bo'lib, haridorning keying xatti-harakati – harid qilishiga bog'liq.

Illokutsiya jarayonida haridorга qaratilgan barcha reklama harakatlari nutqiy muloqot momentida perlokutsiya jarayoni yuz bermaydi. Bunga haridorning imkoniyatlari – iqtisodiy xolati, shaxsiy xolati, transportirovka imkoniyati halal

berishi mumkin. Ammo, illokutiv jarayon ta'sirida haridorda maxsulot haqidagi ijobiy tasavvur uyg'onib, "Keyin sotim olaman" degan fikri tug'ilishi perlokutsiya jarayoni natijasi desak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pragmalingvistlarning o'zlari e'tirof etganlaridek, «perlokutiv akt illokutivdan farqli o'laroq, lisoniy hodisa emas, chunki biror bir perlokutiv natijaga hech qanday nutqiy harakatni bajarmasdan turib ham erishish imkoni bor» (Searle, Vanderveken 1985: 12). Perlokutsiyaning lisoniy tahlil doirasiga kirmasligini J.Lich ham qayd etadi: «Perlokutiv natija tahlili pragmatikaning vazifasiga kirmaydi, chunki pragmatik ta'sir kuchi (nutqiy harakatning – Sh.S.) maqsadi bilan bog'liq, natija bilan emas» (Leech 1983: 203)[2].

Ammo, yuqoridagi fikrlar bozor munosabatlariga to'g'ri kelmaydi. Chunki, har qanday reklama nutqi lingvistik va paralingvistik komponentlardan tashkil topgan. Sotuvchining etik va estetik harakatiga qarab(kiyinishi, yuz mimikasi, mahsulotni saranjom terib qo'yishi), "Arzon ...(maxsulot) bor" yoki shunga o'xshash intensive ta'sir sabab, yoki kimningdir tavsiyasi bilan, maxsulot haqidagi qadoq yoki qutisidagi ma'lumotlar bilan ham perlokutiv jarayon yuz berishi mumkin. Yuqoridagi xolatl

diskursning lingvistik va paralingvistik elementlar hisoblanib, iste'molchiga nutqiy harakat ta'sirini pragmalngvistik tahlil doirasidan chetga surib qo'ya olmaymiz.

Nutqiy muloqotning yozma va og'zaki shakllari mavjudligi hisobga olinsa, nutqiy muloqotda adresatga ta'sir o'tkazish, reklama misolida olsak, uni maxsulotni sotib olishga qiziqtirish, undash uchun harakat qilinadi.

Bozor munosabatlarida sotuvchi-iste'molchi nutqiy muloqot sotuvchining hatti-harakati, niyyatiga ko'ra yuzaga chiqadi va bu jarayon maqsadiga ko'ra ikki sathli bo'ladi: axborot uzatish(og'zaki reklama) va kommunikativ pragmatik maqsad(maxsulotni sotish).

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, axborot uzatishda sotuvchining maqsadi haridorning talab-ehtiyojini bilish va iste'molchini monipulyatsiya qilish orqali uning talabini, qiziqishini qondirish maqsadi ham ko'zlanadi. Natijada sotuvchi maxoratiga qarab, pragmatik vazifaning bajariladi. Demak, sotuv jarayonida sotuvchi va haridor o'rtasidagi pragmatik vazifalar kommunikativ maqsad doirasida voqelanadi. Shuning uchun ham bozor munosabatlarida nutqiy harakat natijasida yuzaga keladigan perlokutiv ta'sirini pragmalngvistik tahlil doirasiga kiritamiz.

ADABIYOTLAR

1. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O'quv-uslubiy qo'llanma./ - Urganch, 2020. - b 30-31.
2. Jumaqulova Sh.Q. Pragmatikada nutqiy akt tasviri .// «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya// <https://www.in.academy.uz/index.php/zdif/article/download/3703/3324>
3. Остин Ж. Слово как действие. 1986.с.-22-129/Ж.Остин//Новое в зарубежной лингвистике.-М.:Прогресс,1986.-Вип.17.- с.131.
4. Abdullayev B. (2024). Bozor munosabatlarida nutqiy aktning o'rni. Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali, 2(2), 477–486.



UDK: 81/82

Muxabbat ABDURAXIMOVA,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

DSc, professor A.Abdullayeva taqrizi asosida

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL APPROACH TO THE CONCEPT OF NEUROMARKETING

Аннотация

Neuromarketing is a direction that studies consumer behavior, their brand loyalty and unconscious purchasing behavior. It combines marketing, cognitive and affective psychology, PR and neurobiology. This field, which was included in science in 2002, today helps many brands implement effective strategies and move from point A to point B with excellent results.

Key words: neuromarketing, neurobiology, marketing, PR, behavioral psychology, brand, image, advertising, strategy, eye-tacting, fMRI, GRS, EEG.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К КОНЦЕПЦИИ НЕЙРОМАРКЕТИНГА

Аннотация

Нейромаркетинг - это область, изучающая поведение потребителей, лояльность к бренду и бессознательное покупательское поведение. Он объединяет маркетинг, когнитивную и аффективную психологию, связи с общественностью и нейробиологию. Это направление, введенное в науку в 2002 году, теперь помогает многим брендам внедрять эффективные стратегии и перемещаться из точки А в точку Б с превосходными результатами.

Ключевые слова: нейромаркетинг, нейробиология, маркетинг, PR, поведенческая психология, бренд, имидж, реклама, стратегия, тактильное восприятие, фМРТ, GRS, ЭЭГ.

NEYROMARKETING TUSHUNCHASIGA NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUV

Аннотация

Neyromarketing iste'molchilar xulq-atvorini, ularning brendga sodiqligini va ongsiz ravishda xarid amalga oshirishni o'rganadigan yo'nalish hisoblanadi. U o'zida marketing, kognitiv va affektiv psixologiya, PR va neyrobiologiyani mujassamlashtiradi. 2002 yilda fanga kiritilgan bu soha bugungi kunda ko'plab brendlarni samarali strategiya amalga oshirishida, A nuqtadan B nuqtaga a'lo natijalar bilan o'tishida asqatmoqda.

Kalit so'zlar: neyromarketing, neyrobiologiya, marketing, PR, xulq-atvor psixologiyasi, brend, imij, reklama, strategiya, eye-tacting, fMRI, GRS, EEG.

Neyromarketing – Insonning miya faoliyatini tahlil qilish orqali marketing jarayonlarini tushinishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot yo'nalishi. Ushbu yo'nalish marketing va neyrobiologiyaning kesishmasida shakllangan bo'lib, uning asosiy maqsadi insonning iste'mol qilish jarayonidagi ongsiz qaror qabul qilish mexanizmlarini tushunish va bu orqali marketing strategiyalarini takomillashtirishdir.

Neyromarketing XX asr oxirlarida va XXI asr boshlarida paydo bo'lib, psixologiya, marketing va neyrofiziologiya kabi sohalarining rivojlanishi bilan bog'liq. Bu yo'nalish iste'molchi xatti-harakatlarini o'rganadigan rivojlanayotgan soha bo'lib, neyrobiologiya va kognitiv psixologiya bilan bog'liq. 2002 yilda Eil Smidts tomonidan neyromarketing ilmiy foydalanish sifatida fanga kiritilgan va tezda butun dunyo bo'ylab professionallar orasida bu yo'nalish qabul qilindi. Olim izlanishlari borasida nutq so'zlar ekan, "Neyromarketingning asosiy maqsadi "iste'molchini va uning brendga bo'lgan munosabatini yaxshiroq tushunish" deb tushuntiradi. Biroq, uning asoslari ancha oldin psixologiya va kognitiv ilm-fan (aql va ongni o'rganadigan fan) doirasida shakllangan. Masalan, Pavlovning reflekslar bo'yicha ishlari va 1950-yillarda neyromarketingning ilk shakllari bo'lgan eksperimental psixologik tadqiqotlar insonning xulq-atvorini tushinishga qaratilgan.

Keyinchalik, raqamli texnologiyalar va ilmiy tadqiqot usullarining rivojlanishi bilan miya faoliyatini aniqlash uchun EEG (elektroensefalografiya), fMRI (funktsional magnit-rezonans tomografiya) kabi ilg'or texnikalar qo'llanila boshlandi. Bu metodlar inson miyasining reklama yoki marketing stimullari bilan ta'sirlashuvini aniqlashda eng samarali vositalardan biri sifatida foydalaniladi.

Neyromarketingning asosiy nazariy jihatlari bu marketingga insonning kognitiv va affektiv jarayonlarini qo'shish

bilan bog'liqdir. Ushbu jarayonlar iste'molchilarning xarid qilishga bo'lgan ongsiz qarorlarini va ularning brendlarga bo'lgan munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Kognitiv va affektiv jarayonlar Kognitiv jarayonlar insonning ongli ravishda axborotni qabul qilishi va uni qayta ishlashi bilan bog'liq. Bu jarayonlarda iste'molchi o'z qarorlarini ongli ravishda qabul qilsa-da, ko'pgina marketing stimullari uning e'tiborini tortishga va qaror qabul qilishiga ongsiz ravishda ta'sir qiladi.

Affektiv jarayonlar esa iste'molchilarning his-tuyg'ulari va ongsiz reaksiyalarini o'z ichiga oladi. Neyromarketing, ayniqsa, bu affektiv jarayonlarni tahlil qilishda samarali bo'lib, iste'molchilarning brendlarga bo'lgan ongsiz hissiyotlarini o'rganishga qaratilgan.

Neyromarketing o'zining texnikalari orqali iste'molchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazadi. Tuzilgan strategiyani amalga oshirishda kognitiv va affektiv jarayonlarning o'zigagina tayanib qolish tavsiya etilmaydi. Neyromarketing alohida yo'nalish va soha bo'lsada, bir qator boshqa fan, soha bilan birlashganda uning ta'sir qilish doirasi yanada ortadi. Bulardan biri, xulq-atvor iqtisodiyotidir.

Xulq-atvor iqtisodiyoti (behavioral economics) bu iqtisodiyotning bir bo'lami bo'lib, iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonini insonlarning psixologik, hissiy, va ijtimoiy omillar asosida tushinishga intiluvchi ilmiy yo'nalishdir. An'anaviy iqtisodiyot modellari odamlarni "ratsional" va "foydalari maksimal" qilib ko'rsatilsa, xulq-atvor iqtisodiyoti bu holatni tanqid qilib, odamlarning ko'plab iqtisodiy qarorlarida mantiqsizlik, hissiy holatlar, va ijtimoiy ta'sirlar rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ushbu yo'nalish iqtisodiy tahlilda inson xulq-atvori va iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini chuqur o'rganadi.

Xulq-atvor iqtisodiyotining asosi 1970-yillarda Richard Thaler va Daniel Kahneman kabi olimlarning ishlari bilan bog'liqdir. Ular iqtisodiy qarorlar qabul qilishda odamlar uchun eng muhim bo'lgan emotsiyalar, kognitiv xatoliklar va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatdilar. Masalan, Kahneman va Tversky (1979) tomonidan ishlab chiqilgan prospect theory (yutuqlar va yo'qotishlarga nisbatan psixologik javoblar nazariyasi) odamlar qanday qilib noaniqlik va xavfni baholashda noto'g'ri qarorlar qabul qilishlarini tushuntiradi. Bunda, insonlar xavfni haddan tashqari ko'paytirish yoki yutuqlarni ortiqcha qadrlash kabi xatolarga yo'l qo'yishadi.

Neyromarketing nazariyasida xulq-atvor iqtisodiyoti ham muhim o'rin tutadi. Nobel mukofoti sovrindori Daniel Kahneman va Amos Tversky tomonidan ishlab chiqilgan xulq-atvor iqtisodiyoti insonning iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonida qanchalik irratsional yoki ongsiz ravishda qaror qabul qilishini o'rganadi. Neyromarketing ushbu tamoyillarga tayanib, iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonlarini tadqiq qilish orqali ularga qanday marketing strategiyalari ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Masalan, mijozlarning tanlovlarini aks ettiruvchi reklama dizaynlari, brend joylashuvi va qadoqlanish usullari.

Xulq-atvor iqtisodiyoti va neyromarketing bir qarashda bir-biriga yaqin ko'rinadi. Funksional jihatlaridan ham ba'zida bir xil vazifani bajarayotgandek tuyuladi. Lekin ularning o'zaro bir-biridan farqli jihatlarini ham yetarlicha. Bular:

Har ikkalasi ham odamlarning qarorlar qabul qilish jarayonlarini o'rganishga qaratilgan sohalar bo'lib, ular orasidagi farq ularning metodologik yondashuvlari va tadqiqotlarning maqsadlariga bog'liq. Quyida ularning asosiy farqlari keltirilgan:

Tadqiqotning maqsadi va konteksti-Xulq-atvor iqtisodiyoti odamlarga nisbatan iqtisodiy qarorlar qanday qabul qilinishi, qanday xatoliklar va mantiqsizliklar mavjudligini tahlil qilishga yo'naltirilgan. Ushbu soha iqtisodiy qarorlar qabul qilishda odamlarning shaxsiy hissiyotlari, intuitiv fikrlari va kognitiv xatoliklari qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Xulq-atvor iqtisodiyoti nafaqat individual qarorlar, balki bozor tizimi, makroiqtisodiy siyosatlar va ijtimoiy tizimlarni ham tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Misol: Xulq-atvor iqtisodiyotida "prospect theory" (yutuqlar va yo'qotishlarga psixologik javoblar nazariyasi) kabi konseptlar mavjud. Kahneman va Tversky (1979) tomonidan ishlab chiqilgan bu nazariyaga ko'ra, odamlar yo'qotishlardan ko'ra yutuqlarni ko'proq qadrlashadi. Bu xulq-atvor iqtisodiyotining tushuncha va tavsifini tashkil etadi.

Neyromarketing esa marketing va reklama sohasida qo'llaniladigan tahlil metodlarini o'z ichiga oladi. Ushbu soha asosiy e'tiborini insonlarning brendlar, reklama, mahsulotlar va boshqa marketing stimullariga qanday javob berishlarini aniqlashga qaratadi. Neyromarketing, asosan, brendni yaratish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, iste'molchilarni yo'naltirish va ularning ongsiz qarorlar qabul qilish jarayonlarini o'rganishga yo'naltirilgan.

Misol: Neyromarketingda, reklama yoki mahsulotni ko'rsatganda odamlarning miya faoliyatini fMRI yoki EEG orqali o'lchash orqali qanday tavsifalar berish mumkinligi aniqlanadi.

Metodologiya va tadqiqot usullari-Xulq-atvor iqtisodiyoti iqtisodiyotga oid psixologik nazariyalar va kognitiv psixologiya asosida, odamlarning qaror qabul qilishdagi mantiqsizliklarini va kognitiv xatoliklarini matematik modellarni orqali tushuntiradi. Bu usulda iqtisodiy tajriba va eksperimentlar ko'pincha natijalar va xulq-atvorni aniq tasvirlashga qaratilgan.

Misol: Xulq-atvor iqtisodiyotida, odamlarning ortiqcha baholash yoki kutilmagan sabablarga ko'ra qaror qabul qilishlari haqida yirik eksperimentlar o'tkaziladi, ular ko'pincha iqtisodiy model va nazariyalar bilan taqqoslanadi.

Neyromarketing esa asosan biologik va fiziologik tahlil metodlarini o'z ichiga oladi. Bu sohada odamlarning miya faoliyati, xususan, reklama va brendlar orqali ularning hissiy va ongsiz javoblarini o'rganish uchun ilg'or texnologiyalar (EEG, fMRI, eye-tracking va boshqalar) ishlatiladi. Neyromarketing marketing stimuli va reklama kampaniyalarining samaradorligini o'lchashga qaratilgan.

Misol: Neyromarketingda, reklama ko'rsatuvchi shaxsning miya faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash uchun fMRI yoki EEG yordamida ma'lumotlar yig'iladi.

Yondashuvning tadqiqot doirasi- Xulq-atvor iqtisodiyoti iqtisodiyotning kengroq doirasida ishlaydi, shu jumladan iqtisodiy bozorlar, siyosat, ijtimoiy tizimlar va qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi psixologik omillarni tahlil qiladi. Xulq-atvor iqtisodiyoti iqtisodiy tahlilni kengaytiradi va odamlarning ratsional bo'lmagan qarorlar qabul qilishiga olib keladigan omillarni ochib beradi.

Misol: Xulq-atvor iqtisodiyotida, masalan, iste'molchilarning bozor narxlariga qarshi xulq-atvori yoki hukumatlar tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy siyosatlar ta'sirini o'rganish mumkin.

Neyromarketing esa marketing va reklama, brendlarni yaratish va iste'molchilarning xarid qilish odatlariga yo'naltirilgan. Bu soha, asosan, reklama va marketing strategiyalarining samaradorligini o'lchashga, mijozlarning ongsiz reaksiyalarini o'rganishga va ularni yaxshilashga qaratilgan.

Misol: Neyromarketingda, brendning reklama materiallarining samaradorligini o'lchashda miya faoliyatining o'zgarishlarini aniqlash mumkin.

Amaliy qo'llanilishi- Xulq-atvor iqtisodiyoti iqtisodiy siyosatlarini, soliq tizimlarini va ijtimoiy yordam dasturlarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. Odamlarning ratsional bo'lmagan qarorlari va iqtisodiy bozorlaridagi noaniqliklarni hisobga olgan holda siyosat ishlab chiqiladi.

Misol: Xulq-atvor iqtisodiyoti yordamida hukumatlar "nudging" (yo'naltirish) strategiyasini ishlab chiqib, odamlarning sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashga harakat qilishlari mumkin.

Neyromarketing esa to'g'ridan-to'g'ri marketing va reklama sohasida, brendlarning raqobatbardoshligini oshirishda qo'llaniladi. Marketing mutaxassislari o'z mahsulotlarini yoki xizmatlarini sotishda miya faoliyatini tahlil qilish orqali iste'molchilarni o'z taraflariga jalb qilishga harakat qilishadi.

Misol: Neyromarketing orqali brendlar, reklama materialining qaysi qismlari iste'molchilarning ijobiy hissiyotlarini uyg'otishini yoki qanday bo'shliqlarni to'ldirishini aniqlashlari mumkin.

Fokuslanish va asosiy omillar- Xulq-atvor iqtisodiyoti odamlarning mantiqsiz qarorlar qabul qilishida psixologik va kognitiv omillarga e'tibor qaratadi. Bunda iqtisodiy tahlil va odamlarning his-tuyg'ulari, stressi yoki boshqa hissiy holatlari kabi omillar o'rganiladi.

Neyromarketing esa asosan insonlarning fiziologik javoblariga va miya faoliyatiga asoslanadi. Bu, brendlar va reklama materiallarining marketing samaradorligini o'lchashda ishlatiladi. Neyromarketingda odamlarning vizual va hissiy reaksiyalari asosiy o'rinni egallaydi.

Neyromarketingning metodologik yondashuvlari Neyromarketingni metodologik jihatdan tahlil qilish uchun ko'plab ilmiy texnikalar qo'llaniladi. Ular orasida fMRI, EEG, ko'z kuzatish texnologiyalari, va galvanik teri reaksiyalarini o'lchash (GSR) eng ko'p qo'llaniladigan usullardir.

fMRI (Funksional magnit-rezonans tomografiya) fMRI inson miyasining turli sohalarining faoliyatini aniqlash va o'rganish uchun eng samarali metodlardan biridir. fMRI yordamida tadqiqotchilar mijoz brendlar, mahsulotlar yoki reklama materiallari bilan tanishganida miya qanday ishlashini ko'rishlari mumkin. Bu metod miyadagi qon oqimini o'lchash orqali miya faoliyatini aniqlaydi. Ma'lumki, miyaning faolroq sohalariga ko'proq qon oqadi, va bu qism iste'molchilar qiziqish bildirayotgan yoki ta'sirlanayotgan brend yokida reklama bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

EEG (Elektroensefalografiya). EEG miyaning elektr faolligini o'lchash uchun qo'llaniladigan texnika bo'lib, mijozlarning xulq-atvorini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. EEG orqali reklama va brendning mijozga qanchalik ta'sir qilayotganligini, ularda qanday sezgilar paydo bo'layotganini aniqlash mumkin. Bu texnologiya miya to'liqlarini tahlil qilishga

asoslangan bo'lib, iste'molchining brend yoki mahsulotni qanday qabul qilayotganligini real vaqt rejimida kuzatishga imkon beradi.

Ko'z harakatlarini kuzatish (Eye-tracking). Ko'z harakatlarini kuzatish texnologiyasi, iste'molchining e'tiborini qaysi reklama elementlari jalb qilayotganini o'lchashga imkon beradi. Reklama materiallari yoki mahsulotlar dizayni iste'molchilar ko'zi orqali qanday idrok etilishini o'rganish orqali, marketingning samaradorligini oshirish mumkin. Ko'z harakatlarini kuzatish orqali mijozning e'tibori qaysi nuqtaga qaratilganligini, qaysi elementlar e'tiborini tortayotganini aniqlash mumkin.

Galvanik teri reaksiyalarini o'lchash (GSR). GSR usuli iste'molchining his-tuyg'ularini aniqlash uchun qo'llaniladi. Terining elektr qarshiligi insonning hissiyotlari o'zgarishiga bog'liq ravishda o'zgaradi, va bu o'zgarishlar marketing stimullariga qanday javob berilayotganini aniqlash imkonini beradi. Bu metod reklama materiallari va brendlari iste'molchining his-tuyg'ularini qanchalik kuchli ta'sirlantirayotganini baholashda qo'llaniladi.

Neyromarketingning marketing va PR faoliyatidagi o'rni
Neyromarketing nafaqat marketing strategiyalarini, balki PR kampaniyalarini ham samarali tarzda yo'naltirish uchun

muhim vosita hisoblanadi. Neyromarketing usullari orqali kompaniyalar o'z mijozlarining sezgi va his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunib, ularni to'g'ri yo'naltirishlari mumkin. PR sohasida neyromarketing texnologiyalari imij yaratish va jamoatchilik bilan munosabatlarni boshqarish jarayonida qo'llaniladi. Masalan, kompaniyaning imiji, mahsulot dizayni, brend qiyofasi yoki reklama roliklari mijozlarda qanday hissiyotlarni uyg'otishini tahlil qilish orqali, PR strategiyalarini yanada takomillashtirish mumkin.

Ushbu metodologiya orqali kompaniyalar mijozlarning yashirin istaklari, xulq-atvori va brendlarga bo'lgan qiziqishini aniqroq bilib oladilar. Bu esa marketing va PR strategiyalarini shunga mos ravishda shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, neyromarketing reklama xarajatlarini maqbullashtirishga va kompaniya uchun samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Neyromarketing insonning xulq-atvorini chuqurroq o'rganish va marketing strategiyalarini takomillashtirish uchun nazariy va metodologik jihatdan keng imkoniyatlar yaratadi. Uning ilmiy metodlari va amaliy qo'llanilishi marketing va PR sohalarida samarali natijalar berishga qodir.

ADABIYOTLAR

1. The Impact of Neuromarketing on Consumer Behavior. Journal of Marketing Research. Feldman, A. et al. (2015).
2. Neuromarketing: Exploring the Brain of the Consumer. Marketing Science. Smidts, E. (2002).
3. Buyology: Truth and Lies About Why We Buy. Crown Business. Lindstrom, M. (2008).
4. Conditioned Reflexes. Oxford University Press. Pavlov, I.P. (1927).
5. Applications of Neuroimaging in Marketing and Advertising. Journal of Neuroscience and Marketing. Grajales, N. (2016).
6. Kahneman, D., & Tversky, A. (1979). Prospect theory: An analysis of decision under risk. *Econometrica*, 47(2), 263–291.
7. Thaler, R. (2000). *Advances in behavioral economics*. Princeton University Press.
8. Lee, N., Broderick, A. J., & Chamberlain, L. (2007). What is neuro-marketing? A discussion and agenda for future research. *International Journal of Advertising*, 26(3), 255-275.
9. Ariely, D., & Berns, G. (2010). Neuromarketing: The hope and hype of neuromarketing. *Journal of Consumer Psychology*, 21(1), 11-13.
10. Kahneman, D. (2003). A perspective on judgment and choice: Mapping bounded rationality. *American Psychologist*, 58(9), 697–720.
11. Ariely, D. (2008). *Predictably Irrational: The Hidden Forces That Shape Our Decisions*. HarperCollins.
12. Morin, C. (2011). Neuromarketing: The new science of consumer behavior. *Journal of Consumer Marketing*, 28(3), 181-190.
13. Hubert, M., & Kenning, P. (2008). A neuropsychological approach to the study of consumer behavior. In J. C. A. & P. L. (Eds.), *Neuromarketing* (pp. 47-61). Springer.
14. Kahneman, D. (2011). *Thinking, Fast and Slow*. Farrar, Straus and Giroux.
15. Thaler, R. (1994). *The winner's curse: Paradoxes and anomalies of economic life*. Princeton University Press.
16. Lee, N., & Broderick, A. (2007). Neuro-marketing: Implications for marketing research. *Journal of Marketing Management*, 23(9-10), 1317-1334.
17. Hubert, M., & Kenning, P. (2008). A neuropsychological approach to the study of consumer behavior. In J. C. A. & P. L. (Eds.), *Neuromarketing* (pp. 47-61). Springer.
18. Sunstein, C. (2009). *Nudge: Improving decisions about health, wealth, and happiness*. Penguin.
19. Thaler, R., & Sunstein, C. (2008). *Nudge: Improving decisions about health, wealth, and happiness*. Penguin.
20. Morin, C. (2011). Neuromarketing: The new science of consumer behavior. *Journal of Consumer Marketing*, 28(3), 181-190.
21. Hubert, M., & Kenning, P. (2008). A neuropsychological approach to the study of consumer behavior. In J. C. A. & P. L. (Eds.), *Neuromarketing* (pp. 47-61). Springer.
22. Kahneman, D. (2011). *Thinking, Fast and Slow*. Farrar, Straus and Giroux.
23. Morin, C. (2011). Neuromarketing: The new science of consumer behavior. *Journal of Consumer Marketing*, 28(3), 181-190.



Inomjon AZIMOV,
ToshDO'TAU dotsenti, f.f.d
E-mail: inomjon66@mail.ru

BuxDU professori, f.f.d. B.Jo'rayeva taqrizi asosida

IMLO QOIDALARINI TUZISH TAJRIBASIDAN

(2-maqola)

Annotatsiya

“Chig'atoy gurungi” tomonidan ishlab chiqilgan imlo qoidalari hali dastlabki tajriba bo'lganligi uchun kamchiliklardan holi emas edi. Natijada imlodagi buzuqliklar davom etdi. Hatto gazetalarda ham so'zlarning turlicha yozilish, sheva so'zlarining qo'llanilish holatlari kuzatildi. Ayniqsa, xorijiy so'zlarning singarmonizm qonuniga moslashtirish, arabcha so'zlarning yozilishi xususida jadidlar o'rtasida turlicha qarashlar mavjud edi. Shuning natijasida yanada mukammalroq imlo qoidalarini tuzish uchun harakatlar boshlanadi. 1926-yilda tuzilgan “Maorif va o'qutg'uchi” jurnalining 7-8-sonlarida e'lon qilingan imlo qoidalari mazkur harakatning natijasi edi. Maqolada ushbu imlo qoidalari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: jadid, “Chig'atoy gurungi”, imlo, tovush, cho'zg'i, harf, singarmonizm, qalinlik, ingichkalik, ism, fe'l, me'yor.

РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ОПЫТЕ СОСТАВЛЕНИЯ ПРАВИЛ ПРАВОПИСАНИЯ

(2-статья)

Аннотация

Правила правописания, разработанные «Чагатай Гурунги», все еще находились на экспериментальной стадии и, как таковые, не были лишены недостатков. Следовательно, в правописании постоянно наблюдались несоответствия. Даже в газетах наблюдались различия в написании слов и использовании диалектных терминов. В частности, среди джадидов существовали различные мнения относительно адаптации иностранных слов к закону гармонии звуков и орфографии арабских слов. В результате начались усилия по разработке более совершенных правил правописания. Правила правописания, опубликованные в выпусках 7-8 журнала «Маориф ва укутгучи» в 1926 году, стали результатом этих усилий. В этой статье обсуждаются эти правила правописания.

Ключевые слова: джадид, «Чигатайские беседы», орфография, звук, гласный, буква, сингармонизм, твердый гласный, мягкий гласный, существительное, глагол, норма.

REFLECTIONS ON THE EXPERIENCE OF COMPILING SPELLING RULES

(Article 2)

Annotation

The spelling rules developed by the “Chagatay Gurungi” were still in the experimental stage and, as such, were not without flaws. Consequently, there were ongoing inconsistencies in spelling. Even in newspapers, variations in the spelling of words and the usage of dialectal terms were observed. In particular, there were differing opinions among the Jadids regarding the adaptation of foreign words to the law of harmony of sounds and the orthography of Arabic words. As a result, efforts began to develop more refined spelling rules. The spelling rules published in issues 7-8 of the “Maorif va o'qutg'uchi” journal in 1926 were the outcome of these efforts. This article discusses these spelling rules.

Keywords: Jadid, “Chigatai Talks”, spelling, sound, stretch, letter, harmony of sounds, thickness, thinness, noun, verb, norm.

Kirish. Elbek imlo muammosi haqida shunday yozadi: “Bizning bu kungacha qo'llanilib kelmakda bo'lgan imlomiz iki turli edi: biri chig'atoy imlosi va 2-nchisi eski imlo. Bu imlodan eski imlo atag'an imlomiz burun choqlardan beri bir yo'sunsiz, negizsiz yozilib kelmakda bo'lg'an bir imlodurkim, buning bilan bir narsani ochiq anglov juda qiyindir. Chunki bir so'zni bir necha turli o'qimoq mumkin bo'lg'onlikdan kishi ko'b yanglishadir. Demak, eski imlo yo'lsizlig'i uchun tashlanmoqdan boshqa chora qolmaydir. Emdi chig'atoy imlosi atalg'an yangi imlog'a kelsak: bu imloning eski imlodan ayruvuvi olti cho'zginini qabul etu, so'zlarni qalin, ingichkalikka bo'lub yozuvda alif (l) o'rmda hamza (ء) ishlatu bilandir. Har holda bu imlo eski imlodan ko'b yuqori tutilsada, buning kamchiliklarin va yanglishlarin ko'rgach aningda tuzatilib yo'lg'a solinmog'i lozim keladur. Zero, bu imloda ko'rsatilgan yo'lcha ketganda ham kishi qiyinlikdan qutulmaydir. Buningda orag'a eskilikni suqub, eskilikni saqlag'an o'rnlur ko'b uchraydir [1].”

Toshkent maorif sho'basini vakili Abdulmannon yangi ochilgan maktablarga muallimlar yetishmasligi sababli diniy ilmi

bor kishilar ham tayinlangani, lekin ularning aksariyati yangi imloga qarshi bo'lganini aytadi [1].

Ashurali Zohiriy ham gazetalardagi xatoliklarni tanqid qilur ekan, imlo tuzishdagi kamchiliklar xususida gapiradi, barcha turkiy xalqlar uchun yagona imlo bo'lish kerakligini aytadi: “Buning uchun siz “Tatariston”, “Turkiston”, “Zarafshon” gazetalarin ham “Bizning bayroq” gazetasining 16 nchi nomerida Fotih Sayfi Qozonlining “Boshqirdiston maorif ilmiy markazining imlo ham sarf loyihasi” degan maqolasin bir yerga yig'ib qarasangiz, har yerda turlicha ekanligin va turlicha hal qilinganligin ko'rasiz. Mana sizga yangi imloning qandoq “jarayon hol” olg'oni! Ham yangi imlo qo'llanish orqasida bo'lg'on imlo birligi! U birlik o'rta imloda edi. Imlo o'zgarilgan va isloh qilingan sur'atda hamma turk qavminiki bir xil bo'lsun edi [1]. U taniqli uch gazetaning turlicha imloda nashr qilinishidan afsuslanadi: “Imlodagi birlik va mut tahid frunt tarafdori bo'lg'onlig'imizdan “Turkiston” bir yo'lda, “Zarafshon” boshqa yo'lda, “Farg'ona” yana bir boshqa yo'lda bo'lg'onlig'i, Turkistonda chiqadurg'on uch dona o'zbek gazetasining uch ko'cha boshida turishi yurakni achitadi” [1].

Sh.Bobomurodova o'sha davrda imlo masalasida quyidagi oqimlar mavjudligini qayd etgan:

“1. Hech bir usulga va qoidaga rioya qilmasdan qadimiy imlo asosida yozmoq tarafdorlari bo'lmish qadimchilar;

2. Turkiy so'zlarni usuli savtiya (tovush usuli) asosida eshitilgan, arabiy so'zlarni esa o'z imlosi bilan yozmoq tarafdorlari;

3. Turkiy va arabiy so'zlarning hammasini tovush usuli bilan yozmoq tarafdorlari;

4. Turkiy tilimizda yot bo'lgan harflarni butunlay chiqarib, arab so'zlarini ham o'z tovushlarimiz bilan yozmoq tarafdorlari;

5. Arab harflarini butunlay tashlab, uning o'rniga lotin yozuvini qabul etmoq tarafdorlari”[2].

Bu oqimlar o'rtasida turlicha qarashlar, qizg'in bahs-munozaralar, tortishuvlar, kerak bo'lsa, murosasiz kurashlar millat fidoyilarining mazkur masalaga befarq emasligi, millat ravnaqi uchun har qanday sinovlarga tayyor ekanligidan dalolatdir. To'g'ri, yuqoridagi oqimlarning barchasiga ijobiy baho berib bo'lmaydi. Masalan, birinchi oqim tarfdorlari “qadimchilar” nomi bilan mashhur bo'lib, ular yozuvni ham, imloni ham o'zgartirishga tish-tirnog'i bilan qarshi bo'lganlar. Ikkinchi oqim tarafdorlari “o'rta imlochilar” nomini olgan Ashurali Zohiriy, Munavvar qori va ularning hamfikrlari edi. Ziyolilarning bu guruhi turkiy so'zlarni eshitilgan yozish, ya'ni unilarni ham yozuvda ifoda etishni yoqlagan holda, arabcha so'zlarni asl holicha, ular qaysi harflar bilan yozilgan bo'lsa, o'zgartmay yozishni talab qilar edilar. “Jumladan, harflar to'g'risida eng oldin alarni ikkiga bo'lub, yot turli ostida ataydurlar. Yot harf deganlari arabcha, forscha, ruscha so'zlarda ishlatilaturg'on ع غ ظ ط ض ص ر ث ذ bo'lg'onliklari uchun turkcha harflardan yuqori o'run berib turkcha uchun kelaturg'on kalakalarning boshlarida sinmasliklarini istaydurlar” [3].

Ko'rib turganimizdek, imlo masalasida turlicha qarashlar mavjud rdi. Lekin Elbek to'g'ri ta'kidlaganidek “...bizning ta'qib etgan yo'limiz bu emas, ya'ni har bir so'zni eshitilganicha ham olish emas! Balkim bir qoidaga so'qilg'on hamda xalqqa yaqin bir adabiy til yurgizishdir” [1].

Tahlil va natijalar. Ana shunday bahs-munozaralar, matbuotda bildirilgan fikrlar asosida yana bir imlo loyihasi yaratiladi. Mazkur loyiha 1926-yilda “Maorif va o'qutg'uchi” jurnalining 7-8-sonlarida e'lon qilinadi.

Mazkur loyihani ham qo'yilgan talablarga javob beradigan imlo qoidalari deb ayta olmaymiz, chunki qoidalarda asosan singarmonizm qonuniyatiga asosiy e'tibor qaralilib, fe'llarning, qisman ismlarning qalinlik, ingichkalikka amal qilgan holda to'g'ri yozilish qoidalari xususida so'z yuritiladi.

Imlo qoidalari tuzishda qaysi jihatni (fonetik – savtiy, morfologik – sarfiy) asos qilib olish masalasida ham jadidlar o'rtasida jiddiy munozaralar bo'ladi. Masalan, Shokirjon Rahimiy milliy imlo uchun asos fonetika, ya'ni eshitilgan yozish asos bo'ladi degan fikrni ilgari suradi, lekin bu prinsip har doim ham to'g'ri emasligi, chunki bir o'rinda bir xil, boshqa o'rinda boshqacha yoziladigan so'zlar mavjudligini aytadi. Agar yolg'iz fonetikaga asoslanilsa, yuqoridagi holat bo'yicha anarxiya yuzaga kelishini, shu sababli imlodagi eshitilgan yozish bilan birga, sarfiy (morfologik) asosga rioya qilish lozim deydi [4].

Shuning uchun ham mazkur qoidalarni tuzishda asosan ikki usul – savtiy (fonetik), sarfiy (etimologik – morfologik) amal qilinishi, tilimizda bir qancha shevalar (lahjalar – I.A) bo'lganligi sababli ta'lim-tarbiya ishlarida yengillik bo'lishi uchun har ikki usuldan foydalanishga qaror qilingani aytiladi.

Singarmonizm qonuniyati barcha turkiy tillar uchun xos bo'lgani uchun o'zbek tilida ham e'tirof etishga, uni imlo qoidalarga kiritishga harakat qilishgan. Shu sababli qoidaning birinchi fali singarmonizmning qo'llanilishiga bag'ishlangan. Ma'lumki, singarmonizmga munosabat masalasida jadidlar o'rtasida turli qarashlar mavjud edi.

Abdurahim Yo'ldosh singarmonizmga munosabatda bo'lganlarni ikki guruhga ajratadi:

Singarmonizmni temir qonuniyat deb atovchilar, tildagi barcha so'zlarni yuz foiz shu qonunga bo'ysundiruvchilar.

O'z so'zlarimizni bu qonunga bo'ysundirib, chet so'zlarni mumkin qadar singarmonizmga moslab, qolganlariga eshitilgan yozuvchilar.

Birinchi guruhi u “100 pirasanchilar”, ikkinchi guruhi “istisnochilar” deb ataydi [5]. Uning o'zi har ikki guruhga ham qo'shilmasligi, har ikki guruh fikrlariga qisman qo'shiladigan, ularni qisman tanqid qiladigan o'rinlari borligini aytadi [5].

Najib Osim Abdurahim Yo'ldoshning bu fikrlariga munosabat bildirib, uning o'zi ham asli istisnochilar toifasidan ekanini aytadi: “Yo'ldashev “mumkin qadar”chilarg'a hujum qiladi. Halbuki, o'zining ham shular qatrig'a kirib qalganini sezmaydi. Yo'ldashev va Yo'ldashevning tarafdorlari “mumkin qadar”chilarning bir guruhini tashkil qilg'ani kabi, ularning o'rtasida shunga o'xshag'an guruhlar az emas”[6].

Shuni ta'kidlash joizki, singarmonizm qonuniga nafaqat o'zbek ziyolilari, balki qarodosh turkiylar orasida ham qarshi chiquvchilar bo'lgan. Otajon Hoshimning fikricha, qarshi chiquvchilar o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar orasida bo'lmasa ham, ozarbayjon o'rtoqlar orasida bor. Albatta, singarmonizm qonuniga qarshi chiqish boshqa, to'g'ri dalillar bilan bu qonunning yo'qligini isbot etish boshqa. Qarshi chiquvchilar fikrini shunday ifodalaydi: “Til barg'ani sari o'zgarandek, singarmonizm ham o'zgaradi va o'zgarandir; bu o'zgarish shunday natijaga olib keladiki, singarmonizm kuchli qanun bo'lmay qaladi va undan keyin unga suyanish yaramaydi”[6]. Otajon Hoshim bunday fikrga qarshi chiqib, alifboni kelgusidagi emas, hozirgi tilimizga asos qilishimiz kerakligini aytadi.

Turli fikrlar, bahs-munozaralardan so'ng chetdan kirgan so'zlarning mazkur qoidaga bo'sundirish masalasida qat'iy qarorga kelinmasdan, ba'zi o'rinlarda istisnolar, ya'ni ko'p so'zlarni bu qonuniyatdan tashqari hisoblash haqida qaror qabul qilinadi. Albatta, istisnolarga yo'l qo'yilishi natijasida imlo qoidasining ishonchiliga rahna soladi. Jadid ma'rifatparvari Ibrohim Tohiriy aytganidek: “qoidalardagi har xil istisnolardan saqlanish kerak, chunki istisno degan narsa qoidani buzadi, bo'shasdiradi, qoidaga o'quchining imoni bitadi” [1].

Ikkinchi munozarali masala lab ohangi masalasi edi. Imlo qoidalari belgilashda ikkinchi munozarali masala lab ohangi masalasi edi. Fitrat, Qayum Ramazonlar qoida tuzishda, bir tomondan, turkiy tillar ta'siriga berilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular ko'proq mumtoz asarlar tilini e'tiborga oldilar. Ular o'zlarining til saboqlarida “tub so'zlarning birinchi bo'g'inida o'tru (ya'ni, o', u) bo'lsa, ikkinchi bo'g'inida ham o'tru berish kerak” degan qoidani ilgari surdilar.

Bizga ma'lumki, lab ohangi yozma manbalarda to'liq bo'lmasa-da, ma'lum darajada saqlangan tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan. Turkiyshunos olim A.Shcherbak lab garmoniyasi, asosan, yopiq bo'g'inli so'zlarda qat'iy saqlanganini, boshqa holatlarda bu qonuniyatning buzilishini aytib o'tadi [8]. Alisher Navoiy asarlari tilida ham lab uyg'unligi to'liq saqlangani aytiladi [9].

H.Ne'matov ham lab uyg'unligiga to'liq amal qilinmaganligini, adiblar vazn talabiga yoki shevalar ta'sirida so'zlarning turlicha yozilganini (qolum – qolym, ozum – ozim, konglum - konglim kabi) aytadi [10].

Singarmonizmning yo'g'on-ingichkalik ko'rinishiga ijobiy munosabatda bo'lgan Elbek lab ohangini “bir talay tartishishg'a sabab bo'laturg'an masalalar qatrig'a” kiritadi. Lab ohangi qirg'iz, usmonli turk shevalarida to'liq saqlangani, lekin o'zbek tili lab ohangidan butunlay uzoqlashganini ta'kidlaydi [1]. U singarmonizmni o'zbek adabiy tilining tub qoidasi deb qabul qilish, imlodagi o'zboshimchaliklarni yo'qotish uchun singarmonizmni 100 foiz amalga oshirish, o'zbek tilidagi barcha so'zlarni mazkur qoidaga bo'ysundirish, lab ohangi faqat birinchi bo'g'indagina bo'lishini qoidaga kiritish kabi takliflarni ilgari suradi [1].

Yuqoridagilarni inobatga olib, Elbek aytganidek, lab ohangi birinchi hijodan nariga o'tmagan kabi fikrlar to'g'ri emas. Chunki birinchi bo'g'indagi lablangan unli ikkinchi va keyingi bo'g'inlardagi unilarni o'ziga moslashtirganini klassik adiblar asarlaridan istagancha misol keltirish mumkin. Yuqoridagi

“ko'nglin, kuyib, o'ttiz” kabi so'zlarda lablangan unli ta'sirida unga moslashishi eski o'zbek tilida qonuniyat bo'lgan. Elbek o'zi yozganidek, yuqoridagi misollarni qo'lyozma manbalardan emas, balki xalq og'zidan ko'chirilgan dostonlardan olgan. Xalq og'zaki ijodida, o'z-o'zidan, shevalar ta'siri kuchli bo'ladi, ular orqali til qonuniyatlari xususida fikr yuritish yanglish xulosalarga olib kelish mumkin. Shuning uchun ham Fitrat, Q.Ramazonlarning lab ohangi masalasida ko'proq mumtoz asarlar tilini e'tiborga olishi va o'zlarining til saboqlarida “tub so'zlarning birinchi bo'g'inida o'tru (ya'ni o',u) bo'lsa, ikkinchi bo'g'inida ham o'tru berish kerak” degan qoidani ilgari surishi ilmiy jihatdan asosli edi, chunki tilshunoslikka oid asarlarning barchasida tilshunos olimlar o'z qarashlari, fikr-mulohazalarini klassik adiblar asarlari misolida asoslashga harakat qilganlar.

Umuman, lab ohangi masalasida iloji boricha muammo tug'dirmaslikka, lab ohangiga bo'ysunuvchi so'zlarni ham yagona qoidaga kiritishga harakat qilingan: “bol, kor, sor kabi o'turli tublarda, lab ahani nuqtasidan bolur, koryr, sorur kabi yazish muvafiq bo'lsa-da, imlada vahid qanun uchun bolar, korar, sorar kabi yaziladirlar. Masalan: korarmen, korarsiz (ingichka) – sorarsan, sorarmyz (qalin)” yoki: “O'turli tublardan so'ng: synlar, lyk, luq eshitilsa-da (oqujsan, oqujluk kabi), bir turli yaziladir. Masalan: korajlik, korsinlar (ingichka) – sorajlyq, sorasynlar (qalin)” [1].

Qoidalarda tovush o'zgarishlariga qisqa bo'lsa ham, munosabat bildirilgan:

“Sag'ir tavushlardan so'ng oqac, gac kabi eshitilsa-da, qac, kac kabi yaziladir. Masalan: qatqac, ketkac” [1]. Lekin bu qoida “Agar fe'lining tubi (koren)da so'ngg'i tavush sag'ir samt (глуб., согл.) bo'lsa, bu qo'shimchalar tim-tym, tiq-tyq, ti-ty ishlatiladirlar. Amma imlada yagona (vahid) qanun yaratmaq uchun sarfiy usulda hamma yerda dim, dym, diq, dyq, di, dy yaziladir” degan qoidaga zid hisoblanadi. Aslida qatqac, ketkac so'zlari qo'shimchalaridagi jarangsiz undoshlar jarangli yozilishi kerak edi, shunda yagona qoidaga amal qilingan bo'lar edi.

Quyidagi qoida esa yuqoridagi qoidaga zid tarzda berilgan:

“Sag'ir samtlardan so'ng qan, ken kabi eshitilsa-da, oqan, gon yaziladir. Masalan: qatoqan, kelgan [1, 63]. Bizningcha, kelgan so'zidagi l jarangli undoshi o'rnida t jarangsiz undoshi bo'lishi kerak edi, shunda qoida to'g'ri bo'lar edi, chunki qoidada “sag'ir samtlardan so'ng”, ya'ni jarangsiz undoshlardan so'ng deyilyapti. Jarangli undoshdan so'ng qo'shimchaning jarangli bo'lishi tabiiy hol. Misollar qog'ozga tushirilayotganda xatolik bo'lgan bo'lishi mumkin, nazarimizda.

Quyidagi qoida esa yuqoridagilarga nisbatan istisno sifatida beriladi: “Iki oq-g tavushi arqama-arqa kelsa, ikavi ham q-k ga aylanadi: Tyg – tykkan, Tuq – tuqqan” [1]. Mazkur qoida 1956-yilda tasdiqlangan kirill alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi imlo qoidalarining 34-faslda beriladi:) g' yoki g bilan tugagan so'zlarga g bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilganda, so'z

oxiri va qo'shimcha boshidagi undoshlar, aytilishiga mos holda yoziladi: bog'-boqqa, tog'-toqqa, barg-barkka, teg-tekkkan kabi [11]. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, 1956-yilda tasdiqlangan imlo qoidalarini tuzishda jadidlar tomonidan tuzilgan imlodan ham foydalanilgan.

1995-yilda tasdiqlangan imlo qoidalarida esa bu qoida fonetik usulda emas, balki morfologik usul asosida qoidalashtirilgan: “v) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarning bosh tovushi k yoki q aytilishidan qat'i nazar, g yoziladi: bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha kabi” [12]. Amaldagi imlo qoidalarining mazkur bandi bo'yicha ba'zi e'tirozlar, tushunmovchiklar mavjud. Masalan, chiqquncha bilan sig'guncha o'rtasida qanday farq bor? Bog'ga, tog'ga tarzidagi talaffuz sun'iylikni keltirib chiqarmaydimi? Fikrimizcha, jadidlar tuzgan hamda 1956-yildagi imlo qoidalaridagi shu qoida to'g'ri bo'lgan.

O'zak va qo'shimchaga ajralmaydigan holga kelgan so'zlar haqida ham alohida qoida keltiriladi: “fe'llardan yasalg'an bo'lub-da, bugun tahajjur etkan (остывший) shakllar eshitilganча yaziladir. Masalan: koryk, qoruq, turqun. Bu so'zlardagi -yk, -uq, -oqun qo'shmachalari bugun o'luk bo'lg'an sababdan ahangga tabe qilinib, eshitilganча yazilib, sarfiy usulga uymaydir, shuningdek, Tyrsyn kabi ismlar ham qo'shmachalari syn bugun hayotda bo'lsa-da, o'zlari ism bo'lub tahajjur etkan uchun eshitilganча yaziladir” [1].

“Umumiy qoidalarda” qismida “j” (hamza) belgisiga to'xtalinib, lotin alifbosida uning chiqarilishi aytiladi. Mazkur imlo qoidalaridagi eng muhim band sifatida ushbu qoidani keltirish lozim: “Har bir eshitilgan samtlar yaziladir. Ilgarigi bo'lg'an “yapiq hijada (ع) yazilmaydir” kabi qoidalarda yo'qatiladir” [1]. Bu turkiy tillar, jumladan o'zbek tili uchun eng muhim qoida.

Ma'lumki, arab va fors tillarida uzun va qisqa unililar alohida farqlanadi, uzun unililar yozuvda ifodalangani holda, qisqa unililar yozilmaydi. Uzoq yillar arab yozuvi bizning asosiy yozuvimiz sifatida ishlatilib kelinib, u tilidagi qoidalarda ham kirib qolgan edi. Shu tariqa arab yozuvidagi o'zbek yozuvlarida qisqa unililarning ifodalanmasligi oddiy holga aylangan. Jadidlar mazkur qoida bilan o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatini, o'zbek tilida nechta tovush eshitilsa, barchasi yozuvda aks etishini qoidalashtirilgan.

Xulosa. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, “Yangi ozbek alifbasida imla qoidalari” loyihasi jiddiy kamchiliklardan holi emas, lekin uni dastlabki tajriba sifatida e'tirof etish mumkin. “Buzuq, qoidasiz” (Fitrat) bo'lgan tilni ma'lum qoidalarga solish, bu yo'lda ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lish, boshqa tillar tajribalari bilan yaqindan tanishgan bo'lish lozim edi. Lekin jadidlar bu harakat bilan to'xtab qolmadilar. Oldinda esa yanada takomillashgan imlo qoidalarini tuzish vazifasi turar edi.

ADABIYOTLAR

1. Жамолхонов Х., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. Мажмуа. I китоб. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2017.
2. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожиди Элбекнинг роли: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2002.
3. Elbek. Imla masalalari // Ishtirakiyun, 1920-yil, 18-sentabr.
4. Shakir Rahim. Imla masalasida bir-ikki so'z. // Qizil O'zbekistan, 1929-yil, 12-may (arab yozuvida)
5. Y.Yo'ldash. Til, atama va imla bahslari. Imla va yuzuvni saddalashtirish tevaragida // Qizil O'zbekistan, 1929-yil 6-fevral (arab yozuvida).
6. Najib Asim. Yuz pro'sent singarmo'nizim, 9 cho'zg'i va o'zaklarda lab ahanini saqlash uchun // Sharq haqiqati, 1929-yil. – 28-san.
7. Atajan. Baku plenumi natijalari // Maorif va o'qitg'uchi. – Tashkent, 1927. – № 7-8.
8. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – Москва – Ленинград, 1962.
9. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984.
10. Незматов Х. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
11. <https://azkurs.org/1-kirilcha-ozbek-yozuvining-imlo-qoidalari-lotinch-ozbek-yozu.html>
12. <https://lex.uz/docs/-1625271>



UDK:101.2

Ozoda ANVARDINOVA,
O'zbekiston jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail:ll1218970@gmail.com

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

HISTORY, DIFFERENCES AND REQUIREMENTS OF ANALYTICAL GENRES IN JOURNALISM

Annotation

This article examines the emergence of early mass communications and the oldest information about journalism. It describes the formation of analytical genres in journalism and their first appearances. The views and opinions of various scholars on this issue are studied. It provides information about how Russian journalism from the very first steps actively participated in the life of society and presented important social events to the reader through print media. It reveals on the basis of facts that the first appearances of analytical articles in the Uzbek press date back to the Jadid period, and examples of articles written by Jadids in this genre are analyzed. It also provides information about analytical genres such as correspondence, interviews, articles, and commentary, and provides an understanding of the requirements for them. In addition, the article discusses the research of the most famous scholars in this field.

Key words: History of journalism, genre, analysis, analytical genres, correspondence, interview, review, modern, mass media, press.

ИСТОРИЯ, РАЗЛИЧИЯ АНАЛИТИЧЕСКИХ ЖАНРОВ В ЖУРНАЛИСТИКЕ И ТРЕБОВАНИЯ К НИМ

Аннотация

В этой статье рассматриваются древнейшие сведения о возникновении первых массовых коммуникаций и журналистике. Он описывает создание аналитических жанров в журналистике и их первые проявления. Изучаются мнения и суждения различных ученых по этому поводу. Русская журналистика с первых шагов принимала активное участие в жизни общества, представляя важные социальные события читателю через печатные средства массовой информации. Первые появления аналитических статей в узбекской прессе восходят к эпохе джадидов, раскрываются на основе фактов и анализируются примерами статей, написанных джадидами в этом жанре. Также дается информация о корреспонденции, беседах, статьях, комментариях, которые считаются аналитическими жанрами, и дается понимание требований, предъявляемых к ним. Кроме того, в статье обсуждаются исследования самых известных ученых в этой области.

Ключевые слова: История журналистики, жанр, анализ, аналитические жанры, корреспонденция, интервью, комментарий, джадида, средства массовой информации, печать.

JURNALISTIKADA TAHLILY JANRLARNING TARIXI, FARQLARI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Annotation

Ushbu maqolada dastlabki ommaviy kommunikatsiyalarning paydo bo'lishi va jurnalistika haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar ko'rib chiqiladi. Jurnalistikada tahliliy janrlarning yaralishi va ularning ilk ko'rinishlarini bayon etadi. Turli olimlarning bu boradagi fikr va mulohazalari o'rganiladi. Rus jurnalistikasi ilk qadamlardan oq jamiyat hayotida faol ishtirok etib, muhim ijtimoiy hodisalarni bosma ommaviy axborot vositalari orqali o'quvchiga taqdim qilgani haqida ma'lumot beradi. O'zbek matbuotida tahliliy maqolalarning ilk ko'rinishlari jadidlar davriga borib taqalishi faktlar asosida ochib beriladi va jadidlar tomonidan ushbu janrda yozilgan maqolalarga misollar keltirilib tahlil qilinadi. Shuningdek, tahliliy janrlar hisoblangan, korrespondensiya, suhbat, maqola, sharh kabilar haqida ma'lumot berilib, ularga qo'yiladigan talablar haqida tushuncha beriladi. Bundan tashqari, maqolada eng mashhur olimlarning ushbu sohada tadqiqotlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Jurnalistika tarixi, janr, tahlil, tahliliy janrlar, korrespondensiya, suhbat, sharh, jadid, ommaviy axborot vositalari, matbuot.

Kirish. Jurnalistika – ommaviy aloqa kanallari (matbuot, radio, televidenie, kino va boshqalar) orqali tegishli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va davriy ravishda tarqatish bo'yicha ommaviy faoliyat turi, ommaviy tashviqot va tashviqot shakllaridan biridir. Jurnalistlar tomonidan tarqatilayotgan ma'lumotlar auditoriya uchun ijtimoiy yo'naltirilgan mazmunga ega bo'lishi, jamoatchilik fikri va dunyoqarashini shakllantirishi, zamonaviy voqelikning barcha xilma-xilligidagi voqealarni o'zida aks ettira olishi kerak.

Dastlabki ommaviy kommunikatsiyalar tarixi – bu ibtidoiy odamlar axborotga bo'lgan ehtiyoj va zaruratni qondirish uchun qilingan harakatlar tarixidir. Jurnalistikaning ilk ko'rinishlari qadimga borib taqaladi. Buning bir qancha sabablari mavjud: odamlarni yon-atrofdan bo'layotgan yangiliklardan xabardor qilish, axborot vositalari inson ongi va fikriga o'zining ta'sirini o'tkazish zarurati bo'lib bu vazifani esa jarchilar va notiqlar bajargan. Olimlar jarchilik, va'zxonlik, notiqlik, xabarchilik kabi ommani qamrab oluvchi tadbirlarni eng qadimgi kommunikatsiyaning dastlabki shakllari, axborot tarqatishning ibtidoiy usullari sifatida keltirib o'tishadi[1]. Yozma ma'lumotlar

esa, masalan, qadimgi Misrda papyruslarga bitilib, tarqatilgan. Qadimgi Rimda shakllanishida alifbodan oldingi protoyozuvlarning ahamiyati ham muhim bo'lgan. Mixxat va ierogliflarni qamrab olgan protoyozuvlar so'zdan keyingi ikkinchi axborot inqilobi hisoblanadi.

Jurnalistika haqida eng qadimgi ma'lumot miloddan avvalgi 59 yilda Rimdan kelgan. Usha davrda yangiliklar "Acta Diurna" deb nomlangan sirkulyarda yozilgan. U kunlik nashrdan zavqlanib hamma o'qishi yoki o'qishga qodir bo'lganlar uchun shahar bo'ylab strategik tarzda osib qo'yilgan.

Tang sulolasi davri milodiy 618 yildan milodiy 907 yilgacha bo'lgan davrda Xitoy sud hisoboti tayyorlanadi va tegishli voqealardan xabardor bo'lish uchun hukumat amaldorlariga tarqatiladi. Bunga "bao" deb nom beriladi. Keyinchalik u 1911 yil oxirigacha va King sulolasining halokatigacha turli shakl va nomlarda davom etdi. Biroq muntazam yangiliklar nashrining birinchisi 1609 yilda Germaniyada ingliz tilida nashr etilgan. Dastlabki qog'oz ("eski ingliz" bo'lsa ham) 1622 yildan boshlab chiqarilgan "Weekly News" deb nomlanuvchi gazeta edi.

Rus jurnalistikasi ilk qadamlardan oq jamiyat hayotida faol ishtirok etdi. Muhim ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish bunday ishtirok etish shakllaridan biri edi. Matbuot rus hayotining deyarli barcha muhim jihatlarini tahlil qilib baholagan. Pyotrning "Vedmosti" nashrlarida o'sha davrga tegishli voqealarni tahliliy ko'rib chiqishning boshlanishi aniqlangan (birinchi navbatda harbiy mavzudagi materiallarda).

Joriy ijtimoiy muammolarni, shu jumladan jurnalistika muammolarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan yuqori tahliliy xarakterdagi nashrlar imperator Ketrin II tomonidan nashr etilgan "Vsyakaya vsyachina" "Har narsa bilan hamma narsa" jurnali sahifalarida paydo bo'ldi. Bular N.I.Novikov va Ketrin II ning poleimie matnlari edi. "O'quvchilar mehrini qozonish uchun ham faktik materiallarga, ham ehtiyotkorlikka ega bo'lish, tahlil qilish va bahslashish san'atini egallash kerak, omma bizning kelajakdagi xatlarimizdan qaysi birimiz hav ekanimizni ko'radi"- degan N.I.Novikov.

XX asr boshlariga kelib analitik yo'nalish rus so'ngra sovet jurnalistikasida rivojlanib borar ekan, bu yo'nalishga mos janrlar tizimi asta-sekin vujudga keldi. Bu tizimning asosini quyidagi janrlar tashkil etgan: yozishmalar, maktablar, maqolalar (umumiy siyosiy, iqtisodiy, adabiy-tanqidiy, bibliografik, tahririy), suhbat, risola, taqriz, sud hisoboti, insho. Xat yozish rus matbuoti sahifalarida voqealarni tahlil qilish uchun ishlatilgan birinchi janr edi[2]. Dastlab, u Pyotrning "Vedmosti" gazetasida paydo bo'lgan janr sifatida e'lon qilingan. XIX asr oxirida yozishmalar jurnal sahifalariga ko'chib o'tdi. Ushbu janrdagi nashrlarda poytaxt, viloyat va xorijda sodir bo'lgan turli voqealar batafsil yoritilgan. Ularning mualliflari taniqli yozuvchilar, jamoat arboblari, olimlar, N.M. Gagarin-Mixaylovskiy, N.I Kareev, I.S.Turgenev, P.D.Boborikin va boshqalar.

XIX asrning o'rtalarida matbuot sahifalarida e'lon qilingan yana bir tahliliy janr sud hisoboti edi. Bunday hisobotlar asosan sud jarayonlariga yoki tugallangan sud ishlariga bag'ishlangan. V.D.Spasovich, A.F.Koni kabi taniqli huquq mualliflari tomonidan gazeta va jurnallar uchun tayyorlangan tahliliy hisobotlardir.

Shu davrda ko'plab nashrlar tahliliy ocherklarni nashr eta boshlaydi. Ularning mavzulari rus hayotining ko'plab hodisalarini o'z ichiga oladi. Ushbu janrdagi materialni taqdim etishning erkin shakli mualliflarga eng kutilmagan assotsiatsiyalardan foydalanishga va o'rganilayotgan hodisalarning muhim chuqurligiga kirishga imkon berdi.

O'zbek matbuoti tarixi jadidchilik harakati va jadid ziyolilari nomi bilan tabiiy ravishda bog'lanadi. Jadidchilik XX asr boshlarida Turkiston jamiyatini modernizatsiya qilish, uni tarbiyalash va huquqiy demokratik davlat qurishga intilgan oqimdir.

Maqola tushunchasi lotincha so'zdan kelib chiqqan va dastlab "qo'shma", "a'zo", "butunning bir qismi" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ham xabarlardan tashqari barcha janrlarni maqola dnb tushuniladi. Ammo maqola janrida ma'lum bir vaziyat, jarayon, hodisa tahlil qilinib, uning iqtisodiy yoki boshqa ahamiyatini aniqlash, uni qo'llab-quvvatlash yoki bartaraf etish uchun jurnalist o'z pozitsiyasini bildiradi. Qisqacha Maqola bajaradigan funksiyalar: O'quvchilarga dolzarb jarayonlar, vaziyatlar, hodisalarning ham ijtimoiy ham shaxsiy ahamiyatini, ularning sabab-oqibatlarini tushuntiradi. Shu bilan birga, o'quvchi e'tiborini bayon etilayotgan vaziyatdan keyin kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarga qaratadi va strategik yoki taktik manfaatlar borligini ko'rsatadi. Muvaffaqiyatli maqola dolzarb vaziyat haqida real tasavvur uyg'otadi. Amaliy choralar ko'rish oldidan g'ochlar, impulslar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri yozilgan maqola har doim muayyan xarakterdagi predmetni tasvirlash bilan bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtda matbuotda maqola janri namoyon bo'lishining nisbatan barqaror shakllari mavjud. Ularning asosiylari quydagilar[11]:

Umumiy tadqiqot maqolasi. Ushbu guruhga umumiy ahamiyatga ega, keng ko'lamli masalalar tag'il qilingan nashrlar kiradi. Masalan, bunday maqola muallifi mamlakatning siyosiy yoki iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari haqida so'z yuritishi yoki bugungi kunda umuman jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar

yoki mamlakatning xorijiy davlatlar bilan o'zaro munosabatlari haqida fikr yuritishi mumkin. Bunday nashrlar yuqori darajada umumlashtirish, mualliflar taqakkurining globaligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotning maqsadi zamonaviy jamiyat taraqqiyotning turli qonuniyatlarini, tendensiyalarini, istiqbollarni o'rganishdan iborat.

Amaliy-tahliliy maqola. Sanoat, qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik, madaniyat, fan, ta'lim, biznes, moliya va boshqa sohalarining dolzarb amaliy muammolarga qaratilgan. Ushbu maqolalarda faoliyatning u yoki bu sohasida, ishlab chiqarish tarmog'ida va boshqa sohalarida hal etiladigan amaliy vazifalar bilan bog'liq aniq muammolar, voqealar, harakatlar, vaziyatlar tahlil qilinadi. Amaliy-tahliliy maqola muallifi ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida, bir qator korxonalarda, ijtimoiy soha va hokazolarda yuzaga kelgan vaziyatning sabablarini aniqlash, bu vaziyatlarga baho berish, ularning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, amaliy vazifalarini hal etish yo'lida turgan muammolarni aniqlash, imkon boricha bu vazifalarni samarali hal etish yo'llarini aniqlash, jamoatchilik muhokamasiga qandaydir amaliy takliflar kiritishni o'z oldiga maqsad chilib qo'yadi.

Bahsli maqola. Bunday maqolalar, odatda, jamiyatda qandaydir muhim muammolar bo'yicha bahs-munozaralar yuzaga kelganda e'lon qilinadi. Bahsli maqolaning maqsadi ikki hil bo'ladi. Birinchisi, masalaning kelib chiqish sabablari, ahamiyati, uni hal etishning yo'llarini ko'rsatish va o'z pozitsiyasini asoslash, muammoga o'z nuqtai nazarini bildirishdir. Ikkinchisida esa u o'z muxolifining pozitsiyasini rad etishga harakat qiladi. Tabiiyki, bunda keltirilgan faktlar, misollar mazmunida ham, maqolaning mantiqiy tuzilishida ham o'z aksini topadi. Foydalanilgan faktlar va misollarning hammasi muallifning pozitsiyasini tasdiqlashi lozim.

Korrespondensiya fakt yoki voqealar haqidagi xabarlar bilan bir qatorda vaziyatni tahlil qilishni o'z ichiga olgan janrdir. Uning asosiy maqsadi hodisani talqin qilish, sabablarini aniqlash, uning ahamiyati va qiymatini aniqlash, rivojlanishini bashorat qilishdir. Shuning uchun ham u tahliliy janrlar qatoriga kiradi. Uning ikki turi mavjud:

Axboriy korrespondensiya – sodir bo'layotgan jarayonlar haqida batafsil hikoya qiladi. Faktlarni guruhlashga, ularni umumiy mavzuga birlashtirishga harakat qiladi. Asosiy vazifasi voqeaga e'tiborini qaratish va uning rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatishdir. Albatta, axboriy korrespondensiyada ham sodir bo'layotgan voqeaning tahlili mavjud lekin tahliliy korrespondensiyaga qaraganda ancha kamroq.

Tahliliy korrespondensiya – berilgan mavzudan kelib chiqib vaziyatni tahlil qiladi, voqeaning sabab-oqibati va bog'liqlik tomonlarini aniqlaydi. Jurnalist haqiqiy tadqiqotchi sifatida jamiyatda kechayotgan jarayonlarni hayotning alohida olingan qismlari misolida o'rganadi.

Ammo har ikkala turda ham umumiylik mavjud – chuqur mazmun, materialning yorqin berilishi, aniq xulosalar. Har ikkala turda ham vaziyat va jarayonlar, axborot hodisalarini aks ettirish predmeti hisoblanadi. Korrespondensiyaning markaziy mavzusi bitta muhim fakt bo'lib, qolgan barcha tafsilotlar, misollar, mulohazalar uni har tomonlama yoritish uchun yordamchi bo'lib xizmat qiladi.

Korrespondensiyada jurnalist faktlarning hammasidan foydalanmaydi, mavzuning aniq konsepsiyasini ishlab chiqishda yordam beroladiganlarini tanlaydi. Vaziyatni to'g'ri tahlil qilish uchun bir nechta bosqichlarni amalga oshiradi:

Sharh janr sifatida muallif jurnalistikasiga tegishlidir. Hozirgi vaqtda jurnalistikaning asosiy janrlar kompleksida sharh muhim o'rin tutadi[12]. Janr sifatida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda asosiy jurnalistik shakllar to'plamida sharh muhim o'rin tutadi. Uning yordamida muallif dolzarb voqealarga munosabat bildiradi, ular bilan bog'liq vazifalar va muammolar, kamchiliklar yoki yutuqlarning qisqacha tahlili shaklida shakllantiradi, shuningdek, ularning bahosini, rivojlanish prognozini va hokozolarini ifodalaydi.

Sharh axborot janrlaridan aynan tahlilning mavjudligi va o'quvchiga allaqachon ma'lum bo'lgan biror hodisa tahlil qilinishi bilan farq qiladi. Bu janrda birinchidan, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni kuzatish, ikkinchidan, bu voqea-hodisalar mohiyatini o'ylab ko'rish, tahlil qilish va olingan natijalarni umumlashtirishdir. Odatda, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va boshqa masalalar ko'rib chiqiladi. Biror vaqt davomida mavjud bo'lgan biror narsa ko'zdan kechiriladi. Shunga ko'ra, sharhlar ham kunlik, haftalik, oylik, yillik bo'ladi. Albatta, vaqt qamrovi qanchalik katta bo'lsa, ko'rib chiqilayotgan voqea yoki jarayonlar shunchalik jiddiy, global bo'ladi. Zamonaviy sharhning maqsadlari[13]:

Auditoriya e'tiborini ijtimoiy hayotning birinchi planga chiqarayotgan muhim yangi faktlarga qaratish, ularni baholash;

Sharhlanayotgan hodisani boshqalar bilan bog'lash, bu hodisaning sabablarini aniqlash;

Sharhlanayotgan hodisaning rivojlanish shakllantirish;

Qoida tariqasida, xulq-atvorning yoki masalalar echimining zarur usullarini misollar yordamida asoslash.

Xulosa. Tahliliy jurnalistikaning predmeti dolzarb ijtimoiy hodisalar, voqealar, jarayonlar, vaziyatlar va ular bilan bog'liq ijtimoiy taraqqiyotning nazariy va amaliy muammolari hisoblanadi. Bularning barchasini tushunib etish uchun jurnalist voqealarning sodir bo'lish sabablari va sharoitlarini aniqlashi, u yoki bu vaziyatda harakat qiluvchilarning yashirin motivlari va niyatlarini aniqlashi, vaziyatni rivojlantirish vositalari va yo'llarini to'g'ri tanlashi, nuqtai nazar va g'oyalarning asosligini baholashi kerak. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday materiallar katta hajmga ega: ikki abza'da sodir bo'layotgan voqealarning mohiyatini ochib berish mumkin emas. Zero, axborot jurnalistikasida fakt muhim bo'lsa, tahliliy jurnalistikada faktlardan kelib chiqadigan fikr va shu fikrdan kelib chiqadigan muallifning his-tuyg'ulari muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Мўминов Ф., Нурматов А., Солиева М., ва бошқ. Жахон журналистикаси тарихи. - Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2006. -Б-27
2. Есин Б. И. История русской журналистики (1703—1917 гг.) М., 2000.
3. <http://www.dslib.net/zhurnalistika/rol-zhurnala-ojina-v-stanovlenii-tadzhikskoj-zhurnalnoj-periodiki.html>
4. Қодирий А. Танланган асарлар.-Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси. 2014. -Б-628
5. <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulla-qodiriy-yigindi-gaplar-1925/>
[https://uz.wikipedia.org/wiki/Janr#:~:text=Janr%20\(fransuzcha%3A%20genre%2C%20lotincha,bo%CA%BBlgan%20san%CA%BCat%20asarinig%20alohida%20turi.](https://uz.wikipedia.org/wiki/Janr#:~:text=Janr%20(fransuzcha%3A%20genre%2C%20lotincha,bo%CA%BBlgan%20san%CA%BCat%20asarinig%20alohida%20turi.)
6. Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 9, 2005, вып. 1
7. <https://its-journalist.ru/articles/zhurnalistskie-zhanry-klassifikaciya-i-tipologiya-glazami-vedushhix-specialistov.html>
8. Тертычный А.А Аналитическая журналистика: учеб. Пособие. М. : Аспект Пресс, 2010.С.28
9. <https://cbs-irkutsk.ru/wp-content/uploads/2023/07/analiticheskie-zhanry-zhurnalistiki.pdf>
10. Кройчик Л.Е. Система журналистских жанров // Основы творческой деятельности журналиста: учебник для студентов вузов по спец. «Журналистика». – СПб.: 2000.
11. Тертычный А.А. Жанры периодической печати. – М.: Аспект Пресс, 2017. – С. 121.
12. https://kgujournalist.ucoz.ru/publ/zhanry_zhurnalistiki/kommentarij_kak_analiticheskij_zhanr_kak_pisat_kommentarij/6-1-0-93



UDK:801.8.12

Feruz ATAMURODOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Xorijiy tillar kafedrasida dotsenti

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti S.Yuldasheva taqrizi asosida

JOYS KERINING ROMANI: TARIX VA SHAXSIYATNING MURAKKAB O'ZARO BOG'LIQLIGI

Аннотация

Mazkur maqolada Joys Keri ijodining asosiy qirralari, xususan, "Sayohatdagi ziyoratchi yo'lida" romanining asosiy mavzulari, vaqt va shaxsiyat tushunchalariga bo'lgan munosabati ko'rib chiqiladi. Joys Keri romanlari, qahramonlarining xarakteri orqali tarixiy davrlarning o'ziga xos izlarini aks ettiradi. Asarda tarix va odam o'rtasidagi murakkab munosabatlar, Keri realizmining o'ziga xos jihatlari, epik va lirik elementlarning uyg'unligi, tarixiy hodisalar va shaxsiy izlanishlarning koinotik ifodalari tahlil qilinadi. Romanlarda vaqt, taqdir va tarixiy voqealarning shaxsiyatni shakllantirishga qanday ta'sir etishi muhim rol o'ynaydi. Biroq, Keri odam tabiatining tarixiy o'zgarishlarga nisbatan barqarorligini ta'kidlaydi va uni boshqa omillar fonida ko'rib chiqadi. Bu jihatlarda asar epikligini kuchaytiradi va o'quvchini insoniy qadriyatlarining tarix bilan o'zaro bog'liqligi haqidagi falsafiy o'ylariga undaydi.

Kalit so'zlar: Joys Keri, "Sayohatdagi ziyoratchi yo'lida", ingliz adabiyoti, tarix va shaxsiyat, realizm, epik va lirik uslub, vaqt tushunchasi, tarixiyning ta'siri.

РОМАН ДЖОЙС КЭРИ: ИСТОРИЯ И ЛИЧНОСТЬ КОМПЛЕКСНАЯ ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные аспекты романа Джойс Кэри, в частности, основные темы романа «На пути паломника», его отношение к понятиям времени и личности. Романы Джойс Кэри отражают уникальные следы исторических времен через характеры ее персонажей. В работе анализируются сложные взаимоотношения истории и человека, уникальные аспекты реализма Кэри, гармония эпических и лирических элементов, монототическое выражение исторических событий и личные исследования. В романах важную роль играет то, как время, судьба и исторические события влияют на формирование личности. Однако Кэри подчеркивает устойчивость человеческой природы по отношению к историческим изменениям и рассматривает ее на фоне других факторов. Эти аспекты усиливают эпичность произведения и побуждают читателя к философским размышлениям о взаимосвязи общечеловеческих ценностей с историей.

Ключевые слова: Джойс Кэри, «В путешествии паломника», английская литература, история и личность, реализм, эпический и лирический стиль, концепция времени, влияние исторического.

JOYCE CAREY'S NOVEL: THE COMPLEX INTERCONNECTION OF HISTORY AND PERSONALITY

Annotation

This article examines the main aspects of Joyce Carey's work, in particular, the main themes of the novel "On the Pilgrim's Progress", her attitude to the concepts of time and personality. Joyce Carey's novels reflect the unique traces of historical periods through the characters of her heroes. The work analyzes the complex relationship between history and man, the specific aspects of Carey's realism, the combination of epic and lyrical elements, the koinotic expressions of historical events and personal searches. The novels focus on how time, fate, and historical events influence the formation of personality. However, Carey emphasizes the stability of human nature in relation to historical changes and considers it against the background of other factors. These aspects enhance the epic nature of the work and encourage the reader to philosophical thoughts about the relationship of human values with history.

Key words: Joyce Carey, "On the Pilgrim's Progress", English literature, history and personality, realism, epic and lyrical style, concept of time, influence of the historical.

Kirish. Keri romanlari – bu muayyan tarzda tarixiy davr bardavomligi bilan bog'langan xarakterlar romanlari. Garchi yozuvchi tarixga o'ta kuchli e'tibor qaratmagan bo'lsa-da, biroq hech qachon tarixni ko'zdan qochirmaydi. Uning asarlaridagi epik vaqt pirovard natijada tarixiy vaqt andazasini yaratadi. Trilogiyaning uchta bosh personaji ortida XX asr birinchi yarmidagi Angliya hayoti turadi. O'zining romanlarida Keri tarixiy voqealarni tasvirlamaydi, balki taqdirini jamiyat tarixi bilan bog'langan qahramonlarining hayot tarixini aks ettiradi. Tarixiy voqealar romanlarga, mazkur kitobning yetakchi personaji tarixiy voqealarga qanchalik aloqador bo'lsa, shu darajada kiritilgan. "Sayyoh ziyoratchi yo'lidan" kitobida tarix xiyala sezilarli darajada, Sara Mandi va Galli Jimson haqidagi kitoblarda tarixiy voqealarning eshitilgan-eshitilmas aks sadosi keladi.

Joys Keri romanlarida vaqt bilan bog'liq katta davr qamrab olinganiga qaramay, insonning bu vaqt mobaynida ijtimoiy hayotida o'zgarishlar ro'y berganiga qaramay, ularning xarakterlari deyarli o'zgarmaydi. Keri tarix o'zgarishiga, biroq inson ruhiy olami o'sha-o'sha, har doimgidek o'zgarib qolishiga ishonadi. Inson tabiati, aslida ijtimoiy munosabatlar, fan va jamiyatga qaraganda juda sekin o'zgaradi. Biroq Keri inson

tabiatida sekin kechadigan biologik o'zgarishlar omilini uning xarakteriga, uning ijtimoiy mohiyatiga ko'chiradi, bunda u insonning ijtimoiy shaxs sifatida jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib borishini nazardan qochiradi. Keri romanlari epik mohiyatidagi muhim cheklanganlik va kuchsizlik inson xarakteri bilan tarix o'rtasidagi mustahkam bog'liqlikning yo'qligi bilan izohlanadi. Albatta, ijodkor inson taqdiri tarixiy o'zgarishlarga bog'liq ekanini tushunadi va romanlarining epik asoslari ham aynan shunda. Biroq inson xarakteri, Kerining qarashicha, qanchalik o'zgarib, deyarli hamisha bir zaylda ekan, zamonaviy adabiyotning muhim problemsidan shunchalik chetlab o'tiladi, ya'ni insonning tarixiy shart-sharoitga ta'siri, uning tarixiy jarayondagi faol ishtiroki unitiladi. Joys Keri realizmining kuchsiz jihati ham mana shunda.

"Sayyoh ziyoratchi yo'lidan" romanining ilk so'zlari uni oldingi kitob bilan bog'laydi: ya'ni Sara Mandi qamoqxona qamaligani, Tomas Uilcherni esa qarindoshlari Talbrukka olib ketishgani, u yerda unga aqldan ozgan sifatida qarab turishgani haqida xabar beriladi. Uilcher shu vaqtdan boshlab kundalik yoza boshlaydi. Agar "O'zim o'zimdan ajablanaman" kitobida hikoya qilish tarzi "memuar", ya'ni xotira, yodnoma tarzida bo'lsa,

“Sayoh ziyoratchi yo‘lidan” kitobida hikoya maromi kundalikdagi yozuvlar uslubiga yaqin.

Kundalikdagi birinchi shaxs tilidan hikoya qilish shakli memuar asardagi “men”ga aynan o‘xshash emas. Kundalikda voqealarni qayd etish va ularni amalda bajarilgan vaqtlari orasida masofa yo‘q. Kundalikdagi yozuvlar vaqti bo‘yicha qayd etilgan voqealarga qariyb mos keladi. To‘g‘ri, bu yerda ham faktlar saralanadi, biroq memuar asardagi kabi oqilona, aql-idrokka asoslangan tarzda emas. Kundalikda ayni daqiqada, “men” kelajakda bu yozuvlaridan nima hosil bo‘lishini bilmaydigan bir paytda, asosan bevosita yodga kelgan taassurotlar qayd etiladi.

Hikoya qilish shakli hikoya qiluvchining xarakteriga ham bog‘liq bo‘ladi. Sara Mandidan farqli o‘laroq, Tomas Uilcher o‘z taassurotlarini, o‘zining yozuvlarini kimningdir muhokamasiga olib chiqolmaydi; u yozayotgan kundalik o‘quvchiga mo‘ljallanmagan, u o‘zi uchun yozadi.

Biroq Joys Keri kundalikdagi yozuvlarni so‘zma-so‘z, sinchkovlik bilan xuddi o‘zidagiday taqdim etmaydi. Tomas Uilcher kundalik yozib borayotganini aytadi, hikoya qilish tarzi esa, ko‘proq Uilcher kundalikda qayd etishi kerak bo‘lgan voqealarga uning munosabati va fikrlash tarzi tasvirini o‘zida namoyon etadi. Romanda Uilcher ayni damda, hoziroq yozishni boshlaydigan materialni mulohaza qilish jarayoni qayd etilgan. Ayni damdagi hodisalarni mulohaza qilish jarayonida u o‘tmishni ham xotirlaydi. Romandagi hikoya tarzi o‘zida ayni paytdagi va o‘tmishdagi faktlar assotsiativ ulanib bog‘lanishini gavdalantradi. Biroq bu to‘la-to‘kis ma‘nodagi ong oqimi emas, negaki hikoya qiluvchining fikrlari davomida muayyan tartib, aniq bir maqsadga qaratilganlik bor. Shu tariqa, “Sayyoh ziyoratchi yo‘lidan” romanida hikoya qilish tarzi shunchaki o‘ylangan kundalik shaklidagina emas, balki assotsiativ xotiralar shaklida ham keladi. Hikoya qilishning bunday maromi qahramon xarakteri bilan juda mustahkam bog‘langan va “oilaviy solnoma”ga originallik bag‘ishlaydi.

Uilcherlarning “oilaviy solnoma”si xronologik izchillikda berilmagan. Hikoyalash davomida doim ikki plan - o‘tmish va hozir kesishadi. Romanda avlodlar almashinuvi emas, balki ularning birgalikdagi harakatlari, xuddi bir paytning o‘zida turli avlodlar haqida gapirilgandek, tasvirlanadi. Tomas Uilcher hayoti va uning jiyani Enn taqdiri yonma-yon ko‘rsatiladi. Ikkinchi jahon urushi arafasida Uilcher birinchi jahon urushi arafasini xotirlaydi. Roman butunischacha XX asrning 30-yillari ostonasida Tolbrukda nimalar ro‘y bergani va o‘sha joyda XIX asrda nimalar ro‘y bergani haqidagi yonma-yon tasvirlarga quriladi. Ellik yillik yoki ellik yil oldingi voqea-hodisalar hozirgi davr hayoti sahnida yig‘ib montaj qilinadi.

Uilcherlarning meros yer-mulki - Tolbruk tarixi hikoya qilish markazi hisoblanadi. Tolbruk yer-mulki obrazi timsoliy mazmunga ega. Muallif Angliya qismati haqida o‘ylaydi: Talbrukda, demak, Angliyada kimlar yashaydi, kimlar uni boshqaradi. “Tolbruk, xuddi kemadek chayqalayotganday tuyuladi... Mendan-da yomon dengizchi yo‘q, men o‘zimni dengizdagedek his etaman, o‘z tarixini mangu dengiz bo‘ylab sayohatga aylantirgan Angliyaning o‘zi go‘yo to‘lqinlar oralab suzayotgandek...”. “Bu safar Angliya langarini ko‘targan va uni G‘arbning noma‘lum, sinalmagan to‘lqinlari bo‘ylab yo‘naltirgan kim?”.

“Qadimgi Tolbruk tarix timsoli edi”, qo‘rg‘ondagi hamma narsa “insoniyatning tarixiy taraqqiyotini” “Beovulfan bilan urug‘ qadagan, Pyotr-qo‘shchi bilan yer haydagan va Kobbet bilan birga hosil yig‘ganlar - barcha avlodlarning umid va tashvishlarini yodga solardi”. “Aftidan, Tolbrukning o‘zi sayyoh ziyoratchiga aylandi va sayohatga jo‘nab ketdi”, - deydi Uilcher.

Romanda hikoya qilish tarzi kompozitsiyaning murakkabligi, lirik-intellektual uslub, tarixiy jarayon va avlodlar taqdiri bilan bog‘liq xulosalar va umumlashmalar bilan farqlanib turadi.

Kitob bosh qahramoni Tomas Uilcher o‘zi haqida kam gapiradi, garchi o‘zi bo‘ydoq bo‘lsa-da, u oilaviy muammolarni o‘ylaydi; uni Uilcherlar sulolasi taqdiri tashvishlantiradi. Uning hayoti mazmuni - merosiy xonadon yer-mulki, Tolbrukni asrab qolish va o‘z yaqinlari taqdirini yo‘lga solish. Kitobxon ko‘z

o‘ngidan ko‘plab personajlar (Lyusi, Bill, Edvard, Jon)ning hayoti (bolaligidan toki vaftigacha) o‘tadi. Ularning hayot yo‘li Uilcherning ularga shaxsiy munosabati bilan yo‘g‘rilgan, Uilcherni o‘z yaqinlari hayotda duch kelgan mushkulliklar qattiq o‘ylantiradi. Hikoya tarzi xronikallikdan tez-tez liriklikka evrladi. Oilaviy munosabatlar tasviridagi lirizm tarixiy va ijtimoiy o‘zgarish haqida hikoyalashning epik ohangi bilan uyg‘unlashib ketadi. “Sayyoh ziyoratchi yo‘lidan” - trilogiyaning nisbatan ko‘lamli kitobi, bu kitob ellik yillik davr mobaynidagi ingliz tarixi zamirida bir oila tarixini qamrab oladi. Biroq muallif shunchaki solnomanavislikdan qochadi. U hikoya qiluvchining xotirasida turli personajlar hayotining turli davrlariga oid ko‘proq dramatik va lirik epizodlarni yoritadi.

Uilcherlar oilasi - bu miniatyuradagi ingliz jamiyati: u o‘zining siyosiy arbobiga (Edvard), o‘zining harbiysiga (Bill), o‘zining huquqshunosiga (Tomas), o‘zining mazhab boshlig‘iga (Lyusi), o‘zining vrachiga (Enn), o‘zining biznesmeniga (Jon) va o‘zining ishchisiga (Robert) ega.

Ko‘pplanlilik tamoyili “Sayyoh ziyoratchi” romanida, Kerining boshqa asarlariga qaraganida, ko‘proq muvaffaqiyatli chiqqan. Unda Tomas Uilcherning ukalari - Uilyam va Edvard hayoti, uning singlisi Lyusi, shuningdek, ularning bolalari - Lyusining o‘g‘li Robert va Edvardning qizi Enn hayoti ko‘rsatilgan.

Joys Kerining “Sayyoh ziyoratchi yo‘lidan” romani, trilogiya siyosiy boshqa ikki kitobiga qaraganida, ko‘proq “sotsiologik” asar. Ma‘rifatli hikoyachi Uilcher o‘zining oilaviy sulolasi va ingliz jamiyati tarixi solnomanavisi sifatida gavdalanadi. Bu romanda siyosiy kurash, siyosiy mavqe mavzularini ham yoritish mo‘ljallangan. “Sayyoh ziyoratchi yo‘lidan” romani qahramoni his etishicha, ular “inqiloblar va qahramonona voqealar asrida” yashayotir. Edvard aytadi: “Inqiloblar haqiqiy voqelikka aylanishini ko‘rish maroqli... Inqilob - bu misoli o‘t-olov, unda yangi jamiyat qaynab pishadi; olovda tuyqusdan hamma narsa eriy boshlaydi, hatto alangadan uzoqda bo‘lganlari ham”.

Biroq muallifning ko‘rsatishicha, asrning bunday inqilobiyilgini his etish, bunday inqilobiy o‘zgarishlarga e‘tibor Edvard va Tomasda inqiloblarga noxayrixohlikni, inqilobdan qo‘rqishni, burjuaziya his etgan qo‘rquvni yuzaga keltirgan. Boz ustiga bu romanda “inqilob” so‘zi ko‘pincha ingliz burjuaziyasining liberal an‘analari ruhida qo‘llangan, ya‘ni bu so‘z ko‘p hollarda islohat mazmunidagi o‘zgarishlarni anglatadi.

Tomas Uilcher - o‘tmishga o‘tib ketayotgan liberal protestant madaniyati vakili. U hayotning mohiyati haqida o‘ylaydi, uni: insoniy baxtga imkon bormi, degan savol o‘ylantiradi. U eng dadil sarguzashtlarga boy hayotni boshlashga qaror qiladi. “Biroq uning ideal sarguzashtlari amalga oshmadi”. Uilcher inson hamma vaqt o‘zini yangilab, hamma vaqt namadir yangilik yaratish kerakligini anglaydi. Sayyoh ziyoratchi har oqshom yangi osmon ostida uxlashi kerak, aks holda hayot girdobi uni ortga itqitib yuboradi. “Ziyoratchi sayyoh yo‘lida” so‘zlash ingliz psixologiyasi mohiyatini yetkazadigan Uilcherga ingliz xarakterini ochishda kalitdek tuyuladi. “Choser Angliyadagi sayyoh ziyoratchilar haqida yozgan paytda har bir odam qayerdaligi va qayoqqa yo‘l olgani bilardi. Endi esa hammasi aralashib, qo‘shilib ketdi va odamlar boradigan joy yo‘q...” Uilcher hayotdagi omadsizligini o‘zining emin-erkin darbadarga aylana olmaganida ko‘radi. Shaxsiy mulk uning oyog‘iga tushov bo‘ldi, uning baxtini to‘dsi. Uilcher shunday deydi: “Men taslim bo‘ldim, chunki kurasha olmadim, endi nazarimda hayot oqimi meni ko‘tardi va o‘zi bilan oqizib ketdi”.

Har yili Tolbruk yer-mulkida, umuman Angliyadagi kabi, inqiroz alomatlari tobora kuchli namoyon bo‘layotir. Tolbruk ahli birin-ketin vafot etmoqda. Bu yerda Uilcherning ota-onasi vafot etdi, Edvard ham shu yerda omonatini topshirdi, Emi o‘layotir, Jon ham halok bo‘ladi, Lyusi shu yerga keldi qazosi yetib. Qari Angliya shu zayl o‘tmishga ravona bo‘ladi.

Romanda “uyg‘onish” mavzusi qishloq xo‘jaligi ishchisi Robert obrazi bilan bog‘langan. Muallif fikricha, ishchining faoliyati hayot muammolarining kaliti hisoblanadi. Ishchi Robert “sayyoh ziyoratchi”, yangi hayot sari dadil odimlayotgan

bunyodkor inson, u “Tolbrukni vayron qilmadi, u Tolbrukni tarixga vobasta qildi”.

Jimson - epik tasvir musavviri. U yirik polotnolar yaratadi, ularda zamonaviy g'oyalarni mujassam qiladi. U o'zining epik ijodini Pisarroning lirik san'atiga qarama-qarshi qo'yarkan, “Nima desang degin, biroq epos lirikadan ko'ra muhim va teran”, deb ta'kidlaydi.

Romanda ijod psixologiyasi asliday qayta tiklanadi. Jimson qayerda bo'lmasin, u nima qilmasin, kim bilandir gaplashmasin, har doim o'zining kartinasi, uning kompozitsiyasi, yangi rang haqida o'ylaydi. Jimson tabiat go'zalligidan bahra oladi, uni qanday tasvir vositalari bilan berishni o'ylaydi. Hikoya qilish uslubiy jihatlari rassomning o'ziga xos tafakkuriga muvofiq keladi. Lo'nda, dadil jonli-quvvatli gaplar tasviriy obrazlilik bilan ajralib turadi. Gaplar birgina o'xshatish yoki birgina aniqlovchi yo bo'lmasa lahzalik taassurotni qayd etayotgan otlardan tarkib topishi mumkin. Gaplar mantiqan emas, balki assosiativ, rassom xayoloti o'yinlari bilan bog'lanishi ham mumkin: “Men Temza qirg'og'i bo'ylab borayapman. Kuz kunining tong pallasi. Quyosh

tuman ichida. Xuddi baliq do'konchasi peshtaxtasidagi apelysinday. Quyida hammasi ravshan. To'lqinning qaytishi, loyqa suv, poxol chiqiti, jo'janing suyakchalari. Loy va mazut, loy, loy. Xuddi qaymog'i olingan sutda suzib yurgan qora ilon. Qari ilon, tabiat va sevgi timsoli”. Qiyoslash, o'xshatish tizimi personaj xarakteriga bog'liq, uning shaxsiyati, uning hayot tarzi bilan bog'langan. Sara Mandi tabiatni qishloq va uy turmush tarzi ashjolari bilan taqqoslardi, Jimson hamma narsani rassom sifatida qiyoslaydi, birinchi galda bo'yoqlar va rang-tuslarning tovlanishini ilg'aydi. Taqqoslash uchun son-hisobsiz predmetlar zahirisi san'atkorona nigoh bilan, tabiatdagi barcha yangi ranglar nisbati, uyg'unligi, yorug'likning bilinar-bilinmas yangi jilvalarini farqlay biladigan beqiyos qobiliyat bilan aniqlanadi: “To'lqin qaytgan pallada Temzada suv yorqin tovlanadi, xuddi shisha idishdagi yeldek (yel — quyuq va o'tkir ingliz pivosi). Suv yuzida son-sanoqsiz pufakchalar va har qaysi pufakcha o'zining xususiy elektr yorug'idan kuch olib yarqiraydi”. Yozuvchi Pamela Xensford Jonson “Asl manbadan” romanini “ingliz adabiyotida rassom ongining eng teran tahlili”, deya ta'riflagan.

ADABIYOTLAR

1. Адабий турлар ва жанрлар. 1-жилд. Т., “Фан” нашриёти, 1991. 382. -25 б.
2. Аникин В.Г. Современный английский роман. - Свердловск, 1971. 310 с.
3. Cary Joyce. Power in Men. - Seattle, 1963. – 258 p.
4. Cary Joyce. To Be a Pilgrim. Harmohols worth, 1957. – 119 p.
5. Bloom Robert. The Indeterminate World: A Study of the Novels of Joyce Cary. - P. 101.



UDK: 81/82

Bonu ASHIROVA,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: bonusweaty@gmail.com

PhD, dotsent M. Omonova taqrizi asosida

THE ROLE OF THE AUTHOR, NARRATOR, AND CHARACTER IN A NARRATIVE TEXT

Annotation

This article discusses the types of narrators, the characteristics of the author, narrator and characters, their similarities and differences. The methods of influencing the reader's mind by the example of works are revealed.

Key words: narrator, narrator, characters, author's image, types of narrators, narrative, work of art.

HIKOYA (NARRATIV) MATNIDA MUALLIF, BAYON QILUVCHI VA PERSONAJNING ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada hikoya qiluvchining turlari, asar muallifi, hikoyachi hamda personajlarining belgi xususiyatlar, ularning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari haqida gapiriladi. Hikoyanavisning kitobxon ongiga ta'sir etish usullari asarlar misolida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: hikoyachi, roviy, personajlar, muallif obrazi, hikoyachi turlari, rivoyat, badiiy asar.

РОЛЬ АВТОРА, РАССКАЗЧИКА И ПЕРСОНАЖА В ТЕКСТЕ ПОВЕДЕНИЯ (НАРРАТИВА)

Аннотация

В данной статье говорится о типах рассказчиков, авторе произведения, рассказчике и героях, их сходствах и различиях. На примере произведений раскрываются методы воздействия на сознание читателя повести.

Ключевые слова: рассказчик, повествователь, персонажи, образ автора, типы рассказчика, повествование, художественное произведение.

Kirish. Hikoyachining obrazi uning ifodasi, uslubi va personajlarni tasvirlash shakllarida iz qoldiradi: personajlar endi nutqda o'zini ko'rsatmaydi, lekin ularning nutqi hikoya qiluvchining didiga ko'ra - uning monologik reproduksiya tamoyillarida o'z uslubi bilan mos ravishda uzatiladi. Nutq to'qimasida bayon etuvchi o'zining sotsiologik xususiyatlarini oladi. Albatta, yozuvchi personajlarning sotsial-stilistik tabaqalanishida kundalik, pragmatik nutqning ijtimoiy-ekspressiv tabaqalanishlariga amal qilishi shart emas. Bu yerda ijodkorning adabiy an'analarga, adabiyot tilining strukturaviy o'ziga xosliklariga bog'liqligi masalasi keskin ko'tariladi. Ammo umuman olganda, adabiy hikoyada ijtimoiy ekspressiv cheklovlar qanchalik kam bo'lsa, uning dialektal izolyatsiyasi shunchalik zaif bo'ladi, ya'ni umumiy adabiy til shakllariga jalb qilish qanchalik kuchli bo'lsa, unda yozuv momenti shunchalik keskin namoyon bo'ladi. Hikoyachi obrazi bilan yozuvchi obrazi qanchalik yaqin bo'lsa, dialog shakllari qanchalik ko'p qirrali bo'lsa, turli personajlar nutqini ifodali farqlash imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. Zero, muallifdan uzoq nutq masofasida joylashgan hikoyachi o'zini obyektivlashtiradi, shu bilan qahramonlar nutqiga o'z subyektivligini ta'minlaydi.

Adabiy qissaga qo'shilgan hikoyachi obrazi o'zgarib turadi, ba'zan muallif obrazi chegarasigacha kengayib boradi. Shu bilan birga, hikoyachi obrazi bilan muallif obrazi o'rtasidagi munosabat bir xil adabiy kompozitsiya doirasida dinamik xarakterga ega. Ushbu korrelyatsiya shakllarining dinamikasi hikoyaning asosiy og'zaki sohalarining funksiyalarini doimiy ravishda o'zgartirib, ularni tebranuvchi, semantik jihatdan ko'p qirrali qiladi. Hikoyachi va muallif obrazlari bir-birini qoplaydigan (aniqrog'i: bir-birining ustiga chiqadigan) va o'rnini bosadigan, personajlar obrazlari bilan turli munosabatlarga kirishib, suyetni tashkil qilishning asosiy shakllari bo'lib chiqadi hamda uning tuzilishiga uzluksiz assimetriklik beradi.

Har qanday asarda hamisha mavjud bo'lgan muallif obrazidan farqli o'laroq, hikoyachi obrazi ixtiyoriy, u kiritilishi ham, kiritilmasligi ham mumkin. Shunday qilib, "neytral", "obyektiv" hikoya bo'lishi mumkin, unda muallifning o'zi go'yo chetga chiqib, to'g'ridan-to'g'ri oldimizda hayot suratlarini

yaratadi. Biz bunday zohiriy "shaxssiz" hikoya qilish usulini, masalan, Goncharovning "Oblomov" asarida uchratamiz.

Ko'pincha rivoyat ma'lum bir shaxsdan olib boriladi, asarda boshqa inson obrazlari bilan bir qatorda hikoya qiluvchi obrazi ham namoyon bo'ladi. Bu, birinchidan, o'quvchiga bevosita murojaat qiladigan muallifning o'zi obrazi bo'lishi mumkin (A.S. Pushkinning "Yevgeniy Onegin"i bunga misol bo'ladi). Ko'pincha asarda muallifdan alohida shaxs vazifasini bajaradigan hikoyachining maxsus obrazi yaratiladi. Bu rivoyatchi muallifga yaqin, unga aloqador va xarakter va ijtimoiy mavqei jihatidan undan juda uzoqda bo'lishi mumkin. Hikoyachi shunchaki u yoki bu voqeani biladigan, asarning rolini bajaruvchi qahramon sifatida ham harakat qilishi mumkin. Nihoyat, asarda bir emas, bir necha hikoyachilar paydo bo'lib, bir xil voqealarni turlicha yoritadi.

Hikoyachi obrazi muallif obraziga qaraganda personajlar obrazlariga yaqinroq. Hikoyachi personaj vazifasini bajaradi, personajlar bilan munosabatga kirishadi. Muallif va qahramonlar o'rtasidagi hikoya qiluvchining pozitsiyasi har xil bo'lishi mumkin. U muallifdan tili, xarakter xususiyatlari, tarjimai holiga ko'ra ajratilishi va xuddi shu asosda muallifga yaqin bo'lishi mumkin. Bunda hikoyachi obrazi muallif obrazi bilan deyarli qo'shilib ketadi. Ammo hali ham bu tasvirlarni to'liq birlashtirib bo'lmaydi. Hikoyachi obrazining muallif obrazi va personajlar obrazlariga nisbatan pozitsiyasi moslashuvchan bo'lishi mumkin. Yoki hikoyachi fonga o'tadi yoki hatto sahna ortida bo'lib chiqadi va muallifning obrazi hikoyada ustunlik qiladi. Muallif obrazi orqaga chekinadi va hikoyachi oldinga chiqadi, personajlar bilan faol munosabatda bo'ladi va muallifga tegishli bo'lmagan mulohazalar va baholarni ifodalaydi. Bunday rivoyatni faqat yaxlitligi, o'zaro bog'lanishining barcha murakkabligi bilan muallif pozitsiyasini aks ettiruvchi semantik va lingvistik qatorlardan biri sifatida talqin qilish kerak.

E.A. Ivanchikova kichik janrlarga oid asarlarda hikoyachilarning bir nechta turlarini aniqlaydi:

Anonim hikoya qiluvchi kompozitsion - ma'lumot vazifasini bajaradi: qisqa so'zboshida hikoyaga boshqa - bosh hikoya qiluvchini kiritadi, o'z tavsifini beradi.

Maxsus – “tajribaviy” – anonim bayonli bayon shakli (u “biz”, “bizning” olmoshlari yordamida ochiladi). Hikoya to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatuvchi pozitsiyasidan hikoya qilinadi va kinoya bilan o‘raladi.

Anonim hikoya qiluvchi - kuzatuvchi - tasvirlangan sahna va epizodlarning guvohi va ishtirokchisi. U personajlarga xos xususiyatlarni beradi, nutqlarini yetkazadi va sharhlaydi, atrofida sodir bo‘layotgan voqealarni kuzatadi, o‘z fikrlarini erkin, cheksiz shaklda ifodalaydi, shaxsiy baholarini tarqatadi, o‘quvchilarga murojaat qiladi.

Hikoya bir vaqtning o‘zida asar qahramonlaridan biri bo‘lgan aniq (isimli yoki noma‘lum) hikoyachi nomidan olib boriladi. Har bir sodir bo‘layotgan narsa uning ongi va idroki orqali singdiriladi, u nafaqat kuzatadi va baholaydi, balki harakat qiladi, nafaqat boshqalar haqida, balki o‘zi haqida ham gapiradi, o‘zining va boshqalarning gaplarini aytadi, o‘z taassurotlari va baholari bilan o‘roqlashadi.

Agar ma‘lum bir hikoyachi o‘z bilimi va imkoniyatlari cheklangan bo‘lsa, u holda ham subyektiv, ham obyektiv muallif hikoyasi dunyo va personajlar haqidagi bilim manbalarini ko‘rsatishga majbur bo‘lmagan, hamma narsani biluvchi muallifning nuqtai nazarini bildiradi. Birinchi shaxs rivoyatining turli turlari hikoya qiluvchining o‘ziga xoslik darajasi, bayon qiluvchining o‘rni, xarakteri va kompozitsion dizayni, lisoniy ko‘rinishi bilan farqlanadi. Muayyan hikoyachining turlaridan biri yozuvchi tajribasiga yaqin hayotiy tajribaga ega (masalan, L.N.Tolstoyning “Bolalik”, “O‘smirlik”, “Yoshlik”) hikoyachidir.

Ochiq ergash gapli matnlarda “men”, “biz” olmoshlari, “mening”, “bizning” ega olmoshlari, 1-shaxsning fe‘l shakllari mavjudligi bilan taniladi. Yashirin hikoya qiluvchi, ochiq hikoyachiga nisbatan, roman matnining ancha katta maydoniga ega. Yashirin hikoya qiluvchi “shaxssiz” bo‘lib, uni obyektiv muallifga yaqinlashtiradi. U “men” shaxsi yetishmayotgan matnlarda uchraydi. Aytuvchining ko‘rinmas ishtirok signallari - yaqinlashuv, bilimning to‘liq emasligi, yetarli darajada xabardorlik ma‘nolarini ifodalashning turli usullari (masalan, N.V. Gogolning “Palto”) hisoblanadi. Aralash tizimlar ham mumkin. Odatda, mavhum hikoyada hikoyachi alohida personajning taqdirini kuzatib boradi va biz xarakterni taniymiz. Keyin bir belgi qoladi, diqqat boshqasiga o‘tadi va biz yana bu yangi qahramon nima qilganini va o‘rganganini ketma-ket o‘rganamiz.

Rivoyatda personaj hikoya qiluvchilardan biri bo‘lishi mumkin, ya‘ni yashirin shaklda u o‘ziga xos hikoya chizig‘i bo‘lishi mumkin, bunda muallif faqat o‘z personaji aytib bera olgan narsalarnigina xabar qilishga harakat qiladi. Ba‘zan ma‘lum bir personajga hikoyaning ipini bog‘lashning ushbu momenti asarning butun tuzilishini belgilaydi. Rivoyatni boshqaradigan bunday personaj ko‘pincha asarning bosh qahramoni hisoblanadi. Hikoyachilarning niqoblarining xilma-xilligi epik hikoyaning ertak shakllarining xilma-xilligiga, hikoyachilarning psixologik va ijtimoiy turlarining xilma-xilligiga va shunga mos ravishda badiiy voqelik obyektlarini yoritish burchaklarining xilma-xilligiga, baholash pozitsiyalarining turfa xilligiga mos keladi.

Badiiy (nasriy, she‘riy, dramatik, kino, musiqiy va hokazo) asar muallifi tanlagan matnda syujetni gavdalantirish usullari (yoki turlari) bayon qilish usullaridir. Rivoyat (“aytib berish”) jarayon sifatida faqat u yoki bu bayon qilish uslubi shaklida mumkin bo‘lib, u boshqa ko‘plab jihatlardan tashqari, hikoya nuqtai nazarini tanlashni ham o‘z ichiga oladi (masalan, birinchi shaxsdan, uchinchi shaxsdan) va hikoya qiluvchining ovozi tanlash- syujet ma‘lumotlarini taqdim etish usullari, masalan, qahramonning fikrlari va his-tuyg‘ularini to‘g‘ridan-to‘g‘ri takrorlash, so‘zsiz ishtirok etish illyuziyasini yaratish orqali. Bundan tashqari, rivoyat uslubida rivoyatning idiolekti - rivoyatga rahbarlik qiluvchi shaxsning nutq xususiyatlari (hikoyachi yoki roviy), frazeologizm jihatidan neytral, o‘chirilgan, noldan originalga qadar qurilishi kiradi. Ertak shakli eng yorqin shaklda mujassamlangan haqiqiy nutq niqobi, uning hikoyaviy o‘ziga xosligi muallif va hikoya qiluvchi o‘rtasida stilistik va diskursiv qarama-qarshilikni qurishdir. Hikoyachining roli, masalan:

1) muallif tomonidan uydirilgan va matnga kiritilgan, ismi, tarjimai holi elementlari va boshqalar bo‘lgan, lekin matnda sodir bo‘layotgan voqealardan tashqaridagi (Rudiy Panko N.V. Gogolning Dikanka yaqinidagi fermadagi oqshomlarida) hikoyachi

2) hikoya qiluvchi (L. N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” yoki N. V. Gogolning “O‘lik jonlar”),

3) asar voqealari ishtirokchilaridan biri (F. M. Dostoevskiy romanlaridagi yilmomachilar) va boshqalar.

Hikoyachilarning turlari personajlar ongiga (bir yoki bir nechta) kirib borish qobiliyati, ularning xabardorlik darajasi, voqealarga aralashish, jalb qilish, ma‘lum personajlarga hissiy bog‘lanish, ko‘rinishda keskin farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, asar matnida ozmi-ko‘pmi aniq ifodalangan butun bir hikoyachilar tizimini o‘z ichiga olishi ham mumkin (Buning yorqin misoli M. Y.Lermontovning “Zamonamiz qahramoni”).

Matnning hikoyaviy makonini nomuvofiq tarzda tashkil qilish mumkin: syujetning rivojlanishi jarayonida e‘lon qilingan yilmomachi vaqti-vaqti bilan hamma narsani biluvchi muallifning xususiyatlariga ega bo‘lishi mumkin (F.M. Dostoevskiyning “Aka-uka Karamazovlar”), obyektiv muallif - hikoya qiluvchi o‘z qahramonining ongiga kirish imkoniyatini yo‘qotishi mumkin va hokazo shular jumlasidandir.

Birinchi shaxs hikoyasi - hikoyaning bu usulida hikoyachi bir vaqtning o‘zida personaj vazifasini bajaradi va o‘zini birinchi shaxs olmoshi “men” yoki kamroq hollarda “biz” bilan belgilaydi. Odatda hikoyachining bunday turi hikoyachining yashirin va tashqi kuzatuvchiga erishib bo‘lmaydigan fikr va his-tuyg‘ularini samarali ifoda etishga imkon beradi, o‘zini - o‘zi kuzatish va personajni aks ettirishning turli shakllariga yo‘l ochadi, bu esa uni kundalikka yaqinlashtiradi. Ko‘pincha hikoya qiluvchi qahramon bo‘lib, uning fikrlari o‘quvchi uchun mavjud, lekin odatda boshqa aktyorlar uchun emas. Birinchi shaxs rivoyati lug‘at, idiomatik va boshqa til xususiyatlarining alohida tanloviga ega bo‘lgan hikoya qiluvchining rivoyat idiolitini qurishga moyil bo‘ladi. “Men” hikoyasi o‘quvchining hikoya qiluvchining o‘ziga xos obrazini qurishini va matnni idrok etish jarayonida hikoyachi tomonidan tuzilgan voqelik obrazini to‘g‘rilashini, haqiqatda sodir bo‘lgan voqeani qayta tiklashini nazarda tutadi.

Hikoya ikkinchi shaxsda - adabiy nasr matnida deyarli hech qachon yagona bo‘lmagan juda kam uchraydigan hikoya shakli. Uning yordami bilan o‘quvchining matn bilan aloqasiga erishiladi, o‘quvchi o‘zini hikoya ichidagi qahramon, syujet, harakat elementi ekanligini his qiladi.

Uchinchi shaxs hikoyasi tarzida qurilgan asarlarda hikoyachi boshqa fazo-zamon rejasi, boshqa darajadagi figura sifatida boshqa personajlarga qarama-qarshi qo‘yiladi. U obyektiv kuzatuvchi yoki hamma narsani biluvchi hikoyachi sifatida harakat qilishi mumkin, shuning uchun bu turdagi rivoyatning o‘ziga xos xususiyatlari boshqa personajlarning ichki dunyosini uzatishda, ular atrofidagi hayotni tasvirlashda yuqori darajadagi obyektivlik, nisbiy to‘liqlik mavjud bo‘ladi.

Jahon va o‘zbek adabiyotida hikoyaning tutgan o‘rni, uning turlari, hikoyadagi personajlarning tahlili, hikoya tili, hikoya qilish uslublari haqida ham so‘z yuritiladi. Bundan tashqari, narrativlik (hikoya) to‘g‘risida tilshunos olimlar va yozuvchilarning fikrlari ham o‘rin olgan. Aslida hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo‘nda ifodalashga mo‘ljallangan. Unda shu voqeaga qadar personaj hayotida nima bo‘lgan, qanday ro‘y bergan, kim bilan bular to‘g‘risida ma‘lumot berish shart emas. Juda zarur bo‘lsa, ayrim detallar orqali ishora qilinishi mumkin. Ixchamlik hikoyaning muhim belgisi, lekin unda personaj hayotidan birgina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yo‘li, bir emas, bir necha odamlar taqdiri, xarakterning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi, muhim fazilat bo‘lib qolishi mumkin. Biroq har qanday ko‘rinishda ham tasvir siqiq tarzda beriladi. Hikoya olami haqidagi sharhlarimiz davomida uning istiqbolli xarakterini ta’kidlash zarur. Adabiy matn o‘quvchining insoniy qurilishi ekan, u o‘sha o‘quvchining nuqtai nazari bilan chegaralanadi. Ammo adabiy matn real narsalarni qasddan tuzilgan doirada ifodalaganidek, u haqiqatning o‘zi kabi deyarli bitmas-

tuganmasdir. Har doim biz qasddan talqin qilishimizni farqlaymiz. Bu shuningdek, mening nuqtai nazarim cheklanganligi sababli men uchun mavjud bo'lgan, lekin boshqa nuqtai nazarga ega bo'lgan boshqa o'quvchilar uchun ham mavjud bo'lgan hikoya olamiga tegishli. Ushbu qismda biz ajratib olishga harakat qilgan jihat - bu ma'lum bo'lgan son-sanoqsiz nuqtai nazarlar asosidagi rivoyat olamining asosiy birligidir.

Biz hali ham hikoyaning qalbiga e'tibor qaratishimiz kerak-ki, bu nafaqat hikoya olamida, balki hikoya oqimining

o'zida ham ishtirok etishdir. Xayoliy personajlar yoki ovozlari rivoyat olamining haqiqatida, shuningdek, hikoya oqimida ishtirok etadilar, garchi ular vaqti-vaqti bilan bu ontologik ishtirokni bilishadi. Qoidalar, bu holda, so'zning nisbiy erkinligi, voqelikni bilish, rivojlantirish va boshdan kechirish qobiliyati, hikoya qiluvchining nisbiy mustaqilligi va pirovardida personaj taqdim etayotgan hikoya dunyosining ijtimoiy tuzilishini aks ettirishdir.

ADABIYOTLAR

1. Гаспаров Б. М. Литературные лейтмотивы: Очерки по русской литературе XX века. М., 1995. С. 276.
2. Гиршман М.М. Литературное произведение: Теория и практика анализа. — М., 1991. — С. 70.
3. Киличев Э. Матнинг лингвистик тахлили. Бухоро: «Бухоро университети», 2000, 6-7-бетлар
4. Киселева Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. Л.: Изд-во ЛГУ, 1978. 160 с.
5. Кожевникова Н.А. Типы повествования в русской литературе XIX—XX вв. М., 1994. — С. 83.
6. Кожевникова Кв. Об аспектах связности в тексте как целом // Синтаксис текста. М., 1979. С. 66.
7. Леви-Стросс К. Структура и форма : размышления об одной работе В. Проппа / К. Леви-Стросс // Французская семиотика : от структурализма к постструктурализму. — М. : Прогресс, 2000.
8. Леонтьев А.А. Функции и формы речевой деятельности // Основы теории речевой деятельности. М.: Наука, 1974. С. 241-254.
9. Лосева Л.М. Как строится текст. — М.: Просвещение, 1980. — 96 с.
10. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. - М., 1970. С. 67.



Barno BOLTAYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, f.f.d
E-mail: boltayevabarno3@gmail.com.

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

ON THE ANALYSIS OF THE PHRASEOLOGICAL UNIT “OSHIQ’I OLCHI” IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

Phraseological units reflect the cultural characteristics of a particular society. The article discusses the ability of phraseological units to broadly express relationships and emotions, as well as how they reflect the people’s views and way of life. One of the primary functions of language is to preserve the cultural heritage of society, and the unique identity of a nation is reflected in its specific phraseological units. The article examines certain phraseological units in Uzbek and Turkish languages. Specifically, the phraseological unit in Uzbek, “oshig’i olchi”, is analyzed alongside its Turkish counterpart “aşığı bek oturmak”, focusing on their similarities in formation and usage, which are illustrated with examples.

Keywords: Folk oral creativity, phraseological unit, linguistic culture, formation of phraseological units, changes in phraseological units.

АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ ЕДИНИЦЫ «ОШИГИ ОЛЧИ» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В фразеологических единицах отражаются особенности культуры того или иного общества. В статье описываются возможности фразеологических единиц в выражении отношений и эмоций, а также то, как в них находят отражение взгляды народа и его образ жизни. Одной из важнейших функций языка является сохранение культурного наследия общества, и в фразеологических единицах, принадлежащих данному народу, проявляется национальная самобытность. В статье рассматриваются некоторые фразеологические единицы узбекского и турецкого языков. В частности, проанализированы фразеологическая единица узбекского языка «ошиги олчи» и близкая по значению фразеологическая единица турецкого языка «aşığı bek oturmak», а также их сходства в формировании и употреблении, которые освещены на примерах.

Ключевые слова: Народное устное творчество, фразеологическая единица, лингвокультура, формирование фразеологических единиц, изменение фразеологических единиц.

O'ZBEK TILIDAGI “OSHIQ’I OLCHI” FRAZEOLGIK BIRLIGI TAHLILIGA DOIR

Annotatsiya

Frazeologik birliklarda u yoki bu jamiyatdagi madaniyatning xususiyatlari aks etadi. Maqolada frazeologik birliklarning munosabat va hissiyotni keng ifodalash imkoniyatlari, ularda xalqning qarashlari va yashash tarzi aks etishi bayon etilgan. Jamiyatning madaniy o'tmishini saqlab qolish tilning eng muhim vazifalaridan biridir va shu millatga tegishli frazeologik birliklarda millatning o'ziga xosligi aks etishi ta'kidlab o'tilgan. Maqolada o'zbek tilidagi va turk tilidagi o'xshash frazeologik birliklarning ayrimlari o'rganiladi. Jumladan, o'zbek tilidagi “oshig’i olchi” frazeologik birligining ma'nosiga yaqin bo'lgan turk tilidagi “aşığı bek oturmak” frazeologik birliklari tahlil etilgan, ularning shakllanishi va qo'llanilishidagi o'xshashliklar misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, frazeologik birlik, lingvomadaniyat, frazeologik birliklarning shakllanishi, frazeologik birliklar o'zgarishi.

Kirish. Frazeologik birliklarning paydo bo'lishi va shakllanishi, birinchidan, tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-siyosiy hayot, siyosiy-ma'naviy qarashlar, ikkinchidan, lisoniy, ya'ni tilning grammatik qonun-qoidalari kabi omillar bilan uzviy aloqadordir. Adabiy til, ayniqsa, uning lug'at tarkibi va frazeologik boyligi to'xtovsiz taraqqiy etadi, o'sadi va rivojlanadi, chunki jamiyatda bo'ladigan turli o'zgarishlar natijasida yuz beradigan, paydo bo'ladigan narsa-hodisalar uchun tilda maxsus atamalar bo'lishini taqozo etadi. Ana shunday obyektiv sabablar asosida tilda yangi-yangi so'zlar, frazeologik birliklar paydo bo'ladi.

Ilmiy manbalarda transformatsiya (lot.transformatio-o'zgarish)ga asosiy sintaktik tuzilmani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi bir tuzilma hosil qilish, boshqa manbalarda esa asos lisoniy modeli(til strukturasi) asosida ikkilamchi lisoniy shaklning yaratilishidir deb ta'rif beriladi. Darhaqiqat, frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlarning semantik-struktur tabiati qanchalik yo'l qo'ysa, ularning tarkibida shunchalik o'zgarishlar voqe bo'la oladi [5].

Frazeologik birliklar tarkibidagi leksemalarning birikuvchanlik xususiyati va imkoniyati, ularning struktural, leksik va semantik o'zgarishini ta'minlaydi. Bu esa frazeologik

birliklarni uslubiy va semantik-pragmatik o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Frazeologik shakllanishning eng muhim vositalaridan biri semantik o'zgarishdir. Shuning uchun ham til ilmda frazeologik birliklarga semantik hodisa sifatida qaraladi. So'z birikmasi yaxlitligicha ma'no jihatidan bir tushunchadan ikkinchi tushunchaga o'tishi, erkin bog'lanmaning ma'nosi frazeologik birlikka transformatsiya qilinishi mumkin. Besh barmog'ini og'ziga tiqmoq – “o'z manfaati yo'lida tamagirlik qilmoq”; etagini siltamoq – biron narsadan, kishidan yoki ishdan voz kechmoq; jigaridan urmoq – “o'ziga shaydo qilib olmoq” kabi frazeologik birliklarda ma'no biror komponentning ma'nosiga to'liq suyanmaydi, asoslanmaydi. Bu jarayonda erkin bog'lanma tarkibidagi leksemalarning xususiy-analitik ma'nolari, umumlashgan yaxlit ma'noga o'tadi. Frazeologik birliklarni tashkil etgan komponentlar so'zlardagi o'zak morfemalardek maxsuslashmaydi, barqaror bo'lmaydi. Erkin bog'lanma semantik o'zgarib frazeologizmlashtiriladi.

To'liq semantik shakllanishda frazeologik birliklar tarkibidagi barcha so'z komponentlar yaxlitligicha o'zgaradi. Masalan, oyog'idan tortmoq, bir cho'qishda qochirmoq, qo'ltig'iga suv purkamoq, bir yostiqa bosh qo'yomoq, otimni boshqa qo'yaman kabi frazeologik birliklarning ma'nolari to'liq

metafora yo'li bilan yuzaga keladi. Qisman semantik shakllanishda esa frazeologik birliklarning ma'nolari ayrim komponentlarni ko'chma ma'noda qo'llash asosida yuzaga keladi. Masalan, haqiqatni bukmoq frazeologik birligining ma'nosi "bukmoq" fe'lning ko'chma ma'nosi asosida shakllangan. Tuzog'iga ilinmoq, tuxum bosmoq, chapak chalib qolmoq kabi frazeologik birliklar o'rni bilan erkin bog'lanma tarzida ham, frazeologik ma'nosi bilan ham qo'llaniladi. Bu kabi birikmalarda frazeologik ma'no shakllanganda ham ular o'zining dastlabki shaklini saqlaydi, biroq ma'nosi o'zgaradi.

O'zbek tilidagi "oshig'i olchi" frazeologik birligi ham o'rni bilan erkin bog'lanma tarzida ham, frazeologik birlik ma'nosi bilan ham qo'llaniladi. Oshiq o'yinida erkin bog'lanma tarzida, o'yindan tashqarida frazeologik birlik tarzida qo'llaniladi.

B.YO'ldoshev "Frazemalar o'zbek xalqining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy, madaniy hayoti, o'ziga xos tushunchalari asosida yuzaga keladi" deya ta'kidlab, "do'ppisini osmonga otmoq", "oshig'i olchi (bo'lmoq)" iboralarini keltirib o'tadi [7]. Haqiqatdan ham o'zbek tilida "oshig'i olchi (bo'lmoq)" iborasi ko'p qo'llaniladi.

O'zbek olimi A.Mamatov "oshig'i olchi" frazeologik birligi bo'yicha quyidagilarni aytib o'tadi: "Oshig'i olchi (bo'lmoq)" frazeologik birligi ham o'zining milliy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, xalqimiz azaldan oshiq o'yinini o'ynab keladi. O'yin davomida oshiq yassi tomoni bilan turib qolsa, uni otgan kishi "olchi" deb tan olinadi. Olchi o'rtaga qo'yilgan sovriini oladi. Demak, olchi "ishi yurishgan", "muvaqqiyat qozongan" ma'nolarini bildiradi. Shu tushuncha asosida "ishi yurishgan kishilar" ma'nosi "oshig'i olchi" frazeologik birligi bilan ifodalanadi" [8].

Ammo olib borilgan tadqiqotlarda "oshig' otmoq", "oshig'i olchi bo'lmoq" ma'nolaridagi frazeologik birligining turk tilida ham ko'p qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, turk olimi Zülfi Gülnerning "Harput Ağzı" kitobida mahalliy frazeologik birliklar qatorida Aşşuh atmah: Teşebbüs etmek, bir şeyi almak için teşebbüs etmek; rast gele, kumar oynarcasına işe girişmek frazeologik birligini keltirib o'tadi [6].

Turk tilidagi frazeologik birliklarni chuqur o'rgangan Ahmet Turan Sinan esa "Türkçenin deyim varlığı" kitobida bu frazeologik birlikning turk adabiy tilidagi "aşığı bek/bey, cuk, çift oturmak", "aşığını boyamak", "aşık atmak", "aşık oynamak" shakllarini keltirib o'tadi [4].

Elazığ' shahrining Sako mahallasida mavjud bo'lgan xalq o'yinlari haqida yozgan Ahmet Bulut quyidagilarni keltirib o'tadi. "Aşuğ - küçükbaş hayvanların ayak bileğinden çıkarılan Z harfine benzeyen kemik paçasına denir, üst kısmına zil, alt kısmına tam, iç yan kısmına eşek denirdi. Üzerindeki et parçaları iyice temizlenerek özenle hazırlanırdı, iyi olanına "Sakka" denirdi (Ashug'-kichik bosh hayvonlarning (qo'y, echki) oyoq qismidan chiqarilgan Z harfiga o'xshash suyak bo'lagidir, ust qismiga "zil", tag qismiga "tam", ichki yon qismiga "eshak" deyiladi. Sirtidagi go'shtlaridan yaxshilab tozalaniib maxsus tayyorlanardi va yaxshi bo'lganiga "Sakka" deyilardi [2].

O'zbek tilining izohli lug'atiga murojaat qiladigan bo'lsak, turk tilida ham o'zbek tilida ham ayni bir narsaning ta'riflanganligiga guvoh bo'lamiliz: oshiq 1. ayrim hayvonlarning orqa oyog'i tizza bo'g'imidagi biriktiruvchi chorqirra suyakcha. Echkining oshig'i. Tuyaning oshig'i- Endi hovlilarning eshigi ochilgan, bolalar cho'ntaklarini yong'oq, oshiq'larga to'ldirib, ko'chaga chiqq boshlagan edi. Q.Kenja, Notanish gul.

2. Shunday suyakcha (odatda qo'y oshig'i) vositasida o'ynaladigan o'yin. Oshiq otmoq. -Mening yoshligimda birga oshiq o'ynab, yaxmalak otib o'sgan bir og'aynim bor. Shukrullo, Saylanma. Tavba! Eshon "gardkam" deb oshiq otadimi, a? Oybek, Tanlangan asarlar [9].

Qirg'iz olimi M.Orozobayev o'zining "Kırgız kültüründe aşık kemeği ve kırgızcadaki aşık oyunlarıyla ilgili söz varlığı" kitobida "oshig" so'ziga quyidagicha ta'rif beradi: "Aşık kemeği; koyun, keçi, dağ keçisi, dağ koyunu, karaca, ceylan, inek, manda, geyik gibi çift toynaklı hayvanların arka ayaklarının diz kısmında yer alan dört yüzlü, köşeli ve düzgün biçimli olması nedeniyle avuç içinde veya parmaklar arasında tutmaya ve fırlatmaya son

derede uygun olan kemiktir" [111. 29-b]. Yana bu so'zning boshqa qardosh tillarda ham mavjudligini ta'kidlaydi: "Kırgızcanın dışındaki diğer bazı çağdaş Türk yazı dillerinde ise şu şekillerde görülmektedir: Az. alçı "Aşık-aşık oyununda: aşığın bir üzü, tohan üzün arha tarafı" (Ahundov ed.2006:1,95); Kzk. alçı "Aşık kemeğinin dik koyulduğunda çukur olan tarafı" (Koç vd. 2003: 43); Kklp. alçı "Storona alçıka/aşığın yan tarafı/" (Baskakov ed. 1958:40); KMLk. alçı "Aşık kemeğinin çukur tarafı" (Tavkul 2000: 78); Özb. olçı "1. Vognutaya bokovaya storona alçıka; 2. Viğrişnoye polojenije alçıka" (Akobirov 1988:311); Trkm. alçı "alçı (storona alçıka protivopolojeniya taganu -tohanın zıt tarafı/)" (Baskakov ed.1968:42); Yuyg. alçı "Aşığın dört tarafından biri" (Necip 2008: 8); Hks. alçı "1. Aşık kemeğinin çukur tarafı 2. (Aşık oyununda) kazandıran pozisyon" Naskalı vd. 2007: 36) [111. 106-b] deya alchi so'zining ozarbayjon, qozoq, qoraqalpoq, qalmoq, o'zbek, turkman, uyg'ur, hakas tillarida mavjudligini dalillaydi.

Keltirilgan ma'lumotlarda har ikki tilda ham ayni bir narsa ta'riflanadi.

"Oshig' otmoq", "oshig'i olchi" frazeologik birliklari esa ayni shu voqelikdan kelib chiqib shakllangan frazeologik birliklardir. Turk olimi Ahmet Turan Sinan "Deyimlerin kısa hikâyeleri" kitobida turk tilidagi frazeologik birliklarning shakllanishi borasida ularning kelib chiqish omillariga diqqat qaratadi va "oshig' otmoq" frazeologik birligi bo'yicha quyidagilarni bayon etadi: "Aşık atmak- kendisinden güçlü olan biriyle yarışmak, mücadele etmek. Hikâyesi: Koyunların ve keçilerin arka bileklerinden çıkarılan dört yüzlü kemikle oynanan oyun. Kimileri ağır olsun diye kurşunlanırdı. Bir dairenin içindeki ya da bir çizgi üzerinde dizilen aşıkların yapılabacak atışla en az üç ayak mesafesi uzaklaştırılmasına dayanarak eski bir Türk oyunundan çıkmıştır. İyi oynayan ve sürekli kazanan usta kimse için "Onunla kimse aşık atamaz" denir (Oshiq otmoq-o'zidan kuchli bo'lgan birisi bilan musobaqalashmoq. Hikoyasi: so'yilgan qo'ylarning va echkilarning orqa oyoqlaridan chiqarilgan to'rt yuzli suyak bilan o'ynaladigan o'yin. Ba'ziları og'ir bo'lsin deb qo'rg'oshinlanardi. Bir doira ichidagi yoki bir chiziq ustida tizilgan oshiq'larni oshiq bilan urish orqali eng kamida uch oyoq masofaga uzoqlashtirishi kerak bo'lgan eski bir turk o'yimidir. Yaxshi o'ynagan va muntazam g'alaba qilgan mohir kishi uchun "Uning bilan hech kim oshiq otisha olmaydi" deyishadiz) [3].

O'zbek tilining izohli lug'atida esa frazeologik birlikka shunday ta'rif berilgan: oshig'i olchi - ishi baroridan kelmoq, muvaffaqiyatga erishmoq tarzida izohlanadi. Arang g'alabaga erishdim. Endi men bilan bamaslahat ish yuritsangiz, kam bo'lmaysiz, doim oshig'ingiz olchi bo'ladi. J.Abdullaxonov, Xonadon [9].

Bundan xulosa qilish mumkinki, o'zbek va turk tilidagi "oshig'i olchi" va "oshig' otmoq" ma'nosidagi frazeologik birliklarning shakllanish manbai bir va u bir xil ma'noda qo'llaniladi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" ya'ni "Turkiy so'zlar devoni" asarida XI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. G'Abdurahmonov hamda S.Mutallibovlar tomonidan nashr etilgan Devonu lug'otit turk (indeks-lug'at)da "oshig" so'zi "ashuq" shaklida keladi va uning ma'nosi odam to'pig'i shaklida berilgan. Uning davomidan "ashuqladi"-to'pig'iga urdi shaklini ham keltirib o'tgan [1].

Ko'rinadiki, devonda ham oyoqdagi suyak ma'nosida kelmoqda. Demak, XI asrda bu so'z mavjud bo'lgan va u bugungi kunda ham ayni ma'nosida qo'llaniladi.

Albatta, tilda frazeologik birlikning yuzaga kelishi va barqarorlashishida ekstralisoniy omillar ham muhim rol o'ynashini qayd etish lozim. Bu omillarning birinchisi til vakillarining u yoki bu hodisa, holat, xarakterlarni obrazli-ekspressiv ifodalash bilan aloqador ehtiyojdir. Shu tufayli tilda ko'plab turli ma'noli frazeologizmlar yuzaga keladi.

Ikkinchidan, ular xalq ijodiyotining mahsuli bo'lganligi sababli muayyan bir joyning tabiati, xalqning iqtisodiy tuzumi,

tarixi, mafdamiyati, hayot tarsi, og'zaki ijodiyoti, badiiy avloddan-avlodga o'tib boradi. adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati kabilarni aks ettiradi va

ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Муталибов С. Девону луғотит турк (индекс-луғат). Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. Тошкент-1967.
2. Ahmet Bulut. Unutulmayan mahalle “Sako”. Ankara-2006. 42-s
3. Ahmet Turan Sinan. Deyimlerin kısa hikayeleri. İstanbul. 2019. KESİT. 50 s.
4. Ahmet Turan Sinan. Türkçenin deyim varlığı. İstanbul. 2015. KESİT. 281 s.
5. Boltayeva, B. (2020). Фразеологик бирликларнинг семантик трансформацияси. Boshlang'ich ta'limda Innovatsiyalar, 1(1). извлечено от <https://primedu.jdpu.uz/index.php/primedu/article/view/132>
6. Zülfî Güler. Harput Ağzı, Elaziğ' - 2012, Manas. 111 s.
7. Йўлдошев Б. Фразеологизмларнинг адабий тил нормасига муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1992. - 3-4-сонлар. – Б. 38.
8. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. ф. док. диссертацияси. Т. 2000й.; 24-б.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 170-b.



UDK: 821.111(092)

Nargiza BO'RIYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
E-mail: nargizaburiyeva1980@mail.ru

DSc, professor N.Soatova taqrizi asosida

THE ARTISTIC AND LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE WORLD IN THE WORKS OF J.R.R. TOLKIEN

Annotation

The article provides a deep analysis of the artistic and linguistic picture of the world in the works of J. R. R. Tolkien. The study examines how the writer used language to create a fictional world, its artistic and cultural role, as well as the role of language in shaping a worldview. The article analyzes Tolkien's methods of creating language and linguistic constructions in his works, based on Humboldt's ideas about language. The methods of linguistic and literary analysis were used as the research methodology. As a result, the depiction of the world through language in Tolkien's works opens up the possibility of a deeper and broader understanding of the role of language through its meaning in the cultural context. The article puts forward new theoretical views and practical recommendations in the field of literary criticism and linguistics.

Key words: linguistic picture of the world, lexicography, geographical, cosmogony, epic, secondary world, metonymic, divine beings.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ И ЯЗЫКОВОЙ ЛАНДШАФТ МИРА В ТВОРЧЕСТВЕ Дж. Р. Р. ТОЛКИНА

Аннотация

В статье дается глубокий анализ художественного и языкового ландшафта мира в произведениях Дж. Р. Р. Толкина. В исследовании рассматривается, как писатель использовал язык для создания вымышленного мира, его художественная и культурная роль, а также роль языка в формировании мировоззрения. В статье анализируются методы создания языка Толкином и языковые конструкции в его произведениях, опираясь на представления Гумбольдта о языке. В качестве методологии исследования использовались методы лингвистического и литературного анализа. В результате изображение мира посредством языка в произведениях Толкина открывает возможность более глубокого и широкого понимания роли языка через его значение в культурном контексте. В статье выдвигаются новые теоретические взгляды и практические рекомендации в области литературоведения и языкознания.

Ключевые слова: лингвистическая картина мира, лексикография, географический, космогония, эпос, вторичный мир, метонимический, божественные существа.

J.R.R.TOLKIN ASARLARIDA OLAMNING BADIY VA LISONIY MANZARASI

Annotasiya

Ushbu maqolada J.R.R.Tolkin asarlarida olamning badiiy va lisoniy manzarasi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchining fantastik dunyo yaratishda tilni qanday ishlatganligi, uning badiiy va madaniy o'rne, shuningdek, tilning dunyoqarashni shakllantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Maqolada Gumboldtning til haqidagi g'oyalariga asoslanib, Tolkinning til yaratish usullari va uning asarlaridagi lingvistik konstruksiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida lingvistik va adabiy tahlil usullari qo'llanilgan. Natijada, Tolkinning asarlarida olamning til orqali tasvirlanishi, madaniy kontekstdagi ahamiyati orqali tilning rolini chuqurroq va kengroq anglash imkoniyati ochiladi. Maqola adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarida yangi nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: olamning lisoniy mazarasi, leksikografiya, geografik, kosmogoniya, epos, ikkilamchi dunyo, metonimik, ilohiy mavjudotlar.

Kirish. Tillar ma'nolarni ajratish usuli, dunyoni qabul qilish va tushunish usuli bilan farqlanadi. Bu g'oya lingvistikaning eng muhim davrlarida turli shakl va versiyalarda rivojlanib kelgan. U V.Gumboldtning tilning "ichki shakli" haqidagi o'g'itlariga borib taqaladi. Uning ta'limotiga ko'ra, turli tillar turli dunyoqarashlardir va har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari uni gapiradigan xalqning "til ong"i bilan bog'liq. Keyinchalik, bu o'g'itning mazmuni quyidagicha qisqacha ifodalangani: turli tillarda so'zlashadigan va turli madaniyatlarga mansub bo'lgan odamlar dunyoni turlicha qabul qiladilar. "Biz tabiatni tilimizning ko'rsatmalariga qarab ajratamiz. Biz dunyodagi hodisalarni o'z-o'zidan ravshan bo'lganligi uchun emas, balki bizning ongimiz, asosan bizning ongimizdagi til tizimi tomonidan tashkil etilishi kerak bo'lgan kaleydoskopik taassurotlar oqimi sifatida ko'ramiz". Til uning so'zlovchilarining fikrlash tarzini belgilaydi, atrof-muhitni anglash usuli tilga bog'liq. Shundan kelib chiqib, savol tug'iladi: nima birinchi navbatda bo'ladi, qaysi biri boshqa biriga ta'sir qiladi - atrof-muhitni qabul qilish va tushunish xususiyatlari xulq-atvor normalariga ta'sir qiladimi yoki shaxsning xulq-atvori onga ta'sir qiladi. Bizning dunyo tasavvurimiz olamimiz lisoniy manzarasi bilan bog'liq ravishda shakllanadi. [6]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fantastik adabiyotda til va xalq og'zaki ijodini o'rganish turli ilmiy ishlar bilan chuqur boyidi. Denhamning "The Denham Tracts" [1] asari folklorga oid asosiy tushunchalarni taqdim etadi va Tolkien asaridagi mifologik elementlarni tushunish uchun muhim kontekstni taqdim etadi. R.Noel [2] Tolkin yaratgan tillarning nozik tomonlarini o'rganib, lingvistik tanlovlar uning qahramonlarining madaniy o'ziga xosligini qanday shakllantirishiga urg'u beradi. Apresyan [3] va Kolshanskiy [8] kabi rus olimlari til tuzilmasi va dunyoqarash o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlab, til tizimlarini tushunishimizga hissa qo'shadilar. Bundan tashqari, Gumboldtning [6] tilning inson taraqqiyotiga ta'siri haqidagi nazariyalari Tolkien tillarining uning dunyosining axloqiy va ma'naviy o'chovlarini shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi. Folklor, til va jamiyatning uyg'unligi Dobrovol'skaya [7] tomonidan ham ko'rib chiqiladi, u fantastiya janrining folkloridagi ildizlarini muhokama qiladi

R. Noelning lug'ati, so'z yasash asoslarining manba tillari haqidagi qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi [2]. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, bu qismning asosida qadimgi ingliz, o'rta ingliz, islandiya, lotin, got, qadimgi yuqori nemis, shuningdek, slavyan va skandinav tillarining ildizlari yotadi. Qadimgi ingliz va

o'rta ingliz elementlarining shaxsiy nomlar orasidagi ustun roli shundaki, aynan ingliz tilining arxaik varianti muallif tomonidan Rohanning ("Rohan") aholisi tilining tasvirlanishi uchun tanlangan. Bu, shuningdek, Tolkin tomonidan yaratilgan bu tasavvuriy qirillikning asosiy tarmog'i bo'lib, aholisining, shuningdek, hobbitlarning so'z yasash strukturasi qadimgi ingliz tilidan olingan so'zlar ko'p ekanligini tushuntiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu guruh nomlarining semantik mazmuni romanning syujet kontekstida to'g'ri aks ettirilgan va ularning tarkibiy qismlarining haqiqiy semantik ma'nosiga mos keladi. Bunga misol qilib, murad sehrgar Sarumanning nomini keltirish mumkin: "Saruman" - "hunarmand, sehrgar", qadimgi inglizcha "searu" (san'at, jodugarlik, mahorat), ijobiy va salbiy ma'noga ega bo'lgan so'z.

Boshqa bir misol – "Guthwine" qilichi nomi – qadimgi inglizcha so'z bo'lib, «jangdagi do'st» degan ma'noni anglatadi – bu jangovar qilich uchun an'anaviy badiiy tasvir. "Ork" so'zining etimologiyasi ham qiziqarli, chunki u hozirda "fentezi" adabiyotida va kompyuter o'yinlarida keng tarqalgan. Ammo, "Orcus" lotincha so'zi, qadimgi Rim mifologiyasida qotil-iblis, iloh yoki o'lim dargohini ifodalovchi sifatida ko'proq ma'lum. J.R.R. Tolkin ushbu so'zni qirg'inchilik va vayronagarchilikka mukkasdan ketgan qabilani atash uchun ishlatishdan oldin, bu so'z biologlar tomonidan baliqlarning lotincha tur nomi sifatida asosan kitlar (shuningdek, "kit-qotil" deb ataladigan) turidek tanilgan edi. Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, ushbu toifadagi ism va atamalar asosga ega. (Qo'shimcha misollar – daryo bo'yidagi qoya tosh orolning nomi "Carrock" – qadimgi inglizcha "carr" (tosh, qoya) va "rocc" (qoya) so'zlaridan olingan, "Dernhelm" ismi – "maxfiy dubulg'a" – jangchi qiyofasiga kirgan qahramon tomonidan tanlangan ism.)

Rut Noel'ning glossariysida Islandiya ildizlari juda ko'p uchraydi, ular Tolkin tomonidan gnomlarning ismlarini yaratishda ishlatilgan. Semantik ma'no, garchi odatda bu ismlar tavsiflovchi xarakterga ega bo'lsa-da, ism tanlashda asosiy ahamiyatga ega bo'lmagan. Misollar: "Fundin" – «topilma», "Oin" – island tilidagi "oinn" – «qo'rqoq, qo'rqqan», "Thorin" – «jasoratli», "Thrain" – islan tilidagi "thrainn" – «qaysar», "Gandalf" – «elf-jodugar». [2] Ushbu guruhdagi ismlarning ba'zi bir tasodifiy tanlovi, masalan, "Hobbit"ning dastlabki versiyasida "Gandalf" ismi gnomga berilganini ko'rsatadi, keyinchalik esa u "Thorin" deb tanilgan. Tolkinning "Uzuklar Hukmdori"dagi tarix bilan bog'liq bo'lgan asarlarida ilgari hech qachon ishlatilmagan ko'plab ismlar uchraydi. Ikkita hobbit ismi istisno hisoblanadi: bu Tom va Sem (Semning to'liq ismi oddiy emas: Semuayz, ya'ni Sem Aqli). Odamlar ismlari ham boshqacha eshitiladi: Yomer, Yovin, Aragorn, Faramir va boshqalar. Hobbitlar ismlari: Bilbo, Meriadok, Peregrin, Hemfast; boshqa qahramonlarning ismlari: elf Legolas, odam Tom Bombadil. Ushbu ismlar uslubi butun asarning Skandinaviya o'rta asrlari stilizatsiyasiga aniq mos keladi.

Ko'pchilik hobbitlarni ixtiro qilingan mavjudotlar deb hisoblaydi, ularni ingliz yozuvchisi Jon R. R. Tolkin yaratgan deb o'ylaydi. Aslida esa, hobbitlar haqida ilgari ma'lumotlar mavjud edi. O'rta asrlar yozuvchisi Maykl Denxem, "Denxem traktatlari" asarida quyidagi xususiy mavjudotlar ro'yxatini keltirgan: "... ikkinchi nuxsalar, bog'lar, portunlar, grantlar, hobbitlar, hobgoblinlar, dannilar..." [1]

Ikkinchi toifaga tabiiy tillardan kelib chiqqan, ammo Tolkinning asarlari va leksikonlarida boshqa semantik talqinga ega bo'lgan so'zlar kiradi. Ba'zan bunday semantik metamorfozalar ma'no yaqinligiga, metaforik ko'chishga yoki asl ma'noning antonimik o'zgartirilishiga asoslanadi. Muallifning bunday semantik talqining misoli – ilgari aytib o'tgan "Earendel" so'zi. "Earendel" - bu qadimgi ingliz tilidan olingan so'z bo'lib, dastlab «ertalabki yulduz» yoki «tong» degan ma'noni anglatardi. Uning dastlabki kontekstida bu so'z anglosakson mifologiyasi va she'riyati bilan bog'liq bo'lib, u yorug'lik va umidni ramzlagan osmon jismini tasvirlash uchun metafora sifatida ishlatilgan. Bu so'z "Silmarrilion"da "Earendel" - nur ramzi bo'lgan va ilohiy mavjudotlar bilan bog'liq bo'lgan, Tolkinning voqealarida muhim rol o'ynaydigan qahramonni ifodalash uchun ishlatiladi.

Qiziqarli misol – "Orthanc" qal'asi nomi, bu semantik blendni tashkil etadi va asar voqealarida qiziqarli tarzda aks etadi. Qadimgi inglizcha "orthanc" so'zi, R. Noelning ma'lumotlariga ko'ra, «aql, mahorat, texnik san'at» degan ma'noni anglatadi, ammo "Sindarin" leksikonida bu so'zning boshqa ma'nosi mavjud – "mount fang", ya'ni tog', qoziqtish. Ikkala ma'no ham kontekstdan kelib chiqqan holda yuzaga keladi – qal'aning baland minorasi, tog' cho'qqisiga o'xshab, muhandislik san'ati durdonasi hisoblanadi va ilgari aytib o'tilgan sehrgar Sarumanning qarorgohi bo'lib xizmat qiladi. "Numenor" oroli nomi «g'arbda yer» degan ma'noni anglatadi, "numen" so'zidan olingan bo'lib, «g'arb» degan ma'noni bildiradi. Biroq, lotincha "numen" so'zi ruh ma'nosini anglatadi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda ma'no o'zgarishi metonimiyalidir va qadimgi keltlarning e'tiqodiga asoslanadi, ya'ni g'arb – ilohiy mavjudotlar va o'liklar ruhlarining yashash joyi deb hisoblangan. [2] Boshqa bir qadimgi misol – bu qadimgi Yunoniston mifologiyasida g'arbda, Yelisey orollari haqida afsonalar bor edi. Shuningdek, o'rta asrlar xristian Evropasida ham odamlar yerning jannatini g'arbda, Atlantika okeanidagi orollardan birida qidirishlari kerak deb hisoblashgan (bu bilim bog'liq ravishda, masalan, IX asrdagi Irlandiyaning "Ilohiy Brendanning sayohati" haqidagi eposini eslash mumkin) [9].

Atoqli otlarning uchinchi guruhi – eng kam sonli, lekin unga ikkita asosiy qahramonning ismlari – "Frodo" va "Bilbo" kiradi. R. Noel ushbu ismlarning etimologiyasiga o'zining talqinini taqdim etadi. Uning fikriga ko'ra, Bilbo – usta qilichga ega bo'lgan hobbitning ismi, Bilbao – Ispaniyaning po'latni kuydirish bilan mashhur bo'lgan bir hudud nomidan olingan. "Frodo" uning ta'rifiga ko'ra, qadimgi inglizcha "freoda" so'zidan kelib chiqqan – «himoyachi, qo'riqchi», bu, albatta, voqeaga mos keladi, lekin, ehtimol, oddiy tasodifdir – romaning dastlabki variantida bu ism boshqa bir qahramonga tegishli edi.

Kengroq ehtimolga ega bo'lgan versiya shundaki, "Frodo" ismi aslida "Froda" ning o'zgartirilgan shakli bo'lib, bu ism "Beowulf"da uchraydi va albatta, ingliz tili tarixini yaxshi bilgan, qadimgi ingliz eposi bo'yicha mashhur talqinchi bo'lgan professor J. R. R. Tolkin uchun juda yaxshi tanish bo'lgan.

Ko'rib chiqilgan atoqli otlar turlariga Tolkinning tillaridan olingan asoslardan hosil bo'lgan o'ziga xos ism va nomlar kiritilmagan. Bunday atoqli otlarning "ikkilamchi dunyo"ni yaratish va tashkil etishdagi funksiyalari ancha kengroq va ma'lum bir o'ziga xoslikka ega. Avvalo, atoqli otlar mavhum tushunchalarni, ayniqsa, xossalarni bildiruvchi abstract tushunchalarni tilda amalga oshirish uchun makonni ifodalaydi. Mavjud materiallardan ko'rinib turibdiki, Tolkin tillarida tabiiy tillarga xos bo'lgan noaniqlik yo'q, bu yerda "har bir so'z idrok etilgan narsani umumlashtiradi va qismlarga ajratadi. "Ma'no, vazn, o'lcham, shakl va boshqalar yaxlitlikdan alohida mavjud emas, lekin ularni ifodalovchi alohida so'zlar mavjud." Tolkinning sun'iy tilida, xususiyatni ifodalovchi element, ko'proq narsaga qora rang, balandlik va shunga o'xshash tushunchalarni yetkazadi va bu, ismga xos bo'lgan xususiyat kabi, uni butun holda ajralmas qilib ko'rsatadi. Shu bilan birga, «narsa xususiyat orqali nomlanadi, ... va o'z xususiyati bilan birga, shu xususiyatga ega bo'lgan narsalar sinfini ham ko'rsatadi» [8].

Bunday ma'lumot, atoqli otlarning tarkibi va xarakterida mavjud bo'lib, tilshunoslikda "ismga joylashtirilgan til ma'lumotlari" deb ataladi. Til ma'lumotlaridan tashqari, atoqli ot yana ikki turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: nutqiy va ensiklopedik. Nutqiy ma'lumotlar ostida ismning obyekt bilan bog'liqligi va ismni qo'llovchi shaxsning obyektga bo'lgan munosabati tushuniladi. Ushbu ma'lumotdan kelib chiqadigan birinchi xulosa shundan iboratki, "obyekt bilan dastlabki tanishuv allaqachon amalga oshgan, chunki bu – ismni nutqqa kiritish uchun zarur bo'lgan shartdir". Atoqli otlar ikkilamchi dunyoning predmetlik kategoriyasidan ekanligining kafolati sifatida qabul qilinadi, chunki real dunyoda "ism faqat narsa sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan fazo-vaqtning qismlari yoki chegaralariga beriladi" [11], hamda bu dunyoda haqiqat va yol'gon munosabatlarining mavjudligini bildiradi, chunki hatto begona atoqli otlar ham kamida presuppozitsiya illyuziyasini yaratadi.

Agar yuqorida keltirilgan birinchi jumla o'quvchi uchun tushunarli bo'lmasa, uning sababi shundaki, o'quvchi uchinchi turdagi ma'lumot – ensiklopedik ma'lumotlarga ega emas, ya'ni obyekt haqidagi bilimlar majmui. Ko'rinishidan, Tolkinning maqsadi, o'zining asarlarini misolida atoqli otda mavjud bo'lmagan ma'lumotni yaratish qobiliyati borligini isbotlash bo'lgan. Chunki ma'lumot ism tomonidan yaratilgan, tashqaridan tasdiqlanmagan, shuning uchun bunday ensiklopedik ma'lumot – afsonadir.

Tahlil va natijalar. Atoqli otlar Tolkin asarlaridagi sun'iy til materialining asosi bo'lib, tarixiy istiqbol hissini uyg'otish va ilmiylikdan chetga chiqmaslik imkonini beradi. Darhaqiqat, arxeologlar tomonidan topilgan matnlarda aynan xos nomlar tez-tez uchraydi va bu qadimiy onomastik tizimlarning qoldiqlari yo'qolgan tillarning xususiyatlarini saqlab qoladi va ularni hech bo'lmaganda qisman qayta tiklashga imkon beradi. Bundan tashqari, ismlarning umumiy semantikasi ularning hissiy-ekspressiv imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu kategoriyalar «bu guruhlar yoki alohida shaxslar uchun estetik qadriyatli, ularning go'zalligi yoki xunukligi, xushohangligi yoki yoqimsizligi bilan bog'liq» [11].

Tolkinda bu aniq kuzatilgan folklor tasviri emas, balki badiiy ixtiro mahsulidir, aniqrog'i, badiiy muallif tomonidan to'ldirilgan va batafsil ishlab chiqilgan folklor obrazidir. Uning barcha xalqlari - bu ma'lum bir inson turining tasviridir. Xobbitlar - bu mehribon, uyda o'tirmoqni afzal ko'radigan odamlardir, elflar - ijodiy tabiatga ega, intellektualar, gnomlar - hunarmandlar, mahoratli xalq ustalari, mehnatkashlardir. Tolkinda insonlar ham bor - O'rta yer xalqining odamlari, ular - yozuvchi haqiqiy insonlarni qanday ko'rishni xohlasa, shundaydirlar.

Shunday qilib, tasavvuriy dunyoni qurishda Tolkin ko'plab manbalarni, turli davrlar va xalqlar bilan bog'liq bo'lganlarni, ongli ravishda va maqsadli ravishda qayta ishlagan. Agar epik asarlarda ism va nomlar ta'sir yaratish vositasi bo'lsa, Tolkinda bu shuningdek, qahramonlarning xarakterini belgilash va ko'pincha - muallifning pozitsiyasini ifodalash imkoniyatidir.

Uning yaratgan nomlari ko'plab tasavvurlarni uyg'otadi, bu esa tasvirning ko'p qirraliligini yaratadi. Xayoliy mamlakat va vaqtdagi nomlar Tolkin tomonidan alohida e'tibor bilan ishlab chiqilgan, chunki ismlar - bu yashirin obrazlardir va yozuvchining vazifasi - isming mohiyatini asar ichida ochib berishdir.

Tolkinning kartografiyasi

Arda dunyosini yaratish, uning kosmogoniyasi, geografiyasi, tarixi, eposi va tillarini puxta ishlab chiqish

yozuvchilikning tasodifiy mahsuli emasdi, bu haqiqatnamolik yoki muhit yaratish vositasi ham emas, balki alohida qiziqishning maqsadi va predmeti edi.

Afsonaga ko'ra, "Xobbit" 1928 yilda professor Tolkining yozuv imtihon ishlarini zerikib tekshirib o'tirgan paytida, o'z-o'zidan bir qatorga tushgan yagona iboradan kelib chiqqan: "In a hole in the ground there lived a Hobbit" ("Yer ostidagi teshikda xobbit yashardi"). Tolkining tabiati uni xobbitlar kimlar, ular qaysi teshiklarda yashaydi, nega teshiklarda yashaydi va ular O'rta Yerdan qanday vazifaga ega degan savollarga javob topishga majbur qilgan. O'rta Yer xaritasi chizilmasdan turib, Xobbitaniya qarda joylashganini ko'rsatish mumkin emasdi, va shu jarayonda xobbitlarning kelib chiqishi, odatlari va urf-odatlari aniqlanib bordi - hamda ularning mamlakatidagi ichki bo'linish ham oydinlashdi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Tolkining hikoya qilish uslubi juda, agar shunday deyish mumkin bo'lsa, geografikdir. Qahramonlar doimo yo'lda bo'ladi: boshlang'ich nuqta, maqsad, yo'l qaysi hududdan o'tishi ham ma'lum. Bunday hikoya qilish uslubi batafsil va aniq xaritalarsiz to'liq bo'lmaydi. Tolkin Arda va O'rta Yer tarixidagi voqealarni tushunish maqsadida, shunday xaritalarni avval o'zi uchun chizgan. Keyinchalik bu xaritalar uning kitoblarida nashr etilgan.

Tadqiqotlar jarayonida dunyo tasavvuri tushunchasi zamonaviy lingvokulturologiya va semiotika sohalariga uzviy ravishda kirib borgan bo'lib, ularning vazifalariga dunyodagi bir nechta madaniyatlarining holatini va insoniyatning genezis jarayonlarini tushunish kiradi. Hozirgi tilshunoslik rivojlanish bosqichida, olamning lisoniy modellari inson haqidagi fanlar doirasida tavsiflanadi va talqin qilinadi. Olamning har qanday badiiy va lisoniy manzarasi nafaqat o'sha xalqning og'zaki ijodi, mifologiyasi, madaniyati, tarixi, an'analari va psixologiyasi kontekstida, balki tilshunoslik kontekstida ham ko'rib chiqiladi. Semantika va leksikografiyaning hozirgi rivojlanish bosqichidagi eng muhim vazifasi leksik va grammatik ma'nolarni tavsiflash asosida dunyoning soddani modelini qayta qurishdir.

"Uzuklar hukmdori"ni yaratishda Tolkin bolaligidanoq yaxshi bilgan sevimli Skandinaviya mifologiyasiga tayangan. Shunday qilib, muallifning mifologiyasida tasvirlangan til tasavvuri, o'z navbatida, atoqli otlar asosiga qurilgan, deb aytish mumkin.

ADABIYOTLAR

- Denham, M. A. (1859). The Denham tracts: A collection of folklore (James Hardy, Ed.). Folklore Society. (Original work published 1859). London, United Kingdom. pp. 45-50. / 416 pages.
- Noel, R. S. The languages of Tolkien's Middle-earth. Houghton Mifflin. Boston, USA. 1980. 224 p.
- Апресян Ю. Д. Избранные труды.- Т. II. Интегральное описание языка и системная лексикография. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1995.
- Беовульф. Старшая Эдда. Песнь о Нибелунгах. М.: Художественная литература, 1975.
- Губайловский В. Обоснование счастья: О природе фэнтези и первооткрывателе жанра / В. Губайловский // Новый мир. – 2002. – №3. – С. 174 – 185.
- Гумбольдт В. О. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. - М., 1984. - С. 156-180.
- Добровольская О. Фэнтези и фольклор / О. Добровольская // Литература. – 1996. – №43. – С. 13.
- Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. М., 1990.
- Онианс Р. На коленях богов. М., 1999. С.121
- Суперанская А.В. Общая теория имени собственного: Имя и общество; Статус имени собственного; Ономастическое пространство и классификация имен и др. Изд. 2-е, испр.

Zarnigor JABBOROVA,
ADCHTI tayanch doktoranti, o'qituvchisi
E-mail: zarnigorjabborova06@gmail.com

ADCHTI dotsenti, PhD D. Qozoqboyeva taqrizi ostida

MEDIALINGVISTIKADA INTERVYU JANRI VA UNING METODOLOGIYASI

Аннотация

Ushbu maqola medialingvistikada intervyu janrining muhim xususiyatlarini va uning tadqiqot metodologiyasini batafsil yoritib beradi. Diqqat markazida suhbat davomida qo'llaniladigan nutq strategiyalari va ularning tinglovchilarga bo'lgan ta'siri turadi. Intervyu janrini lingvistik va semiotik nuqtai nazardan o'rganish, ushbu janrning asosini tushuntiradi va tadqiqotchilarga suhbat matnlaridagi ma'lumotlar tuzilishi va ularning ma'no qatlamini chuqurroq anglashga imkon beradi. Bundan tashqari, maqola intervyu janrida ishlatiladigan til vositalarini va suhbatdoshlar o'rtasidagi dinamik munosabatlarni tahlil qiladi. Media matnlarida intervyu janrining samaradorligini oshirish uchun amaliy takliflar ham keltiriladi. Xulosa qilib aytganda, maqola Medialingvistikada intervyu janrining amaliy qo'llanilishi va uni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: media, medialingvistika, intervyu janri, metodologiya, diskurs, semiotika, diskurs tahlili.

МЕДИАЛИНГВИСТИКА ЖАНРА ИНТЕРВЬЮ И ЕГО МЕТОДОЛОГИЯ

Аннотация

Эта статья подробно освещает важные особенности жанра интервью в медиа лингвистике и его исследовательскую методологию. Основное внимание уделяется стратегиям речи, используемым во время беседы, и их воздействию на слушателей. Изучение жанра интервью с лингвистической и семиотической точек зрения помогает раскрыть его сущность и дает исследователям возможность глубже понять структуру информации и ее смысловые слои в текстах бесед. Кроме того, статья анализирует языковые средства, используемые в жанре интервью, и динамику взаимодействия между собеседниками. Также предлагаются практические рекомендации по повышению эффективности жанра интервью в медиатекстах. В заключение, статья демонстрирует практическое применение и способы совершенствования жанра интервью в медиалингвистике.

Ключевые слова: Медиа, медиалингвистика, жанр интервью, методология, дискурс, семиотика, анализ дискурса.

THE GENRE OF INTERVIEW IN MEDIALINGUISTICS AND ITS METHODOLOGY


Annotation

This article provides a detailed examination of the key features and research methodology of the interview genre within mediallynguistics. It focuses on the speech strategies employed during conversations and their impact on listeners. Studying the interview genre from linguistic and semiotic perspectives elucidates its fundamentals and enables researchers to better understand the structural and semantic layers of conversational texts. Additionally, the article analyzes the linguistic tools used in the interview genre and the dynamic interactions between interlocutors. Practical suggestions for enhancing the effectiveness of the interview genre in media texts are also presented. In summary, the article highlights the practical application and improvement strategies for the interview genre in mediallynguistics.

Key words: Media, mediallynguistics, interview genre, methodology, discourse, semiotics, discourse analysis.

Kirish. Ommaviy axborot vositalarining (OAV) jamiyatdagi mavqeyi va tilning rivojlanishiga qo'shgan ulushi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda nutqning eng ko'p tarqalgan va faol ishlatiladigan maydonlaridan biri sifatida ommaviy kommunikatsiya muhim o'rinni egallaydi. Shu sababli, OAV orqali tarqatiladigan matnlarni tahlil qilish juda zarur va dolzarbdir. Ayniqsa, zamonaviy tilshunoslikning medialingvistika sohasi, ommaviy axborot vositalarining tilga ta'sirini va undagi o'rni bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar bilan keng jamoatchilikning diqqatini tortmoqda. Mass-media diskursida

aynan intervyu janri katta talabga ega, chunki u analitik ma'lumotlarni osonroq qabul qilish imkonini yaratadi va ko'ngilochar ma'lumotlarni yanada jozibador, qiziqarli tarzda taqdim etishga yordam beradi. Bugungi kunda intervyular an'anaviy va zamonaviy media turlarida eng ommabop media materiallaridan biri hisoblanadi. Hech bir gazeta yoki jurnal intervyusiz chiqmaydi. Televizion va radiodasturlarda eng yuqori reytinglarga ega bo'lgan ko'rsatuvlar ham ko'pincha intervyu shaklida bo'ladi.



1-rasm. Intervyu janri keng qo'llanadigan tarmoqlar.

Intervyu – bu bir shaxsning boshqasidan axborot olish so'zidan kelib chiqadi va “bir-birini ko'rish, qisqa vaqtga bir- uchun o'tkaziladigan uchrashuvdir. So'z fransuzcha “entrevue” birini ziyorat qilish yoki nazar tashlash” degan ma'noni

anglatadi[1]. Hozirgi zamon fransuzcha “interview” soʻzi inglizchadan olingan. Jurnalistik maʼnodagi “kimdir suhbatga olib, eʼlon uchun bayonot olish” tushunchasi 1869-yildan boshlab Amerikan ingliz tilida qoʻllanilgan. “Ishga qabul qilish yoki ish bilan bogʻliq masalalarni muhokama qilish uchun shaxsiy uchrashuv” maʼnosi esa 1921-yilda shakllangan[2]. Intervyu — bu shaxsdan maʼlumot olish uchun oʻtkaziladigan uchrashuv (masalan, reporyor, televideniye sharhlovchisi yoki soʻrovchi tomonidan). Anglo-fransuzcha “entreveue” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, bu “uchrashmoq”, “bir-birini koʻrmoq” degan maʼnoni anglatadi. “Entre-” (inter-) va “veer” (koʻrmoq) soʻzlaridan tashkil topgan. Birinchi marta 1868-yilda ishlatilgan[3].

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari sharoitida tomoshabinlar intervyu jarayonida nafaqat maʼlumotni tushunish va talqin qilishda, balki olib boruvchilar va intervyu qahramonlari bilan haqiqiy munozarada faol ishtirok etish imkoniyatiga ega[4]. Intervyu, ommaviy kommunikatsiya vositalarining murakkab tizimining bir qismi sifatida, foydalanish chastotasi va bajarilish texnikasi boʻyicha eng yuqori pozitsiyalarni egallaydi, shuning uchun bugungi kunda u lingvistik tadqiqotlarning markazida turadi[5].

Jahon tilshunosligida xususan, rus tilshunoslaridan Tsvik V.L., Lavrinova N. I., Melekhova N.A., Ivanova I. V., Shvets E. V., Antoshintseva M. A., Kodola N. V., Sak A. N., Krasnoperova Yu. V., Kashkina O.V., Tkachenko A.O., Sabirova L.R., Afanasyeva I. V., Ilchenko S. N., Pavlova A. K. larning intervyu mavzusi doirasidagi ilmiy ishlari beqiyos ahamiyatga ega.

Intervyu janri publisistik uslubning eng keng tarqalgan janrlaridan biri sifatida hamda taʼsir etish doirasining kengligi tufayli koʻplab tilshunoslarning oʻrganish obyekti aylangan mediadiskurs turi sifatida oʻrganilmoqda. Intervyu janri barcha koʻrinishlarida tadqiqotda “hayotga singdirilgan” sifatida baholanadi. Bu jarayon studiyada nutq hodisasi va ommaviy auditoriya tomonidan yozilgan nutqni qabul qilishdan iborat. Hatto gazeta intervyusining chop etilgan matni ham ogʻzaki muloqotni yozma shaklga moslashtirish jarayonida namoyon boʻladi[6,10].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Intervyu janri publisistik uslub doirasida amalga oshiriladi va quyidagi xususiyatlarga ega: maqsadga yoʻnaltirilgan, selektiv tanlanadigan va baholovchi ekspressivlik, emotsionallik hamda taʼsirchanlik. Publisistikaning tasviriy ifodalash vositalarining asosiy atributlaridan biri ularning baholovchanligidir. Publisistik nutqning muhim jihatlardan biri, xususan intervyu janriga xos boʻlgan “ochiqlik”dir, yaʼni muallifning “men” shaklini toʻgʻri va bevosita ifodalash. Shu sababli, intervyularda jurnalistning shaxsiyati va individual xususiyatlari katta ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, intervyu janri publisistik sifatida oʻzining samaradorligi va natijadorligini taʼminlovchi oʻziga xos xususiyatlar va belgilar bilan tavsiflanadi[7].

Intervyu - bu ommaviy axborot vositalari diskursi sifatida, axborot bilan ishlash “intervyuier – intervyu qilinuvchi – auditoriya” zanjirida amalga oshiriladi[8].

XXasr 60-yillari intervyu maʼlumot toʻplash usuli sifatida rivojlangan.

Kodola N.V. oʻzining intervyuga bagʻishlangan “Интервью: Методика обучения.” kitobida antik davrda Sokrat oʻz dialoglarida intervyuni qoʻllagan ekanligini etirof etadi. Gerodot esa “Tarixi”ni oʻtkazilgan voqealar haqidagi maʼlumotlarni soʻroq qilish orqali yaratgan, bu esa vaqt oʻtishi bilan voqealarning unutilmasligini taʼminlash uchun zarur edi. Zamonaviy intervyuning dastlabki koʻrinishlariga XVIII asrda tarqalgan “muloqotlar” va “suhbatlar” ham kiradi. Ammo koʻpincha ular haqiqiy fikr almashishni nazarda tutmagan, balki asosan oʻquvchiga moʻljallangan edi, muallif oʻquvchi bilan aloqa oʻrnatishga intilgan. “Intervyu” soʻzi esa XIX asrning 60–80-yillarida nashrlarda paydo boʻlib, janr nomi sifatida tarqaldi, lekin darhol termin sifatida qabul qilinmagan deb izoh berib oʻtgan [9].

Natijalar. Sabirova L.R. “Intervyu” — bu suhbatlashuvchini ham, jurnalistning oʻzini ham mahorat va talantlarini namoyish qilish uchun juda chiroyli bir usuldir, chunki

jurnalist bu jarayonda deyarli asosiy qahramon hisoblanadi deb taʼrif beradi [10]. “Intervyu” atamasi “Media-lingvistikasi terminlari va tushunchalari” kitobida quyidagicha batafsil taʼriflanadi: “Intervyu – jurnalistik janr boʻlib, dialogik taqdimot shakliga asoslanadi. Dialogning asosiy mavzusi voqea yoki qiziqarli shaxs boʻlishi mumkin, shu sababli intervyu ikki shaklda boʻlishi mumkin: voqea haqida maʼlumot beruvchi yoki shaxs haqida”. Muallif intervyu media matnlaridagi “dialog drama” tushunchasiga alohida toʻxtalib oʻtadi[11].

Muhokama. Intervyu “xalq shakllari” toifasiga kirib, turli ijtimoiy qatlamlardagi odamlar tomonidan oson qabul qilinadi. Savol-javob shaklida tuzilgan matn intellektual farqni kamaytiradi. Suhbatdoshlar har doim intervyu olib boruvchining orqasida yashirinib, javoblarga qisqa savollar berish va ularning reaksiyalarini kutish imkoniyatiga ega. Bu usul suhbatni yanada qulay va oʻzaro aloqa qilish imkonini beradi[12].

Garchi intervyu axborot janrlariga kirsada, auditoriyaga yetkaziladigan maʼlumotlar insonning turli faoliyat sohalariga tegishli: siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, koʻngilochar. Bu, oʻz navbatida, baʼzi intervyularda standart til vositalari yordamida obyektiv faktlar keltirilishi mumkinligini, boshqalarda esa shaxsiy maʼlumotlar, obrazli ifoda, hissiy elementlar va suhbat nutqi qoʻllanilishining ustun boʻlishini tushuntiradi [8]. Har bir intervyuda asosiy masala — belgilangan maqsadlarga erishish hamda suhbatdoshning fikrlarini diqqat bilan tinglash orasidagi muvozanatni saqlashdir. Agar jurnalist intervyuni juda qattiqqoʻl tarzda yuritib, faqat oʻz rejasiga sodiq qolsa, bu suhbatdoshning aytishi mumkin boʻlgan zarur maʼlumotlarni oʻtkazib yuborish ehtimolini oshiradi. Shunday vaziyatlarda, qattiq berilgan savollar suhbatdoshning fikrlarini cheklab, ularning erkin ifodalanishiga toʻsqinlik qilishi mumkin. Romonova O.V. gazeta intervyusini manzillik yoʻnaltirilganlik va intertekstuallik nuqtai nazaridan chuqur oʻrganib chiqqan. Uning tadqiqotida gazeta intervyusi yozma shakldagi intervyu formati sifatida tahlil qilingan boʻlib, uning oʻziga xos jihati aslida intervyuning ilk ogʻzaki tabiati bilan belgilanadi. Bunday shaklga oʻtkazilganda ham, intervyu rejasiz, tabiiy kechadigan ogʻzaki muloqotning xususiyatlarini oʻzida saqlab qolishi alohida taʼkidlangan[14].

Xulosa. “Intervyu” atamasining maʼnosi vaqt mobaynida janrning oʻsishi, mamlakatdagi siyosiy muhit hamda boshqa lingvistik va ekstralingvistik omillar taʼsirida oʻzgarishga uchragan. Shunga qaramay, intervyu janri taʼrifida oʻzgarmas qolayotgan muhim jihat shuki, bu suhbat jamiyat uchun ahamiyatga ega boʻlib, nafaqat mavzuning dolzarbligi, balki unda ishtirok etayotgan shaxsning muammoga boʻlgan munosabatini bevosita yoki bilvosita ifodalash imkoniyati bilan ham belgilanadi.

Bu jarayon shunchaki savol-javob ketma-ketligidan iborat boʻlib qolmay, balki ilk bosqichlardan boshlab oʻziga xos uslubiy ifodalanihi bilan ajralib turadi. Bu esa intervyuga yangicha mazmun baxsh etib, unga muayyan yoʻnalish beradi. Eng muhim vazifa — oʻquvchi bilan muloqotni yoʻlga qoʻyish, uning qiziqishini uygʻotish va suhbatni faol qabul qilishga tayyorlashdir. Buning uchun vaziyatga kirish qisqa, emotsional va yangilangan yondashuvda taqdim etilishi lozim. Bir tomondan, intervyu kundalik dialog xususiyatlarini oʻzida aks ettirsa, boshqa tomondan, uning ichki kommunikatsiyasi qatʼiy mezonlarga boʻysunadi.

Umuman aytganda, medialingvistik izlanishlarda intervyu janrining tutgan oʻrni va uning metodologik asoslarini chuqur oʻrganish zaruriyati ayonlashadi. Intervyu janri media matnlarining lingvistik hamda semiotik jihatlari bilan ajralib turib, kommunikatsiya jarayonlarining ifoda shakllarini chuqurroq anglash imkoniyatini beradi. Mazkur janrni metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish, oʻz navbatida, tadqiqotchilarga intervyuning sotsiologik va pragmatik qirralarini kengroq tushunish imkonini taqdim etadi. Natijada, medialingvistik izlanishlar intervyu janrining ilmiy tadqiqotlardagi rolini mustahkamlab, media sohasidagi nutq amaliyotini yanada takomillashtirishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Etymology online, interview. Retrieved September 29, 2007.
2. <https://www.etymonline.com/word/interview>.
3. "Interview." Merriam-Webster.com Dictionary, Merriam-Webster, <https://www.merriam-webster.com/dictionary/interview>. Accessed 18 Sep. 2024
4. Мелехова Н.А. Исповедальное телевизионное интервью как речевой жанр масс-медиа дискурса. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ярославль, 2010. –С.8.
5. Иванова И.В. Жанр интервью: формы бытования и языковые особенности. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Астрахань, 2009. –С.3.
6. Антошинцева М. А. Невербальный компонент и его функции в коммуникативно-прагматической организации дискурса. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Санкт-Петербург, 2004. –С.10.
7. Кодола Н. В. Интервью. Методика обучения. Практические советы. Москва, 2011. –С.26.
8. Дубских А.И., Севастьянова В.С. Звездное» интервью: структурно- композиционный Вестник Томского государственного педагогического университета. – 2016. –С.25.
9. Колола Н. В. Интервью: Методика обучения. Практические советы: Учеб. Пособие для студентов вузов. Москва: Аспект Пресс, 2011. –С.7.
10. Сабирова Л.Р. Речевые особенности жанра интервью в татарском языке// Ученые записки казанского государственного университета. Том 151, кн. 5, ч. 1. 2009. –С.105.
11. Дускаева Л. Р. Металингвистика в терминах и понятиях: справочник-словарь. Москва: Флинта, 2018. –С.213.
12. Сыченков В.В. интервью-портрет как тип коммуникации. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Казань, 2007. –С.10.
13. Романова О. В. Адресованность и интертекстуальность газетного интервью как жанра журналистского дискурса. Автореферат. Екатеринбург, 2008. –С.3.



Shahboz ZARMASOV,
Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail:zarmasov.sh@gmail.com
Munofot SAYDAZAMOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

F.f.d I.Azimov taqrizi asosida

NATIONAL DEVICE OF MINIMAL SENTENCES IN USBEK

Annotation

This article discusses the development of the sentence construction, which is considered the highest level in the semantic structure of the language, based on various logical laws. In this process, it is said that minimal sentence constructions are formed by generalizing and idealizing the most important features of simple sentences in the speech of native speakers. The model is recognized as an idealized intellectual device. It is emphasized that syntactic models, which are high-level generalizations of language units, are used under different names in Uzbek linguistics, and the concept of the module, supported by G. Toirova, does not fully correspond to the content of the model. Also, in the process of creating a national structure of minimal sentences in the Uzbek language, the works of M. Kurbanova, N. Abuzalova, D. Nabiyeva and O. Tojiyev on the smallest structural patterns of sentences are critically analyzed. It is also emphasized that in their studies, the smallest sentence patterns formed as a result of the mixture of international and national models were evaluated by the authors not as international or national models, but as universal models, and generalized national models of minimal sentences based on the linguocultural principle are developed based on the laws of formal logic and dialectical logic.

Key words: Modeling, national model, international model, universal model, abstraction, language levels, idealization, syntactic construction, sentence, syntactic level, linguistic-syntactic pattern, minimal simple sentence model, linguocultural principle, syntactic construction.

НАЦИОНАЛЬНЫЙ АППАРАТ МИНИМАЛЬНОГО ПРЕДЛОЖЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье структура предложения, являющаяся высшим уровнем в строении языка, разрабатывается на основе различных логических законов. Говорят, что в этом процессе минимальные конструкции предложений формируются путем обобщения и идеализации наиболее важных особенностей простых предложений родной речи. Модель признается идеализированным мыслительным устройством. Говоря о том, что в узбекском языкознании под разными названиями используются синтаксические модели с высоким уровнем генерализации языковых единиц, подчеркивается, что понятие модуля, оставленное Г. Тойровой, не в полной мере соответствует содержанию модели. Также в их исследованиях критически анализируются работы М. Гурбановой, Н. Абузаловой, Д. Набиевой и О. Тоджиева по наименьшим моделям построения предложения в формировании национального аппарата минимальных предложений в узбекском языке. наименьших моделей предложений, образовавшихся в результате смешения интернациональных и национальных моделей, также подчеркивается, что авторы оценивали ее не как интернациональную или национальную модель, а как универсальную модель и, основываясь на законах формальной логики и диалектической логики, обобщение минимальных предложений по лингвокультурологическому принципу является национальным. модели разрабатываются.

Ключевые слова: Моделирование, национальная модель, международная модель, универсальная модель, абстракция, языковые уровни, идеализация, синтаксическая конструкция, предложение, синтаксический уровень, лингво-синтаксическая модель, модель минимального простого предложения, лингвокультурологический принцип, синтаксическая конструкция.

O‘ZBEK TILIDA MINIMAL GAPLARNING MILLIY QURILMASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilning pog‘onali tuzilmasida eng yuqori bosqich sanalgan gap konstruksiyasining turli mantiqiy qonuniyatlar asosida ishlab chiqilishi haqida so‘z yuritiladi. Bu jarayonda minimal gap konstruksiyalari til egalari nutqidagi sodda gaplarning eng muhim xususiyatlarini umumlashtirish va ideallashtirish orqali hosil qilinishi aytiladi. Model ideallashtirilgan fikriy qurilma sifatida e‘tirof etiladi. Til birliklarining yuqori darajali umumlashmasi bo‘lgan sintaktik modellarning o‘zbek tilshunosligida turli nomlar bilan ishlatilishini aytib, G.Toirova tomonidan qo‘llangan modul tushunchasi modelning mazmuniga to‘la muvofiq kelmasligi alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, o‘zbek tilida minimal gaplarning milliy qurilmasini hosil qilishda M.Qurbonova, N.Abuzalova, D.Nabiyeva va O.Tojiyevning gapning eng kichik qurilish qoliplari borasidagi ishlari tanqidiy tahlil qilinadi, ularning tadqiqotlarida xalqaro va milliy modellar aralashuvi natijasida hosil qilingan eng kichik gap qoliplari mualliflar tomonidan xalqaro yoki milliy model deb emas, universal model sifatida baholanganligi ham ta’kidlanadi va formal mantiq va dialektik mantiq qonuniyatlari asosida lingvomadaniy tamoyil tayangan minimal gaplarning umumlashma milliy modellar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Modellashirish, milliy model, xalqaro model, universal model, abstraksiya, til sathlari, ideallashtirish, sintaktik konstruksiya, gap, sintaktik sath, lisoniy-siktaktik qolip, minimal sodda gap model, lingvomadaniy tamoyil, sintaktik konstruksiya.

Kirish. Ma’lumki, gap til birliklarining nutqiy reallashuvida eng yuqori konstruksiya sanaladi. Ana shundan kelib chiqqan holda lingvistik tushunchalarni modellashtirish masalasi, dastlab, sintaktik sathda maydonga keldi. Tilshunos olimlar tomonidan sintaktik tuzilmalar fonema, morfema, leksema kabi kichik birliklar modellarning munosabatidan hosil bo‘lgan

eng yuqori umumlashma sifatida e‘tirof etildi. Jumladan, Sepirning simvolizatsiyaga oid farazlari [3]ga tayangan formal tillar grammatik nazariyasi ham so‘z turkumlari, gap bo‘laklari va gap konstruksiyalari asosida ish ko‘radi [7]. V.I.Degtaryov gapda ham til va nutq dialektikasi mavjudligini ta’kidlaydi [10]. Fransuz tilshunosi Lyusyen Tenyer esa verbosentrizm konsepsiyasini ilgari

suradi. Unga ko'ra gapning markazi – gap bo'lagi sifatida kesim, so'z turkumi sifatida fe'ldir [15]. Shu tariqa gap konstruksiyalarining eng soddaga (primitiv) modeli ma'lum so'z turkumiga mansub gap bo'laklari modeli ekanligi oydinlashadi. L.Teneyning tobelik grammatikasi (tobelik daraxti) modelida gapdagi so'zlar o'zaro tobelik munosabatida bo'ladi. Kesim dominant bo'lak (daraxtning ildizi), boshqa gap bo'laklari kesimga tobelanadi [7].

XX asrning 50-yillarida amerikalik olim Charlz Friz tomonidan gap strukturasi modelashtirish g'oyasi olg'a suriladi. Charlz Friz distributiv model deb nomlangan konsepsiyasini yaratadi. Unga ko'ra, gap muayyan so'z turkumlariga oid bo'lgan so'zlar zanjiri hisoblanadi va tahlilda morfologiya bazasiga tayaniladi [6]. Z.Harrisning til strukturasi transformatsiya xususidagi qarashlari ta'sirida transformatsion grammatika shakllandi. Unga ko'ra har qanday til grammatikasi yadro strukturalar yig'indisidir. Sintaktik sathda minimal soddaga gaplar yadro strukturalar sifatida tushuniladi [4].

Gaplarning turli tillarda tavsiya etilgan bir qancha konstruksiyalari bor. Ingliz tilida yadro gaplar sifatida 7 xil konstruksiyalar ajratiladi [2], rus tilshunosi Babayeva esa bir sostavli gapning X-P (subyektsiz predikat ifodalangan gap, ya'ni egasiz kesim gap) hamda P-X (predikatsiz subyekt ifodalangan gap, ya'ni kesimsiz ega gap) modellarini ko'rsatadi [14]. Har bir tildagi yadro gaplar modeli o'sha til egalari nutqidagi soddaga gaplarning eng muhim xususiyatlarini umumlashtirish va ideallashtirish orqali hosil qilinadi. Shu nuqtai nazardan model tilshunoslar tomonidan lingvistik hodisaning ideallashtirilgan qurilmasi sifatida talqin etiladi. O'zbek tilida ideallashtirilgan minimal gap modeli ko'p emas.

O'zbek tilshunosligida til birliklarining eng yuqori umumlashmasi hisoblangan sintaktik birliklarni modelashtirish masalasi A.Nurmonovning monografik ishi bilan kirib kelgan bo'lsa [4], keyinchalik, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova [12], D.Nabiyeva [13], D.Lutfullayeva, M.Abuzalova [1], S.Nazarova kabi tilshunos olimlarning ishlarida ham bayon etiladi. Ularda gapning qurilish qoliplariga nisbatan "struktur model", "struktur sxema", "gap qolipi", "gap modeli" terminlari qo'llaniladi. Sintaktik hodisalarning umumlashmasi bo'lgan struktur sxemalar o'zbek tilshunosligida sintaksema, kognitema [11], konstrukt, model, qolip atamali bilan ham yuritiladi. Muxin sintaksema, E.F.Krilov kognitema, G.Toirova modul terminini qo'llaydi. G.Toirova tomonidan qo'llangan modul tushunchasi modelning mazmuniga to'la muvofiq kelmaydi [5].

Lingvistik modelashtirish masalasida M.Qurbonovning doktorlik dissertatsiyasi [12] alohida o'rin egallaydi. Unda lisoniy-sintaktik qolip [LSQ] ning qurilish chizmasi va tarkibi, shakl va mazmun munosabati, turlari hamda nutqiy voqelanishi orasidagi umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, invariant-variantlilik kabi munosabatlar, leksema va so'z birikmasi munosabatlari, gapning lisoniy-sintaktik qolipida kengayish omili kabi masalalariga e'tibor qaratilgan. M.Qurbonovning fikricha, so'z birikmasi va gap konstruksiyalari lisoniy-sintaktik qolip bo'lib, ularning tashkil etuvchilari o'zidan quyiroq lisoniy birlik bo'lishi, ma'lum munosabatlarga kirishishi, yangi butunlik tarkibiga birlashib, sintaktik birlikni berishi lozim. U boshqa tilshunos olimlar qatorida sintaktik konstruksiyalar kichik til birliklari konstruksiyalari ekanligini ta'kidlaydi.

Chunonchi, olimga gapning kichik qurilish qolipi [WPm] dagi har ikki ramz ham ana shunday yuqori darajali umumiylik ekanligini bayon qiladi: [W] nutqda atash vazifasini bajaruvchi har qanday birlikning ramzi bo'lib, so'zga ham, so'z birikmasiga ham, frazeologik birlikka ham, ajralmas sintaktik butunlikka ham teng, ulardan istalgan biri orqali ifodalanishi mumkin, shu bilan birga, [Pm] kesimlik kategoriyasi, bu qism ham xuddi shunday umumiylik belgisiga ega, kesimlik kategoriyalarini tashkil etuvchi grammatik ma'nolar yig'iq, yoyiq va analitik shaklda voqelanishi mumkin. Uning e'tirof etishicha, gapning kichik qurilish qolipi [WPm] (o'zbekcha muqobili [14] - AK_K) dan lisoniy-sintaktik qolip [LSQ] ning tarkibiy qismlaridan biri chiqarib tashlansa, gapning xususiyati yo'qoladi. Chunki, lug'aviy ma'noga egalik -

[W] nominatsiya sathi birligi, kesimlik ko'rsatkichlari qismi - [Pm] morfologik sath birligidir.

M.Abuzalovning tadqiqoti gapga lingvistik birlik sifatida yondashgan holda uning mohiyatini aniqlashga qaratilgan [1]. M.Abuzalova kesim vazifasida kelayotgan birlikning ikki qismdan iborat bo'lishi: buni bir tomondan, lug'aviy ma'noga egalik - [W] bilan, ikkinchi tomondan, kesimlik ko'rsatkichlari qismi - [Pm] bilan belgilaydi va shu orqali gapning eng kichik qurilish qolipini, xuddi, M.Qurbonova kabi [WPm] tarzida beradi. Bunda W – inglizcha Word so'zidan olingan bo'lib, u har qanday nominativ birlikni anglatadi, P – predikat so'zidan, m – marker so'zlaridan olingan, u predikativlik (kesimlik) ko'rsatkichini bildiradi.

D.Nabiyeva sintaktik sathda invariant-variantlilik masalasini alohida e'tibor qaratadi. U oliy darajali umumlashma sanalgan gap konstruksiyasining ko'pgina adabiyotlarda [Pm] ishorasi bilan ifodalanishini aytib, bu belgini predikativlik belgisini o'zida namoyon etgan sintaktik birliklarning invarianti deb belgilaydi. Shundan so'ng, u [Pm] cheksiz gaplar uchun shakliiy umumlashtiruvchi belgini o'zida aks ettiradi. Demak, gaplarning ham mazmuniy, ham shakliiy tomonini e'tiborga olgan holda, gapning eng ixcham ko'rinishi [Ppm] iborat bo'lishini aytadi. Bu yerda [P] – propozitsiya (mazmun)ni, [p] – predikatni, [m] – predikativlik shaklini ifodalaydi. D.Nabiyeva ha, yo'q, shaksiz, albatta, so'zsiz, assalomu alaykum, vaalkum assalom, marhamat, xayr kabi so'z-gaplarning invariantini [Pm] qolipiga teng kelishini ham aytib o'tadi.

D.Nabiyeva tomonidan invariant sifatida ko'rsatgan so'z-gaplarning [Pm] qolipi haqida mulohaza yuritishdan, avval, A.Teneyning quyidagi fikrlarini keltirish lozim: "Predikativlik predikat aloqaning aynan o'zidir, predikativ aloqa kesimga tushadi, kesim esa o'z navbatida fe'ldir [8]. Demak, so'z-gaplarda kesim sifatida fe'l ishtirok etmayotgan ekan, u holda uning qolipida ham predikat modelini keltirish lozim bo'lmaydi. Biroq predikativlik nol shaklda ifodalanganligi uchun uning modeli umumiy model tarkibida saqlanib qoladi.

Yana bir masalaga e'tibor qaratish lozim: D.Nabiyeva tomonidan ayrim adabiyotlarda gap konstruksiyasining [Pm] ishorasi bilan ifodalanishini aytiladi. Bu ishorada [P] – predikatni, [m] – predikativlik shaklini ko'rsatmoqda. So'z-gaplarda propozitsiya va predikativlik mavjudligini e'tiborga olsak, olimaning o'zi tomonidan tavsiya etilgan so'z-gaplarning [Pm] modelida [P] – propozitsiyani, [m] – predikativlikni ifodalaydi. Bu esa gapning kichik qurilish qolipi va so'z-gap modellarida shakliiy bir xillikni keltirib chiqaradi.

O.Tojiyev minimal soddaga gap modelini [P] tarzida belgilab, uning xilma-xil so'zlardan moddiylashishi mumkinligini aytib o'tadi va ot predikat modelini [P_NW]; fe'l predikat modelini [P_VW] tarzida ifodalaydi [8]. Shuningdek, kuzatish bosqichidagi har qanday real soddaga gaplar yuqoridagi modelning moddiylashishidan hosil bo'lishini ham ta'kidlaydi va ot predikatni egalik, kelishik formalarida hamda ko'rsatkichsiz shaklda modelashtiradi. Jumladan, bosh kelishikdagi ot bilan ifodalangan predikat (ot-kesim)ni tasniflovchi gap sifatida [P_NW] tarzida modelashtiradi [8].

D.Lutfullayeva yo'qlikni bildiruvchi gaplarning kishi ongida mujassamlashgan eng ixcham semantik-sintaktik qolipini [YKSH] ramziy ifodasi sifatida beradi. Bunda [Y] – yo'qlikni ifodalovchi lisoniy birlik bo'lib, formal-funksional tadqiqotlarda qayd etilgan [W] – atov birligiga, [KSH] – kesimlik shakli esa [Pm] – predikativlik kategoriyasiga mos keladi.

Ko'rish mumkinki, o'zbek tilidagi minimal gap uchun M.Qurbonova va M.Abuzalova [WPm]; D.Nabiyeva minimal gap uchun [Ppm] hamda so'z gaplar uchun [Pm]; O.Tojiyev minimal gaplar uchun [P] tarzida, D.Nabiyevaning keltirishicha, ayrim mualliflar [Pm] modelini kichik gap konstruksiyasi sifatida berishmoqda. Ushbu modellar xalqaro va milliy modellar aralashuvi natijasida hosil qilingan bo'lsa ham, tilshunos olim tomonidan xalqaro yoki milliy model atamasi ishlatilmaydi, universal model sifatida yaxlit beriladi.

Biz esa til egalarining nutqidagi minimal gaplarning umumlashma milliy modellari lingvomadaniy tamoyil asosida quyidagi ko'rinishda beramiz:

Predikativlikni o'zida aks ettirgan har qanday predikat minimal gapdir [8]. Demak, predikat tarkibida nol shaklda bo'lsa ham predikativlik mavjud. Bu cheksiz gaplar uchun shakliiy umumlashtiruvchi belgini o'zida aks ettirgan $[P^3]$ milliy modelida belgilashga turtki bo'ladi. Bu yerda propozitsiya + predikat + predikativlik uchligi yuzaga chiqadi. Ushbu modeldan ot predikat $[P_{ot}^3]$ hamda fe'l predikat uchun $[P_f^3]$ milliy modelini belgilash mumkin. So'z-gaplar esa propozitsiya + predikativlik sxemasida tuzilgan $[P^2]$ modelida beriladi. Ushbu milliy modellarni, xuddi, $[Wpm]$ kabi lisoniy-sintaktik qolipning eng yuksal umumiyli-ginvarianti, nutqiy hodisa sifatidagi gaplarning grammatik va struktur xususiyatlarini mujassamlashtirgan mavhum qurilma sifatida e'tirof etish mumkin. Shuningdek, o'zbek tilidagi minimal gaplarning $[Kk_{hukm}]$ milliy modelini ham keltiramiz. Bu yerda, $[Kk]$ – kesim va kesimlik kategoriyalarini ifoda etadi.

O'zbek tilida minimal gaplar umumiyli-gi uchun mana shunday bir qancha modellarning berilishi "model yagona nusxada beriladi", degan fikrning inkor etilishini taqozo qiladi va aksincha, "model nisbiy xarakterga ega, u bevosita kuzatishda berilgan ma'lumotlarni qo'shimcha belgilaridan soqit qilish va eng muhim belgilarini tadqiqotchi yondashuviga ko'ra umumlashtirish asosida ideallashtirilgan fikriy qurilmaning invariantidir", degan nazariyaga tayanishga olib keladi.

Shu ma'noda gap konstruksiyalari formal mantiq hamda dialektik mantiq asosida ishlab chiqiladi. Formal mantiq qonun-qoidalari asosida ishlab chiqilgan subyekt + predikat tuzilmasidagi $[S + P]$ modelining nutq qurshovi uning quyi sath birliklarining umumlashmasi ekanligini yaqqol aks ettiradi. Dialektik mantiq qoidalari asosida ishlab chiqilgan va ko'pchilik tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan $[Wpm]$ modelida quyi birliklar kombinatsiyasini aniqlash birmuncha murakkab. Chunki, formal mantiqqa ko'ra subyekt + predikat formulasi asosida ishlab

chiqilgan modellar A.Tenerning ikki cho'qqili nazariyasi asosida tarkibli gaplarni o'z ichiga oladi. Vaholanki, nutqda A.Tenerning bir cho'qqili nazariyasiga asoslangan bir tarkibli gaplar ham faol qo'llanadi va ular M.Qurbonova va M.Abuzalovaga ko'ra $[WP_m]$; D.Nabiyevaga ko'ra $[Ppm]$ va $[Pm]$; O.Tojiyevga ko'ra $[P_NW]$ va $[P_VW]$ modellari hamda bizning tadqiqimizga ko'ra propozitsiya + predikat + predikativlik uchligidan tuzilgan $[P^3]$ hamda propozitsiya + predikativlik ikkiligidan tuzilgan $[P^2]$ milliy modellari-ga umumlashtiriladi.

O'zbek tilida formal mantiq qonun-qoidalari asosida ishlab chiqilgan minimal sodda gaplar milliy modelini $[E \rightarrow K]$, to'ldiruvchilar bilan kengaytirilgan gaplar milliy modelini esa $[E + T \rightarrow K]$ ko'rinishida ifodalaymiz. Bu yerda E - ega, gapning subyekt, K - kesim, gapning predikatidir. Ega va kesim munosabati gapni tashkil etishi esa barchaga ma'lum. Gapning ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengayishi turlicha bo'ladi. Masalan, Biz universitetga keldik, gapida hol kengaytiruvchi vazifasini bajar-moqda. Ushbu gapning milliy modeli $[E + H \rightarrow K]$ ko'rinishli bo'ladi. Ushbu konstruksiya tarkibiga millionlab gaplarni kiritish mumkin: Men uyga kelgim. U qishloqqa boradi. Sen uydan chiqdingmi? kabi. Yuqoridagi gaplarni tashkil etuvchi komponentlarning qaysi turkumga mansubli-gi, sintaktik birliklarning morfologik birliklar bilan munosabatini $[E_o + H_{ot} \rightarrow K_f]$ milliy modelida aks ettirish mumkin. Bu munosabat morfologiya va sintaksis hamkorligini ta'minlab, Charlz Friz aytganidek, gap muayyan so'z turkumlariga oid bo'lgan so'zlar zanjiri hisoblanishi va sintaktik abstraksiyalar morfologik abstraksiyalardan tuziladi degan xulosani keltirib chiqaradi.

Xulosa. O'zbek tilida minimal gapning milliy modeli til egalari nuqtidagi cheksiz gaplar uchun yadro konstruksiya sanaladi. Biroq u yagona nusxaga ega emas, balki nisbiy xarakterga ega. Demak, turli tillarda minimal gaplarning modeli o'sha tilning milliy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tadqiqotchi yondashuvi bilan turli shaklda bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Abuzalova M.Q. O'zbek tilida sodda gaplarning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi: Filol.fanlari nomzodi.diss.avtoref. –Toshkent, 1994.
2. Херрис З.С. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре // Новое в лингвистике. Выпуск II. – М., 1962. – С. 627-628.; Компьютер лингвистики asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 160 bet. – B. 42.
3. https://studopedia.ru/6_11435_ponyatie-i-sostav-lingvisticheskogo-obespecheniya.html (saytga murojaat sanasi: 02.01.2021)
4. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – T.: Fan, 2008. – B. 140-141.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 215-216.
6. Pulatov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2011; Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent, 2012. – B. 32.
7. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2011. – 160 b.
8. Tojiyev O. O'zbek tilida ot asosli sodda gaplarning mazmuniy va sintaktik tuzilishi. Monografiya. – Toshkent: "Book trade 2022" nashriyoti, 2023. 114 bet, – B. 30.
9. Абдухамид Нурмонов. Танланган асарлар. I жилд.
10. Дегтарёв В.И. Основы общей грамматики. Изд. Ростовского университета, 1973. – стр. 11.
11. Крилов Е.Ф. Теоритические проблемы моделирования языка. – Изд. КазГУ, 1989. – С. 17.
12. Курбонова М. Ўзбек тилида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини. Филол. Фанлари доктори.дисс.автореф. –Тошкент, 2001.
13. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик ва хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2005. – 166 бет.
14. Нурмонов А.Н. Проблемы системноисследования синтаксиса узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1982.
15. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988. – С. 12.



UDK: 81'42:001.8(575.1)

Kunduz IBODULLAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: k.ibodullayeva1996@gmail.com

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

INTERTEXTUALITY IN SCIENTIFIC DISCOURSE (EXAMPLE OF PHILOLOGICAL ARTICLES IN UZBEK)

Annotation

Intertextuality analyzes the text as a whole, where texts originating from different discourses intersect and are arranged. Studying the phenomenon of intertextuality in scientific discourse is considered one of the important issues facing linguistics. This article analyzes issues related to the reflection of intertextuality in scientific discourse. The study of the theory of intertextuality in linguistics, its characteristics, types and means of creating intertextuality are thoroughly analyzed on the example of scientific articles in the field of philology.

Key words: Scientific discourse, discursive analysis, category of intertextuality, text linguistics, discursive approach, intertextual communication, communicative approach, cognitive-discursive paradigm, academic speech, scientific text.

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТЬ В НАУЧНОМ ДИСКУРСЕ (НА ПРИМЕРЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ СТАТЕЙ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ)

Аннотация

Интертекстуальность анализирует текст в целом, где пересекаются и компонуются тексты, происходящие из разных дискурсов. Исследование феномена интертекстуальности в научном дискурсе считается одним из важных вопросов, стоящих перед лингвистикой. В данной статье анализируются вопросы, связанные с отражением интертекстуальности в научном дискурсе. Исследование теории интертекстуальности в лингвистике, ее характеристики, виды и средства создания интертекстуальности подробно анализируются на примере научных статей в области филологии.

Ключевые слова: Научный дискурс, дискурсивный анализ, категория интертекстуальности, лингвистика текста, дискурсивный подход, интертекстуальная коммуникация, коммуникативный подход, когнитивно-дискурсивная парадигма, академическая речь, научный текст.

ILMIY DISKURSDA INTERTEKSTUALLIK (O‘ZBEKCHA FILOLOGIK MAQOLALAR MISOLIDA)

Annotatsiya

Intertekstuallik matnni umumiy jihatdan tahlil qiladi va bu yerda turli xil nutqlardan kelib chiqadigan matnlar kesishadi va tartibga solinadi. Ilmiy diskursda intertekstuallik hodisasini o‘rganish tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada ilmiy diskursdagi intertekstuallikni aks ettirish bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan. Intertekstuallik nazariyasining tilshunoslikda o‘rganilishi, xususiyatlari, turlari va intertekstuallikni yuzaga chiqaruvchi vositalar filologiya sohasiga oid ilmiy maqolalar misolida atroflicha tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: Ilmiy diskurs, diskursiv tahlil, intertekstuallik kategoriyasi, matn tilshunosligi, diskursiv yondashuv, matnlararo aloqa, kommunikativ yondashuv, kognitiv-diskursiv paradigma, akademik nutq, ilmiy matn.

Kirish. Bugungi kunda jahon tilshunoslikda rivojlanib borayotgan antroposentrik paradigmaga ko‘ra, insonning tafakkuri, tashqi olamni idrok etishi til bilan bevosita bog‘liqligi natijasida kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatlingvistika kabi yo‘nalishlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Shu jumladan, matn turlari, diskurs va matn munosabati, matn yaratilishi va qabul qilinishi, matnning tuzilishi, tarkibi, uning lingvistik xususiyatlari kabi masalalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu masalalarga doir ko‘plab tadqiqotlar yaratilgani holda, endi bevosita, diskurs tahlili va turlari, diskursiv tahlil doirasida intertekstuallikning ahamiyati haqidagi ishlarga ham ehtiyoj tug‘ilmoqda.

Til dunyoni bilishning birlamchi vositasi hisoblanar ekan, diskurs ham ayni shu ma‘noda muhim masala sifatida yashovchan va e‘tibortlab tadqiqot obyekti sanaladi. Shu bois diskurs masalasiga alohida e‘tibor qaratish va uning mohiyatini anglab yetish lozim bo‘ladi.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘tgan o‘n yilliklar mobaynida “diskurs” terminiga ko‘p murojat qilindi va bu yuzasidan xilma-xil munosabatlar bildirildi. Diskurs” termini tilshunoslikda o‘tgan asrning 50-yillarida birinchi marta tilga olina boshlagani ma‘lum, dastlab bu ibora amerikalik tilshunos Z.Xarrisning 1952-yilda nashr etilgan “Diskurs tahlili” deb nomlangan maqolasida ishlatilgan [1].

Diskurs tadqiqotlari doirasida qilingan ishlardagi talqin va izohlarning xilma-xilligi bu tushunchaning ko‘p qirrali hamda keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi. Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari bo‘lgan kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasida ham diskurs tahlillar katta ahamiyatga ega. Filologiya fanlari doktori, professor N. Abduraxmonova “kompyuter lingvistikasi” darsligida diskursni quyidagicha ta‘riflaydi. “Ma‘lumot almashinish yoki uzatish uchun bir yoki bir nechta kishilar tomonidan ketma-ketlikda tuzilgan gaplarning kengaytirilgan shakli” [2].

Ko‘plab tadqiqotlarda diskurs, avvalo, ifodalaniş xususiyatiga ko‘ra, ikki turga: o‘g‘zaki va yozma kabi boshlang‘ich guruhlariga bo‘linishi aytib o‘tilgan. Diskurs tahlili doirasida qilingan ishlarda matn va diskurs aloqasida farqlanishi lozim bo‘lgan jihatlar bilan birgalikda, bu tushunchalarni ziddiyatli hodisalar sifatida o‘rganish ma‘qul emasligi ta‘kidlanadi. Zero, diskurs bir tamondan til va jamiyat o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rganar ekan, biz tadqiq qilayotgan til hodisalariga bevosita daxldorligi bilan e‘tiborni tortadi. Negaki diskursiv faoliyat nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni hisoblanadi. Jahon tilshunosligida intertekstuallik masalasi yuzasidan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu izlanishlarda intertekstuallikning xususiyati, turlari va intertekstuallikni yuzaga chiqaruvchi vositalar atroflicha o‘rganilgan. Intertekstuallik fransuz olimasi Y.Kristeva tomonidan 1967-yilda ilmiy

muomalaga kiritildi. Uning “Baxtin, soʻz dialog va roman” nomli ilmiy risolasida ilk bor bu termin qoʻllangan. Olima intertekstuallik hodisasi asosan ilmiy va badiiy matnda uchrashini taʼkidlab, koʻproq badiiy matndagi intertekstuallik tamoyiliga urgʻu bergan [3]. Zamonaviy dunyoda ilm-fanning oʻziga xos oʻrni tufayli ilmiy diskurs maxsus lingvistik tahlil uchun shubhasiz qiziqish uygʻotadi. Intertekstuallikning asosi matn qismlarining bir-biri bilan, bir muallifning matnlari boshqa

mualliflar matnlari bilan, shuningdek, pretsedent hodisalar bilan matnning koʻp oʻlchovli bogʻlanishidir. Yangi matn va oldingi matn oʻrtasida shaxsning butun madaniy va tarixiy tajribasini oʻz ichiga olgan umumiy matnlararo makon mavjud. Demak, barcha yaratilgan matnlar, bir tomondan madaniy kontekst, adabiy anʼana bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan intertekstdir. Matn va diskurs tushunchalari oʻrtasidagi munosabatni quyidagi chizma orqali ifodalashga harakat qildik.



1-chizma “Matn-diskurs” munosabati modeli (ilmiy maqolalar asosida)

I bosqich: muallif (maʼruzachi) oʻzining ilmiy ishi matnini yaratadi. Shu bilan birga u allaqachon yaratilgan matnlarga (matn1, matn2, matn3 va boshqa) yoki boshqa mualliflarning matnlariga tayanadi. Shuningdek muallif oʻzi yaratgan matnlarga ham murojat qilishi mumkin.

II-III bosqich: Yozma matn nutq mahsulotiga aylantirish bosqichi, ham ekstralingvistik omillar, ham adresat (tinglovchilar) taʼsiri bilan birga keladi. Bu bosqich nutqning shakllanish bosqichi hisoblanadi.

IV bosqich. Yozma nutqni tuzatish va yangi matnga aylantirib oʻquvchi va tinglovchilarga taqdim qilish.

Ilmiy nutqda matnlararo aloqalar ilmiy axborotni ishlab chiqarish, uzatish va saqlashning mavjud tizimida alohida ahamiyatga ega, ammo bizning maʼlumotlarimizga koʻra, ilmiy nutqda intertekstuallikni maxsus oʻrganish amalga oshirilmagan. Ilmiy muloqotning eng muhim janrlaridan biri – ilmiy maqolaning tizimli xususiyatlari ham yoritilmagan.

Rossiya xalqlar doʻstligi universiteti dotsenti PhD Svetlana Dmitrichenkova va Elena Dolzhich “Ilmiy matnlardagi intertekstuallik” nomli maqolasida intertekstualizm muammolarini adabiy va lingvistik nuqtayi nazardan oʻrganishga boʻlgan nazariy yondashuvlarni eʼtirof etadi [4].

Soʻnggi yillarda intertekstualizm turli kommunikativ sohalardagi matnlarda, xususan, rus, ingliz, nemis, ispan kabi turli tillarda ilmiy kommunikatsiyadagi intertekstualizm boʻyicha tadqiqotlar olib borildi. (Bazhenova, 2001; Chernyavskaya, 2009; Litvinenko, 2008; Luzon, 1997; Marinkovich, 2010)

Rus tilshunosligida intertekstuallik muammosi Mixaylova Elena Vladimirovnaning tadqiqotlarida uchraydi. U “Ilmiy nutqda intertekstuallik: maqolalar asosida” nomli nomzodlik dissertatsiyasida ilmiy diskursda intertekstuallik kategoriyasi va uni oʻrganishga boʻlgan yondashuvlar, intertekstuallik nazariyasining rivojlanish bosqichlari, matnlararo aloqa turlari, intertekstuallikning vazifalari va xususiyatlari haqida ilmiy maqolalar tahliliga asoslanib maʼlumot bergan [5]. Elena Anatolyevna esa ispan ilmiy diskursidagi intertekstuallik tadqiqiga bagʻishlangan nomzodlik dissertatsiyasida tabiiy fanlar boʻyicha maqolalar va dissertatsiyalar asosida intertekstuallik hodisalarini tahlilga tortgan. Intertekstuallikni tor va keng tushuncha sifatida oʻrganib, intertekstuallik va interdiskursivlik hodisalarining farqi va ilmiy diskursda gorizont intertekstuallik, vertikal intertekstuallik va ularni amalga oshirish vositalariga urgʻu bergan [6].

Oʻzbek tilshunosligida intertekstuallik muammosi dastlab M. Yoʻldoshevning tadqiqotlarida uchraydi. Olim tadqiqotlarida intertekstuallikni badiiy matnning tarkiblanishidagi muhim ahamiyatga ega vosita ekanligini taʼkidlagan [7]. D. Xudoyberganova badiiy matnning antroposentrik tadqiqiga bagʻishlangan ilmiy ishlarida badiiy matnlarda uchraydigan intertekstuallikni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilgan [8]. D. Andaniyazova badiiy matn tadqiqiga bagʻishlangan ishlarida intertekstuallikning bir turi boʻlgan allyuziya va uning xususiyatlarini yoritib bergan [9].

Intertekstuallik masalasi yuzasidan oʻzbek tilshunosligida ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan yana biri M. Xomidova boʻlib, u badiiy matn tadqiqiga bagʻishlangan koʻpgina maqolalarida intertekstuallik hodisasiga alohida urgʻu bergan. M. Xomidova “Badiiy matn pertsepsiyasida intertekstuallik” nomli doktorlik dissertatsiyasida oʻzbek badiiy matnlarida uchraydigan intertekstuallikning birliklarning manbalarini aniqlagan va ular asosida intertekstuallikni shakli jihatdan turlarga ajratgan, badiiy matn pertsepsiyasida epigraf, sarlavha, allyuziya, iqtibos kabi intertekst turlarining roʻli va ahamiyatini turli xil misollar orqali isbotlab bergan va badiiy matnlardan olingan misollar yordamida asoslagan [3].

Tahlil va natijalar. Akademik diskursda intertekstualizm mazmun darajasida ilmiy matn yaratishning universal tamoyili sifatida namoyon boʻladi. Chunki har qanday matn retrospektiv va istiqbolij jihatdan boshqa tadqiqotlar bilan bogʻlangan. Bilimning davomiyligi qonuniga koʻra, har bir yangi ilmiy matn bilimlarni saqlash va ushbu bilimlarni ishlab chiqaradigan insonlar oʻrtasida aloqani taʼminlaydigan murakkab mexanizm bilan bogʻliqdir. Matnning talqini boshqa matnlar haqidagi bilimga bogʻliq. Intertekstualizm oʻquvchining xotirasida saqlanib qolgan bilimlarni faollashtiradi, shu sababli matn qabul qiluvchilar yangi matnlarni tushunish uchun oldindan maʼlumotga ega boʻlishlari kerak.

Ilmiy diskursda intertekstuallik yangi ilmiy bilimlar doirasida mavjud bilimlarni aniqlashga qodir boʻlgan belgilar tizimiga ega. Shuni taʼkidlash lozimki, akademik diskurs ochiq koʻrinadigan markerlardan foydalanishni talab qiladi.

Ilmiy matnda intertekstual ifodalanish usullari quyidagilardan iborat:

1. Intertekstual kiritmalar, bu usulda olingan parchalar yangi matn tuzilmasi yuzasida aks ettiriladi: toʻliq yoki qisqartirilgan iqtiboslar, bilvosita uslub, “boshqalar soʻzlari” yoki soʻzlar birikmasi kiritiladi. Til va adabiyot taʼlimi jurnalidan

olingan maqolalar orqali intertekstuallik hodisasini tahlil qilishga harakat qildik. Masalan: Ulug' avar eli shoiri Rasul Hamzatov aytganidek: „Ba'zilar ulkan mavzularni qalamga olib, o'zim ham ulkan yozuvchi bo'ldim deb o'ylashadi. Lekin ular eng ulug' narsa eng sodda narsada ekanini tushunmaydilar. Ulug' odam yirik narsani ham, kichik narsani ham ko'ra oladi. Eng mayda narsada eng ulkan narsalar yotganini ko'ra biladi va olamlarga ko'rsatadi“ [10].

Abdulla Qahhor hikoyalarda badiiy detallarning ifodalanishi nomli ushbu maqolada muallif A.Qahhor hikoyalarning o'ziga xos uslubi haqida fikr yutirir ekan, R. Hamzatovning yuqoridagi fikrlarini keltirib o'tadi. Muallif fikrini davom ettirib shunday yozadi: „Ana shunday ulug' yozuvchi Abdulla Qahhor hikoyalari sodda va qisqa bo'lsa-da, anglami keng asarlardir. Muallif yangi matn tuzilmasida intertekstual kiritmalar, qisqartirilgan iqtiboslardan foydalandi. O'zining fikrini bayon qilish davomida oldin yaratilgan matnga murojat qildi. Yana bir misolga e'tibor qarataylik:

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning fikricha: „... Detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya'ni, u hamisha predmetlilikni ko'zda tutadi), detallarning birikuv natijasida o'sha obraz ko'z oldimda butun holda namoyon bo'ladi. Badiiy detalning ortida ma'lum bir realiya mavjud: maishiy turmush yoki joy tafsilotlari, portret chizgilari va sh.k. Shuningdek, personajning imo-ishoralari (jest), tana holati (poza), xatti-harakati, gap-so'zlari ham detal sanaladi, ular hammasi birgalikda konkret inson obrazini gavdalaniradi“ [1] [11]. Muallif bu maqolada Sh. Xolmirzayev ijodida detalning o'rnini ifodalash maqsadida D. Quronovning detal haqida bildirgan fikrlariga murojat qilyapdi va qavs ichida iqtiboslik keltirdi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatida Quronov D. „Adabiyotshunoslikka kirish“. – Toshkent: Meros, 2004. 76–77-betlar tarzida olingan manba ko'rsatilyapdi.

Iqtibos qilingan parchalarni qo'shtirnoq ichida keltirgan. Iqtibos qilingan parchalar odatda qo'shtirnoq bilan yoki shrift o'zgarishi (kursiv) orqali belgilanadi.

2. Intertekstual kiritmalar, bu usulda ma'lumot manbalariga murojaat qilinadi, lekin olingan parchalar yangi matn tarkibida qayta aks ettirilmaydi. Bunda o'quvchini ma'lumot manbalariga yo'naltiruvchi formal markerlar ishlatiladi: qavslar, kvadrat qavslar, turli ro'yxat belgilar, raqamlar.

Z. Rajabovanning frazeologik birliklar o'quv lug'atini yaratishning lingvistik jihatlari ochib berishga qaratilgan tadqiqotida o'quv lug'atchiligida o'quv frazeologik lug'atga so'z tanlashda ilmiy asoslanganligi, frazemaning lingvistik, didaktik, metodik jihatlari lug'atga moslashtirish, lug'at samaradorligini oshirish uchun bugungi kun talablariga mosligini ta'minlashga qaratilgan nazariyalarni ochib berishga harakat qilingan [12].

Yana bir misolda intertekstuallik o'quvchilarni olingan ma'lumot manbalariga yo'naltirish maqsadida kvadrat qavslardan foydalanilgan.

Yana bir misolga e'tibor qarataylik: T.G. Dobrosklonskaya jurnalistik matnlarga lingvistik tadqiqotlar uchun empirik material sifatida, agar badiiy adabiyot matnlari o'ziga xos „yuqori san'at“, voqelikni aks ettirishning asosiy usuli bo'lsa, ommaviy axborot vositalarining matnlari har qanday voqeani, hayotning har qanday harakatini bir zumda aks ettiruvchi, ko'proq tasviriy uslubdir“ deydi [4,20] [13].

Xulosa va takliflar. Intertekstuallik dunyo va o'zbek ilmfanida o'rganilishi davom etayotgan tadqiqot obyektlaridan biri sifatida dolzarb mavzulardan bo'lib qolmoqda va bu matn tilshunosligi, lingvokulturologiya, psixolingvistika pragmatolingvistika kabi amaliy lingvistik yo'nalishlari uchun zarur ilmiy natijalarni berishi shubhasiz. Ilmiy diskursdagi intertekstuallikning bir qator xususiyatlari ushbu maqolada tahlil qilindi. Tadqiqot predmeti sifatida o'zbek filologiyasiga oid ilmiy maqolalar tahlilga tortildi. Tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy tilshunoslik, diskursiv va kommunikativ yondashuvlarga olib keladi hamda matn tilshunosligi, psixolingvistika, pragmatolingvistika, kabi amaliy tilshunoslik yo'nalishlari uchun zarur ilmiy natijalar beradi.

ADABIYOTLAR

1. Shonazarova D. Intervyu matnlarining diskursiv tahlili. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya aytoreferati. - Toshkent, 2024. 10 b.
2. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi (darslik), Tashkent Nodirabegim, 2021. 141b
3. Homidova. M. Badiiy matn pertsepsiyasida intertekstuallik. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya aytoreferati. - Toshkent, 2021. 12 b.
4. Svetlana Dmitrichenkova, PhD, Associate Prof. Elena Dolzhich, PhD, Associate Prof "Intertextuality in Scientific Texts" European Scientific Journal July 2017 /SPECIAL/ edition ISSN: 1857 – 7881 (Print) e - ISSN 1857- 7431
5. Михайлова, Елена Владимировна. Интертекстуальность в научном дискурсе: На материале статей. автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 1999. – С.16.
6. Елена Анатольевна. Интертекстуальные связи в испанском научном дискурсе: на материале естественнонаучных статей и диссертаций. автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 2011. – С.9.
7. Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. – Б. 129
8. Худойберганова Д. Бадий матнинг антропоцентрик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. – Б. 129-154.
9. Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикasi. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси аytoreферати. – Т., 2017. – Б. 48.
10. Mulkamonova. S. Abdulla Qahhor hikoyalarda badiiy detallarning ifodalanishi. Til va adabiyot ta'limi jurnali. – Т., 2023. – № 2.
11. Sultonqulova Sh. Shukur Xolmirzayev ijodida detalning o'rnini. Til va adabiyot ta'limi jurnali. – Т., 2023. – № 2. 17-b
12. Абдурахмонова, Н., & Бойсариева, С. (2023). Tabiiy tilni qayta ishlashda (nlp) okkazonalizmlarning morfem tahlili. международный журнал искусство слова, 6(3).
13. Xodjayorov M. Zamonaviy mediamatnlarning lingvistik tadqiqi. Til va adabiyot ta'limi jurnali. – Т., 2023. – № 10. 86-b
14. Mengliev, D., Barakhnin, V., & Abdurakhmonova, N. (2021). Development of intellectual web system for morph analyzing of uzbek words. Applied Sciences, 11(19), 9117.
15. Abdurakhmonova, N. (2016). The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta, 2(38), 12-7.



UDK: 316.472.4:316.74(575.1)

Shavkat IBRAGIMOV,

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: ibragimov_shavkat@inbox.ru

Filologiya fanlari doktori A.Karimov taqrizi acocuda

TELEVIDENIEDA IQTISODIY KO‘RSATUVLARNING TIPOLOGIK TASNIFLARINING NAZARIY-AMALIY PARADIGMASI

Аннотация

Ushbu maqolada O‘zbekiston televideniesida iqtisodiy mavzudagi ko‘rsatuvlarni tayyorlash metodlari, tipologik tasniflar, iqtisodiy ko‘rsatuvlarning nazariy-amaliy paradigmasi tahlil qilingan. Muallif telujurnalistlarning iqtisodiyot nazariyasini tushinishi bilan birga iqtisodiy islohat mazmun-mohiyatini tahlil qila olish va manbalardan mahorat bilan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerakligi haqida fikrni bildiradi. Telekanallarda iqtisodiy mavzuda ko‘rsatuv tayyorlayotgan telejurnalistlardan har bir tanlangan mavzuni tahlil qilishda mutaxassislarni jalb qilish, ularni ochiq muloqotlarga jalb etish talab qilinadi.

Kalit so‘zlar: televidenie, ko‘rsatuv, dastur, iqtisodiy mavzu, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy jurnalistika, biznes jurnalistika, tipologiya, paradigma, ommaviy axborot vositalari, axborot.

ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМА ТИПОЛОГИЧЕСКИХ КЛАССИФИКАЦИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПЕРЕДАЧ НА ТЕЛЕВИДЕНИИ

Аннотация

В данной статье анализируются методы подготовки экономических программ на узбекском телевидении, типологические классификации, теоретико-практическая парадигма экономических программ. Автор высказывает мнение, что тележурналисты должны обладать способностью анализировать суть экономической реформы и умело использовать источники, а также разбираться в теории экономики. Тележурналисты, готовящие передачи на экономических темы на телеканалах, обязаны привлекать экспертов к анализу каждой выбранной темы, вовлекать их в открытый диалог.

Ключевые слова: телевидение, шоу, программа, экономическая тема, экономические реформы, экономическая журналистика, деловая журналистика, типология, парадигма, средства массовой информации, информатсия.

THEORETICAL AND PRACTICAL PARADIGM OF TYPOLOGICAL CLASSIFICATIONS OF ECONOMIC TELEVISION PROGRAMS

Annotation

This article analyzes the methods of preparing economic programs on Uzbek television, typological classifications, and the theoretical and practical paradigm of economic programs. The author expresses the opinion that television journalists should be able to analyze the essence of economic reform and skillfully use sources, as well as understand the theory of economics. Television journalists preparing programs on economic topics on TV channels are required to involve experts in the analysis of each selected topic, engage them in an open dialogue.

Key words: television, show, program, economic topic, economic reforms, economic journalism, business journalism, typology, paradigm, mass media, information.

Kirish. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar mohiyatini har bir fuqaroga yetkazish, ommaning faolligini oshirish, odamlarni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoniga ko‘proq jalb qilishda keng va tizimli tarzda yo‘lga qo‘yilgan iqtisodiy axborot va tashviqotsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Iqtisodiy axborotning samaradorligini oshirishda “iqtisodni yuzaki tushunadigan professional muxbirlardan ko‘ra, jurnalistikani juda qo‘pol tushunadigan iqtisodiy ma‘lumotga ega mutaxassislarni yollash ehtimoli ko‘proq”[1], degan fikrlar ham bor. Iqtisodiy tashviqot sifatini oshirish masalasi esa O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari orasida yetakchilik qilayotgan Respublika Milliy teleradiokom-paniyasi telekanallaridagi dasturlarda berilayotgan iqtisodiy mavzudagi ko‘rsatuvlar samaradorligiga ko‘p jihatdan bog‘liqlik tomonlarini anglaymiz. Bu masalaning samaradorligi ayniqsa “Axborot-24”, “Davr”, “Poytaxt” informatsion dasturlarida yoritilayotgan iqtisodiy mavzudagi materiallar va “Uzreport” telekanali iqtisodiy-ishlab chiqarish ko‘rsatuvlarini tayyorlayotgan studiya telejurnalistlari mahoratiga bog‘liq. Telejurnalistlar zimmasiga O‘zbekistonning iqtisodiy hayotini, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni va shu sohada joriy etilayotgan yangiliklarni yoritib borishi yotadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha besh yilga mo‘ljallangan (2017-2021 yillar) birinchi Harakatlar strategiyasi,

Yangi O‘zbekistonni 2026 yilgacha rivojlantirish strategiyasini, «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida quyidagi asosiy g‘oyalar, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilab berilgan, amalga oshirish davom etayotgan dolzarb vazifalar belgilangan hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, shuningdek, iqtisodiy islohotlar, bank tizimi taraqqiyotiga oid ma‘ruza va asarlari maqolamizning metodologik asosi sifatida o‘rganildi.

Ishning nazariy asosi iqtisodiyot tizimi, zamonaviy tadbirkorlikka oid iqtisodiyisodchi olimlar, iqtisodiy va ishbilarmon jurnalistikasi masalalari bilan shug‘ullanuvchi jurnalistika nazariyotchi tadqiqotchilar YE.L.Vartanova, D. A. SHEVCHUK, B. Y. MISOJNIKOV, M. XUDYOYQULOV, X. DO‘STMUHAMEDOV, Y. MAMATOVA, Sh. Ibragimov ishlaridan iborat.

Ushbu maqolani yozish jarayonida F.P.Nesterenko, Q.T.Ernazarov, Y.I.Mamatovalarning «Trud jurnalista: professionalizm, tvorchestvo, masterstvo», Q.T.Ernazarov va hammualliflardan «Reporterlik faoliyati, nazariya va amaliyot» V.M.Goroxovning «Osnovi jurnalistogo masterstvo», Kuznesov G. V. «TV-jurnalistika kriterii professionalizma», S.Murotovning «Televideniye v poiskax televideniye» internet materiallaridan, davriy matbuot nashrlaridan olgan nazariy xulosalaridan foydalandik.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ommaviy axborot vositalari va jurnalistikaga doir fikrlari, iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha turli ma'ruza va asarlarda aytilgan fikrlari mavzuni yoritishga amaliy jihatdan yordam berdi. Ushbu maqolani tayyorlashda observatsion (kuzatuv), eksperimental praksimetrik (jurnalist asarlari tahlili), sotsiologik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 2024 yilni Prezidentimiz tashabbusi bilan "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi tufayli mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy tayanchi bo'lgan kichik biznes vakillarini iqtisodiy va huquqiy qo'llab-quvvatlash uchun Davlat dasturi e'lon qilindi. Ushbu Dastur telejurnalistlar oldiga muhim vazifa yuklaydi. Hozir insonlar ongidagi psixologik o'zgarish haqida so'z borar ekan, faqat yuqoridan kelgan buyruqqa itoat etishga o'rganmasdan yangicha fikrlash, tashabbuskorlik bilan tarzini o'zgartirish kerak. Jamiyatimizda tadbirkorlar sinfi shakllanib ularning huquq va burchlari berilayotgan iqtisodiy dasturlardagi ko'rsatuvlarda to'liq ifodasini topib bormoqda. Ishga yangicha yondashish, uning sifati va tadbirkorning manfaatini tashviq qilish ham muhimdir. Umuman ko'rsatuv sifatiga ko'p narsa ta'sir qiladi. Korxonalarining ilg'or texnologilardan foydalanib yangicha ish tashkil qilishi va jahon andozalari talabiga yo'l olishi orqali erishgan yutuqlari haqidagi teleko'rsatuvlar odamlarda ishonch uyg'otadi.

Milliy teleradiokompaniya dasturidagi "Mulkdor", "Biznes akademiya", "Biznes xabarnoma", "Biznes yangiliklari", "Birja va bank", "Iqtisod erkinligi", "Yer ertaga kimniki", "Fermar faoliyati", "Erkin iqtisodiyot" va hokazo (hozir bu ko'rsatuvlarning ba'zi birlari teledasturlarda berilmaydi) berilgan ko'rsatuvlari ommaga iqtisodiy yangiliklardan xabar berish bilan birga iqtisodiy bilimni oshirishga ham xizmat qilib keldi. Har bir ko'rsatuvda telejurnalist iqtisodiyotga bog'liq hodisa va yangiliklarni qamrab olishga harakat qiladi hamda maqsad sari boradi. Studiylar dasturiga kiritilgan ko'rsatuvlarning o'z vaqti, o'z ish rejasi va o'z vazifasi bor. Iqtisodiy yangiliklar va iqtisodga oid barcha axborotlar ommaviy axborot vositalarida obyektiv ravishda taqdim etilgan "biznes jurnalistikasi – ikkinchi va birinchi darajali auditoriya uchun tushunarli va qiziqarli bo'lgan iqtisodiy jurnalistika"[2] shaklida namoyon bo'lgan materiallarni "Axborot-24" dasturidagi xabar, reportajlarda mamlakatimiz korxonasi va xo'jaliklaridagi yangiliklarda kuzatamiz. Bizning kuzatishlarimiz natijasi o'laroq 2024 yilgacha bo'lgan informatsion ko'rsatuvlarda berilayotgan qisqacha xabarlar, yangiliklar ichida, iqtisodiyotga oid xabarlar dasturning 35-40 foizgachasini tashkil qilib turgan. Bunda mamlakatimizda ochilayotgan yangi ishlab chiqarish korxonalari va ularning qayta modernizatsiya qilinishi, kommunikatsiya inshootlarining bunyod etilishi, bank va soliq sohasidagi o'zgarishlar, ishlab chiqilgan mahsulotlarning eksport qilinishi, import mollarning mamlakatimizga noqonuniy kirib kelishi, ichki xomashyo mollarning tanarxi va qolaversa dunyodagi iqtisodiy o'zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin. Hozirga kelib bu ko'rsatgich 10 foizni tashkil etadi. Bunga sabab iqtisodiy mavzularga tahririyat xodimlaridan yetarli e'tibor qaratmayotganidan deb bilamiz.

Ikki yillik ko'rsatuvlarni tahlil qiladigan bo'lsak ko'rsatuvlarda mavzu to'liq ochib berilgandek, telejurnalistning bu sohadagi tushunchasi yuqoridagidek, lekin joylarda fermerlarga yaratilgan sharoitlar va ularning haq-huquqi buzilganligi to'g'risida ko'plab shikoyatlar borligi haqida tahliliy ko'rsatuvlarni deyarli uchratmaymiz. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi davrda eng muhim bo'lib turgan iqtisodiy mavzudagi dasturlarni tayyorlash uchun telejurnalistlardan bilim va mahorat talab etiladi. O'zbekiston televideniyesining sotsiologik xizmati ma'lumotlariga ko'ra, odamlarning iqtisodiyot xabarlariga qiziqishlari tobora oshib bormoqda. E'tibor berish kerakki, iqtisodiy siklli va ayniqsa, axborot ko'rsatuvlarning mavzular majmui turli va keng ko'lamlidir. Iqtisodiy jurnalistika sohasi bo'yicha mutaxassis olimlardan biri G.S. Melnik "Xabarni qabul qiluvchini, mintaqaviy auditoriya tomonidan biznes ma'lumotlarini iste'mol qilishning o'ziga xos xususiyatlarini, uni

idrok etish stereotiplarini bilmasdan, muvaffaqiyatli jurnalistik matnlarni yaratish va ishbilarmonlik muhiti uchun axborotni ommalashtirish usullaridan foydalanish qiyin"[3], degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Shuning uchun biz faqat asosiy mavzularni, ya'ni hammasini o'z ichiga qamrab olgan muhim sxema haqida gapiramiz. Bu mehnatni tashkillashtirish muammolari, respublika qishloq xo'jaligini boshqarish, ilmiy-texnik taraqqiyot masalalari, ijtimoiy ishlab chiqarish ta'sirchanligini oshirish, sanoat va qishloq xo'jalik taraqqiyotining respublika mustaqilligini e'lon qilishdan so'ng imkoni bo'lgan tub yangi shakllarini singdirish (masalan, investitsiya, xalqaro aloqalar) va boshqalar. Ushbu asosiy mavzularni amalga oshirish usullarini ham aytib o'tish o'tish mumkin: bozor iqtisodiyotiga o'tish masalalari, yangi sharoitlarda sanoat faoliyatlari, qo'shma korxonalarini tashkil etish va ishlatishtirish, chet el tajribasidan foydalanish va hokazo. Qishloq xo'jaligidagi eng ommalashtirish yo'nalishlari: paxtachilik, chorvachilik, ipakchilik, poliz ekinlari, bog'dorchilik va uzumchilik. Ilgarilari qishloq xo'jaligi uchun ajratilgan e'fir vaqtning 80% paxtaga bag'ishlanishini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Endi esa qishloq xo'jaligini yangicha tashkil etish, mulkka bo'lgan munosabatini o'zgartirish masalasi haqida ko'proq gapiriladi.

Respublika iqtisodiyotini boshqarishda noto'g'ri usuldan foydalanayotgan mahkama, idoralar va ularga yaqin bo'lgan mansabdorlarni tanqid qilishda oshkora bo'lmagan tanqid mavjud. Albatta, bu holat jurnalistlar ishini qiyinlashtiradi. Ammo ularning o'zlari ham iqtisodiy muammoni yuqoriroq ko'tarish uchun nimalar qilish kerakligi haqidagi ko'rsatuvlar tayyorlashga bo'lgan urinishi sezilmaydi. Shuning uchun axborot iqtisodiy telexabar tuzilishini tahlil etishda yordam beruvchi teleaxborot xususiyatlarini batafsil ko'rib chiqaylik.

Iqtisodiy axborot xabarlar va siklli ko'rsatuvlar tuzilishining odatiy ko'rinishlarini tahlil qilishdan oldin, iqtisodiy teleko'rsatuvlar va suyuq mazmunini umumlashgan ko'rinishda ko'rib, tavsiflab chiqamiz. Mavzu va tasvirga olish obyektini tanlashda muammoning muhimligi va uning kishilar hayotidagi bevosita roli, ularning mehnati va yashash tarzini yaxshilashdagi ahamiyatiga ko'proq e'tibor qaratish muhimdir. Ba'zi bir mutaxassislar "Iqtisodiy axborotni tarqatish xarakteri tizimli yoki bir martalik bo'lishi mumkin" [4], deb ta'kidlashadi. Ammo shunday holat ham bo'ladiki, viloyatdagi maxsus muxbirlar, ayniqsa, telejurnalistlar respublika, viloyat, tuman rahbariyatiga xush bo'lgan rahbar yoki uning o'rinbosari ishni yangicha tashkil etgani bois respublika yoki viloyatda katta muvaffaqiyatlarga erishilgani haqida xabar beruvchi konyunkturali mavzu tanlashadi. Teleaxborotning umumiy oqimida bu kabi mavzular auditoriyaga ta'siri sezilmaydi va iqtisodiy targ'ibotda jiddiy rol o'ynamaydi.

Ko'rsatuvlarning geografiasini kelsak, bunda ham televideniening o'ziga xos, ammo bu safar salbiy bo'lgan xususiyatlari ko'rinishda boshlaydi. Shuning uchun bir yil yoki bir necha yillik dasturlarni olganda ko'rsatuvlar geografiasini bir xil bo'lmaydi. Mana shu jihati bilan televidenie matbuotdan ajralib turadi. Matbuotda esa har kim ham yoza oladi. Gazeta muxbiri biror materialni telefon orqali olishi mumkin. Telejurnalist ishni bunday usulda bajara olmaydi. Bu borada hamma narsa tuman va xo'jaliklarga boruvchi, kishilar bilan gaplasha oladigan va tasvirga tushirishni tashkil etadigan, kamera va videokassetasi bor maxsus muxbir faoliyati asosida amalga oshadi. Iqtisodiy xabarning ta'sirchanlik darajasi tomoshabinga mavzuning tushunarli bo'lgani va yaqinligi bilan bog'liq. Bu ommaviylik prinsipi xosdir.

Milliy teleradiokompaniya telekanali iqtisodiy axborotlarning hududiy ko'lami bo'yicha quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin: 1) respublika; 2) viloyat; 3) shahar; 4) tuman; 5) alohida korxonasi. Albatta, bu bo'linish shartlidir, chunki ko'plab xabarlar bir vaqtda 2-3 guruhga tegishli umumlashgan ko'rsatkichlar holida ham beriladi. Umumlashtirilgan darajasiga mos ravishda axborotning ichki tizimi nuqtai nazaridan u turli variantlarda tuzilishi mumkin. Shuningdek, xalq xo'jaligini u yoki bu sohasini qamrab olish bo'yicha informatsiyaning bo'linishi mavjud. Bu yerda umumiy va sohaviy axborotni ajratib ko'rsatish kerak. Umumiy axborot

respublikaning barcha aholisi uchun qiziqish uyg'otib, dunyoqarashini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Sohaviy axborot esa torroq xarakterga ega bo'lib, faqat alohida kasb, hudud vakillariga qiziqish uyg'otishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, axborotga bo'lgan qiziqish tomoshabin manfaatidan kelib chiqmasa qabul qilinishi mumkin emas. U yoki bu axborotga bo'lgan amaliy ehtiyoj, uning auditoriya tomonidan tezda eslab qolinishiga asos bo'ladi.

Endi, axboriy va sikllik iqtisodiy ko'rsatuvlar mazmuni va tuzilishi orasidagi o'zaro aloqadorlikning bevosita tahliliga o'tamiz. Aytib o'tganimizdek, axborot yangiliklari har kunlik "Axborot-24", "Davr" va shunga o'xshash dasturlarda berib boriladi. "Axborot-24"ga ajratilgan vaqtning 6% dan 20% gacha iqtisodiy xabarlar qoplaydi. Alohida iqtisodiy xabar "Axborot-24"da 30 dan 90 sekundgacha (ba'zan 3 daqiqagacha bo'lishi mumkin) vaqtni egallaydi. O'z xarakteri bo'yicha ular turli bo'ladi. Eng keng tarqalgan iqtisodiy axborotning to'rt xili mavjud: suxandon xabari, videosuyjetli suxandon xabari, videosuyjetli muxbir xabari, qahramon (brigadir, ishchi, xo'jalik rahbari) ishtirok etgan videosuyjetli muxbir xabari.

2020-2024 yillar axboriy telesuyjetlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ya'ni ayrim faktlar eng oxirida aytilish kabi xarakter xosdir. Misol uchun bunday xabarni tipik ko'rinishini olaylik, uning qismlarini ajratib ko'rsatamiz:

1) respublika tadbirkorlari Prezident farmoni, qarori yoki Davlat dasturi asosida iqtisodiy islohatlar olib borayotganligi va uni hayotga tadbiq etish maqsadida jonbozlik ko'rsatib yangi texnologiyalarni qo'llagan holda yangi ish o'rinlari ochayotganligi to'g'risida gapiriladi. Muayyan viloyatda bu masalani amalga oshirilishi haqida bizga muxbir xabar beradi;

2) Muxbirning xabar berishicha, falon (tuman, viloyatdagi) korxonaga tadbirkorlari aniq yo'nalishda muvaffaqiyatga erishdilar;

3) Muxbir eng yuqori natijaga erishgan tuman (xo'jalik, korxonaga) nomini aytadi. Odatda, bu axborot o'sha obyektning umumiy manzarasi bilan beriladi.

4) Muxbir eng ilg'or tadbirkorlar, ishlab chiqarish ilg'orlari yoki rahbarlarining nomlarini beradi. Ulardan intervyu oladi (korxonaga rahbarlaridan biri, tadbirkor)

5) Muxbir boshqa shu kabi niyatda mehnat qilayotgan ishchilar haqida gapiradi.

Iqtisodiy mavzuda ko'rsatuv tayyorlaydigan "jurnalist korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qila olishi, strategik rejalashtirish, investitsiya tahlili va marketing asoslarini

tushunishi, shuningdek, tavakkalchilikni baholash va qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish bo'yicha aniq tushunchaga ega bo'lishi kerak"[5]. Iqtisodiy telesuyjetning tipik tuzilishi shundan iborat. Bu kabi xabarlarining ommalashib ketishi telejurnalistlar ishini bir qolipga solib qo'yishini anglatadi. O'tkir xalq so'zlari, maqollari, aforizmlari voqelikni oyna kabi aks ettiradigan, tomoshabinlarda muhim tuyg'ularni keltirib chiqaradigan so'zlardan deyarli foydalanilmaydi. Repotajlar shiorli xarakterdagi ko'rsatuvlarga xos bo'lgan, boshida xabarning umumlashtirib berilishi bilan boshlanadi. Bu yerda til vositalaridan unumli foydalanish kerak, lekin "xalq iborolari" bilan ko'z-ko'z etish to'g'ri kelmaydi. Telepublitsist faktlarni tushuntirib, guruhlariga ajratadi. Natijada axboriy maydon yuzaga keladi. Iqtisodiy axborot videosuyjetlari xabar soni bo'yicha yakka va guruhli ko'rinishlarga bo'linadi. Birinchisi kirishsiz bo'lib, uni qoida bo'yicha boshlovchi o'qiydi, lekin ba'zida kirish gap ham mavjud bo'ladi. Guruhli videosuyjetlar esa turli hodisali, Prezident Farmonidan kelib chiqqan, respublika, viloyat yangiliklari mavzu jihatdan bir xil ko'rinishda bo'ladi. Guruhli axboriy videosuyjetlarda kirish, ko'p hollarda esa xulosa ham mavjud bo'ladi. Agar kirishni suxandon o'qisa, xulosani muxbirning o'zi keltirishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot o'tkazilgan olti yil davomida biron mavzuning chuqur iqtisodiy tahlil qilinishini uchratmadik. Telejurnalistlar o'zlari davlat siyosati shaklidagi iqtisodiy tadbirlarni mustaqil tekshirish o'tkazishda (masalan, fermerlikni tashkil etish, korxonani xususiy lashtirish) tashabbusi sezilmaydi. Telejurnalistika faoliyati respublika mahkamasi va idoralari qarashlariga bog'liq bo'lib qoladi. Ana shu nuqtai nazardan, yangi qarashlarni ifodachisi bo'la olmaydi, o'z funksiyalarni to'la bajarishga qodir emasdek ko'rinadi. Iqtisodiy teleko'rsatuv samaradorligini oshirish uchun ham ko'p ishlar qilinishi kerak.

Respublika iqtisodiyotini boshqarishda noto'g'ri usuldan foydalanayotgan mahkama, idoralar va ularga yaqin bo'lgan mansabdorlarni tanqid qilishda oshkora bo'lmagan tanqid mavjud. Umumiy gaplardan iborat tanqidlar adresli bo'lishi kerak. Albatta, bu holat jurnalistlar ishini qiyinlashtiradi. Ammo ularning o'zlari ham iqtisodiy muammoni yuqoriroq ko'tarish uchun nimalar qilish kerakligi haqidagi ko'rsatuvlar tayyorlashga bo'lgan urinishi sezilmaydi. Buning uchun iqtisodiy mavzuda ko'rsatuv olib boradiga va tayyorlaydigan jurnalistlarning malakasini oshirib turish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Тимофеевский А. Факультет ненужных вещей // Эксперт. 2005. № 47 (493). С. 7.
2. Гавра Д.П. Деловая журналистика: к определению понятия // Средства массовой информации в современном мире. Петербургские чтения: Межвуз. науч.-практ. конф., 24-25 апр. 2007 г.: Сб. докл. СПб., 2007..
3. Мельник Г.С., Виноградова С.М. Деловая журналистика: Учебное пособие. СПб., 2010. С. 213..
4. Демина И.Н. Экономическая журналистика в массовой коммуникации. URL://https://vestnik.journ.msu.ru/books/2011/4/ekonomicheskaya-zhurnalistika-v-massovoy-kommunikatsii/
5. Письменная Е.В. Деловая пресса России и бизнес: Учебное пособие по спецкурсу для студентов факультета журналистики и вузов. М., 2003. С. 14..



O'g'iloy QAHHOROVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o'qituvchisi

E-mail: ogiloyqahhorova30@gmail.com

DSc, professor M.Zokirov taqrizi asosida

HUUDDLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA IMIJNING ROLI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola hududlar raqobatbardoshligini oshirishda imij va PR texnologiyalarning qo'llanilishiga doir asos bo'lib xizmat qiladi. Unda hududlar imijini amalga oshirishda avvalo raqobatbardoshlik muhitini yuzaga keltirish haqida gap boradi. O'zbekiston bugun dunyoga o'zining madaniy meroslari, asari atiqalariyu, ilm fani bn yuz ko'rsatib kelmoqda. Shu masalalar bugun O'zbekistonning hududlar imijini amalga oshirishga xizmat qilishiga sabab bo'lmoqda. Maqolada "imij", "hudud imiji" kabi tushunchalarga alohida to'xtalib o'tilgan. Muallifning ta'kidlashicha, hududlar imijini shakllantirishda, avvalo o'sha mintaqaning ijobiy imijini shakllantirishga xizmat qiladigan unsumni topish muhimdir.

Kalit so'zlar: Imij, PR, hudud imiji, raqobatbardoshlik, imijologiya.

РОЛЬ ИМИДЖА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ

Аннотация

Данная научная статья служит основой для применения имиджевых и PR-технологий в повышении конкурентоспособности регионов. В ней прежде всего идет речь о создании конкурентной среды при формировании имиджа регионов. Сегодня Узбекистан демонстрирует миру свое культурное наследие, исторические памятники и достижения науки. Эти факторы способствуют реализации имиджа регионов Узбекистана. В статье особое внимание уделяется таким понятиям, как "имидж" и "имидж территории." Автор подчеркивает, что при формировании имиджа регионов важно прежде всего найти элемент, способствующий созданию положительного образа данной территории.

Ключевые слова: имидж, PR, имидж региона, конкурентоспособность, имиджология.

THE ROLE OF IMAGE IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF REGIONS

Annotation

This scientific article serves as a foundation for applying image-building and PR technologies to enhance regional competitiveness. It primarily addresses the creation of a competitive environment in shaping regional images. Today, Uzbekistan is showcasing its cultural heritage, historical monuments, and scientific achievements to the world. These factors contribute to realizing the image of Uzbekistan's regions. The article focuses on the concepts of "image" and "territorial image." The author emphasizes that in shaping regional images, it is crucial to first identify an element that fosters a positive image of the given territory.

Key words: image, PR, regional image, competitiveness, imageology.

Kirish. Dunyoda davlatlari o'z kuchini ko'rsatish uchun, o'z imijlarini axborot maydoniga tashladi. Amerika o'z valyutasi, Buyuk Britaniya harbiy salohiyati, Shvetsariya go'zal tabiati, Gruziya esa tabiiy toza suvlari bilan dunyo media platformasida o'z izini qoldirmoqda. Endi rivojlanib kelayotgan qolgan davlatlar esa boshqa sohalarda o'z salohiyatini ko'rsatish uchun kurash maydoniga kirib kelmoqda. O'zbekiston dunyo miqosida o'zining salbiy, ijobiy imijlari bilan tanilib ketmoqda. Bir salbiy axborot tufayli dunyo trendlarini yaratilishiga sabab bo'lsa, boshqa tarafdin esa ijobiy imij ham onda sonda ko'zga tashlanib qolmoqda.

O'zbekistonni ijobiy imijini yarata oladigan sohalar madaniyat, sport, turizm, sanoat kabilar kiradi. Birgina Parij yozgi olimpiadasida sportchilarimiz ko'rsatgan yutuqlar tufayli butun dunyo xalqlari "O'zbekistonlik arslon" yigit va qizlar bir zumda yurtimiz imijini dunyoga tanita boshladi. Madaniyat sohasida O'zbekiston uchun anchagina yutuqlar olib kelgan. madaniyat sohasida sohir ovozlardan to'g'ri foydalana olinsa, dublyaj sohasi qirollarini butun O'rta Osiya, xorijiy boshqa davlatlar ham tan olgan edi. Turizm sohasi hamma sohalardan ko'ra, rivojlanishga, imij bilan ishlashga muhtojdir. Ushbu sohalar rivojini itsak, avvalo davlat va hudud imijini ko'tarishga ehtiyoj sezilmoqda. Imij so'zi bugun lug'atimizda asosan san'at vakillari hamda davlat rahbarlari obrusini asrashga xizmat qilib qolmoqda. Lekin u asli ma'nosi, etimologiyas nimaligini birinchi tushinib olishimiz kerak. Imijologiya fan sifatida bugun asrimizga kirib keldi.

Adabiyotlar sharhi: 1990-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan "imijologiya" tushunchasi tez orada tan olindi. Shepel V.Mning "Imijologiya: shaxsiy joziba sirlari" kitobi uch marta nashr

etilganidan so'ng yanada kuchaydi. Ularda imijologiya - bu odamlarga yoqish fani va san'ati ekanligi aniq ta'kidlangan edi. Imij tushunchasi bugun deyarli hamma joyda quloqqa chalinib kelinmoqda. Ma'lumki, amerikalik iqtisodchi Bolduing XX asrning 60-yillarida "imij" tushunchasini ishbilarmonlik muomalasiga kiritib, uning tijorat muvaffaqiyati uchun foydaliligini asoslab bergan.

Keyinchalik "imij" o'ziga xos hodisa sifatida shakllanayotgan siyosatshunoslik tomonidan o'zlashtirildi, mutaxassislar unda o'z faoliyatlarining muhim yo'nalishini ko'rdilar. Siyosatshunoslar Nikkolo Makiavellining "Hukmdor" va G. Lebonning "Sotsializm psixologiyasi" asarlarini yaxshi bilishadi. Ushbu asaralar aynan imij bo'yicha aniq, lo'nda ta'riflar berilgan. Makiavelli davlat arbobining tegishli "niqob"ga ega bo'lishi qanchalik muhimligini ishonchli tarzda ko'rsatib bergan bo'lsa, Lebon esa imijning mohiyatini "shaxsiy joziba" ta'siri orqali siyosiy muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida talqin qilgan.

Imij yaratishning psixologik asoslari ijtimoiy va siyosiy psixologlarning tadqiqot obyektini va predmetiga aylandi. Imij bugun shunchaki obro'ni ko'tarish vositasi emas, balki joziba bera oladigan, o'ziga ishonch uyg'ota oladigan sohadir.

Imijni bugungacha ko'pchilik tarixi yo'q asosga ega emas deb ta'kidlashadi. Ammo, imijda aniqlikning "vizual effekti" ko'plab tadqiqotlar mavzusiga aylangan. Gippokrat bu masalaga e'tibor qaratib, odamlar mizojini aniqlash uchun mimikadan foydalanishni taklif etgan. Aristotel "Ritorika" asarlarida inson harakatlarining ifodaviylik psixologiyasi haqida mulohaza yuritgan. Qadimgi rimlik tabib Galen "fiziognomika" deb

nomlangan ta'limotni yaratgan. Paratsels bemorlarni tashxislashda ko'plab fiziognomik ma'lumotlardan foydalangan, Imij 70-yillarda Rossiyada salbiy ma'noda ham bo'y ko'rsata boshlagan. Unga ko'proq burjua siyosati va ommaviy axborot vositalarining ommaviy ongni mafkuraviy jihatdan ishlov berishda qo'llaydigan manipulyativ usuli sifatida qaralardi. Imijga bunday munosabat sovet olimlarining unga bo'lgan xolis qiziqishiga to'sqinlik qildi. O'sha yillarda iste'dodli olim, professor O. Feofanovning "Falsafa masalalari" jurnalida chop etilgan maqolalari imijga nisbatan bunday munosabatni o'zgartirishga qaratilgan urinishlardan biri edi.

Tahlil va natijalar. Imij - bu obraz, tasvir demakdir. Aslida esa, bu shaxs yoki ijtimoiy tuzilma haqida bevosita yoki ataylab yaratilgan ko'rinish taassurotidir. Aynan taassurot, ongning ratsional faoliyati natijasi bo'lgan baho emas. Imij ko'pincha bizning bilish jarayonimizning dastlabki bosqichi bo'lgan tasavvur bilan yakunlanadi.

Imij, odatda, psixikamizning quyi qatlamlarida - ongosti sohasida yoki kundalik ong qatlamlarida "joylashadi". Shu sababli u odamlar tomonidan oson idrok etilib, ularning ongida mustahkam o'rinishadi. Imij haqida aniq psixologik mahsulot sifatida gapiradigan bo'lsak, u ijtimoiy yo'nalish, qadriyatli andoza, zamonaviy ramz sifatida namoyon bo'ladi. Uning bir vaqtning o'zida inson psixikasining yuqorida aytilgan barcha sohalarida namoyon bo'lishi ham mumkin.

Imij - bu insonning eng yaxshi shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlarini namoyon etuvchi, kundalik muloqotga qulaylik kirituvchi, optimistik kayfiyat yaratuvchi kattalashtiruvchi oyna kabidir. Pedagog, shifokor, xizmat ko'rsatish xodimi faoliyatini ularning xayrixoh qiyofasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rahbar uchun magnit kabi jozibador bo'lish juda qiyin, ammo bunday bo'lishga intilgan kishida yanada ko'proq muammolar mavjud. Imijni yaratiladi, u hechqachon paydo bo'lmaydi. Uni chiroyli qilib o'ziga mos va xos tarzda yaratiladi. Misol uchun doim harbiy kiyim, oq halat kiyganlar o'z imijiga ega. Ular o'z liboslari, shunga mos xarakteri tufayli insonlar xotirasidan imijdan foydalanishadi.

Rahbar xodimlar ham o'z imijlarini yaratish uchun tinmay o'z ustida ishlashadi. Ba'zan turli libos, shunga xos xarakter bilan xodimlar oldida chiqish qiladi. O'zbekiston sharoitida esa asosan rahbar imiji salbiy ruhda xodimlarga namoyon etiladi. Yo qo'rqitish, yo talvasaga tushiladi. Ammo, bu O'zbekiston sharoitida odatiy holga aylanib ulgurishgan. Ammo

rahbar va xodim imijidan ham ko'ra, davlat hamda hudud imiji asosiy o'rin egallaydi.

B. Alimovning "Mediamakonda O'zbekiston imiji" asarida shuningdek "hudud imiji" tushunchasiga duch kelamiz. Hudud imiji bugun har bir hududning o'z belgisini, borligini yaratish hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining hududi 12 ta viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasini o'z ichiga oladi [1]. Unda har bir viloyat o'z tarixiga ega. Shu tarixdan kelib chiqib, hududlar imijini yaratish kerak bo'ladi.

Hudud imiji - maqsadi auditoriyaga yo'naltirilgan marketing strategiyasi sifatida hokimiyat, ommaviy axborot vositalari, aholining maqsadli auditoriyasiga yo'naltirilgan hududda yashovchi aholi tomonidan tashkil etiladigan, hududning ratsional va emosional holatini ifodalovchi sun'iy yaratilgan obrazi ya'ni iqtisodiy ijtimoiy holati hisoblanadi.

Hudud imiji viloyatlar kesimida qaralganda, ichki turizm va tashqi turizmni ham shakllanishi muhimdir. Hudud imiji shakllanishidan asosiy maqsad esa hududlar haqida to'g'ri va xolis axborot berishdan iboratdir. Turkiyaning turizm salohiyati anchagina havas qillarli darajaga chiqqan. Har bir tuman esa o'z turizm salohiyatini shakllantirib bo'lgan. Undan faqat andoza olish imkonini beradi. Hududlar imijini shakllantirishning to'rtta asosiy yo'nalishi mavjuddir. Hududning biznes markazlari;

hududning dam olish maskanlari;

hududning madaniy boyliklari va ularning saqlanishi; hududda yashashning qulay imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Hududlar imijini shakllantirishda ushbu 4 asosiy yo'nalish ustuvor hisoblanadi. Toshkent shahri hamda viloyatida ushbu 4 ta yo'nalishga mos bo'lgan joylar mavjud. Toshkent viloyatida nisbatan savdo markazlari kam, ammo dam olish maskanlari ko'p. Aholini yashash sharoitini sal yaxshilashga e'tibor beriladi. O'lis hududlarda esa nu unsur yanada rivojlantirish kerak. Turizm yaxshilansa, hudud imiji ko'tarila boshlanadi. Shu o'rinda, mahalliy aholiga ham sharoit yaratish shart. Aks holda aholi yashash tarziga qarab ham hudud imkoniyatlari baholanadi.

Xulosa. O'zbekiston sharoitida aholi imkoniyatlaridan kelib chiqib, hudud imiji, imij tushunchasini atroflicha yoritish kerak. Har bir hudud o'z iqtisodiy, siyosiy, turizm, ekologik salohiyatidan kelib chiqib, o'z konsepsiyasini ishlab chiqishga harakat qilishi lozim. Aks holda, hudud imkoniyatlaridan kelib chiqin qo'shni hududlar o'z turizmni rivojlantirishga erishishi mumkin. Davlatlar o'z hudud imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni boshlashi bilan imkoniyatlarimiz kamaya boshlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Alimov. B. S Mediamakonda O'zbekiston imiji. Monografiya. 2020
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston?variant=zh-tw#:~:text=Maydoni%20%E2%80%94%20448%20978%20km%20,dunyoviy%20va%20konstitutsiyaviy%20davlat%20hisoblanadi>.
3. Daniel Rowles Digital Branding: A Complete Step-by-Step Guide to Strategy, Tactics, and Measurement .2014.296p
4. Mahmudov. M. F. Hudud imidjini shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari
5. Шепель В.М. Имиджелогия. Как нравиться людям. М.: Народное образование, 2002
6. Яшина Е.З. Стратегическое управление развитием региональных социальноэкономических систем с использованием имеджевого подхода: авт дис. канд. эк.наук. Самара 2006 - <http://ssee.ru/netcat/Image/referat-Yachina-dog-19s>
7. Шабунин А.С. Формирование имиджа региона: теоретические аспекты и перспективы применения. Дис. канд. пол. Наук / Шабунин А.С - Ярославль, - М.: ГГБ, 2006.- 196 с.
8. Воронов Ю.П. Рейтинги субъектов Федерации: методические проблемы оценки // Регион: экономика и социология. - 2008. - N 3-
9. Peter J. T. M. S. Da Silva "Place Identity, Branding, and Regional Development" 2010
10. Michael H. Berke, David R. Godschalk "Urban and Regional Planning: An Introduction" 2002.512 p
11. Place Branding: Developing and Implementing an International Strategy" 2011 – Keith Dinnie
12. "The Role of Regional Branding in Economic Development: A Case Study of Tourism in the Algarve"



Dilfuza QODIROVA,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

TDPI dotsenti, PhD N.Madalovning taqrizi asosida

OMON MATJON SHE'RIYATIDAGI LINGVISTIK VA ESTETIK ELEMENTLARNING O'ZARO ALOQASI

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek tilidagi o'zgacha lug'aviy va uslubiy xususiyatlarga ega bo'lgan Omon Matjon she'riyatining lingvopoetik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada shoirning til va uslubni ishlatishdagi noyob yondoshuvlaridan, leksik va grammatik jihatlardagi innovatsiyalaridan so'z yuritiladi. Xususan, Omon Matjon she'riyatidagi lingvistik va estetik elementlarning o'zaro aloqasi, she'rlarning hissiy-psixologik va ma'nodagi qatlamlari, shuningdek, she'riyatning til va obrazlar yordamida qanday ma'no va tasavvur yaratishi tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, lingvopoetik o'zgartirishlar va ularning she'riyatga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida misollar keltiriladi. Omon Matjonning she'riy tilidagi maxsus xususiyatlar orqali o'zbek adabiyotidagi zamonaviy rivojlanishlar va she'riy uslublardagi o'zgarishlar ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Omon Matjon, she'riyat, lingvopoetik xususiyatlar, til, uslub, leksika, grammatika, estetik elementlar, tasavvur, ma'no, o'zbek adabiyoti.

THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN LINGUISTIC AND AESTHETIC ELEMENTS IN THE POETRY OF OMON MATJON

Annotation

This article is devoted to the study of the linguopoetic aspects of the poetry of Omon Matjon, which has unique lexical and stylistic features in the Uzbek language. The article discusses the poet's unique approaches to the use of language and style, innovations in lexical and grammatical aspects. In particular, the relationship between linguistic and aesthetic elements in the poetry of Omon Matjon, the emotional-psychological and semantic layers of poems, as well as how poetry creates meaning and imagination using language and images are analyzed. The article also provides examples of linguopoetic changes and their impact on poetry. Modern developments in Uzbek literature and changes in poetic styles are also highlighted through the special features of Omon Matjon's poetic language.

Keywords: Omon Matjon, poetry, linguopoetic features, language, style, lexicon, grammar, aesthetic elements, imagination, meaning, Uzbek literature.

СООТНОШЕНИЕ ЯЗЫКОВЫХ И ЭСТЕТИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ В ПОЭЗИИ ОМОН МАТЖОНА

Аннотация

Данная статья посвящена изучению лингвопоэтических аспектов поэзии Омона Матжона, имеющей в узбекском языке особые лексико-стилистические особенности. В статье говорится об уникальных подходах поэта к использованию языка и стиля, новаторстве в лексическом и грамматическом аспектах. В частности, анализируется взаимодействие языкового и эстетического элементов в поэзии Омона Матжона, эмоционально-психологического и смыслового слоев стихотворений, а также то, как поэзия создает смысл и воображение с помощью языка и образов. Также в статье приводятся примеры лингвопоэтических трансформаций и их влияние на поэзию. Современное развитие узбекской литературы и изменения в поэтических стилях также освещаются через особенности поэтического языка Омона Маджона.

Ключевые слова: Омон Матжон, поэзия, лингвопоэтические особенности, язык, стиль, лексика, грамматика, эстетические элементы, воображение, смысл, узбекская литература.

Kirish. She'riyat – bu til va san'atning eng nozik uyg'unlashuvi, u har bir so'zda chuqur ma'no, tasvir va hissiyotlarni ifodalash imkonini beradi. She'r tilida nafaqat so'zning to'g'ri grammatik shakli, balki uning ma'nosi, ohangi, ritmi va qiyofasi ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois, she'riyatda lingvistik va estetik elementlarning o'zaro aloqasi alohida ahamiyatga ega. Lingvistik elementlar she'riyatning til asosini tashkil etadi: so'zlar, frazeologizmlar, sintaktik tuzilmalar, va ularning ma'nolari. Estetik elementlar esa she'ring go'zalligini, hissiyotlarni, obrazlarni, tasvirlarni va muayyan ruhiy holatlarni yaratadi. She'riyatda lingvistik va estetik elementlarning uyg'un aloqasi, so'z va ma'no, til va san'at o'rtasidagi yanada chuqurroq bog'lanishlarni yuzaga keltiradi.

Lingvistik jihatdan, she'rlar grammatik, semantik va stilistik vositalar orqali ma'no ifodalaydi. Estetik nuqtai nazardan esa, she'riyat o'quvchida yoki tinglovchida vizual, eshitish, hissiy tajribalar uyg'otadi. Shunday qilib, she'r nafaqat til orqali fikrni ifodalash, balki estetik ruhiyatni shakllantirish vositasi hamdir.

She'riyatdagi lingvistik va estetik elementlarning o'zaro aloqasi orqali ma'no va tasvirlarning uyg'unligi shakllanadi. She'ring estetik ahamiyati, uning til shaklidan to'g'ri foydalanishda, shakl va mazmun o'rtasidagi simmetriyada aks

etadi. She'riyatda til va san'atning bir-birini to'ldirishi orqali go'zallik va chuqur ma'no yaratiladi.

Omon Matjon – o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin tutgan shoirlardan biridir. Uning she'riyatidagi asosiy mavzulardan biri xalqning ichki dunyosini, tabiat va hayotning go'zalligini ifodalashdir. She'rlarida ulug' insoniy qadriyatlar, milliy istiqlol, vatanparvarlik va muhabbatga doir estetik tasvirlar bilan birga, til va ma'no o'zaro uyg'unlashgan holda shakllanadi.

-Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Lingvistik va estetik elementlarning she'riyatdagi o'zaro aloqasi masalasi kengroq adabiyotshunoslik, tilshunoslik va estetik nazariyalar doirasida o'rganilgan. Mavjud ilmiy manbalarni, nazariy yondashuvlarni va metodologiyalarni o'rganish orqali, she'riyatdagi lingvistik va estetik elementlarning qanday aloqaga ega ekanligi haqida umumiy tasavvur shakllantiriladi. Lingvistik elementlar she'riyatda tilning estetika bilan bog'lanishining asosiy omillaridan biridir. Tilshunoslikning she'riyatga ta'siri haqidagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar til va san'atning o'zaro aloqalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ularning aksariyat poetika, lingvistik estetika va poetikaning tilshunoslik asoslari haqida ilmiy tahlillarni o'z ichiga oladi. O'zbek adabiyotshunosligi she'riyatdagi lingvistik va estetik elementlarni o'rganish bo'yicha

bir qator ilmiy ishlarga ega. O'zbek she'riyatining tarixiy rivoji va uslubiy yondoshuvlaridagi o'zgarishlarni tahlil qilgan adabiyotshunolar, ayniqsa, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Erkin Vohidov kabi shoirlarning she'riyatida tilning estetik xususiyatlarini chuqur o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar mavjud.

Omon Matjon she'riyatida, uning poetik tilining estetik va lingvistik elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, uning tasvirlari va simbolik tilini tahlil qilishda maxsus e'tibor qaratilgan. Matjonning she'rlarida tilning semantik va estetik funksiyalarini uzviy ravishda o'rganish, uning poetik maqsadlariga erishishda yordam beradi. Abdulla Oripov va Erkin Vohidov esa she'riyatda tilning estetik tizimlarini, xususan, figurativ vositalar, sintez, leksik imkoniyatlarni chuqur ishlatganlar.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada semantik va sintaktik tahlil, teorik-metodologik yondashuv, kontekstual tahlil, estetik jihatdan falsafiy yondashuv asosida she'riyatdagi lingvistik va estetik elementlar o'rtasidagi aloqani chuqur va to'liq tahlil qilish imkonini berdi.

- **Tahlil va natijalar.** She'riyatda lingvistik elementlar tilning grammatik, semantik va stilistik qatlamlarini, ya'ni so'zlarning tuzilishi, ular orasidagi aloqalar, va ularning ma'nolarini ifodalaydi. Bunda so'zlar, iboralar, metafora, simvolizm kabi vositalar katta ahamiyatga ega.

Estetik elementlar esa she'rning tasviriy, emotsional va ruhiy tomonlarini tashkil qiladi. She'riyatda tasvirlar, ohang, ritm, obrazlar va boshqa san'atsal vositalar yordamida o'quvchida estetik tajriba uyg'onadi.

Omon Matjonning she'riyatida lingvistik va estetik elementlar bir-birini mukammal tarzda to'ldiradi. Uning she'rlarida so'z va ma'no o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, tilning har bir elementi estetik maqsadga xizmat qiladi. Shunday qilib, so'zlar nafaqat tilning bevosita ma'nosini, balki ma'naviy-psixologik holatlarni, ichki kechinmalarni, tabiiy va ijtimoiy olamni tasvirlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Lingvistik aspekt orqali Matjon o'z she'rlarida tilning grammatik qurilishi, uslubiy elementlar (so'z tanlash, metaforalar, aliteratsiyalar va boshqalar)ni ustalik bilan ishlatadi. Bu esa o'z navbatida estetik jihatdan kuchli tasvirlar va chuqur ma'nolarni yaratishda yordam beradi.

Omon Matjon she'riyatida til va estetik elementlar o'rtasidagi uyg'unlik, shoirning o'ziga xos uslubi va chuqur falsafiy fikrlari bilan bog'liqdir. She'rlarning mazmuni ko'pincha lingvistik vositalar yordamida so'z orqali chuqur ma'no va hissiyotlar bilan boyitiladi, bu esa o'quvchi yoki tinglovchida estetik hissiyotlarni uyg'otadi.

Omon Matjonning she'riyatidagi lingvistik va estetik elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, uning poetik tilining rivojlanishi va ma'no dunyosining ochilishi uchun muhim rol o'ynaydi. She'riyatning lingvistik tarkibi va estetik mazmuni bir-birini to'ldirib, uning she'riy asarlarini jozibador va hayotiy qiladi.

Shoir Omon Matjon o'zining she'rlari bilan adabiyotda o'ziga xos o'rin tutadi. Uning she'rlari ko'pincha milliy qadriyatlar, insonning ichki holati, ijtimoiy va ma'naviy masalalarni yoritishga qaratilgan. Shoirning badiiy tilidan foydalanishdagi o'ziga xosligi va so'zlarni mohirona joylashtirish mahorati alohida e'tiborga sazovor.

Omon Matjonning she'rlari tahlil qilinadigan bo'lsa, quyidagi asosiy jihatlarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Tematik jihatlari

Omon Matjon she'rlari ko'pincha jamiyat, insonning ruhi, tabiat, ota-onaga bo'lgan mehr va shaxsiy tajribalar haqida bo'ladi. Shoirning ijodida milliylik, tarixiy qadriyatlar, insoniy tuyg'ular va hayotga bo'lgan umidlar o'z ifodasini topadi. U nafaqat milliy til va adabiyotni yuksaltirishni, balki insoniyatga bo'lgan umumiy mehr-oqibatni ham ta'kidlaydi.

2. Shaxsiyati va ijtimoiy masalalar

Omon Matjon she'rlari ko'pincha ijtimoiy adolatsizliklar, jamiyatdagi muammolarni, insonning kundalik hayotidagi turli xil qiyinchiliklarni ko'rsatadi. Shoir o'zining she'rlari orqali insonni hayotda maqsad va idealni izlashga chaqiradi.

3. Badiiy til va uslub

Shoironing badiiy tili juda tasavvurli va go'zal. U she'rlarda tasvirlarni va obrazlarni boy ravishda ishlatadi, ruhiy holatlarni, tabiatni va odamlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashda badiiy shakllardan, aliteratsiyalar va metaforalardan keng foydalanadi.

4. Formasi va tuzilishi

Omon Matjon she'rlari ko'pincha ritmik va melodik tuzilishga ega. U she'rlarda o'zining poetik uslubini yaratgan. Matjon o'z asarlarida o'ziga xos ritmni va ohangni ushlab turadi, bu esa o'quvchiga she'rni o'qish va tushunishda qulaylik yaratadi. Ko'pincha uning she'rlari o'zaro bog'langan qatorlar, kross-rifmlar bilan boyitilgan bo'ladi.

5. Metafora va simvolizm

Shoir ko'pincha juda chuqur va ma'noli tasvirlarni ishlatadi. Masalan, tabiatni insonning ichki holati, sevgi va umidni ramzlash uchun metafora sifatida ishlatadi. Uning she'rlari o'zining ko'plab simvollariga ega bo'lib, har bir o'quvchi turlicha tushunish va talqin qilish imkoniyatiga ega.

"Yurakning so'nggi so'zlari" she'rida Shoir Matjon yurakning ichki tuyg'ularini, insonning ikir-chikirlari, umidsizlik va umidlar o'rtasidagi kurashni tasvirlaydi. Shoironing ishlatgan tasvirlari va metaforalari orqali yurak insonning ichki dunyosini aks ettiradi. She'rda sevgi va yag'u o'rtasidagi ziddiyat ko'rsatilgan. Yurak oxirgi so'zini aytmoqda, bu esa insonning o'zini anglash jarayonida yakuniy nuqtaga kelganini bildiradi.

Omon Matjonning she'rlari, odatda, insonga hayotini qayta ko'rib chiqishga, o'zining ichki dunyosini va munosabatlarini chuqurroq anglashga chaqiradi. U so'zlar orqali inson ruhini teran anglash imkonini beradi.

Shoir Omon Matjonning she'rlarini tahlil qilish uchun, uning asarlari va uslubiga nazar tashlash zarur. Shoir Omon Matjon o'zining o'ziga xos, chuqur ma'nolar bilan boyitilgan, til va uslub jihatidan sodda, lekin tasviriy jihatdan boy she'rlar yozgan.

Matjonning asarlarida ko'pincha inson ruhiyati, uning ichki kurashlari, jamiyatdagi o'rni va tabiiy dunyo bilan aloqasi aks etadi. She'rlarida ko'plab metaforalar, simvollar, va iroda kuchi orqali tashqi dunyo va ichki olam o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydi.

Keling, Omon Matjonning ba'zi tanilgan she'rlariga qisqacha tahlil o'tkazaylik:

1. "Yolg'izlik"

Omon Matjonning bu she'rida yolg'izlik, insonning o'z ichki olami bilan aloqasizligi va tashqi dunyo bilan yuzma-yuz kelishiga doir fikrlar o'rganiladi. Shoir yolg'izlikni faqat tashqi omillar bilan bog'lamaydi, balki uni inson ruhining muayyan bir holati sifatida ko'radi. Shoir, yolg'izlik orqali insonning o'zini anglash jarayonini tasvirlaydi, va bu o'ziga xos qarama-qarshilikni yaratadi.

2. "Bahor"

Omon Matjonning bahor mavzusida yozgan she'rida yangi hayot, o'zgarish va umidni tasvirlaydi. Bahor — tabiatning yangilanishi va insonning ruhiy yangilanishi o'rtasidagi aloqani aks ettiradi. Shoir bahorning nafaqat ob-havo o'zgarishi, balki inson qalbidagi o'zgarishlarni ham ko'rsatadi. She'rda bahorning rang-barang tasvirlari, yangi boshlanishlar va kelajak uchun umid yaratish haqida gapiriladi.

3. "Vatan"

Shoironing vatan haqidagi she'rlarida yurt sevgisi, milliy istiqloq, va odamning o'z yurtiga bo'lgan muhabbati alohida o'rin tutadi. Vatan — bu nafaqat geografik hudud, balki insonning ma'naviy-madaniy ildizlaridir. Shoir, vatanni yurtni sevishning chuqur ma'nosini, uning insoniyat uchun ahamiyatini ko'rsatadi.

4. "Ijod"

Shoironing ijod haqidagi she'rlarida ko'pincha insonning ichki dunyosi va uning yaratuvchanlik jarayonlari tasvirlanadi. Ijod — bu nafaqat asar yaratish, balki ruhiy holat, dunyoqarashni anglash va uni ifodalash jarayonidir. Shoironing ijodiy izlanishlari, uning tasviriy imkoniyatlarini cheklolvsiz kengaytiradi.

She'r tahlilining asosiy jihatlari:

Uslub va tilda oddiylik: Shoir asarlarini yozishda oddiy va aniq tilni ishlatadi, lekin uning so'zlari chuqur ma'no va ta'sir kuchiga ega. Bu, o'quvchini o'ziga jalb qilish va asarga chuqurroq kirish imkonini beradi.

Emotsional kuch: Matjonning she'rlari, asosan, ichki hissiyotlarni ifodalashga qaratilgan bo'lib, o'ziga xos bir ruhiyatni tasvirlaydi.

Metafora va simvollar: Shoirning asarlarida tasviriy usullar va ramzlar ko'p uchraydi. Bu ramzlar o'zbek adabiyoti an'analariga mos ravishda, ko'pincha tabiat va insoniy tuyg'ular bilan bog'liq.

Ijtimoiy va falsafiy izlanishlar: Omon Matjon she'rlarida insoniyatning ijtimoiy, falsafiy va ma'naviy holati ko'plab mavzularda ifodalanadi. Shoir, nafaqat shaxsiy izlanishlarga, balki jamiyat va vatan haqidagi masalalarga ham alohida e'tibor beradi.

- Xulosa va takliflar. She'riyatda lingvistik va estetik elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tahlil qilish orqali, she'rning nafaqat til, balki san'at sifatida shakllanishi va uning o'ziga xos poetik dunyosini yaratishdagi muhim rolini anglash mumkin. Maqolada ko'rib chiqilgan she'riyatdagi lingvistik va estetik komponentlar o'rtasidagi uyg'unlik, o'quvchi yoki tinglovchida nafaqat aqliy, balki hissiy tajribalarni ham uyg'otadi. She'rda tilning har bir elementi (so'z, sintaksis, grammatik tuzilmalar) estetik maqsadga xizmat qilib, uning ma'nosini chuqurlashtiradi va tasvirlar orqali estetik go'zallik yaratadi.

Lingvistik jihatdan, she'riyatda so'zlarning ma'nosi, ularning sintaktik va morfologik shakllanishi, semantik

bog'lanishlari orqali til o'zining bevosita ifodalovchi imkoniyatlarini amalga oshiradi. Estetik jihatdan esa, so'zlar, frazeologizmlar, obrazlar, simvollar va ritmik tuzilmalar yordamida she'rning hissiy va ruhiy qatlamlari shakllanadi. Bu ikki elementning o'zaro integratsiyasi she'riyatni nafaqat tushunarli, balki estetik jihatdan ta'sirchan qiladi.

Omon Matjonning she'riyatida lingvistik va estetik elementlarning uyg'unligi bevosita uning poetik tilini, shoirning estetik yondashuvini va uning san'atsal fikrini ifodalashga xizmat qiladi. She'rlarida u so'zlarni nafaqat tilning bevosita ma'nolarida, balki simvolik, metaforik va obrazli shakllarda ham ishlatadi, bu esa o'quvchi yoki tinglovchida chuqur ma'no va tasvirlar yaratadi. Matjonning she'riyatida ko'p hollarda so'z va tasvirlarning lingvistik formasi, ularning estetik yuksalishi bilan birgalikda, shoirning falsafiy va ma'naviy g'oyalari o'z aksini topadi.

She'riyatdagi lingvistik va estetik elementlarning o'zaro aloqasi, shuningdek, so'z va ma'no o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq tushunish uchun yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bunday yondashuvlar, shuningdek, o'zbek she'riyatidagi yangi uslublar va poetik shakllarning rivojlanishini tahlil qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa, she'riyatni yanada ko'proq tushunish va adabiyotshunoslikda yangi yo'nalishlarni rivojlantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva N. O'zbek she'riyatida til va estetika. Toshkent: 2013. Fan, 274 b.
2. Djunosova S. She'riyatdagi metafora va stilistika. Toshkent: 2017. Ma'naviyat, 186 b.
3. Mansurov M. O'zbek she'riyatining estetik tafakkuri. Toshkent: 2015. O'zbekistan, 210 b.
4. Rauf I. O'zbek she'rida til va obraz. Toshkent: 2000. Fan, 320 b.
5. O'roqov R. She'riyatda til va ma'no. Toshkent: 2009. Yangi Nashr, 268 b.
6. Ismoilov Sh. She'riyat va san'atning o'zaro aloqasi. Toshkent: 2010. Akademiya, 312 b.
7. Shukur A. O'zbek adabiyotida zamonaviy she'riyat. Toshkent: 2018. Ma'naviyat, 256 b.
8. Matjon O. She'riyat va til. Toshkent: 1995. O'zbekistan, 189 b.
9. Buharov F. O'zbek tilidagi poetik til. Toshkent: 2012. Fan, 234 b.
10. Gulomov S. She'riyatning lingvistik strukturasi. Toshkent: 2004. Fan va Texnologiya, 278 b.



UDK: 81.1(2).

Saidaxon MAMATKULOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi, PhD

ADCHTI dots. v.b., fil.f.d. S.Abdugaxxorov taqrizi asosida

CURRENT ENGLISH NORMS AND ISSUES RELATED TO THEM

Annotation

At school, in English lessons, teachers are accustomed to the fact that we are taught a kind of “Royal English”, that is, we are learning the ideal English language or the English spoken by the same famous Shakespeare. But, is it so necessary for us now? Why do we not understand English speakers when we go to an English-speaking country, and even more so, do we feel that they (For example, Londoners) speak with certain “mistakes”? Well, what is “Royal English” and why do we learn it at school? What is the norm of literary English and why do not many follow it? These are the issues that are dark to us. What norm should be followed in colloquial speech, which of the norms can be abandoned so that the English spoken by US does not seem dead, hardened? We will try to answer such questions in this article.

Key words: Royal English, language norm, literary language language language language of culture, language of science, language of journalism, dialects.

СОВРЕМЕННЫЕ НОРМЫ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И СВЯЗАННЫЕ С НИМИ ПРОБЛЕМЫ

Аннотация

В школе, на уроках английского языка, учителя привыкли к тому, что нас учат своеобразному «королевскому английскому», то есть мы изучаем идеальный английский язык или тот английский, на котором говорил тот же знаменитый Шекспир. Но так ли это необходимо нам сейчас? Почему мы не понимаем англоговорящих людей, когда приезжаем в англоязычную страну, и, более того, чувствуем ли мы, что они (например, лондонцы) говорят с определенными «ошибками»? И так, что же такое «королевский английский» и почему мы изучаем его в школе? Что является нормой литературного английского и почему многие ей не следуют? Вот те вопросы, которые для нас темны. Какой норме следует и следовать в разговорной речи, от каких из норм можно отказаться, чтобы английский, на котором Мы говорим, не казался мертвым, затвердевшим? Мы постараемся ответить на эти вопросы в этой статье.

Ключевые слова: Королевский английский, языковая норма, литературный язык, язык культуры, язык науки, язык журналистики, диалекты.

AMALDAGI INGLIZ TILI NORMALARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ MASALALAR

Аннотасија

Maktabda, ingliz tili darslarida, o'qituvchilar bizga o'ziga xos “qirol ingliz tili”ni o'rganayotganimiz, ya'ni ideal ingliz tilini yoki o'sha mashhur Shekspir so'zlashgan ingliz tilini o'rganayotganimiz haqida gapirishlariga ko'nikib qolganmiz. Ammo, bu bizga hozir shunchalik zarurmi? Nima uchun biz ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatga borganimizda ingliz tilida so'zlashayotganlarni tushunmay qolamiz va undan ham qolaversa, biz ularning (masalan Londonliklarning) ma'lum “xatolar” bilan so'zlashayotganliklarini his etib turamiz? Ho'sh, “qirol ingliz tili” nima va nima uchun biz uni maktabda o'rganamiz? Adabiy ingliz tilining me'yori nima va nima uchun ko'pchilik unga amal qilmaydi? Bizga qorong'i bo'lgan masalalar shulardir. So'zlashuv chog'ida qaysi me'yorga amal qilinishi kerak, biz so'zlashayotgan ingliz tili o'lik, qotib qolgan bo'lib tuyulmasligi uchun me'yorlarning qaysi biridan voz kechib yuborish mumkin, kabi savollarga ushbu maqolada javob berishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: Qirol ingliz tili, til normasi, adabiy til madaniyat tili, fan tili, publisistika tili, shevalar.

Kirish. To'g'ri deb tanlab olingan til etaloni (na'munasi) qadimdan aslzodalar sinfi bilan bog'lab kelinadi. Aynan shuning uchun uni “qirol ingliz tili” deb ataladi. U hozirgi kungacha o'z maqomini saqlab qolgan va shuning uchun undan foydalanuvchi ma'rifatparvar inglizlar soni yildan yilga qisqarib bormoqda. Aslzodalar tili sifatida na'munaviy ingliz tiliga bo'lgan bunday munosabat bugungi kunda ham saqlanib qolgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aslzodalar tiliga tayanganligi va na'muna tilining imtiyozlarga egaligining ijtimoiy maqomi etallon tilga xoslik kasb etdi va shuning bilan birgalikda uni inglizlar tomonidan o'qib o'rganilishining asosiy (bosh) to'sig'iga aylandi. Bu vaziyat mamlakatda mavjud bo'lgan nuqtai nazar — bola yoki katta yoshdagi kishining nutqini to'g'rilash, uning nutqdagi xatosini ko'rsatish — bu ularni o'z g'oyasini ifoda etishida kamsitish deb tushunish va Buyuk Britaniyaning ayrim universitetlarida ingliz tiliga yetarlicha e'tibor berilmaydigan ta'lim tizimi misolida izohlanishi mumkin.

Demak, ilmiy adabiyot bilan tanishib chiqish asosida ingliz tili normasiga oid bo'lgan quyidagi fikrlar (punktlar, bandlar) ni ko'rsatish mumkin[1]:

1. Adabiy til va sheva o'rtasida bir qator prinsipial (ahamiyatli) farqlar mavjud. Adabiy til yozma va og'zaki nutq o'rtasidagi murakkab munosabat bilan xarakterlanadi, shevalar esa, asosan, og'zaki nutq sohasiga oidlik bilan ajralib turadi.

2. Funksional munosabatda adabiy til keng qamrovli xarakterga egaligi bilan farqlanadi. Adabiy til madaniyat tili, fan tili, publisistika tili hisoblanadi, badiiy adabiyot tilining asosiga aylangan. Shevalar esa kundalik-mayshiy muloqot doirasida qo'llaniladi. Shevalardan farqli ravishda adabiy til asos bilan tartibga solinuvchi til faktlarini maqsadli yo'nalishda tanlash bilan xarakterlanadi.

3. Tuzilmaviy mezonlarni qo'llash orqali, ziddiyatli voqeiklarni belgilash nisbatan oson va ko'chuvchi yangi birikmalarni tabaqalash deyarli mumkin emas.

4. O'zaro tushunarliklikning psixologik mezoni. “Agar odamlar bir-birini tushunayotgan bo'lsa, ular bir tilda so'zlashayotgan bo'ladi va aksincha, agar bir-birlarini tushunmayotgan bo'lsa har xil tilda suhbatlashayotgan bo'ladi” degan dastlabki qoida bor. Ammo bu qoida asos sifatida ko'rinishi mumkin emas.

5. Norma bir vaqtning o'zida, xususan, lingvistik va ijtimoiy-tarixiy toifa hisoblanadi. Normaning ijtimoiy jihati til voqeliklarini tanlash va qayd etishdagina emas, balki ularga baho berishda ham aks etadi va bu baholar estetik komponentni ham o'z ichida qamrab oladi. Ijtimoiy-tarixiy toifa sifatida norma jamiyat rivojlanishining turli davrlarida taqdim etilgan norma va urf-odatlardan iborat bo'ladi.

6. Biroq, adabiy norma — bu faqatgina nisbatan stabil va umumlashtirilgan emas. Balki til vositalarining sezilarli darajalarda tabaqalangan majmuasi bo'lib, bir qator variantlar va bildirishning sinonimik usullari saqlanib qolishini taqozo etadi. Til vositalarining variativligi adabiy tillarning funksional-stilistik tabaqalanishini ta'minlab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiy tilning hududiy variativligi darajasi adabiy til rivojlanishi tarixining ma'lum davri va hozirgi kun til vaziyatiga bog'liq bo'ladi. Shunday holda, turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan ingliz adabiy tili norma bo'yicha hududiy variantlarga ega. Norma o'z ichga qamrab oluvchi voqeliklar bo'yicha bir turli bo'lmaydi. Adabiy normaning o'zagini stilistik jihatdan neytral bo'lgan va tabiiyki, keng qo'llaniladigan til voqeliklari tashkil etadi. Uning sirtini arxaik va yangi, shuningdek, funksional va hududiy belgilangan, ammo baribir ham adabiy til doirasida qo'llanilayotgan voqeliklar tashkil etadi[2].

Bugungi kunda ingliz tilida unchalik murakkab bo'lmagan, nutqni yengillashtiruvchi shakllar mustaxkamlanmoqda, ayrim qurilmalar boshqasi bilan almashtirilmoqda va tilning normalangan variantini qo'llash variativligi yaratilmoqda. Varativlikning kommunikativ funksiyasi shundan iboratki, u fikrni tezroq ifoda etishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar. Amerika adabiy ingliz tilining ajralib turuvchi belgisi masalan, car, barn, first kabi so'zlardagi retroflekslangan [r], lock, stop, knob, lot kabi so'zlardagi qisqa [α], ask, laugh, dance kabi so'zlarda [α:] o'rniga [j] [3] va iboraning maxsus ohangli surati kabilar hisoblanadi. Ayrim so'zlarning leksik mazmunida ihtiloflar ham mavjud.

Amerika va Angliya ingliz tillari o'rtasida grammatik farqlar ham mavjud. Angliya ingliz tilida o'rnatilgan qoidalar xech qanday shubha ostiga olinmaydi. Amerika ingliz tili variantida esa Qo'shma shtatlarning ma'lum hududlariga ta'sir etuvchi bir qator shakllar mavjud (masalan, oughtn't o'rniga ought- hadn't). Biroq, bu kabi aniq muayyan xududga xoslik bilan xarakterlanuvchi voqeliklar kam tashkil etiluvchi axborot beruvchilar nutqidagina qo'llaniladi.

Ayrim hollarda Amerika ingliz tili va angliya ingliz tili orasidagi farqlanishlarni o'rnatish xam oson emas, chunki ayrim farqlar mavjudki, ularni xam leksik, xam grammatik jixatda talqin etish mumkin. birinchi navbatda xizmat ko'rsatuvchi so'zlar semantikasi bilan bog'liq bo'lgan ihtiloflar ushbu farqlarni keltirib chiqaradi.

Til voqeligi yoki faktining normalanganligining tan olinishi eng kamida uchta belgi mavjud bo'lishligiga asoslanadi[4]:

mavjud voqelikning til tuzilmasiga mos kelishi;

mavjud voqelikning kommunikatsiya jarayonida ommaviy va muttasil ishlatilayotganligi fakti;

tegishli voqelikning jamiyat tomonidan norma sifatida ma'qullanishi vatan olinishi.

T.A. Ivushkina o'zining "Qirol ingliz tili va hozirgi kun (zamonaviy) Buyuk Britaniyada muloqotning aristokratik kodi" maqolasida normalangan inglizcha nutq "uchta kit"(asosiy qoida) da asoslanadi, deb ko'rsatgan[4]:

1) so'zni to'g'ri tanlash va uni o'sha so'zga xos bo'lgan mazmunda ishlatish;

2) grammatik qurilmalarni bexato qo'llash;

3) fikrni bildirishning aniq mantiqiyliqi.

Adabiy ingliz tili tizimlashtirilganligiga ko'p vaqt bo'lgan va grammatikalar va Fauler King's English (1906) kitobi va shuningdek ingliz tili darsliklarida aks ettirilgan. To'g'ri ingliz tili — bu boshqalar uchun tushunarli bo'lgan ingliz tilidir.

Bu tamoyillarni buzuvchi barcha holatlardan voz kechish tavsiya etiladi. Ammo, aytaylik, jamiyatda ko'pchilik tomonidan yangi, chet tilidan o'zlashtirilgan so'z yoki yangi modaga aylangan so'z qo'llanilayotgan(qabul qilinayotgan) bo'lsa nima qilish kerak? Ayniqsa, vaqt o'tishi bilan o'sha so'z yangi lug'atlarga kiritib borilayotgan bo'lsa? Uni norma deb xisoblash kerakmi yoki yo'q? Bu savol davomli muxokamalar uchun ochiq savolga aylanmoqda. Bir tomondan, tilshunolar va adabiyotchilar bunday so'zlarni ma'qullashmaydi va bu faqat ingliz tiligagina taalluqli emas. Ikkinchi tomondan, biz tomonimizdan taxlil qilinayotgan ayrim nutqlar(ayniqsa, yaqin davrlardagi AQSHning mashhur ikki prezidentlari nutqi) ingliz grammatikasiga mos kelmaydigan shunday so'zlar va grammatik qurilmalar bilan liq to'la. Tilda xattoki "Bushchilik" degan tushuncha, ya'ni AQSHning 43-prezidenti kichik Dyorj Bushning nutqlari va chiqishlaridan olingan bema'ni, (tuturiqsiz, beo'xshov) so'zlar yoki iboralar paydo bo'ldi[5].

Rasmiy shaxslar o'zlarining tayyorlanmagan chiqishlarida xatolarga yo'l qo'yishi mumkinligida xech qanday noodatiylik yo'q. Biroq, Dyorj Bushning chiqishlarida (nutqlarida) sintaktik va leksik ifodalanmagan so'zlar va iboralar juda ko'p uchraydi.

Bush "uslub" ning eng xarakterli xususiyatlari tavitologiya,(bir fikrni boshqa so'z bilan takrorlash) malapropizm, (o'xshash oxangli so'zni batamom boshqa ma'noda qo'llash) va lyapalisiadlar — oldindan ma'lum, yaqqol faktlarni nutqda keragidan ortiq qo'llash: "I thinkweagree, thepastisover" (D. Makkleknom Dallas Morning News[6] da, 2000 yil 10 mayda D.Makklekn bilan uchrashuvda), spunerizmlar, tushunchaning stilistik bo'yog'ini g'oyat aralashtirib yuboruvchi okkazonalizmilar hosil bo'lishi (stuntwords) va ega va kesimning noto'g'ri ifodalanishi kabilaridir.

Bushizmlarning ko'p qismi juda ham mashhur emas, ammo ayrimlari aksincha mashhur bo'lib ulgurgan: o'z nutqida J.Bush "internet" so'zini ko'plikda qo'llagan — "WecanhavetiltersonInternetswherepublicmoneyisspent"[6].

Qirolicha Yelizaveta II ning nutqlari tahlil qilinganda esa adabiy ingliz tili qoidalariga rioya qilmaslik holatlari kuzatilmaydi. Bu holatni ikkita asosli dalil bilan izohlash mumkin:

qirolicha Yelizaveta II ingliz aslzodalari oilasidan kelib chiqqanligi va u tegishli ma'lumot olganligi;

uning barcha rasmiy nutqlari maxsus tayyorlangan bo'ladi (Internetda qirolichaning birorta xam adashgan nutqi yoki intervyusi topilmagan).

"BBC" MAQOLALARIDAN OLINGAN AYRIM AMERIKANIZMLAR "AMERICANISMS: 50 OF YOUR MOST NOTED EXAMPLES"[7]

Britaniyaliklarda ziddiyatli hissiyotlar xosil qiluvchi amerikanizmlar

• the least worst option — yomonliklarning eng kichigi

• 24/7 — xar doim / sutkada 24soat, haftada 7 kun/ tunukun va xar kuni

• to wait on - kutmoq (brit.ingl. to wait for)

• itiswhatitis — qanday bo'lsa, shunday (hech narsani o'zgartira olmaysan)

• shopping cart — xaridlar aravachasi (brit.ingl. - shopping trolley)

• totouchbase - kim bilandir bog'lanish,aloqada bo'lish

• a half hour - yarim soat (brit.ingl. - half an hour)

• headsup — ogohlantirish yoki xabardor etish (odatda, oldindan amalga oshiriladigan)

• mybad - mening xatoim, mening aybim (xato meniki, ayb meniki) (brit.ingl. - myfault)

• biweekly — ikki haftada bir marta; haftada ikki marta

• hike — sakrash yoki ko'tarilish (masalan, pricehikes — narxlarning ko'p marta yoki birdan oshib ketishi); brit.ingl. tilidagi ma'nosi — sayr, sayohat

• eaterie, eatery - restoran (shu jumladan tezkor ovqatlanish muassasasi), kafe

• tomedal - medalni yutib olish yoki unga ega bo'lish

• winningest - g'alabalar soni bo'yicha rekordchi

• to get smth. for free - nimanidir tekinga olish (brit.ingl. - to get smth. free)

Biz maqolalar o'qiydiz, Toni Bler va David Kameronni, amerika prezidentlari va qirollik shaxslarini tinglaymiz, ammo shu vaqtda biz bu odamlar ko'chada yoki uyda umuman boshqacha gapirishi mumkinligini hisobga olmaymiz. O'ziga xos "qirol ingliz tili" deb nomlanuvchi til – bu hamma taqlid qilayotgan tilning mavjud bo'lmagan varianti bo'lishi mumkinmi?

Italiya va Fransiyada bir necha asrlar davomida lingvistika masalalari bo'yicha bosh akademik muassasalar della Kruska Akademiyasi (L'AccademiadellaCrusca) va Fransuz Akademiyasi (L'Acadymiefranzaise) faoliyat olib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Bu mamlakatlardan farqli o'laroq na Angliyada, na Amerikada, na boshqa ingliz tilida so'zlashuvchi

mamlakatda til tisloxotlarini o'tkazish yoki ingliz tilini qandaydir muvofiqlashtirish huquqiga ega bo'lgan rasmiy organ yo'q.

Ko'plab ekspertlarning fikriga ko'ra aynan shuning uchun, ingliz tili "tabiiy tarzda" rivojlanmoqda.

Ingliz tilining shak-shubxasiz ustunligi – bu uning demokratik va doimiy ravishda o'zgaruvchi til ekanligidir. Uning bu o'zgaruvchanligi ko'plab xollarda ingliz tilining xalqaro maqomi bilan bog'lanadi. Undagi mazmunlar qandaydir qo'mitaning buyrug'i bilan emas, balki ularning keng qo'llanilayotganligi tufayli sekinlik bilan amalga oshadi. Bu tabiiy jarayon va asrlar davomida amalga oshadi.

Demak, "haqiqiy" ingliz tili nima ekanligini o'sha tilda so'zlovchilarning o'zlari belgilaydilar. Norma o'rnatish huquqiga hech kim ega emas (xatto Oksford lug'ati ham aniq normalar belgilay olmaydi).

ADABIYOTLAR

1. Арнольд И. В. – Стилистика. Замоновий инглиз тили. М., 2002.
2. Ивушкина Т.А. - "Қиrol инглиз тили ва замонавий Буюк Британияда мулоқотнинг аристократик коди" М.
3. Кухаренко В. А. – Чет тили стилистикаси бўйича практикум . М., 2011.
4. Лингвистик энциклопедик луғат. В.Н.Ярцева тахр.
5. Мюллер В. К. – Янги инглизча-русча луғат. М., 1998.
6. AJustandLastingPeace» <http://4flaga.ru/179-obama2.html>
7. <http://www.bbc.co.uk/news/magazine-14201796>



Saodat MAMAYUSUPOVA,
JDPU katta o'qituvchisi, PhD
E-mail : saodatmamayusupova78@gmail.com

NamDU professori, f.f.n. M.Xamidova taqrizi asosida

EXPRESSION OF SIMPLE FOLKLORISMS IN THE STORIES OF SHUKUR KHOLMIRZAEV

Annotation

This article discusses the classification and analytical study of the problem of folklorisms

Key words: Transformation, terms, scientific, theoretical, problems, characteristic, features, trends, nationalism, composite folklorism, social, ethnographic.

ВЫРАЖЕНИЕ ПРОСТЫХ ФОЛКЛОРИЗМОВ В РАССКАЗАХ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема классификации и аналитического исследования фольклоризмов.

Ключевые слова: Трансформация, термины, научные, теоретические, проблемы, характеристика, черты, тенденции, национализм, композиционный фольклоризм, социальный, этнографический.

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA ODDIY FOLKLORIZMLAR IFODASI

Аннотация

Ushbu maqolada oddiy folklorizmlar muammosining tasnifiy, tahliliiy jihatdan o'rganish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Transformasiya, istilohlar, ilmiy, nazariy, muammolar, xarakterli, xususiyatlar, tendensiyalar, xalqchillik, kompozision folklorizm, ijtimoiy, etnografik.

Kirish. XX asr zamonaviy o'zbek nasri ustalari A.Qodiriy, Cho'lpon, A.Qahhor, G'.G'ulom, Oybek, A.Muxtor, S.Ahmad kabi ko'plab ijodkorlar singari Shukur Xolmirzayev ham o'z hikoyalari xalq maqollari, matallari, topishmoqlar, xalqona obrazli, iboralardan nihoyatda mahorat bilan foydalanadi. Yozma adabiyotga maqol, matal, iboralarning ko'chishi "oddiy folklorizmlar" deb ataladi. Oddiy folklorizmlar she'riyat poetikasidagina emas, nasriy asarlar poetikasida ham muhim rol o'ynaydi. Oddiy folklorizm Shukur Xolmirzayev hikoyalari badiiyatini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqol, matal, idiomalar, xalqona obrazli ifodalar, frazeologizmlarning yozma adabiyot tomonidan o'zlashtirilishi, xususan, xalq maqol va matallarning she'riyatga ko'chuvi masalasini ko'pchilik tadqiqotchilar, masalan, T.Xo'jayev, M.Hakimov, D.Xoliqova, L.Sharipovalar o'rganishgan. Oddiy folklorizmning nazariy tabiatini o'rgangan B.Sarimsoqov, I.Yormatovlar oddiy folklorizmni ikkiga bo'lishdi. Bular asl oddiy folklorizmlar va qayta ishlangan oddiy folklorizmlar. Oddiy folklorizmlarni bu tipda tasniflab, nomlanishidayoq, uning nazariy tabiati oydinlashib turibdi. Ya'ni xalq maqol va matal, obrazli xalqona badiiy ifodalar (idioma va boshqalar)ning aynan o'zidek ishlatilishi asl oddiy folklorizmlar bo'lsa, ularning ijodkor tomonidan qaytadan o'zgartirishlarga uchrab, yangilanishi "qayta ishlangan oddiy folklorizmlar"ni tashkil etadi. Atoqli yozuvchi Shukur Xolmirzayev hikoyalari asl folklorizmlar ham, qayta ishlangan folklorizmlar ham ko'p uchraydi. Oddiy folklorizmning har ikki turiga adibning epik turning roman, qissa, hikoya, esselaridan minglab misollar topish mumkin. Oddiy folklorizmlar she'riy asar badiiyatini yuksaltirishda, uni yetuk badiiy asar sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etganidek, nasriy asarlarda ham xuddi shunday ahamiyatga molikdir. - Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbek adabiyotshunosligida oddiy folklorizmlarni o'rganish borasida, asosan, maqol va matallarning she'riyatda ishlatilishi masalasi ko'proq tadqiq etilgan ma'lum bo'ldi. Vaholanki, oddiy folklorizmlar doirasiga xalq iboralari, idiomalar, xalqona oborotlar ham kirishini nazariyotchi olimlar belgilab berishgan. Shu nuqtayi nazardan yondashib, biz Shukur Xolmirzayev

hikoyalari ko'zga tashlangan asl oddiy folklorizmlar va qayta ishlangan oddiy folklorizmlarni aniqlashtirishda maqol, matal, obrazli xalqona ifodalar, iboralarga ham e'tibor qaratib, tahlil qildik.

Shukur Xolmirzayevning "Nimadir yo'q bo'ldi" hikoyasida "o'rgangan ko'ngil o'rtansa, qo'ymas" maqoli ishlatilgan bo'lsa, "Olma yemadim" hikoyasida "Og'zining suvi keldi", "tanglayi qurib, tili og'zida aylanmay qolish", "ko'zini qismoq", "pishillab yemoq" kabi ibora va obrazli xalqona ifodalar qatorida "bir mayizni qirg'ga bo'lib yemoq" matali o'zlashma shaklida ishlatilgan. Hikoya kontekstida ishlatilgan mazkur oddiy folklorizmlar badiiy asar badiiyatini kuchaytirishga xizmat qilgan. Masalan: "Bir hafta o'tdi. Er-xotin begonalar kabi yashashdi. Qismatulla qiyinaldi, o'rtandi: o'rgangan ko'ngil o'rtansa, qo'ymas. Shubhasiz, Hikmatoy ham azob chekkan bo'lsa kerak: axir u ham Qismatullaga o'rgangan...". Mazkur parcha "Nimadir yo'q bo'ldi" hikoyasidan olindi. Hikoya qahramonlari Qismatullo va Hikmatoy bir ziyofatga borishib, muomalasi o'zaro va o'zgalarga nihoyatda halim, shirin juftlikni ko'rishib, ularning orasidan ola mushuk o'tadi. Qismatullo ularga taqlid qilib, xotinidan, o'sha ziyofatda ko'rgan juftning ayolidek bo'lishni Hikmatoydan kutadi. Taassufki, ularning bir-biriga nisbatan tushunarsiz, sovuqqon munosabati tufayli ikkalasining ham qalbidagi chinakam muhabbat darz ketadi. Begonalardek bir-birining ko'nglini qoldirib yashayotgan er-xotinning ruhiy holatini jonli ifodalash maqsadida yozuvchi xalq orasida mashhur bo'lgan "O'rgangan ko'ngil o'rtansa, qo'ymas" maqolini hikoya matniga singdirib yuborgan.

Ma'lumki, xalqimiz orasida "So'nggi pushaymon, o'zingga dushman" degan xalq maqoli yuradi. Mazkur maqol mohiyatida "pushaymonlik"ning salbiy oqibati, inson ruhiyatiga, hayotiga yetkazadigan yomon oqibati obrazli ifodalangan. Shukur Xolmirzayev "Hayot abadiy" hikoyasida mazkur maqolni o'zgartirib, badiiy asar matnida oddiy folklorizm yaratgan. Masalan: "To'g'ri, Nodir oilasiga ko'p beparvo edi. Xolxo'ja milisaning: "Sen g'irt proletarsan!" deganida jon bor.

Hammasi o'tdi-ketdi, endigi pushaymon o'zingga dushman". Kuzatilayotganidek, iste'dodli yozuvchi "So'nggi pushaymon, o'zingga dushman" xalq maqolini hikoya matnida

o'zgartirib ishlatadi. Xalq maqolini stilizatsiya qilib, "endigi pushaymon o'zingga dushman" shaklida qo'llaydi. Natijada, hikoya badiiy kompozitsiyasida qayta ishlangan oddiy folklorizm yaratilgan. "Hayot abadiy" hikoyasi qahramoni sovxozning bosh agronomi Nodir Ro'ziqulov. Hikoya matnida xalq maqolida ishlatilgan "So'nggi" so'zi "Endigi" so'zi bilan almashtirilgan. Ya'ni adib o'zbek xalq maqoli kontekstidagi bitta so'zni yangilash bilan hikoya kontekstida oddiy folklorizmni paydo qilgan. Bundan tashqari, "Hayot abadiy" hikoyasida quyidagi oddiy folklorizmlar ham uchraydi. Bular: "hemirisi yo'q ekspeditor", "ta'bini tirriq qildi", "bo'shshib ketdi", "bo'lganim turganim shu", "guppa yiqildi", "yomon o'lim topdi, it qavmida o'lib ketdi", "tezroq ko'zdan yo'qolsin", "bukkan qaddini tiklashdi", "ko'ngli yumshab" kabi o'nlab oddiy folklorizmlar. Shukur Xolmirzayev hikoyaning jaydari xalqona uslubini asar matnida yaratish uchun ko'plab oddiy folklorizmlarni yaratgan. Hikoya qahramoni Nodir Ro'ziqulov qaynonasining achchiq-tizziq gapi bilan "Mening bo'lgan-turganim shu. Chidamasangiz qizingizni olib ketavering!" deyishi bilan xotini qizchasini ergashtirib, onasinekiga ketib qoladi. Hikoya ana shu yolg'iz qolgan halol agronom Nodir Ro'ziqulovning ichki xayoldagi o'ylari, tanqidiy-tahliliy mulohazalari asosiga qurilgan. Hikoya yakunida qahramon hayot haqida shunday xulosaga keladi: "Ka'baga o't qo'yib, butga cho'qin, lekin mo'rchani og'ritmagil, ha shunaqa bo'ladi-da", dedi". Adib qahramonning ichki o'y-kechinmalarini, qaynonasi va jamiyat bilan munosabatini real, haqqoniy aks ettirish maqsadida oddiy folklorizmlarni yaratib, asarning badiiy ta'sirchan kuchini, badiiy-estetik qiymatini oshirishga erishgan. Yana e'tiborli jihati shundan iboratki, yozuvchi yuqorida keltirilgan parchada hadislar va Islomiy ta'limotga ko'ra, chumoliga ham ozor bermaslik haqidagi ma'rifiy va umuminsoniy g'oyani hikoyaga singdirib yuborgan.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ijtimoiy-etnografik folklorizmlar nihoyatda tiniq bo'yoqlarda tasvirlanadi. Masalan, "Arpali qishlog'ida", "Olis yulduzlar ostida" boshqa qator o'nlab hikoyalarida ham ijtimoiy-etnografik folklorizm ko'p uchraydi. Masalan, "Beshikkerti" udumi ijtimoiy-etnografik folklorizmga misol bo'ladi. Shuningdek, Arpali qishlog'ida yashovchi to'g'iz urug'i odamlarining yashash sharoiti, maishiy turmush tarzi ham hikoyada nihoyatda aniq-tiniq aks ettirilgan. Masalan: "Abdurasul lampochkani qo'yib, uyga kirdi. Uning avzoyidan xafalikni sezgan ota ham ergashdi. Abdurasul quroq ko'rpachaga o'tirib, chordana qurdi. Abray aka chakmonini yechib, poygakka cho'kka tushdi"[1]. Mana shu parchadagi "quroq ko'rpacha", "chakmon", "chordona qurib o'tirish" bular o'zbekning, aniqrog'i Arpali qishlog'ida yashovchi to'g'iz urug'ining maishiy hayotiga kichik bir chizgidir. Shu bois adib hikoyalarida uchraydigan kunday yuzlab maishiy lavhalar, milliy urf-odatlar, udumlarini ijtimoiy-etnografik folklorizm turi sifatida alohida o'rganish maqsadga muvofiq sanaladi.

Shuningdek, yozuvchining ba'zi hikoyalari matnida tojikcha iboralar, maqollar ham uchraydi. Bu ham, albatta, tasodif emas. Chunki Surxondaryo viloyatining ba'zi tumanlarida o'zbek-tojik xalqi aralash yashaydi. Jumladan, "Tikan orasidagi odam" hikoyasida tojik xalqining mashhur maqollaridan biri "Zo'ri behuda miyon meshikand" ishlatilgan. Bu maqol o'zbek xalqining atoqli yozuvchi Abdulla Qahhorning "To'yda aza" hikoyasiga epigraf sifatida tanlangan. Maqolning o'zbekcha ma'nosi: "Behuda kuchanishdan foyda yo'q" demakdir. "Tikan orasidagi odam" hikoyasida bir-birini yoqtirmaydigan ikki odam va ularning ovga chiqishi, ov paytidagi baxtsiz falokat tasvirlanadi. Hikoya qahramonlari eski agronom Amirqul va yosh agronom Mirhaydar obrazlaridir. Masalan, eski agronom Amirqul nutqida "qitiq parimga tegaverma", "bir boshim, ikki qulog'im bor", "Chuchvarani xom sanama, chirog'im!", "Yiqqanim yetti pushtimga yetadi", "tishingni so'rib qolasan!" kabi oddiy folklorizmlar uchrasa, yosh agronom nutqida "Otdan tushsangiz ham, egardan tushmaysiz-a?" kabi oddiy folklorizmlar ikki bir-biriga raqib bo'lib turgan qahramonlar ruhiyatini teran ochib berishga xizmat qilgan. Shuningdek, hikoyada qahramonlar nutqida uchraydigan bu kabi oddiy folklorizmlar qahramonlar nutqini individuallashtirib bergan. Ular to'ng'iz ovlamochi

bo'lishadi. "Nihoyat, jarga yaqinlashib, bir tup yantoq yoniga cho'nqaydi. Narigi betga ko'z tashlab, Amirqul aka tomonga qaradi va uning cho'nqayib o'tirgan gavdasini va botayotgan oy nurida yiltirayotgan milting'ini aniq ko'rdi".

Tahlil va natijalar. Y Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ishlatilgan oddiy folklorizm va uning turlarini aniqlashtirish jarayonida adibning bir maqol, matal, iborani boshqa hikoyasida ham qayta ishlatib, har bir hikoyada o'ziga xos badiiy maqsad va vazifalarda qo'llaganini anglash mumkin. Adib hikoyalarida uchraydigan oddiy folklorizmlar asarning g'oyaviy-badiiy qiymatini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchidan, asarning o'qishlilik, yuqumlilik darajasini, ya'ni badiiy asar jozibadorligini oshiradi. Kuzatilganidek, adib hikoyalarida o'zbek xalq maqol va matallardan tashqari, qaradosh xalqlar, xususan, tojik xalq maqollaridan ham foydalanganini ta'kidlash o'rinli.

Shuningdek, oddiy folklorizmlarning nasriy asarlarda sintez va stilizatsiya qilinishi she'riy asardagi badiiy funksiyalaridan sal o'zgararoq tarzda namoyon bo'ladi. Ya'ni she'riyatda maqol, matal va boshqa oddiy folklorizmlar ishlatilgan ekan, vazn, qofiya, ritm hisobga olinadi. Nasriy asarda nasriy saj' xususiyati bo'lsa-da, har holda, she'riyatdagi kabi oddiy folklorizmlarni hosil qilishda qattiq bir qoida, qonun mavjud emas. Nasrda anchayin erkinlik bor.

Adabiyotshunos N.Soatova maqol, ibratli xalqona obrazli ifodalarning badiiy asardagi ahamiyati beqiyosligini ta'kidlab shunday yozadi: "Badiiy asarda maqollardan, ibratli gaplardan foydalanish asarning ifoda kuchi va realistik qudratini oshirib, fikrning obrazli bayon qilinishini ta'minlovchi omil sifatida. Shuning uchun xalq maqollari o'zining ixchamligi, to'la qofiyaligi, hayotiyiligi bilan kishilar nutqini bezaydi va o'zining donolik xazinasi bilan inson tafakkurini, ong-u shuurini boyitadi".

Shuningdek, Sh.Xolmirzayevning "Bahor o'tdi" hikoyasida oddiy folklorizmlarning turli turlari uchraydi. Masalan: "ichida mamnun bo'lmoq", "qo'lini yuvib, qo'ltig'iga artmoq", "ko'ngli cho'kmoq", "ko'ngli sovumoq", "fig'oni falakka chiqmoq", "xun bo'lmoq", "yuragi siqilmoq", "ko'zi to'rt bo'lmoq" kabi xalqona iboralar qahramonning ruhiy holatini tabiiy, jonli ochib berilishiga xizmat qilgan. Hatto yozuvchi o'zbek maqollaridan bo'lgan "Ichkuyov – kuchuk kuyov"ni ham asl folklorizm sifatida hikoya kontekstida ishlatgan. Masalan: "– E, jiyan, chakki qilyapsan-da, –dedi. Ichkuyov kuchuk kuyov deydi. Turmushni bilmaysan. O'zingni qafasga solyapsan..."[5]. Yozuvchi "Ichkuyov kuchuk kuyov" asl folklorizmini hikoyada yaratar ekan, asar qahramoni Akobirning xor bo'lib fojiviy o'lim topishiga kichik bir ishora beradi. Hikoyaning bosh qahramoni Mastura. Uning otasi o'tgan asrning 30-yillarida magazinchi bo'lib ishlagan. Ochlikdan, magazinda sotuvchilik qilib turgan joyida jon bergan. Shundan beri Mastura kasalmand, bir ko'zi shilpiq onasi bilan yashaydi. Mastura tashqi jihatdan nihoyatda chiroyli qiz. Ammo qalbi buning teskarisi. Uni qo'ni-qo'shnilar unchalik yoqtirishmaydi. Mastura nihoyatda xudbin, e'tibortalab, izzattalab bo'lib o'sadi. Hayot qiyinchiliklarini o'z yelkasida ko'tarishni istamaydi. Uni yetim bola Akobir sevib qoladi. Mastura qishlog'ida e'tibor va hurmatni poytaxtga o'qishga kirib, topa olmaydi. Shuni bahona qilib, o'qishni tashlab, uyiga qaytib keladi. Hatto sevgilisi Akobirni ham o'qishni tashlab kelishga da'vat etadi. Ammo Akobir o'z fikrida qolib, institutni tugatib keladi. Uysiz-joysiz talaba bo'lishiga qaramasdan, Akobir Masturaning yolg'onlariga uchib, unga uylanadi. Hikoya yakunida Akobir Masturaga tandir qurib berish uchun toza tuproq olib kelaman deb, tuproq kovlayotib, tuproqning tagida qolib, qattiq jarohatlanadi. Akobir nihoyatda og'ir holatda vafot etadi.

Hikoyada xudbin, ichki dunyosi chirkin ayol Masturaning ruhiy dunyosi badiiy tahlil etilgan. Zero, hikoya shunday yakun bilan tugallanadi: "Akobirning qirqi o'tgach, Mastura uni astasekin unuta boshladi va uni otasini eslagani singari eslaydigan bo'lib qoldi. Lekin qo'shnilar undan yuz o'girishgan edi. Endi tajribali Mastura fikr qildi: "O'zi odamlarning tayini yo'q. Bir kun qarasang, yaxshi ko'radi, bir kun qarasang, yomon ko'radi. Fu! Yana bitta erga tegay, keyin yana kim yaxshi – Masturaxon yaxshi bo'ladi". Masturaning ichki monologi uning kimligini,

uning dunyoqarashi qandayligini yaqqol namoyon etgan. Shukur Xolmirzayev qahramon ruhiyatini teran ochib berishda badiiy asarda nutq tiplariga (muallif bayoni, ichki monolog, dialog va boshqalar) nihoyatda e'tiborli adiblardandir.

Xulosa va takliflar. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi haqida adabiy portret yaratgan adabiyotshunos H.Karimov "Bahor o'tdi" hikoyasi haqida shunday yozadi: "Yozuvchi o'z g'oyasini qahramon sa'y-harakati, sajiyasi zamiriga singdirgani, uni tajribaviy ravishda, voqealarga aralashmay, lekin o'z pozitsiyasiga izchil qolgan holda realistik tasvirlagani uchun kitobxon shuuriga chuqur singadi va uning ta'sirida uzoq qoladi. Demak, hikoyaning ikkinchi umri kitobxon qalbida kecha boshlaydi. Bunga erishish, so'zsiz, yozuvchining mahoratidan dalolatdir". Haqiqatan ham yozuvchi qahramonlarni tabiiy yoritadi. Adib o'z qahramonlarini oqlamaydi ham, qoralamaydi ham. Hikoya nega "Bahor o'tdi" deb nomlangan? Bu ham bir jumboq aslida. Hikoya qahramoni Mastura yoshligi, bahori o'tib ketgan bo'lsa-da, bola kabi bahorini kutib yashaydi. Bizningcha, Bahorning o'tishi ramziy ma'noda

inson umrining o'tib ketishiga ishoradir. Hikoyada qo'llanilgan asl va qayta ishlangan oddiy folklorizmlar hikoya qahramonlarining ruhiyati, hayoti, fojiasi, qismatini chuqur xalqona ravishda asoslashga xizmat qilgan.

Adibning "Yangi zot" hamda "Qariya" hikoyalarida ham oddiy folklorizmning asl oddiy folklorizm va qayta ishlangan folklorizm turlari talaygina uchraydi. Masalan, hikoya matnida "Olamda yo'q, o'zingda yo'q" maqolining ikkinchi qismi tushirilib qoldirilib, birinchi qism ikkinchi qism sifatida ishlatilib, birinchi qismga yozuvchining o'z so'zi qo'shilib qayta ishlangan oddiy folklorizm paydo bo'lgan. Jumladan: "...Bu mollar og'ilda ham, olamda ham yo'q mahal. Bu yigit sovxoz qoramollarini ko'zdan kechirib yurib, archali tog' ostida haybatli, semirib ketgan bir buqani ko'rib qoladi". Shuningdek, hikoya matnida "Ko'ngli buzilmoq", "ko'ngli bo'sh", "ko'zdan kechirmoq", "boshini liqillatmoq" iboralari ham uchraydi. Bu xalqona obrazli frazeologizmlar qahramon ruhiyatini tabiiy ochib berishga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Холмирзаев Ш.замондошлари хотирасида. Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи , 2010 й
2. Қозоқбой Йўлдошев "Эркин сўз" Ш.Холмирзаев замондошлари хотирасида .Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи , 2010 й
3. Ҳамидова М."Ҳозирги ўзбек адабиётида миллий қаҳрамон муаммоси"(Шукур Холмирзаев ижоди мисолида)ф.ф.н.дисс.Тошкент-2001
4. Имомкаримова М."Ўтқир Ҳошимов асарларида миллий қаҳриятлар талқини"ф.ф.н.дисс.Тошкент-2004й
5. Холмирзаев Ш.Наврўз,Наврўз ҳикояси, Сайланма III жилд . Ҳикоялар.Тошкент: Шарқ -2009 .
6. Лайло Шарипова Ўзбек шеърлятида фольклоризм монография "Фан"нашриёти 2011 й
7. Хўжаев Тохир XV аср биринчи ярми ўзбек адабиёти ва фольклор ф.ф.н.дисс.Тошкент 1996 й



Muborak MEYLIQULOVA,
O'zbekiston milliy universiteti 2-bosqich magistranti
E-mail: muborakmeyliqulova0@gmail.com

PhD R.Xayrullayev taqrizi ostida

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA SINONIMIYANING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi sinonimiya hodisasining stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Sinonimlar til tizimida muhim o'rin egallab, nutqning ifodalilik va ta'sirchanlik darajasini oshiradi. O'zbek va ingliz tillari misolida sinonimlarning stilistik funksiyasi, ularning qo'llanish sohalari va nutq uslublaridagi o'rni o'rganiladi. Maqolada stilistik sinonimlarning pragmatik ahamiyati ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: sinonimiya, stilistika, funksional uslub, sinonimlar, pragmatika, til tizimi, nutq uslubi.

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СИНОНИМИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье рассматриваются стилистические особенности синонимии в узбекском и английском языках. Синонимы играют важную роль в языковой системе, повышая выразительность и эмоциональное воздействие речи. На примере узбекского и английского языков исследуется стилистическая функция синонимов, их сферы применения и роль в речевых стилях. Также анализируется прагматическая значимость стилистических синонимов.

Ключевые слова: синонимия, стилистика, функциональный стиль, синонимы, прагматика, языковая система, стиль речи.

STYLISTIC FEATURES OF SYNONYMS IN ENGLISH AND UZBEKISTAN

Annotation

The article examines the stylistic features of synonymy in the Uzbek and English languages. Synonyms play a crucial role in the language system, enhancing the expressiveness and emotional impact of speech. Using examples from Uzbek and English, the stylistic functions of synonyms, their areas of application, and their roles in speech styles are analyzed. The pragmatic significance of stylistic synonyms is also discussed in the article.

Key words: synonymy, stylistics, functional style, synonyms, pragmatics, language system, speech style.

Sinonimlar – ma'nolari bir xil yoki o'zaro yaqin, talaffuz va yozilishi har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: *chiroyli, go'zal, ko'rkam, ko'hlak, xushro'y, suluvi, zebo* kabi. Ilmiy adabiyotlarda sinonimlar ma'no va qo'llanish doiralari ko'ra uch turga ajratilgan: ideografik, stil va stilistik sinonimlar. Ideografik sinonimlar o'zaro leksik ma'no ottenkalari bilan farqlansa, stil sinonimlari qo'llanish doirasiga (nutqning turli stiliga mansubligiga), stilistik sinonimlar esa ekspressiv bo'yog'iga (sinonimik qatorda asosiy, neytral so'zga nisbatan ekspressiv ottenkaga egaligiga) ko'ra farqlanadi.

Sinonimlarni differentsiyalash paytida, avvalo, ularning ekspressivstilistik ottenkalari, muhim farqlari ko'rinadi. Masalan: yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor sinonimik qatorida yuz umum ishlatadigan so'zdir. Qolganlari esa turli ma'no ottenkalariga ega: bet, aft so'zlari salbiy ottenkaga ega; bashara so'zida salbiy ottenka yuqoridagilarga nisbatan yanada kuchli; turq so'zida esa salbiy ottenka bashara so'zidagiga nisbatan ham kuchli; chehra - ijobiy ottenkaga ega; jamol so'zida ijobiy ottenka yanada kuchli bo'lib, bu so'z, asosan, poetik uslubga xos; diydor ko'rishmoq, diydoriga to'ymoq kabi bir-ikki so'z bilangina qo'llanadi; oraz, uzor, ruxsor esa eskirgan so'zlar bo'lib, ular kitobiy uslubga xos.

“O'zaro umumiy ma'nosi bilan birlashib, stilistik ottenkasi - bo'yog'i va nutqda ishlatilish doirasi jihatidan farqlanadigan sinonimlar stilistik sinonimlar deyiladi.

Leksik ma'nosi jihatidan farqalanadigan sinonimlar ideografik (ma'no) sinonimlardir. Masalan, kasal (umum ishlatadigan so'z), bemor (yozuvda ko'p qo'llanadi), xasta (eskirgan so'z), ammo ba'zan-ba'zan, orasira kasal bo'lib turish ma'nosini bildiruvchi betob, notob so'zlari yuqoridagilarga nisbatan stilistik va ideografik sinonimdir. Ideografik sinonimlar o'zaro leksik ma'no darajasiga ko'ra farqlanadi: yomg'irda plashim nam bo'ldi, yomg'irda plashim ho'l bo'ldi

bo'g'lanishlarining keyingisida belgi darajasi kuchliroq. Nutqda fikr ottenkasi yoki emotsiyasiga, leksik, grammatik yoki stilistik xarakteriga mos sinonim so'zlardan faqat bittasi tanlab olinadi va ishlatiladi. Shu sababdan sinonimik qatordagi so'zlar o'rtasidagi ba'zi farqlarni o'rganish stilistikaning vazifasi hisoblanadi.

Sinonimlar nutqda ishlatilish doirasi jihatidan ham o'zaro farqlanadi. Masalan, lab - barcha nutq stillarida ishlatiladigan umumnutq so'zi, dudoq - badiiy nutq so'zi; shamol - umumnutq so'zi; sabo - badiiy nutq so'zi; rohat - umumnutq so'zi; eslamog' - umumnutq so'zi; xotirlamoq - rasmiy nutq so'zi; yo'qlamoq - so'zlashuv nutqi so'zi. Bu xil sinonimlar stil (uslub) sinonimlari deyiladi”.

Til stilistikasida sinonimlarning o'rni beqiyosdir. Sinonimlardagi o'zaro ma'noviy farqlar stilistik jihatdan muhim hodisa sanaladi.

“Leksik stilistikada sinonimiya hodisasi muhim o'rin tutadi. Stilistik bo'yoqli so'zlar, ayniqsa, sinonimik qatorda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, sinonimik qatorning uzunligi turlichadir: bir tomondan, sinonimik qator faqat ikkita so'zdan tuzilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bir necha so'zdan tuzilishi mumkin, masalan: ikki qismli sinonimik qator:

Chopmoq-yugurnoq, sevinmoq-xursund bo'ymoq, uysiz-joysiz, dum-quyruq.

Ko'p qismli sinonimik qator: yuz, aft, bashara, turq, bet, chehra, siymo;

kulmoq, jilmaymoq, tabassum qilmoq, tirjaymoq, irshaymoq, iljaymoq, ishshaymoq.

Bu sinonimik qatordagi har bir so'z turli nutq vaziyatlarida tanlab ishlatiladi.

*Barchaga barobar oftohsimon,
Yashasin olam deb yashaydi O'zbek!(Muhammad Yusuf)
Azim ayta sabo ul tili xandonimga,
Ne tulki, quyoshdek mahi tobonimga. (Bobur)*

Sinonimlar gaplardagi nozik ma'nolarni ochib berish uchun ham keng qo'llaniladi.

Sinonimik hodisani frazeologizmlar (turg'un birikmalar)da ham kuzatishimiz mumkin.

"Frazeologizmlarning ma'nodoshlik paradigmasida birlik ifoda semalari darajasiga ko'ra farqlanadi: [yaxshi ko'rmoq]/[ko'ngil bermoq], [yer bilan yakson qilmoq] - [kulini ko'kka sovurmoq], [ipidan ignasigacha]/[miridan sirigacha], [qilidan quyrug'igacha] va h.k. Ma'nodosh frazeologizmlarning atash semasi bir xil bo'ladi. Masalan, [ipidan ignasigacha]/[miridan sirigacha], [qilidan quyrug'igacha] kabi iboralarda «butun tafsiloti bilan» atash semasi umumiy. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo'yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi.

1. *Hoji buvi uning boshiga kigiz kuydirib bosibdi, qorakuya suribdi, haytovur bola tuzalib ketibdi. Faqat uni esi aynibroq qolibdi.*

2. *Nariroqqa borib birdan yugurib ketdi. Chamasi meni, esdan og'ib qolgan, deb o'yladi.*

"Frazeologik sinonimlarni ham biri o'rnida ikkinchisini ishlatsa bo'ladi, lekin sinonim iboralar uslubiy jihatdan o'zaro mos bo'lsa, adabiy-uslubiy normaga muvofiq kelsagina o'zaro o'rin almashadilar. Masalan, «kim biladi» va «xudo biladi», «kim bilsin» va «xudo bilsin» iboralari o'zaro variantdosh. Mazkur iboralarning variantdoshligi «Izohli lug'at»da «yoki», «aynan» havolalari bilan to'g'ri ko'rsatilgan (243,114). Sh. Rahmatullayev lug'atida esa ular o'zaro sinonim iboralar sifatida ishlangan (232,286). Bu iboralar variantdosh bo'lgani uchun ularni o'rni almashtirish uslubiy jihatdan unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi".

Frazeologik sinonimlar ham bir-biridan ular hosil qilgan ma'no ottenkalari orqali o'zaro farq qiladi. Frazeologik sinonimlarni yuqorida aytilganidek frazeologik variantdoshlar farqlay olish muhim hisoblanadi. Variantdosh frazeologizmlar bir-birining o'rnida bimalol almashinib qo'llana olsa, sinonim frazeologizmlarni esa ular ifoda qilayotgan ma'no ottenkalariga e'tibor bergan holda nutqiy vaziyatga mos qo'llay olish talab qilinadi.

"Shunday qilib, sinonimiya variantdoshlikka nisbatan ancha keng tushunchadir. Frazeologik sinonimlar va frazeologik variantlar o'zbek tilining kuchli ta'sir etuvchi uslubiy manbalaridan biridir. Shuning uchun izohda, frazeologik va boshqa top lug'atlarda frazeologik sinonimlar ham, frazeologik variantlar ham o'z aksini topishi lozim. Frazeologik sinonimlarni s.t.(so'zlashuv tiliga xos), folk(folklorga xos), dial(muayyan dialektga xos) k.t. (kitobiy, yozma nutqqa xos ibora), poet. (asosan poetik asarlarda qo'llanilgan ibora), esk. (eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan ibora), hazil, erkalash, nafrat, salbiy singari funksional-uslubiy havola-belgilar bilan ta'minlash kerak. Subyektiv baho formalari (istarasi issiq-istarasi issiqqina; ko'ngli yumshoq-ko'ngilginasi yumshoq; ko'ngli qora-ko'ngli qop-qora; joni chiqdi-jon-poni chiqdi; pichoq suyakka yetdi - pichoq suyak-suyagiga yetdi kabilar) iboralarning sinonimlari emas, balki ularning turli xil variantlarini hosil qiladi. Variantdosh iboralarni sinonim iboralardan farqlash frazeologik uslubiyatning eng muhim masalalaridan biridir, bu hol ayniqsa sinonim iboralarning uslubiy tarmoqlanish haqida so'z yuritilayotganda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi".

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, surxon farzandi bo'lmish Tog'ay Murod o'z asarlarida frazeologik sinonimlardan unumli foydalangan. Yozuvchi frazeologizmlardan asosan personajlarning ichki dunyosini, ulardagi ruhiy holatning o'zgarishlarini ochib berish uchun foydalanadi.

Shunda, bobomiz ketmonini yer botiradi. Engashmish ko'yi tizzalariga kaft tiraydi. Yer ostidan yo'lga ko'z tashlaydi..

Dahlizimiz shipiga nazar soldim-chini bilan inda bir qaldirg'och bo'ldi.

Taom icha-icha ayolimizga razm soldim.

Yuqoridagi misollarda «ko'z tashlamoq», «nazar solmoq», «razm solmoq» iboralari o'zaro sinonimlik hosil qiladi. Ularning barchasi «qaramoq» semasi ostida birlashadi, lekin har birining o'ziga xos ma'no nozliklari mavjuddir. «Ko'z tashlamoq» iborasi

kim nimaga yoki kimga qisqa muddat qaramoq ma'nosini, anglatsa «nazar solmoq» iborasi esa kim nimaga yoki kimga; diqqat bilan qaramoq ma'nosini anglatadi. «Razm solmoq» iborasi esa kim nimaga yoki kimga; sinchkovlik bilan kuzatmoq ma'nolarini bildiradi. Ko'rib turganingizdek har bir ibora o'ziga xos ma'no xususiyatiga egadir.

Dala ko'ngli nozik bo'ladi - vaqt-bevaqt oralay bersa ko'ngli oladi [1].

Ko'nglim uvishdi. Ko'nglim ezildi. Ko'nglim o'yildi [1].

Bunday iboralarni asarda ko'plab uchratishimiz mumkin. Aynan shu hol yozuvchining so'zga naqadar usta va chechan ekanligidan dalolat beradi.

Sinonimlik hodisasi qo'shimchalar va gaplarda ham yuzaga keladi. Masalan, sifatlarda darajalanishni yuzaga keltiradigan grammatik shakllarni olaylik.

O'zbek tilida ana shu belgi-xususiyatlarni ko'rsatib turadigan maxsus grammatik belgilar mavjud va bu belgilar o'rni bilan o'zaro sinonimik munosabatda bo'ladi.

"Masalan, sifat darajalarini ko'rsatuvchi -li bilan -siz, be-, no-, ser-, -li bilan -gan (o'qimishli-o'qigan); li bilan -lik (yozgi-yozlik, qishki-qishlik); -gi bilan -dagi (yozgi-yozdagi, bahorgi-bahordagi, kuzgi-kuzdagi, qishki-qishdagi), -k bilan -gan (chirik-chirigan), -ma bilan -gan (suzma-suzilgan), -ma bilan -digan, -laydigan (g'irchillama-g'irchillaydigan, qirchillama-qirchillaydigan), -kir bilan -ag'on (chopqir-chopag'on), -li bilan -mand (hunarli-hunarmand), -namo bilan -ga o'xshash (olimnamo-olimga o'xshash), -simon bilan -ga o'xshash, kabi, sifat (maymunsimonmaymunga o'xshash, maymun kabi, maymunisifat) o'rtasida, ular bilan sifatning ayrim analitik shakllari o'rtasida ham funksional chegaralanishlarini keltirib chiqarish mumkin bo'lgan sinonimik munosabatlar mavjud. Ammo ularning bu munosabati stilistik talablar darajasida turlichadir. Masalan, qishki kiyim - qishdagi kiyim - qishlik kiyim birikmalarining semantik mavqei bir xil emas".

Yuqoridagi qo'shimchalar umumiy leksik fonda ma'nodoshlik hosil qilishi mumkin, lekin ular stilistik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Otlarda uchraydigan kelishik shakllari ham ba'zi hollarda o'zaro sinonimlik hosil qilishi mumkin, ammo ulardan anglashilayotgan ma'nolar turlicha bo'ladi.

"Chiqish kelishigi hamda boshqa kelishiklar va ko'makchilar bilan yuz beradigan sinonimiya ifodada turli ma'no nozikliklarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, u tushum kelishigi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi: gunohidan o'tmoq/gunohidan kechmoq - gunohini o'tmoq/gunohini kechmoq kabi. Ammo kelishik qo'shimchalari o'rtasidagi bu yaqinlik ham ularning bimalol almashinib qo'llanilishiga monelik qiladi. O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida dan ning o'tmoq bilan, -ni ning kechmoq bilan qo'llanilganligi bu qo'shimchalarning o'zi birikib kelgan so'zlardagi semantik ottenkalarni farqlash xususiyatlari bilan izohlanadi. Gunohidan o'tmoq da aniq bir vaziyatdan amalga oshirilgan faoliyat, gunohini kechmoq da umuman faoliyat nazarda tutiladi. Shu bilan birga bu birikmalarni qo'llashdagi an'anaviylikning ham ta'siri bo'ladi: agarchi siz shahzodaning gunohidin o'tsangiz... G'ofil banda, gunohimdan o'tgaysiz, bonu... benuqson parvardigor, bandayi g'ofilning gunohidin o'tgaysiz, mavlono... - Shahzoda uning gunohlarini kechmaydimi?"

Agar keyingi gapdagi kechmoq fe'li uning varianti kechirmoq bilan almashtirilsa, vaziyat yana ham oydinlashadi. Gunohlarini kechmoq, gunohlaridan kechmoq va gunohlarini kechirmoq deyish mumkin bo'lgani holda, gunohlaridan kechirmoq deb bo'lmaydi: -Hayhot!-deb xitob qildi.-Agarchi masala shahzodaning gunohlarini kechirmoqda bo'lsa, yurt osoyishtaligi yo'lida men sulhdan bosh tortmas edim. Qiyos uchun: SHahzodaning gunohini kechirgay. (O.Yoqubov) - SHahzodaning gunohidan kechirgay kabi".

Chiqish kelishigi va tushum kelishigining o'zaro sinonimligida turlicha ma'no noziklari yuzaga chiqadi. Masalan, *olmadan yemoq-olmani yemoq* birikmalarida qism-butun ma'nolari anglashiladi. Birinchi, *olmadan yemoq* birikmasidan qism munosabati yaqqol sezilib turgan bo'lsa, ikkinchi, *olmani yemoq* birikmasida esa butun munosabati anglashiladi.

“Kelishiklar o‘z navbatida ko‘makchilar bilan ham sinonimlik hosil qiladi. Masalan, jo‘nalish kelishigini olaylik. Ushbu kelishikning ko‘makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishishi uning ko‘zga ko‘rinarli stilistik alomatlaridan biridir. Ammo bu sinonimiyada uslubiy farqlar ko‘zga tashlanadi. “-ga li konstruksiya hamma stillar uchun umumiy bo‘lsa, -tomon ko‘makchili konstruksiya ko‘proq ilmiy stil’, yozma nutq uchun xarakterlidir. Sari ko‘makchili forma esa, asosan, poetik nutq uchun xos”. Ayrim misollar keltiramiz: Xorazm Jaloliddin xayolidek qiziq tush, / Ta‘birga par bermasa na bir pari, na bir qush, / Sodda Gurlan sari bor, kelar bir bosiq tovush: / “Ko‘ngilni ko‘targuvchi saboni ko‘rmoq bo‘lsang, / Bor Amu bo‘ylariga, borgan do‘stginam” (O.Matjon. CHorlov).

Jo‘nalish kelishigi tabiatida ko‘makchilar bilan sinonimlik xususiyati mavjud. Masalan u uchun ko‘makchisi bilan shunday munosabatga kirishadi: Ukamga kitob oldim - Ukam uchun kitob oldim. U bu yerga dam olishga kelgan - U bu yerga dam olish uchun kelgan kabi”.

Sinonimlik hodisasi sintaktik birlik hisoblangan gaplar doirasida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, qo‘shma gaplar va soda gaplar o‘rtasidagi ma‘nodoshlik: Kim birovga yaxshilik sog‘insa, unga ham yaxshiliklar yog‘iladi – Yaxshilik sog‘inga ham yaxshiliklar yog‘iladi.

Sinonimlik hodisasi faqat qo‘shma gap va sodda gaplar o‘rtasidagina sodir bo‘lmay, balki qo‘shma gap turlari o‘rtasida ham yuzaga chiqadi: Hamma ayb senda: bilimsiz va tajribasizsan – Hamma ayb senda, chunki bilimsiz va tajribasizsan. Yuqorida bog‘lovchisiz qo‘shma gap va ergashgan qo‘shma gap o‘zaro sinonimlik hosil qilmoqda. Ikkalasida ham sabab munosabati yuzaga chiqmoqda. Lekin ergashgan qo‘shma gapda sabab munosabati bog‘lovchisiz qo‘shma gapga nisbatan kuchliroq va yaqqol ko‘zga tashlanadi, chunki gapda aynan sabab ma‘nosini yuzaga chiqaradigan ergashtiruvchi vosita (chunki) qo‘llangan.

Har bir tilda xalq donoligi durdonasi, pand-nasihat manbai bo‘lgan va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ibratli hikmatlar, naqlar bor. Fanda ular paremiologik birliklar (paremalar) deb ataladi. Ular tadqiqot ob‘ekti sifatida azaldan mutaxassislarni o‘ziga jalb etib kelmoqda, chunki ushbu hikmatli so‘zlar har birimizni doimo mehr-oqibatli, odob-axloqli, mehnatsevar, halol, adolatli, to‘g‘ri so‘z, ahil, vatan va vatanparvarlik kabi xislatlarga ega bo‘lishga undaydi.

Paremalarni ilmiy o‘rganish natijasida insonlar va jamiyat hayotiga taalluqli ko‘plab muhim savollarga javob topish mumkin. Paremalar jahonning barcha tillarida mavjud va ular o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Ingliz tilshunos olimlari Jakob Kets va Robert Farlilar tomonidan tuzilgan “Moral Emblems with aphorisms, adages, and proverbs, of all ages and nations” nomli kitobida aforizm naql maqol kabi birliklar paremiologik birlik sifatida qaralib, besh mingdan ortiq paremalar tahlilga tortilgan. Villiyam Lili tomonidan yaratilgan “Choice aphorisms from the seven segments of cardan” nomli to‘plamida qarindosh-urug‘chilik, kasallik, jismoniy mehnat, ob-havo kabi tematik doiralarga oid bo‘lgan uch mingdan ortiq hikmatlar durdonasi jamlangan bo‘lib, aforizmlar paremiologik birlik sifatida qaralgan. T.A.Shiryayeva va boshqalar maqollar, antimaqollar, maqolsimon iboralar, matallar, xurofiy belgilar (primeta), aforizmlar, devizlar (sloganlar), topishmoqlar, maksimalar, vellerizmlar kabi birliklarni ham paremalar qatoriga kiritishadi³. O‘zbek olimasi Z.D.Toshpo‘latovning “Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati” nomli nomzodlik dissertatsiyasida berilgan ma‘lumotga ko‘ra, aforizm dastlab tibbiy qarashlar, turli kasalliklarning belgi va alomatlarini haqidagi xulosalarini bevosita aforizm shaklida ixcham, purhikmat, mazmunli xukmlar tarzida ifodalagan. S.Xudayarova paremiologik birliklarga maqol, matal, aforizm va ibratli so‘zlar kirib, ular millatning ko‘p asrlik milliy-madaniy ananalari, axloqiy mezonlari va pand-nasi hatlarini ixcham ko‘rinishda ifodalashini qayd etgan.

ADABIYOTLAR

1. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. -T.: Yangi asr avlodi, 2019. B—37-65
2. B. Yo‘ldoshev. Frazologik uslubiyat asoslari. O‘quv qo‘llanmasi. – Samarqand: SamDU nashri. 1998. B – 71
3. Karimov S.A./O‘zbek tilining grammatik stilistika masalalari / Ma‘ruzalar matni. Samarqand – 2012. B – 34
4. Tog‘ay Murod/ Otam qolgan dalalar/ Roman. “Sharq” nashriyat-matbaa konsernining bosh tahririyaati. Toshkent – 1994 yil. B – 2



Iroda MIRMAHMUDOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

PhD, dotsent H.Turdiyeva taqrizi asosida

RASMIY–IDORAVIY USLUBNING BIR BO'LIMI SIFATIDA DIPLOMATIK USLUBNI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada rasmiy–idoraviy uslubning bir bo'limi sifatida diplomatik uslubning o'zni va ahamiyati tahlil qilingan. Unda rasmiy–idoraviy uslubning funksional xususiyatlari, uning ijtimoiy–huquqiy munosabatlari, davlatlararo va ichki aloqalardagi roli yoritilgan. Diplomatiq yozishmalarning o'zgacha xususiyatlari, standartlashgan til qoidalari, klishe va shablonlarning qo'llanilishi orqali ushbu uslubning aniqlik va aniq bayonga bo'lgan talablari tushuntirilgan. Hujjatlarning funksional roli, diplomatiyada til tanlashning o'ziga xosligi, uning chegaralangan, ammo universal xususiyatga egaligi qayd etilgan. Diplomatiq yozishmalarning leksik va uslubiy xususiyatlari xalqaro munosabatlarda samarali muloqot va ishonchli hujjat yaratishdagi ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida diplomatik aloqalarda aniqlik, vazminlik va ehtiyotkorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: rasmiy–idoraviy uslub, funksional xususiyatlar, ijtimoiy–huquqiy munosabatlar, standartlashgan til qoidalari, klishe, shablonlar, diplomatiq hujjat, protokol qoidalari, diplomatiq uslub, uslubiy xususiyatlar, nota, funksional uslub, diplomatiq til, leksik xususiyatlar.

PECULIARITIES OF STUDYING THE DIPLOMATIC STYLE AS A BRANCH OF THE OFFICIAL–DEPARTMENTAL STYLE

Annotation

This scientific work analyzes the role and significance of diplomatic style as a branch of official–departmental style. It highlights the functional features of official–departmental style, its role in social and legal relations, interstate and domestic relations. The specific features of diplomatic correspondence, standardized language rules, the requirements of this style for clarity and precise statement through the use of clichés and templates are explained. The functional role of documents, the specificity of language choice in diplomacy, and its limited but universal nature are noted. The lexical and stylistic features of diplomatic correspondence are important for effective communication and the creation of reliable documents in international relations. This, in turn, plays an important role in ensuring accuracy, restraint and prudence in diplomatic relations.

Key words: official–departmental style, functional features, social–legal relations, standardized language rules, cliché, templates, diplomatic document, protocol rules, diplomatic style, stylistic features, note, functional style, diplomatic language, lexical features.

ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО СТИЛЯ КАК ВЕТВИ ОФИЦИАЛЬНО–ВЕДОМСТВЕННОГО СТИЛЯ

Аннотация

В данной научной работе анализируются роль и значение дипломатического стиля как ветви официально–ведомственного стиля. Выделяются функциональные особенности официально–ведомственного стиля, его роль в общественно–правовых отношениях, межгосударственных и внутригосударственных отношениях. Разъясняются специфические особенности дипломатической переписки, стандартизированные языковые правила, требования этого стиля к ясности и точности изложения за счет использования клише и шаблонов. Отмечается функциональная роль документов, специфика языкового выбора в дипломатии, его ограниченный, но универсальный характер. Лексические и стилистические особенности дипломатической переписки важны для эффективного общения и создания достоверных документов в международных отношениях. Это, в свою очередь, играет важную роль в обеспечении точности, сдержанности и осмотрительности в дипломатических отношениях.

Ключевые слова: официально–ведомственный стиль, функциональные особенности, социально–правовые отношения, нормативные языковые правила, клише, шаблоны, дипломатический документ, протокольные правила, дипломатический стиль, стилистические особенности, записка, функциональный стиль, дипломатический язык, лексические особенности.

Kirish. Muloqot va nutq jamiyatning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, o'zining xilma–xilligi bilan olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. Jamiyatda insonlarning o'zaro muloqotida namoyon bo'ladigan nutq ko'rinishlaridan biri bu rasmiy–idoraviy uslubdir. Tilning eng qadimiy funksional uslublaridan biri sifatida rasmiy–idoraviy uslub adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Bu uslub rasmiy va juda muhim sohalaridagi muloqotlarda qo'llaniladi: davlatlarning o'zaro muloqotida, davlatning tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va aholi bilan muloqotida, hamda shaxsning jamiyat bilan muloqotida. Zamonaviy rasmiy–idoraviy uslub hozirda asosan yozma shaklda ko'proq uchraydi, lekin og'zaki shakli ham mavjud (davlat va jamoat arboblarning rasmiy uchrashuv, tantanali yig'ilish va tadbirlardagi nutqlaridir). Rasmiy–idoraviy uslub boshqa uslublari orasida barqarorligi, yopiqligi va standartlashganligi bilan ajralib

turadi, hujjat shakllari, hujjatchilik janrining umumiy uslubi sekina va oz o'zgaradi.

Uzoq davr mobaynida tilshunoslilar “funktional uslub” degan tushunchani to'g'ri shakllantirishga intilishgan. Ammo faqat XX asrning o'rtalarida, aniqrog'i, 1955–yilda mashhur tilshunos V.V. Vinogradov “uslub” tushunchasini turli xil izohlarini qamrab olgan ta'rifni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldi. V.V. Vinogradovning ta'rifiga ko'ra, “Funktional uslub–bu ijtimoiy anglangan va funksional jihatdan shartlangan, ichki birlashgan uslubiy vositalarni tanlash va qo'llash usullarining birlashmasi bo'lib, bu yoki boshqa ijtimoiy, umummilliy til doirasidagi nutqiy aloqa vositalarining majmuasi sanaladi. Ushbu uslub boshqa shu kabi usullar bilan korrelyasiyada bo'lib, ular boshqa maqsadlarga mo'ljallangan va ushbu xalqning verbal ijtimoiy amaliyotida boshqa funksiyalarni amalga oshiradi”. Biroq funksional uslubning ilmiy tadqiqoti ancha oldin paydo bo'lgan.

1926-yilda tashkil etilgan Praga tilshunoslik to'garagi a'zolari ilk bor asosiy funksional uslublarni ajratishga va ushbu tushunchaning ta'rifini berishga intilishgan. Ular badiiy matnlarni tadqiq etish asosida ilk marta 4 ta "funktional uslub" ni qayd etishga muvaffaq bo'lganlar: og'zaki uslub, rasmiy-idoraviy uslub, akademik va lirik (estetik) uslub, publitsistik uslub keyinroq alohida funksional uslub sifatida ajratib ko'rsatilgan.

Shunday qilib, 4 ta asosiy funksional uslub shakllantirilgan. Bu tasnif ilmiy lingvistikada muhim bosqich bo'lib, funksional uslublarni o'rganishning asosini yaratgan [1].

A.B. Shevninga ko'ra, rasmiy-idoraviy uslubning shaxsiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: "Rasmiy-idoraviy uslub orqali ifodalanadigan mazmun, uning katta ahamiyatini hisobga olsak, har qanday ikki ma'noilikni va tushunmovchiliklarni chiqarib tashlashi shart. Rasmiy-idoraviy uslub ma'lum, kam yoki ko'proq cheklangan mavzular doirasi bilan karakterlanadi" [2]. Bu degani, rasmiy-idoraviy uslubdagi yozishmalar aniqlik va tushunarlikka alohida e'tibor qaratishi kerak bo'ladi, chunki bu uslubda har qanday noto'g'ri tushunish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Jumladan o'zbek adabiyotlarda rasmiy-idoraviy uslubga berilgan quyidagi izohlarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, N.Mahmudov, A.Rafiev, I.Yo'ldoshevlar tomonidan akademik lisey o'quvchilari uchun yozilgan "Davlat tilida ish yuritish" darsligida rasmiy uslubga quyidagi tavsif berilgan: "Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir" [3].

Yana bir o'zbek tilshunosi D.E. Lutfullayev rasmiy uslubni quyidagicha ifodalaydi: Rasmiy uslub jamiyat a'zolarining iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, madaniy, ijtimoiy sohalarida rasmiy doirada o'rnatilgan aloqa-munosabatlarini ifoda etish va qayd etishga xizmat qiluvchi nutq uslubidir [4].

O'zining "Rasmiy uslubning diplomatik yozishmalar turi" deb nomlagan o'quv qo'llanmasida M.Muhtidinova, N.Abdullayevlarning ham quyidagi izohni keltiradilar: "Rasmiy uslub jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, o'zaro rasmiy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubi bo'lib, boshqa uslublardan hujjatlilik xususiyati bilan ajralib turadi" [5].

Rasmiy uslub xususiyatlaridan biri uning xilma-xilligida bo'lib, u nafaqat idoraviy ish hujjatlarini, qonunchilik, diplomatik aloqalarga oid rasmiy hujjatlarini ham qamrab oladi [6].

Turli mualliflar rasmiy-idoraviy funksional uslub tarkibida turli quyi uslublarni ajratishadi. Masalan, E.G. Rizel va P.F. Monaxov rasmiy-idoraviy funksional uslubning tarkibiga quyidagi quyi uslublarni kiritadi: kanselyariya uslubi, savdo-idoraviy uslub, sud-yuridik uslub va diplomatik uslub. I.R. Galperin esa tijorat hujjatlarini, yuridik hujjatlar, diplomatik hujjatlar va harbiy hujjatlar uslublarini ajratadi. Shunday qilib, barcha mualliflar rasmiy-idoraviy funksional uslub tarkibida turli xil quyi uslublarni nomlagan holda, diplomatik quyi uslubni alohida ajratib ko'rsatadilar. Bu diplomatik yozishmalarning o'ziga xos xususiyatlarini va ularning rasmiy aloqa jarayonidagi muhim o'rnini ta'kidlaydi.

Shuningdek, rasmiy-idoraviy funksional uslub bir nechta funksional quyi uslublarga bo'linadi. Turli kichik uslublarni ajratish uchun kriteriyalar quyidagilardan iborat: kommunikatsiya usuli, model, manzildor turi va boshqa belgilar. Bu tahlil, rasmiy-idoraviy uslubning to'liq kontekstida turli xil quyi uslublar va ularning xosiyatlarini bilan bog'liqligiga e'tibor qaratadi, bu esa ularning qo'llanilishi va aniqlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Umumiy tan olingan fikrga ko'ra, rasmiy-idoraviy uslubning nutqiy janrlarini tashkil etishdagi tilning takrorlanmas xususiyatlari quyidagilardan iborat: nutqiy strukturalarni standartlashtirilgani; klishe qo'llash; nutqni tuzishdagi til usullarining aniq belgilanganligi.

Bunday matnlarni yozish usullari uslubni subyektivlikdan, ortiqcha ma'lumotlardan va emotsionallikdan xalos qilish uchun zarur. Shuningdek, bu uslubga til shablonlarini qo'llash xosdir. Til komponentlarini qo'llashdagi dasturlash esa uslubiy talab sifatida qaraladi. M.P. Brandes rasmiy-idoraviy

uslubning kommunikativ funksiyasini "долженствование, выступающее в форме императивности предписывающего-оценочного значения" deb ta'riflaydi [7].

Diplomatik uslub rasmiy-idoraviy uslubning quyi uslubi sifatida tavsiflash, shuningdek, diplomatik sohada qo'llaniladigan tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslik uchun ma'lum ahamiyatga ega. Diplomatik hujjatlar xalqaro munosabatlarda mamlakatning tashqi ishlar organlari orqali taqdim etiladigan muhim mahsulotlardan biri hisoblanadi. Ushbu hujjatlarini tayyorlash san'atini o'zlashtirish, aniq ifoda shakllarini topish, va ayniqsa, ishonchli va samarali hujjat yaratish uchun zarur bo'lgan malaka va mahorat diplomatning asosiy sifatlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda diplomatlar ko'plab variantlardan eng ma'qul va aniq variantni tanlab, uni hujjat shaklida qayd etishda tezkorlik bilan harakat qilishlari talab etiladi.

Yozma diplomatik faoliyat sohasidagi muloqotning xususiyatlarini tahlil qilish diplomatiya sohasidagi nutq faoliyatini tavsiflovchi o'ziga xos xususiyatlar majmuasini, ya'ni, diplomatik quyi uslubning stilistik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Diplomatik quyi uslubning stilistik xususiyatlari ro'yxati juda keng. Diplomatik hujjatlar har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, tili, madaniyati, etno-diniy xususiyatlari va siyosiy tizimidan kelib chiqqan holda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq, tarixiy davr va ijtimoiy tuzumdan qat'iy nazar, bunday hujjatlar nisbatan qo'yiladigan talablar doimiy bo'lib qolmoqda.

Avvalo, diplomatik xizmat hujjatning qaysi turi tanlanishi kerakligini aniqlaydi. Hujjatning turi yuzaga kelgan vaziyatga muvofiq bo'lishi, protokol qoidalarini va an'analarni inobatga olishi kerak. Masalan, shaxsiy notalarga shaxsiy nota, verbal notalarga esa verbal nota orqali javob berish qabul qilingan. Diplomatik hujjatlarida tashqi ko'rinish va rasmiy atributlar qanchalik muhim bo'lmasin, ularning mazmuni ustuvor ahamiyatga ega. Hujjatning mohiyati, ko'tarilayotgan masalalarning ahamiyati, faktlarning aniq, tushunarli va mantiqiy tarzda bayon qilinishi hamda keltirilayotgan dalillarning ishonarliligi diplomatik matning samaradorligini belgilaydi.

Diplomatik quyi uslubga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlarining mavjudligi (ularning ko'pchiligi nafaqat rasmiy idoraviy uslubida, balki boshqalarda ham uchraydi) davlatning diplomatik faoliyatining ko'p qirraliligi bilan izohlanadi, bu diplomatik faoliyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan faoliyat va o'ziga xos nutq shakllarining xilma-xilligini belgilaydi. Bu, o'z navbatida, turli xil diplomatik hujjat turlarini o'z ichiga oladi. Uning yozma xilma-xilligi turli shakllarda amalga oshiriladi, masalan: 1) idora xos ichki hujjatlar; 2) diplomatik yozishmalar hujjatlar (shuningdek, kuzullik xarakteridagi yozishmalar); 3) muzokaralar natijasida yuzaga keladigan hujjatlar va boshqalar [8]. Diplomatik sohada matn turlarini faoliyat turi asosida ham ajratish mumkin: diplomatik yozishmalar hujjatlar matnlari; muzokaralar natijasidagi matnlar; ommaviy axborot vositalarida nashr etish uchun matnlar, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligi rasmiy veb-sayti uchun matnlar; shartnomalar matnlari.

Bu matn turlari diplomatik aloqalarning turli jihatlarini ko'rsatadi va har bir toifa o'zining xos xususiyatlari va maqsadlari bilan ajralib turadi. Diplomatik hujjatlar tayyorlash jarayoni o'ziga xos o'quv jarayoni sifatida ham ko'riladi. Bu jarayonda mixtaxassis o'z malakasini oshiradi, tezkor qarorlar qabul qilish va aniq ifoda shakllarini ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bunday ishonchli hujjatlar mamlakat manfaatlarini xalqaro maydonda himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Mazmun yadrosi, odatda, hajman kichik bo'lsa-da, hujjatning mohiyatini o'z ichiga oladi. U davlatning muayyan masalaga doir pozitsiyasini konsentrlangan holda ifodalaydi. Bu pozitsiya quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin: konkret takliflarni kiritish va ularni muhokamaga taqdim etish; xalqaro munosabatlarda qabul qilingan normalarni buzgan yoki provokatsion harakatlar sodir etgan davlat yoki davlatlar guruhiga nisbatan norozilik bildirish; davlat manfaatlariga zarar yetkazmaslik yoki tinchlikka tahdidning oldini olish uchun ehtimoliy javob choralarini yoxud profilaktik tadbirlar haqida ogohlantirish; aniq davlat yoki xalqaro voqeaga munosabatni

belgilash (rozilik, qoralash, oghlantirish, chaqiriq); mo'ljallanayotgan yoki amalga oshirilgan tadbirlar haqida axborot berish.

Diplomatik xujjatlardagi diplomatik til muayyan chegaralangan va universal xususiyatga ega deb hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, diplomatiya tili doimiy ravishda nutqiy vositalarni tanlashda cheklangan bo'ladi. Diplomatik uslubning boshqa diskurs turlaridan farqi shundaki, unda belgilangan til doiralari mavjud bo'lib, ular leksik vositalarni tanlashda cheklavlarni qo'yadi va ko'p funksional uslubda ifodalash tartibini belgilaydi. "Diplomatik til" atamasi ikki asosiy ma'noni ifoda etadi. Birinchi ma'noda, u rasmiy diplomatik aloqalar uchun ishlatiladigan tilni anglatadi. Ikkinchi ma'noda esa, u diplomatiyada umumqabul qilingan maxsus atamalar va iboralar to'plamini, ya'ni professional so'zlashuv lug'atini qamrab oladi. Bunday lug'at, shifokor yoki huquqshunos tili kabi, yuqori darajada ixtisoslashgan va o'ziga xosdir. Nemis olimi X. Vildner ta'kidlaydi: "Diplomatik uslub, avvalo, soddalik va aniqlik bilan farq qilishi kerak; bu yerda esa so'zning hunarmandona ifodasi emas, balki muayyan sharoitda har qanday mavzu uchun yagona mos so'zni tanlaydigan eng yaxshi soddalik nazarda tutilgan" [9]. Brifinglar va tashqi siyosat muassasalari mas'ullarining chiqishlari kontekstida "золотая середина" rasmiy-idoraviy uslub qonunlariga va diplomatik muzokaralar olib borish masterligiga maksimal darajada rioya qilishdagi muvozanatni anglatadi. Diplomatik quyi uslub "sovuq va odobli" til tonalligi bilan xarakterlanadi. Bu, o'z navbatida, rioya qilinishi kerak bo'lgan aniqlik, vazminlik va ehtiyotkorlikni talab qiladi, bu esa diplomatik aloqalarning samaradorligi va aniqligini ta'minlaydi. Diplomatlar faoliyatida quyidagi atamalar va iboralar oddiy holat sifatida qabul qilinadi va faol qo'llaniladi:

"Pacta sunt servanda"–"Shartnomalar bajarilishi kerak". Bu tamoyil davlatlararo kelishuvlarning asosiy qoidasi sifatida e'tirof etiladi.

"Modus vivendi"–"Mavjud bo'lish usuli". U vaqtinchalik kelishuv yoki o'zaro munosabatlardagi muvaqqat o'zaro kelishuvni anglatadi.

"Veto", "xalqaro xizmatlar", "sovuq urush", "razryadka" kabi terminlar ham keng qo'llaniladi.

Ushbu atamalar, ko'plablotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, ular diplomatik tilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular orqali diplomatlar aloqalarni aniq va tushunarli qilib ta'minlaydi.

Diplomatik hujjatlarga qo'yiladigan talablar o'ta maxsus bo'lib, kichik xatoliklar va imlo xatolari jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Diplomatiyada tildagi nopoklik yoki bir necha so'z sababli faqat tushunmovchiliklar emas, balki voqea-hodisalar ham yuzaga kelgan holatlar ko'p uchraydi. Amaliy jihatdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, hatto boshqa belgilar, ayniqsa, tinish belgilarining ham katta ahamiyati bor.

Diplomatik hujjatni tuzishda bir qator masalalarni hisobga olish kerak. Ilgari kuchga ega bo'lgan omillar-asosan katta kuchga ega davlatlar va turli harbiy-siyosiy guruhlar o'rtasidagi raqobat bilan bog'liq bo'lgan holatlardan tashqari, so'nggi yillarda xalqaro munosabatlarda yangi shart-sharoitlar paydo bo'ldi. Bularga xalqaro terrorizm, millatchilik va diniy fanatizm kabi muammolar kiradi, ularning ahamiyati va ularni inobatga olish zaruriyati tez sur'atlar bilan oshib bormoqda. Hujjatning mazmun yadrosini tashkil etuvchi har bir formulirovka alohida e'tibor bilan tanlanishi va ishlab chiqilishi lozim. Buning maqsadi-hujjatning qoidalarini amalga oshirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xalqaro, siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, harbiy va boshqa oqibatlarni uning yaratuvchisi rejalashtirgan maqsadlarga to'la mos ravishda muvofiqlashtirishdir.

Diplomatik yozishmalarining mazmuni, qoida tariqasida, tashqi siyosat bo'limi rahbariyati, hukumat yoki davlat rahbarining siyosiy ko'rsatmalari bilan oldindan belgilanadi. Shu sababli, mutaxassislarning vazifasi ushbu ko'rsatmalarni aniq, o'ta aniq va maksimal darajada tushunarli til formulalariga joylashtirishdan iborat. Va bu, bir tomondan, rasmiylikni ta'kidlash uchun mo'ljallangan adabiy va lingvistik vositalarning qat'iyligini, ba'zan hatto taktik sabablarga ko'ra, diqqat bilan o'lgangan quruqligini nazarda tutadi. Boshqa tomondan, diplomatik hujjatlar uslubi muvozanatli, chuqur o'ylangan mazmunga maksimal darajada ishonarlilik va tushunarlilik va muvaffaqiyatli topilgan epitetlarni berish uchun tasviriylikka, ba'zan aforizmga va taqdimotning ravshanligiga nisbatan yuqori adabiy va stilistik talablarga bo'ysunadi.

REFERENCES

1. Байкова О.Л. Понятие функционального стиля в современной лингвистике. <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-funktionalnogo-stilya-v-sovremennoy-lingvistike>
2. Шевнин А.Б. Официально-деловой стиль. Матрица переводческих проблем: [учебное пособие] / А.Б. Шевнин; Уральский гуманитарный ин-т. Екатеринбург: Изд-во УрГИ, 2010. – с. 13.
3. Махмудов Н. Рафиев А., Йўлдошев И. Давлат тилида иш юритиш (академик лицейлар учун дарслик). – Тошкент, 2002. – б. 12
4. Лутфуллаев Д.Э. Мустакиллик даври расмий-идоравий иш услуби тараққиёти. – Тошкент, 2020
5. Мухитдинова М., Абдуллаева Н. Расмий услубнинг дипломатик ёзишмалар тури.
6. Д.Э. Лутфуллаев. Мустакиллик даври расмий-идоравий иш услуби тараққиёти. – Тошкент, 2020
7. Брандес М.П. Стилистика текста. Теоретический курс: учебник / Брандес М. П. – Москва: Прогресс-Традиция, 2004. – с. 143.
8. Фарафонова, Лариса Георгиевна. Система дипломатического подстиля и ее исследование на уровне текста: на материале современного немецкого языка. дис. кан. фил. наук. Москва, 1977
9. Язык дипломатии: традиции и современность / Международная научно-практическая Интернет-конференция "Язык и право: актуальные проблемы взаимодействия" // Л.А. Баландина. <http://www.ling-expert.ru/conference/langlaw1/langdiplommat.html> (дата обращения: 15.05.21)
10. Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики // Вопросы языкознания, 1955, №1, – с. 73.



Feruzaxon MURATKHODJAEVA,
Oriental universiteti dotsenti, PhD
E-mail: fmuratkhodjaeva@gmail.com

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Boboyeva taqrizi asosida

KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING BOSHQA FANLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATI: KOGNITIV PSIXOLOGIYA
Annotatsiya

Ushbu maqolada kognitiv psixologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabati, xususan, nevrologiya, tilshunoslik, sun'iy intellekt va ta'lim sohalari bilan aloqalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kognitiv psixologiyaning turli fanlar bilan hamkorlik orqali qanday yangi bilimlar va usullar ishlab chiqishiga, shuningdek, ushbu bilimlarning amaliyotga tadbiiq etilishiga e'tibor qaratadi. Xulosa qismida esa kognitiv psixologiyaning inson ongini tushinishda va boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatlardagi ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, kognitiv psixologiya, tafakkur, til, idrok, xotira, diqqat, amaliy tadqiqot.

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКИ С ДРУГИМИ ДИСЦИПЛИНАМИ: КОГНИТИВНАЯ ПСИХОЛОГИЯ
Аннотация

В этой статье анализируется взаимодействие когнитивной психологии с другими дисциплинами, особенно с нейробиологией, лингвистикой, искусственным интеллектом и областями образования. Результаты исследования сосредоточены на том, как когнитивная психология разрабатывает новые знания и методы посредством сотрудничества с различными дисциплинами, а также на применении этих знаний на практике. В заключительной части подчеркивается важность когнитивной психологии в понимании человеческого разума и во взаимодействии с другими науками.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, когнитивная психология, мышление, язык, восприятие, память, внимание, тематические исследования.

THE RELATIONSHIP OF COGNITIVE LINGUISTICS WITH OTHER SCIENCES: COGNITIVE PSYCHOLOGY
Annotation

This article analyzes the interaction of cognitive psychology with other disciplines, in particular, with the fields of Neuroscience, linguistics, artificial intelligence and education. The results of the study focus on how cognitive psychology develops new knowledge and methods through collaboration with different disciplines, as well as the application of this knowledge to practice. And in the summary part, the importance of cognitive psychology in understanding the human mind and in interaction with other disciplines is emphasized.

Keywords: cognitive linguistics, cognitive psychology, thinking, language, perception, memory, attention, applied research.

Kirish. Kognitiv tilshunoslik – inson tafakkuri va tili o'rtasidagi murakkab aloqalarni o'rganuvchi zamonaviy fan sohalaridan biridir. Ushbu yo'nalish lingvistika, psixologiya, nevrologiya, sotsiologiya va boshqa ko'plab fanlar bilan uzviy bog'liq. Xususan, kognitiv psixologiya bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega, chunki bu ikki soha birgalikda inson miyasida til va tafakkur qanday shakllanishini, qay tarzda rivojlanishini va bir-birini qanday ta'sirlantirishini o'rganadi.

Kognitiv tilshunoslik terminlarining o'zbek tilshunosligida berilishini XXI asrning dastlabki o'n yilligida yaratilgan ilmiy maqolalarda, ilmiy asarlarda uchratamiz. Inson nutqning paydo bo'lishi va voqeanishi, tilning belgilar tizimi sifatida o'rganilishi, inson xotirasida saqlanishi, vazifasi, til va tafakkurning o'zaro ta'siri munosabatlari doirasida psixolingvistika fani yuzaga keldi. Inson psixologiyasida kechayotgan jarayonlar bevosita uning nutqida namoyon bo'lishini kuzatish qiyin emas.

Kognitiv tilshunoslik til fenomenlarini insonning aqliy jarayonlari nuqtai nazaridan o'rganadi. Tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki inson tafakkuri, bilish jarayonlari va miyadagi axborotni qayta ishlash tizimining ajralmas qismi sifatida ko'radi. Bu yondashuvda tilni o'rganish faqat grammatik yoki leksik struktura bilan chegaralanmay, balki til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilishga asoslanadi.

Kognitiv tilshunoslikka asos solgan olimlar qatoriga Jorj Lakoff, Mark Jonson va Noam Xomskiy kiradi. Ularning asarlari tilning semantik, sintaktik va pragmatik jihatlarini inson aqliy mexanizmlari bilan bog'liq holda o'rganish zarurligini ta'kidlagan.

Asosiy qism. Kognitiv tilshunoslik va kognitiv psixologiya zamonaviy fanlar orasida inson tafakkuri va tili o'rtasidagi aloqalarni o'rganishda muhim o'rin tutadi. Kognitiv tilshunoslik tilni insonning bilish jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qilsa, kognitiv psixologiya inson idroki, xotirasi va diqqat kabi aqliy jarayonlarni o'rganadi. Ushbu ikki fan birgalikda inson tilini idrok qilish, tushunish va foydalanish mexanizmlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kognitiv psixologiya inson ongining ichki jarayonlarini o'rganadigan psixologiya sohasi bo'lib, bu jarayonlar orasida idrok, xotira, fikrlash, tushunish, o'rganish va qaror qabul qilish kabi ko'plab faoliyatlar kiradi. Ushbu soha asosan insonning qanday qilib axborotni qabul qilishi, uni qayta ishlashi va eslab qolishi kabi masalalarni o'rganadi. Kognitiv psixologiya boshqa ko'plab fanlar bilan yaqin aloqada bo'lib, ularning bilim va usullaridan foydalanadi.

Kognitiv psixologiya va nevrologiya.

Kognitiv psixologiya va nevrologiya o'rtasidagi o'zaro munosabat juda mustahkam. Nevrologiya miya va asab tizimini o'rganadi, bu esa kognitiv jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Masalan, nevrologik tadqiqotlar orqali kognitiv psixologlar inson miyasining turli qismlari qanday funksiyalarni bajarishini va bu funksiyalar kognitiv jarayonlarga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashlari mumkin. Funksional magnit-rezonans tomografiyasi (fMRI) va elektroensefalografiya (EYEG) kabi usullar yordamida inson miyasi faoliyati kuzatiladi va bu kognitiv jarayonlar haqida yangi bilimlar beradi.

Kognitiv psixologiya va tilshunoslik.

Tilshunoslik kognitiv psixologiya bilan uzviy bog'liqdir, chunki til insonning asosiy kognitiv faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Tilni o'rganish va undan foydalanish jarayonlari kognitiv psixologiyaning muhim tadqiqot obyektlaridan biridir. Noam Chomsky tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tilshunoslik va kognitiv psixologiyaning yaqin munosabatini ko'rsatadi. U tilning universal grammatikasi va inson miyasining lingvistik qobiliyatlariga haqida nazariyalarni ilgari surdi.

Kognitiv psixologiya va sun'iy intellekt.

Sun'iy intellekt (AI) sohasida kognitiv psixologiyaning roli katta ahamiyatga ega. AI dasturlari inson kognitiv jarayonlarini modellashtirishga harakat qiladi. Masalan, mashina o'rganishi va neyron tarmoqlar kognitiv psixologiyaning tushunchalaridan foydalanib, inson fikrlash jarayonlarini taqlid qiladi. Bu esa kognitiv psixologiya va AI o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada kuchaytiradi.

Kognitiv psixologiya va ta'lim.

Ta'lim sohasida kognitiv psixologiya bilimlarni o'zlashtirish va eslab qolish jarayonlarini yaxshilash uchun muhim vositalarni taqdim etadi. Kognitiv psixologlar o'rganish strategiyalari, diqqatni jamlash usullari va xotirani mustahkamlash texnikalari kabi masalalarni tadqiq qiladi. Ushbu bilimlar ta'lim tizimiga joriy etilganda, o'quvchilarning samaradorligi oshadi va ta'lim jarayoni yanada samarali bo'ladi.

Kognitiv tilshunoslik va kognitiv psixologiya o'rtasidagi aloqa.

Tilni Idrok Etish (Language Perception).

Til insonning idrok qilish qobiliyatining muhim qismi hisoblanadi. Kognitiv psixologiya tilni qanday qabul qilishimiz, eshitilgan yoki o'qilgan axborotni miyada qanday qayta ishlashimiz va tushunishimiz haqida ma'lumot beradi. Kognitiv tilshunoslik esa bu jarayonlarning tilning qoidalari, mantiqiy strukturasi va konteksti bilan bog'liq jihatlarni o'rganadi.

Misol uchun, til o'rganishda semantik va sintaktik strukturalarni tushunish uchun inson miyasidagi xotira va idrok mexanizmlari qanday ishlaydi kognitiv psixologiyaning tadqiqot obyekti bo'lsa, kognitiv tilshunoslik bu jarayonni til nuqtai nazaridan izohlaydi.

Til va Xotira Munosabati.

Xotira tilni shakllantirish va undan foydalanishda markaziy rol o'ynaydi. Inson gaplarni qanday eslaydi, yangi so'zlarni qanday o'rganadi va ulardan qanday foydalanadi — bu jarayonlar kognitiv psixologiya va kognitiv tilshunoslikning umumiy mavzusidir.

Masalan, kognitiv psixologlar qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira mexanizmlarini o'rganadi. Kognitiv tilshunoslik esa ushbu mexanizmlarning til o'rganishga ta'sirini va til tizimida qanday aks etishini tahlil qiladi.

Til va Diqqat Jarayonlari.

Diqqat tilni o'rganishda va tushunishda muhim ahamiyatga ega. Til bilan bog'liq axborotni anglash va kontekstga mos tushunish diqqatni talab qiladi. Kognitiv psixologiya diqqatni boshqaruvchi mexanizmlarni o'rganadi, kognitiv tilshunoslik esa diqqatning til muloqoti jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi.

Tilning Emosional Asoslari.

Inson o'z fikrlarini ifodalashda faqat mantiqiy fikrlash bilan cheklanib qolmaydi, balki his-tuyg'ularidan ham foydalanadi. Kognitiv psixologiya his-tuyg'ularni va ularning idrokka ta'sirini o'rganadi, kognitiv tilshunoslik esa his-tuyg'ularning tilda qanday aks etishini tahlil qiladi. Masalan, "baxt", "qo'rquv" yoki "umid" kabi abstrakt tushunchalar inson tafakkurining mahsuli bo'lib, ular til orqali ifodalanadi va tushuniladi.

Tadqiqot Metodologiyasi.

Kognitiv tilshunoslik va kognitiv psixologiya birgalikda foydalanadigan tadqiqot usullari quyidagilardan iborat:

1. Eksperimental Tadqiqotlar.

Tilni idrok qilish, eshitish, o'qish yoki gapirish jarayonlarini laboratoriya sharoitida o'rganish uchun tajribalar o'tkaziladi. Masalan, miyaning qaysi qismi ma'lum bir til

jarayonida faol ekanligini aniqlash uchun neyropsixologik tadqiqotlar o'tkaziladi.

2. Kompyuter Modellashtirish.

Kognitiv jarayonlarni simulyatsiya qilish va til o'rganish mexanizmlarini sun'iy intellekt tizimlarida o'rganish uchun algoritmlar yaratiladi.

3. Ko'p Tarmoqli Tadqiqotlar.

Kognitiv psixologiya va kognitiv tilshunoslik sotsiologiya, antropologiya va nevrologiya kabi fanlar bilan hamkorlik qilib, til va tafakkur o'rtasidagi keng qamrovli bog'liqliklarni o'rganadi.

Kognitiv tilshunoslik va kognitiv psixologiya tadqiqotlari amaliyotda katta ahamiyatga ega:

Til o'rgatish

Til o'rgatish jarayonida samarali metodlarni ishlab chiqishda bu fanlarning natijalari asosiy manba bo'ladi. Masalan, yangi so'zlarni o'rganish jarayonida xotira va diqqatning ahamiyati hisobga olinadi.

Sun'iy Intellekt.

Sun'iy intellekt tizimlarini yaratishda inson tilini anglash va uni qayta ishlashni modellashtirish kognitiv psixologiya va kognitiv tilshunoslik yutuqlariga asoslanadi.

Nevrologiya va Tibbiyot.

Afaziya yoki disleksiya kabi til buzilishlarini tushunish va davolashda kognitiv tilshunoslik va kognitiv psixologiya tadqiqotlari muhim o'rin tutadi.

Natijalar va muhokamalar. Kognitiv psixologiya boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatlari orqali ko'plab yangi kashfiyotlar va bilimlar paydo bo'ldi. Nevrologiya bilan hamkorlik inson miyasi faoliyati va uning kognitiv jarayonlarga ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam berdi. Bu esa ruhiy kasalliklarni davolash va neyrehabilitatsiya usullarini takomillashtirishga olib keldi.

Tilshunoslik bilan hamkorlik kognitiv psixologlarga tilni o'rganish va undan foydalanish jarayonlarini yanada aniqroq tushunish imkonini berdi. Bu bilimlar til o'rgatish metodikalarini yaxshilashga va til o'rganishda yangi usullarni ishlab chiqishga yordam berdi.

Sun'iy intellekt sohasida kognitiv psixologiyaning qo'llanilishi AI tizimlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Bu esa inson fikrlash jarayonlarini tushunish va taqlid qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ta'lim sohasida kognitiv psixologiyaning tadqiqotlari o'quvchilarning o'qish samaradorligini oshirishga xizmat qildi. O'rganish strategiyalari va xotirani mustahkamlash usullari orqali ta'lim jarayoni yanada samarali va interaktiv bo'ldi.

Kognitiv psixologiya insonning idrok, xotira, e'tibor, tafakkur va qaror qabul qilish jarayonlarini o'rganadi. Bu fan miya tomonidan axborotni qanday qabul qilinishi, saqlanishi va qayta ishlanishini tahlil qilishga yo'naltirilgan. Ushbu yo'nalish psixologiyaning boshqa bo'limlaridan farqli ravishda, xulq-atvorni emas, balki aqliy jarayonlarni chuqur o'rganadi.

Kognitiv psixologiyaning asoschilaridan biri bo'lgan Ulrik Nayser o'zining tadqiqotlarida inson xotirasi va idrokini sun'iy intellekt tizimlaridagi axborotni qayta ishlash bilan taqqoslagan. Bu soha kognitiv tilshunoslik bilan birga ishlaganda, tilning inson aqliy jarayonlari uchun qanday vosita ekanligini tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, kognitiv tilshunoslik va kognitiv psixologiya bir-birini to'ldiruvchi fanlar bo'lib, ular inson tafakkuri va tili o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishda birgalikda ishlaydi. Ushbu fanlarning o'zaro aloqasi inson tafakkurining til orqali ifodalanish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Kelajakda ushbu fanlar sun'iy intellekt va tilni qayta ishlash sohalarida yanada muhim rol o'ynashi kutilmoqda.

Kognitiv psixologiya insonning kognitiv jarayonlarini chuqur o'rganish orqali boshqa ko'plab fanlar bilan yaqin aloqada bo'lib, ularning bilim va usullaridan foydalanadi. Nevrologiya, tilshunoslik, sun'iy intellekt va ta'lim kabi sohalar bilan o'zaro munosabatlar kognitiv psixologiyaga yangi ufqlar ochib beradi va inson ongini tushunish borasidagi bilimlarimizni boyitadi. Ushbu

munosabatlar orqali kognitiv psixologiya nafaqat nazariy erishmoqda. bilimlarni, balki amaliy tadqiqotlar orqali ham katta natijalarga

ADABIYOTLAR

1. Sayidrahimova N. S. "Kognitiv tilshunoslikda tushuncha va konsept, ularni tahlil qilish usullari." O'zbekistonda xorijiy tillar, 2022, № 2.
2. Xalilova Z. M. "Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida." FarDU ilmiy xabarlari jurnali, 2024, № 3.
3. Norboyeva S. R. "Kognitiv tilshunoslik: ong va tafakkurning nutqda namoyon bo'lishi." Tadqiqotlar.uz, 2023, № 24.
4. Hakimjonova M. E. "Badiiy matnga kognitiv-semantik yondashuv." Oriens.uz, 2024, 824-828.
5. Muratkhodjaeva, F. X. (2022). Linguistic definition of conversion as a method of formation of words and phrases in English linguistics. *Confrencea*, 2(2), 61-64.
6. Murodkhodjaeva, F. (2022). Cognitive-semantic analysis of words and word combinations and their expression in translated texts. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(7), 55-58.
7. Muratkhodjaeva, F. X. (2022). Cognitive-semantic analysis of the meanings of words and phrases in English and Uzbek and their translation problems. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 385-387.
8. Sobirov A. Sh. "Til tadqiqida zamonaviy yo'nalishlar: kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, lingvopoetika, psixolingvistika." *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2024, № 1.
9. Ahmedov, O. (2020). *Kognitiv psixologiya asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi.
10. Karimova, S. (2021). *Nevrologiya va kognitiv jarayonlar*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
11. Yusupov, T. (2020). *Psixologik tadqiqot metodlari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.



Aydos MUKHAMMADIYAROV,
PhD student of Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz
E-mail: aydos@mail.ru

On the review by DSc S.Zokirova

**PHILOSOPHICAL CONSTRUCTS IN THE LOVE POETRY OF LORD BYRON: A CRITICAL ANALYSIS
(IN THE EXAMPLES OF BYRON'S POEMS "MY SOUL IS DARK (ЖАНЫМ МЕНИҢ ЖАБЫРҚАП ТУР)" AND "LINES
WRITTEN IN A ALBUM (АЛЬБОМГА))**

Annotation

The inner world of poets' with deep emotion, expression, and personality of love is deeply analysed in the article in order to show pure philosophy hidden in poetic lines using explanation analysis and conceptual analysis.

Key words: Nature, inner world, love philosophy, abstract concepts, firing emotion, imagination, target domain, source domain, philosophical idea.

**LORD BAYRONNING MUHABBAT SHE'RIYATIDAGI FALSAFIY TUZILMALAR: TANQIDIY TAHLIL
(BAYRONNING "JONIMNING KO'NGLI G'AMGA BOTIBDI" VA "ALBOMGA YOZILGAN SATRLAR" SHE'RLARI
MISOLIDA)**

Annotatsiya

Maqolada shoirning ichki dunyosi, chuqur hissiyotlar va muhabbatning ifodasi hamda shaxsiyati poetik satrlardagi falsafiy mohiyatni ochib berish maqsadida tushuntirish tahlili va konseptual tahlil yordamida o'rganilgan.
Kalit so'zlar: Tabiat, ichki dunyo, muhabbat falsafasi, mavhum tushunchalar, alangali hissiyot, tasavvur, maqsad domeni, manba domeni, falsafiy g'oya.

**ФИЛОСОФСКИЕ КОНСТРУКТЫ В ЛЮБОВНОЙ ЛИРИКЕ ЛОРДА БАЙРОНА: КРИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ
(НА ПРИМЕРЕ СТИХОТВОРЕНИЙ БАЙРОНА «МОЯ ДУША ТЕМНА» И «СТРОКИ, НАПИСАННЫЕ В АЛЬБОМЕ»)**

Аннотация

В статье глубоко анализируется внутренний мир поэтов, их эмоции, выражение и личностное восприятие любви с целью показать чистую философию, скрытую в поэтических строках, используя объяснительный и концептуальный анализ.
Ключевые слова: Природа, внутренний мир, философия любви, абстрактные понятия, пламенная эмоция, воображение, целевая область, исходная область, философская идея.

The poet's inner world is intricately linked to nature, as he communicates with it through his words. His verses and ideas are derived from natural phenomena and experiences, which he conveys to his audience with heartfelt expression. The poet possesses a unique sensitivity that allows him to observe, feel, and perceive aspects of the world that may go unnoticed by the average person. It is important to note that philosophical elements can manifest in the work of any poet; however, the presence of these philosophical ideas is contingent upon the individual's cognitive processes and reflections.

According to the confirmation of Gegel, "the contents of lyrics consist of subjective, inner world, the soul which feels and thinks" [1]. So, it means that all thoughts and passions are gathered in our inner world.

As our academician Jumanazar Bazarbaev states out: ...the philosophic thinking began from understanding of self determination. Then, it progressed with generalizing the knowledge about the universe. As the universe is considered to be infinite, the person's perception it is also infinite [2]. There are many wise, outstanding, philosophic poets in Turkic peoples' world of literature including Abay, Makhtumkuli, Navoiy, Berdakh, Gabdulla Tokay and etc. We can inherit the philosophy of the past enough from their works. For example, If we read Berdakh's "Nightingale (Bulbil)", it makes us consider deeply:

Күнләр өтәр әрман менен,
Жүгін кетер кәрўан менен,
Аты бүлбил болған менен,
Торғайдай дәўраны болмас [3].

Days just pass in dreams
The loads are carried by caravans

Though it is called a nightingale
Its life is worse than a lark's.

Translated from Karakalpak by authors

There are a number of abstract concepts which we can not see but feel, as Beauty, Hope, Belief, Happiness, Joy, Care, Sadness, Grief, Hopelessness. These give an enormous strength to the poet's muse written by the effort of feelings consist of simple, but meaningful words. In its turn, in the works of George Gordon Byron, who is known as a renowned representative of world literature, and his outlook toward life, the sense of love, lyric feeling as well as the main philosophical expressions are used nearly in every line of his poems. He puts a buoyant spirit in his body onto a paper with a firing emotion. Thanks to the translations by Ibrahim Yusupov, Byron's works are well-known to the karakalpak nation living far away on the banks of Amu-Darya. These translations are given with a heading "Storm and sea (Теңиз хәм даўылы)" in the author's collection named "Eternal sources (Мәңги булақлар)". Let's go through the following verselines in the album:

Жалғыз мазар турған кула далада,
Тербемей ме жолаўшының қыялын.
Сол сыяқлы бул қосығым набада,
Сениң нәзеринде илингей, жаным [4].
As o'er the cold sepulchral stone
Some name arrests the passer-by;
Thus, when thou view'st this page alone,
May mine attract thy pensive eye! [5].

Having read the above four lines, we comprehend this song is devoted to Byron's sweetheart. First line "Жалғыз мазар турған кула далада" prevents us thinking of it as a love song. Yet, by reading 3-4 lines it will be clear that this song is dedicated

exactly to his sweetheart. Here with the help of imagination “жалғыз мазар” he attracts his darling with love lyric.

Соңлары сен оны оқып көрерсең,
Сени қайтип сүйгенимди билерсең.
«Ол енди жоқ, қосығына бірақ та
Өз жүрегін жерлеп кетипти-аў» дерсең [4].
And when by thee that name is read,
Perchance in some succeeding year,
Reflect on me as on the dead,
And think my Heart is buried here [5].

“Then you will read it and guess my firing love. When I leave, you will feel my heart and tell praises” he said. Surely, the poet’s feelings of pleasure, sadness, happiness, joy are poetically placed in the verse-lines in their exact spots. Also the song “To album” consist of 8 lines, it covers a great philosophy. The person who reads it attentively can only perceive it. At that time, the poet’s philosophy, the initial lone tomb and into the last song bury his heart awakes the student. The great German philosopher Goethe opinion: “Even, at the head of the tomb lives hope” reminds you [6:24].

Karakalpak readers consider Byron as realist, democrat, lyric, and philosopher by the poet’s works. From aforementioned verse-lines, we can also understand that Byron is far away from his darling, moreover, he misses her, looks forward to meeting her, still with a little regret. The love of heart is meant to become together, but for this there may be less chance or can occur some obstacles. The famous Russian writer L.N.Tolstoy stated out: “loving means to live together with one’s lover. Real lovers are even ready to die for each other. Love joins inseparable couple”. Love is like one person constituted with two lovers. Poets described it in this way:

Бир дуўтардың еки тары,
Бири сенсең, бири мен.
Бир алманың еки жүзи,
Бири сенсең, бири мен [2].

(Э.Вохидов)
The two strings of a dutar,
One is Thee, One is Me,
The two faces of an Apple,
One is Thee, one is Me.

Translated into English by authors

The more human feels the nature, loves people, the more he recognizes the world, enhances his knowledge, the river of thought deepens. In Byron’s creative works the love philosophy appears many more times. Without doubt, two faces of an apple, two strings to a dwtar as if it means two hearts to a body. In “My soul is dark (Жаным мениң жабырқап тур)”:

Жаным мениң жабырқап тур. Кел-кел сәзенде!
Алтын арфа-минекей сазың.
Бармақларың шарқанаға тийген гезинде,
Оятсын да бейиш хаўазын [4].

My soul is dark – Oh! quickly string
The harp I yet can brook to hear; And let thy gentle fingers fling
Its melting murmurs o’er mine ear [5].

Here the soul full of grief misses musician’s tune which sounds like a tune in the paradise so that it will be a patch to heal the miserable heart. The four-lined above song matches the one created by the sacred poet of the karakalpak nation Ibrahim Yusupov:

Кеўил аспанымда жұлдызлар сөник,
Ай да он төртинде толғаның қойды.
Қыяллар хәр түрлі муқамға дөнип,
Жоқты-барды әрман еткенін қойды [7].

Or else, it is not surprising that a tune of an awakening paradise in Byron’s poems may have reached Ibrahim Yusupov. Ibrahim Yusupov expressed his feelings to his lover in the same way as Byron did too. The lines “Жаным мениң жабырқап тур”, “Кеўил аспанымда жұлдызлар сөник” are described love story of both poets.

Жазмышымнан саўа қалған үмит бар болса,
Көкирегимде оянып бақсын.
Көзлеримде кеўип қалған тамшылар болса,

Жибисин де, сорғалап ақсын.

If in this heart a hope be dear, That sound shall charm it forth again: If in these eyes there lurk a tear, ‘Twill flow, and cease to burn my brain [5].

Не шертсең шерт. Тек те шадлы нама болмасын,
Даңқымдай ол жалықтырды, жубата алмайды.
Мына бар ғой, бир егилип жылап алмасам,
Көкирегимди қак айырып кетежақ қайғы [4].

But bid the strain be wild and deep, Nor let thy notes of joy be first: I tell thee, minstrel, I must weep, Or else this heavy heart will burst; [5].

In 2-line, “If God give me a hope, I wish it will be light. When it happens my tears follow as downpour” he said.

In 3-line, “Play a music sorrowfully, I must exclude from my body, otherwise, the sun of joy will not shine” the poet said to the musician. In other way, when a miserable tune is played, he is going to cry and awake hope again.

Кеўил көптен азап шегип, хәсиретке толып,
Жетисип тур халларға бундай.

Енди қәўипли! Шилпилдеп тур төгилмек болып,
Зақым толы әжел жамындай [4].

For it hath been by sorrow nursed, And ached in sleepless silence, long; And now ’tis doomed to know the worst, And break at once – or yield to song [5].

“In these times the soul is going to break fully as death’s bowl” concluded by the poet.

Now let us pay attention to the conceptual analysis of this song which is connected to the author’s philosophy in love:

My Soul is Dark" by Lord Byron
| Conceptual Metaphor Analysis |

||
| Target Domain |

||
| * Author's Emotional State: |
| * Darkness, without inspiration |
| * Creative Expression |

||
| Source Domain |

||
| * the image of Music and the Musician |

||
| Mapping Process |

||
| * Soul as a Musical Instrument: |
| * Physicality or Flexibility (can be "strung") |
| * Potential for Sound |
| * Needs to be "played" |
| * Inspiration as Competence: |
| * Learning to play an instrument |
| * Words are helpful to create music |

||
| Conceptual Metaphors |

||
| * UNDERSTANDING IS SEEING |
| * EMOTIONS ARE CONTAINERS |
| * CREATIVE PROCESS IS A JOURNEY |
| * DARKNESS IS FRIEND |

In Byron’s love philosophy in “Lines written in an album”, “My soul is dark” works coincide to each other considering plot and idea-theme, one is seen as following the

other. Both of them look as if they are teaching people a new philosophy of love. However, it gives a strong spirit to a strong love, for which it urges to strive. Above we used words “an eternal love”, because in both works lies a philosophy of “love for

eternity”. In this way, several thousands of generations will continue reading a deep philosophy of love in new translations of Byron’s poetic heritage.

REFERENCE

1. Курбанбай Жәримбетов. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери хәм раўажланыў тарийхы. –Нөкис: Билим, 2004.
2. Жуманазар Базарбаев. Әдеп философиясы. –Нөкис: Қарақалпақстан, 2010.
3. Бердақ Ғарғабай улы. Таңдамалы шығармаларының жыйнағы. –Нөкис: Қарақалпақстан, 1977.
4. Ибрайым Юсупов. Мәңги булақлар. –Нөкис: Қарақалпақстан, 1985.
5. www.eng-poetry.ru.
6. Йоханн Вольфганг Гёте. Ҳикматлар ҳазинаси. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.
7. Ибрайым Юсупов. Пазыйлет. –Нөкис: Билим, 2014.



Nurjamol NORMATOVA,
Associate professor, Samarkand Institute of Foreign Languages
Farangiz MAMEDOVA,
Teacher at Samarkand Institute of Foreign Languages
E-mail: 05@gmail.ru

Reviewer: Doctor of Samarkand State University, professor M.Abdiev

HOW TO IMPROVE READING COMPREHENSION

Annotation

This article discusses the stages of reading process and how to improve reading comprehension skill. It also includes some reading activities.

Key words: Reading comprehension, the stages of reading, reading activities, reading strategies.

РАЗВИТИЕ ПОНИМАНИЯ ПРОЧИТАННОГО

Аннотация

В этой статье рассматриваются этапы процесса чтения и способы улучшения навыка понимания прочитанного. Она также включает некоторые упражнения для чтения.

Ключевые слова: Понимание прочитанного, этапы чтения, читательская деятельность, стратегии чтения.

O'QIB TUSHUNISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'qish jarayonining bosqichlari va o'qishni tushunish qobiliyatini qanday yaxshilash mumkinligi muhokama qilinadi. Shuningdek, u o'qishga oid mashg'ulotlarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: O'qishni tushunish, o'qish bosqichlari, o'qish mashg'ulotlari, o'qish strategiyalari.

Introduction. Practicing reading skills is one of the cornerstones of language learning and they do not only improve the overall language competence but they also enhance the learners' critical thinking, analytical skills and as a source of information.

Reading comprehension is the ability to process the written text, understand its meaning. Reading comprehension relies on two abilities that are connected to each other: word reading and language comprehension. Comprehension specifically is a "creative, multifaceted process" that is dependent upon four language skills: phonology, syntax, semantics, and pragmatics.

Some of the fundamental skills required in efficient reading comprehension are the ability to:


- know the meaning of words;
- understand the meaning of a word from a discourse context;
- follow the organization of a passage and to identify antecedents and references in it;
- draw inferences from a passage about its contents;
- identify the main thoughts of a passage;
- ask questions about the text;
- answer questions asked in a passage;
- visualize the text;
- recall prior knowledge connected to text;
- recognize confusion or attention problems;
- understand the situational mood (agents, objects, temporal and spatial reference points, casual and intentional inflections, etc.) conveyed for assertions, questioning, commanding, refraining, etc., and also
- determine the writer's purpose, point of view, intent, and draw inferences about the writer (discourse-semantics).

Comprehension skills that can be applied as well as taught to all reading situations include:

- Summarizing;
- Sequencing;
- Inferencing;
- Comparing and contrasting;
- Drawing conclusions;
- Self-questioning;
- Problem-solving;
- Relating background knowledge;
- Distinguishing between fact and opinion;
- Finding the main idea, important facts, and supporting details.

Literature analysis on the subject: As Elizabeth Eskar points out, "Reading comprehension is the foundation for all other academic skills. It helps children expand their vocabulary, explore the world, and understand complex concepts. There are many reading strategies to use in improving reading comprehension and inferences, these include improving one's vocabulary, critical text analysis, and practising deep reading. The ability to comprehend text is influenced by the readers' skills and their ability to process basic information. If the word recognition is difficult, students tend to use too much of their processing capacity to read individual words which interferes with their ability to comprehend what is read. Liu and Pei said that, students will guess the meaning of unknown words by looking for clues within the reading context. It is the first aspect of reading comprehension. Duke told the second aspect is that motivation does good to an individual's cognitive process, which is an essential component of reading success (et al., 2021)

Reading comprehension strategies help students better understand the meaning of text. There is given teaching tips of reading process:



Brookbank, Grover, Kullberg, and Strawser (1999) indicated that the application of various reading strategies increased learners' reading comprehension proficiency. Golinkoff (1975) showed that poor readers read different texts similarly and did not try to learn through reading strategies. Ahmadi and Pourhossein (2012) represented that reading strategy has a positive effect on the reading comprehension proficiency of readers. Reading strategy ameliorated the reading skill of proficient and less proficient readers. Readers applied different reading strategies and knew what, when, how, and why to use them in their reading comprehension process.

It is important for all educators to be familiar with the seven core reading comprehension strategies:

Corner Statements: The teacher prepares 4 sentences expressing opinions about the topic, then sticks them in 4 corners of the classroom and students go and stand near the opinion they disagree with the most. The group explains why they disagree about the topic.

Guessing from words or pictures: The teacher boards the keywords from a reading, students work in pairs or groups and try to guess the text. In the same way, the pairs or groups may be given some topic-related pictures and they need to give the main idea of the text.

Positive or Negative words: The teacher divides the class into two groups and gives two sets of different words taken out from the text. One group is given words with a positive connotation, the second group needs to deal with negative connotation words. They need to guess the story having in mind those words. As a result, the class comes up with two totally different versions of the same text.

KWL Charts: Ask students to write everything they know about the topic (K column) and everything they want to know (W column) and what they learned after the reading (L Column). K and W aspects can be practiced as pre-reading activities.

While-reading activities help students to focus on aspects of the text and to understand it better. The goal of these activities is to help learners to deal with the text as if it was written in their mother tongue.

Topic Sentences: Each paragraph stands for one main idea. Students are asked to find the topic sentence and explain how it describes the whole reading passage and the given paragraph.

Guessings: Read the text (skimming the text for general information) to see if the guessings and predictions are met.

Scanning: Students look for specific information from the text. Learners may be also asked to write comprehension questions for their peers.

Post-reading activities mainly aim at integrating the target material into the real-life and personalized practice in order to

keep the authentic use of the language, make the learners feel that whatever they learn they turn into real-life experience in terms of language use.

Discussions: Learners are divided into groups and are given a set of text-related questions to discuss. Questions may be about some characters, their behaviour, how the text has interested students, what they have learned from it, etc.

Story Continuation: Students may be given exact time to think and come up with the continuation of the story. They may change some traits of the main characters and imagine how the text would proceed to take into account those changes.

Analysis and results. In order to improve reading and reading comprehension the top strategies are highly proficient, effective readers utilize a number of different strategies to comprehend various types of texts, strategies that can also be used by less proficient readers in order to improve their comprehension.

These include: **Making Inferences:** In everyday terms we refer to this as "reading between the lines". It involves connecting various parts of texts that are not directly linked in order to form a sensible conclusion. A form of assumption, the reader speculates what connections lie within the texts and they also make predictions about what might occur next.

Planning and Monitoring: This strategy centers around the reader's mental awareness and their ability to control their comprehension by the way of awareness. By previewing the text (via outlines or table of contents) one can establish a goal for reading: "what do I need to get out of this"? Readers use the context clues and other evaluation strategies to clarify texts and ideas, and monitoring their level of understanding.

Asking Questions: To solidify one's understanding of passages of texts, readers inquire and develop their own opinion of the author's writing, character motivations, relationships, etc. This strategy involves allowing oneself to be completely objective in order to find different meanings within the text.

Self-Monitoring: Asking oneself questions about top reading strategies, whether they are getting confused or having trouble paying attention [9].

Determining Importance: Pinpointing the important ideas or messages within the text. Readers are taught to identify direct and indirect ideas and thus, to summarize the relevance of each.

Visualizing: With this sensory-driven strategy, readers form mental and visual images of the contents of text. Being able to connect visually allows for a better understanding of the basic text through emotional responses.

Synthesizing: This method involves marrying multiple ideas from various texts in order to draw conclusions and make comparisons across different texts; with the reader's goal being to understand how they all fit together.

Making Connections: A cognitive approach also referred to as "reading beyond the lines", which involves:

finding a personal connection to reading, such as personal experience, previously read texts, etc. to help establish a deeper understanding of the context of the text;

thinking about implications that have no immediate connection with the theme of the text;

Conclusion and suggestions. The findings of this study showed that reading strategies have a high impact on the students' reading comprehension ability. Students must not be just passive receivers of information but they are active makers of meaning. Successful readers try to use numerous skills and strategies to grasp meaning from the texts. Readers should be involved in the

reading process by using various strategies to monitor their meaning. This study emphasized the idea that comprehension processes are influenced by a lot of strategies. All of these strategies work together to construct the meaning process so easily and effectively. Based on the findings of this study, it is concluded that Students must know the reading strategies and utilize them during the reading process in order to understand a text easily and they should be related to the students' proficiency levels. Teachers have a big responsibility to motivate their students in reading these materials, should be very sensitive to their learners' comprehension difficulties, in a nutshell they can better understand the different texts.

REFERENCES

1. "What is Reading Comprehension?". Reading Worksheets, Spelling, Grammar, Comprehension, Lesson Plans. 2008-05-29. Archived from the original on 2016-05-09. Retrieved 2016-05-13.
2. William Grabe (2009). Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. Cambridge University Press. ISBN 978-0-521-72974-1. Archived from the original on 2018-05-04. Koda, 2005:4.
3. Keith Rayner; Barbara Foorman; Charles Perfetti; David Pesetsky & Mark Seidenberg (November 2001).
4. Tompkins 2011, p. 37-203.
5. "What is reading comprehension and why is important?". www.oxfordowl.co.uk. Retrieved 2023-05-01.
6. Maryanne Wolf (2016). Tales of Literacy for the 21st Century: The Literary Agenda. OUP Oxford. ISBN 978-0-19-103613-2.
7. "Reading Comprehension Skills for English Language Learners". Colorin Colorado. 2007-03-12. Retrieved 2023-04-29.



UDK: 811.581:81'373

Yorqin NURMATOV,
Oriental universiteti katta o'qituvchisi,
E-mail: nurmatovyorkin@gmail.com

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, PhD L.Sultanova taqrizi asosida

XITOIY, INGLIZ VA BOSHQA TILLARDA QO'LLANILADIGAN USULLARNI SOLISHTIRISH

Annotatsiya

An'anaviy xitoy tabobati nazariyasi zamonaviy tibbiyot nazariyasidan butunlay farq qiladi va o'ziga xos tizimga ega. Ba'zi terminlarni boshqa tillarda ifodalash ancha qiyin va asl nusxaning aniq tarjimasini topish qiyin emas. Xitoy terminlari tushunchasini bildiruvchi ba'zi so'zlar uni faqat qisman ifodalaydi.

Kalit so'zlar: Tibbiy tushunchalar, y⁻in-y⁻ang (阴阳), z⁻ang (藏), ideogrammalar, f⁻u (腑), w⁻u c⁻ai (五才), j⁻ing lu⁻o (经络), va j⁻ing (经), xitoy tibbiy tushunchalari, ingliz va xitoy terminologiyasi.

COMPARISON OF METHODS APPLIED IN CHINESE, ENGLISH, AND OTHER LANGUAGES

Annotation

The theory of traditional Chinese medicine is totally different from that of modern medicine and has a unique system of its own. Some of the terms are rather difficult to express in other languages, nor is it easy to find an exact translation of the original. Some words that convey the concept of the Chinese terms convey it only in part.

Key word: Medical concepts, y⁻in-y⁻ang (阴阳), z⁻ang (藏), ideograms, f⁻u (腑), w⁻u c⁻ai (五才), j⁻ing lu⁻o (经络), va j⁻ing (经), Chinese medical concepts, English and Chinese terminology.

СРАВНЕНИЕ МЕТОДОВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ НА КИТАЙСКОМ, АНГЛИЙСКОМ И ДРУГИХ ЯЗЫКАХ.

Аннотация

Теория традиционной китайской медицины полностью отличается от теории современной медицины и имеет уникальную систему. Некоторые из терминов довольно сложно выразить на других языках, и нетрудно найти точный перевод оригинала. Некоторые слова, которые передают понятие термина «китайский», передают его лишь частично.

Ключевые слова: Медицинские концепции, y⁻in-y⁻ang (阴阳), z⁻ang (藏), идеограммы, f⁻u (腑), w⁻u c⁻ai (五才), j⁻ing lu⁻o (经络), va j⁻ing (经), китайские медицинские концепции, английская и китайская терминология.

Kirish. G'arb tibbiyot terminologiyasini xitoy, ingliz va nemis tillariga tarjima qilishda manbaga asoslangan yondashuvga aniq ustunlik berilganligi kuzatiladi. Uchala til uchun ham umumiy til (LGP) ma'nosida ishlatiladigan atamalar, manba tilida qanday bo'lsa, tabiiy ravishda o'sha shaklda qabul qilinadi. Faqat tibbiyot sohasiga xos atamalar (LSP) tarjimasi esa uchala til uchun asosan qarz olish shaklida amalga oshiriladi (to'g'ridan-to'g'ri qarz olish yoki o'zlashtirilgan tarjimalar). Shunga qaramay, qarz olish va o'zlashtirilgan tarjimalar ulushi bo'yicha farqlar mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g'oyaga ko'ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etilsa, ikkinchi ta'limotga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so'zlashuv)ga tenglashtiriladi. V.P.Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funktsional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi (Danilenko, 1977; 8). Fan tili umumadabiy tilning funktsional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi. X. Xyuellning qayd etishiga ko'ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz (Whewell, 1967).

V.P.Danilenkoning e'tirof etishicha, jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval

terminologiyada o'z ifodasini topadi yoki muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi oqibatida voqelanadi (Danilenko, 1971; 9). D.Lottening ishlarida terminga alohida belgi sifatida emas, balki aniq sistemaning a'zosi shaklida qarash, munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlangan. Uning fikriga muvofiq mazmun planidagi sistemli munosabatlar terminlarning sistem xarakteriga egaligini belgilaydi. Terminlarning terminlar sistemasidagi o'mi, mavqei muayyan tushunchaning tushunchalar sistemasidagi o'mi, mavqei bilan aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. Ingliz tibbiyot terminologiyasi o'zlashtirilgan tarjimalar ustunligi klassik namunasi bo'lib, bunda umumiy til atamalaridan tashqari deyarli barcha atamalar boshqa tillardan qarz olingan. Xitoy tili esa qarz olish yoki mustaqil ravishda yaratilgan yangi atamalarga kamdan-kam ehtiyoj sezgan holda, asosan o'zlashtirilgan tarjima uslubidan foydalangan holda maqsadga erishadi. Nemis tili dastlabki anatomik atamalarni tarjima qilishda xitoy tiliga o'xshash yondashuvni qo'llagan. Ammo, keyingi davrlarda u ko'proq qarz olishni afzal ko'ra boshladi va hozirgi kunda uning umumiy terminologiyasi ingliz tilinikidan kam farqlanmaydi. Bu, albatta, nemis tilida klassik lug'atga nisbatan keng bilimga ega bo'lish bilan bog'liq.

Nemis va xitoy tillari qarz olingan tarjimalar va manbaga bog'liq bo'lmagan ekvivalentlarni yaratishda o'xshash tendensiyalarni namoyon etadi. Ikkala til ham taxminan so'z/morfema-so'z/morfema tarkibini saqlaydi (xitoy tilida bu so'z yoki morfemaga mos belgi bilan tarjima qilinadi). Shuningdek, ular qarz olingan tarjimalarga aniqlik kiritish maqsadida qo'shimcha elementlar qo'shishga moyil (masalan, Bindehaut va jiémó), va lotin tilidagi kichraytiruvchi qo'shimchalarni olib tashlash odati bor. Shu bilan birga, xitoy tilida bunday o'zgartirishlar nemis tiliga qaraganda ko'proq uchraydi.

Misol uchun, nemis tilidagi Regenbogen (“kamalak”) va Steigbügel (“uzang”) atamaları metaforalarning oddiy semantik tarjimalaridir, xitoy tilidagi hóngmó (“kamalak pardasi”) va dènggǔ (“uzang suyagi”) esa qo’shimcha elementlar (“pardasi” va “suyagi”) qo’shilgan holda ishlatiladi. Buning sababi fonetik qisqarish muammosi va bir bo’g’inli so’zlarning kamayishida yotadi. Agar iris va stapes atamaları xitoy tiliga oddiy semantik tarjima qilinsa, ular cǎihóng (“ranglika malak”) va mǎdèng (“otuzangi”) bo’lardi. Biroq, “kamalak pardasi” va “uzang suyagi” kabi murakkab atamalar nafaqat og’zaki va yozma identifikatsiyani osonlashtiradi, balki metaforani aniqroq tushunishga yordam beradi va qo’shimcha bo’g’inlarni qo’shmaydi.

Hatto zamonaviy xitoy tilida ham ko’p belgili so’zlar ko’pincha bir belgi bilan ifodalanadigan murakkab so’zlarga qisqartiriladi. Shuningdek, nemis va xitoy tillarini aniq qo’shimchalarni aniqroq shakllarga o’zgartirishga moyildir (masalan, eberentzündung va gǎnyán). Lekin, bu jarayon xitoy tilida ko’proq uchraydi.

Manbaga bog’liq bo’lmagan atamalarni yaratishga kelsak, ikkala til ham bu usulni odatda manba tilidagi atama noaniq bo’lsa, mantiqiyasosga ega bo’lmasa yoki so’zma-so’z tarjima ma’nosiz bo’lsa, qo’llaydi. Nemis va xitoy tillari yangi so’zlarni asosan qo’shma so’zlar yaratish orqali shakllantiradi, bu jihatdan ular lotin tilidan farq qiladi. Lotin tili ko’pincha mavjud so’zlarni kengaytirilgan ma’noda ishlatishni afzal ko’radi.

G’arb tibbiyot atamalarini tarjima qilishda ularning tilga bog’liq bo’lmagan tarixiy va madaniy asoslarini hisobga olish zarur. Xitoyliklar taxminan 400 yil avval, Yevropa davlatlari Uzoq Sharqda savdo qilishni boshlagan paytda, G’arb tibbiyoti bilan tanisha boshlagan. Shu davrda g’arbliklar ham xitoy tibbiyoti haqida ma’lumot olishni boshlagan edi.

Dastlabki bosqichlarda, xitoylarning G’arb tibbiyoti va boshqa fanlarga qiziqishi uzoq va begona madaniyatni bilishga bo’lgan qiziqish sifatida yuzaga chiqqan. Bunga alohida nufuz berilmagan. Bu munosabat tarjima jarayonida ham aks etgan. Eng birinchi anatomik tarjimalarni Shveysariyalik shifokor P. Johannes Terrenz (1576–1630) xitoylik olimlar yordamida amalga oshirgan.

Mazkur matnda asablar harakat va sezgi uchun javobgar ekanligi tasvirlangan. Ammo xitoy tarjimasida bu tushuncha mahalliy qi (energiya oqimi) g’oyasi asosida talqin qilingan: “Asablar (xìjīn, “ingichka paylar” - lotinchada nervus, ya’ni “pay”) ma’nosining moslashtirilgan tarjimasi) ichi bo’sh emas; ular faqat qini o’zichiga oladi, qon emas. Agar odam sezgi yoki harakat qilish qobiliyatini yo’qotsa, bunga sabab qining yo’qligi va shu bois kuchsizlikdir” (Li J-W 1998: 256). Bu esa asl mazmuni xitoy o’quvchilari uchun moslashtirishni talab qilgan.

G’arb ilmlari xitoylarda ma’lum qiziqish uyg’otgan bo’lsa-da, xitoy tibbiyotiga nisbatan sezilarli ta’sir o’tkazmagan (Li J-W 1998: 62). Biroq, bu qiziqish katta bo’lmagan. Kang Xi imperatori missionerlarga anatomiya materiallarini manjur tiliga tarjima qilishni topshirgan. Ammo tarjimonlar Guichard Joseph da Verney (1648–1703), Thomas Bartholin (1616–1680) va boshqalarning asarlaridan tuzilgan kitobni tayyorlagach, imperator uni maxsus bilimga oid bo’lgani uchun keng ommaga mos emas deb topgan (Li J-W 1998: 261).

G’arb tibbiyotiga kata qiziqish faqat 19-asrda paydo bo’ldi. Bu davrga kelib, g’arb davlatlari Xitoy iqtisodiy hayotiga ta’sir o’tkaza boshlagan, g’arb sivilizatsiyasi esa sezilarli darajada nufuzga ega bo’lgan edi. G’arb tibbiyoti Xitoyda, dunyoning boshqa ko’plab davlatlarida bo’lgani kabi, mahalliy tibbiyotdan samaradorligi yuqori ekanligi uchun emas, balki iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarning tibbiyoti bo’lgani uchun qabul qilindi (Sivin 1987: 6).

Xitoyliklar G’arbnig iqtisodiy va siyosiy ustunligi ularning ilg’or texnologiyalarida ekanligini tushunib yetdilar. Shuningdek, mamlakatni mustahkamlash uchun G’arb ilmiy va texnologik bilimlarini egallash zarurligini angladilar. Buning uchun ular manba madaniyatiga to’liq tilga oid kirish imkoniyatiga ega bo’lishlari kerakligini ham tushundilar.

Shunday qilib, 19-asrning o’rtalarida Xitoyda xorijiy tillarni o’rgatishga mo’ljallangan maktablar tashkil etila boshlandi. Ushbu maktablarning asosiy maqsadi talabalarni G’arbiy ilm-fanni o’rganishga va texnik ma’lumotlarni xitoy tiliga tarjima qilishga tayyorlash edi (Wáng F-J 1945: 277–280; Bi C 1996: 328–331). Shu bilan birga, xorijiy tillarni yaxshi biladigan xitoylik talabalarni chet elga o’qishga yuborish rejalari amalga oshirildi (Wáng F-J 1945: 280). Bu dastlabki sa’y-harakatlar bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda va bilimni o’zlashtirish uchun tilning ahamiyatini aniq ko’rsatib turibdi. Manba tilini o’rganish, barcha talabalar uchun emas, balki bilimlarni keng jamoatchilikka tarqatishga qodir bo’lgan tarjimonlar uchun zarur edi.

Bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasida (XXR) talabalar zamonaviy tibbiyotni xitoy tilida, G’arb tillari terminologiyasi bilan uyg’unlashtirilgan terminlar yordamida o’rganadilar. Gonkong va Tayvanda esa talabalarni ingliz tilidagi matnlarni o’qiy olish qobiliyatiga ko’proq urg’uberiladi. Har ikki holatda ham lingvistik aloqa juda muhimdir. Ingliz tilini yaxshi bilish xalqaro ilmiy tadqiqot natijalariga kirish yoki o’z tadqiqotlari uchun xalqaro miqyosda tan olingan kreditlarga ega bo’lishni istagan har qanday xitoylik (yoki boshqa millat vakili) uchun zarurdir, bu zamonaviy fan yoki sohaning deyarli har bir yo’nalishi uchun amal qiladi.

Garchi Xitoyda (Yaponiyada bo’lgani kabi) tibbiy ingliz tilini mukammal biladigan va ushbu ko’nikmadan muntazam foydalanadigan odamlar soni juda oz bo’lsa-da, ular axborot uzatishda muhim bo’g’in hisoblanadi. Ushbu ikki tilli mutaxassislar xitoyliklar tomonidan ishlatiladigan terminlarni tanlash uchun javobgardir. Yuqorida aytilganidek, o’zlashtirish ikki tillilik bilan bevosita bog’liqdir; maqsad tilida termin yaratishdagi har qanday erkinlikka qaramay, manba tili terminlari muhim namuna hisoblanadi.

Xulosa. G’arbiy tibbiy tushunchalarning tabiati terminlarning nomlanishida alohida rol o’ynaydi. G’arbiy tibbiyot, turli fan sohalarini qamrab olgan bo’lsa-da, o’zaro yaxshi integratsiyalashgan sohadir. Tibbiy tushunchalar aniq belgilangan bo’lib, ular uchun tanlangan terminlar, ayniqsa hozirgi kunda, ushbu tushuncha mohiyatini aks ettirish uchun ehtiyotkorlik bilan tanlanadi. Terminologiya tizimida ko’p ma’nodlilik va sinonimlikni bartaraf etishga doimiy harakat qilinadi. Shu nuqtai nazardan, o’zlashtirish murakkab bo’lgan hollarda yaqin tarjima (loan-translation) tanlanishi ajablanarli emas.

Bu kontekstda g’arbiy tibbiyotning doimiy rivojlanib borayotganligi alohida ahamiyat kasb etadi. G’arbiy tibbiyotning Xitoyda qabul qilinishi bir martalik o’zlashtirish emas, balki doimiy davom etayotgan jarayon bo’lgan. Xalqaro, xususan, g’arbiy tibbiyot hamjamiyatining doimiy yutuqlari ikki tilli mutaxassislarning Xitoyda g’arbiy tibbiyotning rivojlanishidagi asosiy rolini mustahkamlaydi.

Maxsus maqsadlar uchun til (LSP) sohalarida manbatilining (SL) terminologiyani ifodalashdagi ustun mavqei, maqsadtilining (TL) terminlarini manbatiliga bog’lash zarurati (ko’plab terminlar mavjud bo’lgan sohalarda bu qiyinchilik tug’diradi) va manba tilining terminologiya tizimining strukturalashgan tabiati ko’pincha manba-orientatsiyasi foydasiga qaror qilishga olib keladi. Ushbu uch omil tibbiyot sohasida manba-orientatsiyaning umumiy tilga nisbatan ko’proq tarqalganligini izohlashi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Chinese Acupuncture and Moxibustion. Foreign languages press Beijing Fourth Printing 2003. <http://www.flp.com.cn>
2. WHO international standard terminologies on traditional Chinese medicine. © World Health Organization 2022. ISBN 978-92-4-004233-9 (print version)
3. Essentials of Chinese acupuncture. Foreign languages press Beijing First Edition 1980. www.bamboo-delight.com
4. Иркинович, Н. Ю. К вопросу о терминах акупунктуры в японском языке. ИЖОДКОР О’QITUVCHI, 3(26), 252-256. (2023)

5. Иркинович Н. Ю., & Тулкунович Е. Ф. (2022). понятие стиля произношения в современной лингвистике. Журнал научных исследований и тенденций в области педагогических наук, 1(7), 188-194.
6. Chinese-English Medical Vocabulary: Arthritis and Osteoporosis
7. 醫藥詞彙中英對照: 關節炎和骨質疏鬆症
8. Fung Yu Lan 1966 A Short History of Chinese Philosophy, Free Press, New York.



Nigoraxon RAXIMOVA,
Namangan davlat chet tillari instituti o'qituvchisi
E-mail: nigoraraximova@mail.ru

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

GENERAL CONCEPT OF THE MEANING OF GENRE TRANSFORMATION

Annotation

The article analyzes the essence of genre transformation, its role in modern literature and art, as well as the creative significance of this process. The dynamics of genre development and the creation of new forms through the process of transformation have been studied.

Key words: genre, transformation, literature, creativity, art.

ОБЩЕЕ ПОНЯТИЕ О СМЫСЛЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖАНРА

Аннотация

В статье анализируется сущность трансформации жанра, его место в современной литературе и искусстве, а также творческая значимость этого процесса. Изучена динамика развития жанров и создание новых форм через процесс трансформации.

Ключевые слова: жанр, трансформация, литература, творчество, искусство.

JANR TRANSFORMATSIYASINING MA'NOSI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHASI

Annotatsiya

Maqolada janr transformatsiyasining mohiyati, uning zamonaviy adabiyot va san'atda tutgan o'rni hamda ushbu jarayonning ijodiy ahamiyati tahlil qilingan. Transformatsiya jarayoni orqali janrlarning rivojlanish dinamikasi va yangi shakllar yaratilishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: janr, transformatsiya, adabiyot, ijod, san'at.

Kirish. Adabiyot va san'at insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, ular jamiyatning ma'naviy hayotini aks ettiradi. Ushbu sohalarida janr tushunchasi alohida o'rin tutadi. Janr - bu muayyan ijodiy asarlarning shakl va mazmun birligini belgilovchi me'yoriy tushuncha bo'lib, u muallifning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qiladi.

Zamonaviy madaniyatda janr tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat adabiyotda, balki kino, musiqa, teatr va boshqa san'at sohalarida ham foydalaniladi. Shunga qaramay, janrlar doimiy o'zgarish va rivojlanish jarayonida bo'lib, ular yangi shakllar va mazmunlar bilan boyib boradi. Ushbu jarayon janr transformatsiyasi deb ataladi.

Janr transformatsiyasi bugungi kunda adabiyot va san'atning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, an'anaviy janrlarning zamonaviy talqinlarini o'z ichiga olgan bo'lsa, boshqa tomondan, yangi ijodiy uslublar va janrlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Transformatsiya jarayoni ijodkorlarga o'z dunyoqarashlarini, g'oyalari va hissiyotlarini ifoda etishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur maqolada janr transformatsiyasining mohiyati, uning adabiyot va san'at rivojida o'rni, shuningdek, bu jarayonning ijodiy jihatlari tahlil qilinadi. Ushbu mavzu zamonaviy madaniyat va ijod jarayonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi va yangi ilmiy yondashuvlar uchun asos yaratadi.

Janr transformatsiyasining mohiyatini anglash orqali adabiyot va san'atning yangi imkoniyatlarini o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois, maqolada ushbu jarayonning nazariy va amaliy jihatlari keng tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Janr transformatsiyasi mavzusiga oid ilmiy tadqiqotlar zamonaviy adabiyotshunoslik va san'atshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortib kelmoqda. Ushbu sohadagi ilmiy ishlar janrning mohiyatini, rivojlanish dinamikasini va transformatsiya jarayonining ijodiy hamda madaniy ahamiyatini o'rganishga qaratilgan.

O'zbek adabiyotshunosligi va janr transformatsiyasi

O'zbek adabiyotida janr transformatsiyasi mavzusiga oid ilmiy ishlarda milliy adabiyotda an'anaviy janrlarning yangi

talqini va zamonaviy janrlar shakllanishi o'rganilgan. Xususan, milliy qissa, she'r va doston janrlarining zamonaviy talqini bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan. M. Jo'rayev, A. Qosimov kabi olimlar milliy adabiyotdagi janrlarning zamonaviy talqinini va ularning transformatsiya jarayonlarini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlarida tarixiy voqealarning yangi badiiy shakllarda aks ettirilishi va janrlararo sintez jarayonlari yoritilgan.

Rus adabiyotshunosligi va janr transformatsiyasi

Rus adabiyotshunosligida janr transformatsiyasi masalasi bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Masalan, M. M. Baxtinning janrlar rivojlanishi va ularning tarixiy dinamikasi haqidagi nazariyalari ushbu sohada asosiy nazariy manba hisoblanadi. Uning janrning ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog'liqligi va o'zgarish xususiyatlari haqidagi ishlari transformatsiyani tahlil qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, V. V. Vinogradovning janrlarni tahlil qilish usullari va nazariyalari janr tadqiqotlariga nazariy asos yaratgan.

Xorijiy adabiyotshunoslik va janr transformatsiyasi

Xorijiy adabiyotshunoslikda janr transformatsiyasi masalasi bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Masalan, J. Jenette va N. Frye kabi olimlar janrning o'zgaruvchan mohiyatini, uning funktsionalligini va zamonaviy adabiyotda janrlar chegaralarining kengayishini o'rganganlar. J. Jenette tomonidan ishlab chiqilgan "intertekstual aloqa" nazariyasi janrlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Postmodernizm davrida janrlarning buzilishi va chegaralarning yo'qolishi masalasiga T. Eagleton va L. Hutcheon kabi olimlar alohida e'tibor qaratgan. Ularning tadqiqotlari janrlarning postmodernist tahlilini olib borishga imkon yaratgan.

Adabiyotlarda qo'llanilayotgan yondashuvlar

Janr transformatsiyasi tadqiqotlarida qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

Tarixiy yondashuv: Janrlarning rivojlanish jarayoni va o'zgarish sabablarini tarixiy jarayonlar bilan bog'lash.

Komparativ yondashuv: Turli madaniyatlar va adabiyotlar doirasida janrlar o'zgarishini solishtirish.

Nazariy yondashuv: Janr mohiyatini tahlil qilish va uning nazariy asoslarini belgilash.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy adabiyotda janrlararo o'zaro ta'sirning kuchayishi, multimediya va raqamli texnologiyalarning ijodiy jarayonlarga ta'siri janr transformatsiyasini o'rganishni yanada dolzarb qiladi. Transformatsiya jarayonini tushunish ijodkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, san'at va adabiyotning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotlar janr transformatsiyasi masalasining chuqur nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga asos yaratadi. Bu esa zamonaviy adabiyot va san'atda janrlarning rivojlanish tendensiyalarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Janr transformatsiyasi masalasini o'rganish uchun izchil va tizimli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar asosiy vosita sifatida tanlandi:

Ushbu metod yordamida janr transformatsiyasining tarixiy jarayonlari, ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishlari o'rganildi. Tarixiy materiallar tahlili orqali janrlarning zamon va madaniyat ta'sirida qanday evolyutsiyaga uchraganini oydinlashtirildi. Bu metod o'zbek, rus va jahon adabiyotlarida janrlarning tarixiy dinamikasini solishtirishda qo'llanildi.

Janrni tadqiq qilishda sistemaviy yondashuv asosida janrlarning mazmuni, shakli va funktsional xususiyatlari bir butun tizim sifatida o'rganildi. Janr transformatsiyasining madaniy va ijtimoiy kontekst bilan uzviy aloqasi tahlil qilindi. Shuningdek, adabiyot, musiqa, kino kabi turli san'at yo'nalishlaridagi janrlarning o'zaro ta'siri o'rganildi.

Janrlarning milliy va xalqaro adabiyotlarda qanday transformatsiyaga uchraganini tahlil qilish uchun komparativ yondashuv qo'llanildi. Turli madaniyatlarda janrlarning rivojlanish yo'nalishlarini o'zaro taqqoslash orqali umumiy va xususiy jihatlar aniqlab olindi. Bu metod yordamida o'zbek adabiyotida janrlarning o'ziga xos milliy xususiyatlari xorijiy adabiyotdagi janrlar bilan solishtirildi.

Janrlararo o'zaro ta'sirni o'rganish uchun intertekstual tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali turli janrlarning bir-biriga ta'siri, bir janrdan ikkinchi janrga o'tishda yuzaga keladigan ijodiy jarayonlar va intertekstual aloqalar aniqlab olindi. Bu, ayniqsa, postmodernizm davridagi asarlarni tahlil qilishda muhim bo'ldi.

O'zbek va xorijiy adabiyotlardan tanlab olingan asarlar misolida janr transformatsiyasi amaliy tahlil qilindi. Bunda quyidagi jihatlar kuzatildi:

Janr chegaralarining kengayishi;

Turli janrlarning yangi shakllari va ularning madaniy muhitdagi o'rni;

Raqamli va multimediya muhitida janrlarning o'zgarishlari.

Tahlil va natijalar. Janr transformatsiyasining mohiyati

Tadqiqot davomida janr transformatsiyasi jarayonining asosiy mohiyati aniqlab olindi. Bu jarayon, bir tomondan, mavjud janrlarning o'zgarishi, boshqa tomondan, yangi janrlarning paydo bo'lishini ifodalaydi. An'anaviy janrlar, ko'pincha, zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoit va ijodiy talablar bilan uyg'unlashgan holda yangi mazmun va shaklga ega bo'ladi. Bu esa ijodkorlarga o'z g'oyalarni turli shakllarda ifodalash imkonini yaratadi.

Adabiyotda janrlararo chegaralarning yo'qolishi

Janr transformatsiyasi adabiyotda janrlararo chegaralarning tobora noaniq bo'lib borishiga olib keladi. Xususan:

Postmodernizm davrida adabiy janrlarning bir-biriga singishi va yangi shakllarning paydo bo'lishi kuzatilgan. Misol

uchun, tarixiy qissa va fantastika elementlarining uyg'unlashuvi adabiyotda "tarixiy-fantastik roman" janrini yuzaga keltirdi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida qissa va dostonlar ichida badiiy esse uslubining qo'llanilishi transformatsiya jarayonini yaqqol ko'rsatib beradi. Bu o'zgarishlar o'quvchilarning estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

O'zbek adabiyoti va jahon adabiyoti tahlillari quyidagi xulosalarga olib keldi:

O'zbek adabiyoti: Milliy an'analar va tarixiy voqealarni aks ettirishda transformatsiya jarayoni milliy o'ziga xoslikni saqlab qoladi. Shu bilan birga, zamonaviy shakllar orqali milliy voqealar xalqaro miqyosda talqin qilinadi.

Jahon adabiyoti: Janrlararo tajribalar va raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi janrlarning universal va global ko'rinishlarini shakllantiradi.

Natijalar. Janr transformatsiyasi orqali adabiyot va san'at o'zining moslashuvchanligi va zamonaviy muammolarni aks ettirish qobiliyatini kuchaytiradi.

Janrlararo sintez va postmodernizm ta'siri o'quvchilarga murakkab va ko'p qirralilikni taqdim etib, asarlarni yanada qiziqarli qiladi.

Transformatsiya jarayoni milliy va xalqaro madaniyatni uyg'unlashtiradi va yangi badiiy shakllarni yaratadi.

Raqamli texnologiyalar janr transformatsiyasida innovatsion yo'nalishlarni ochib berdi.

Bu natijalar janr transformatsiyasining adabiyot va san'at rivojlanishidagi muhim o'rnini isbotlaydi hamda kelajakdagi izlanishlar uchun yangi yo'nalishlarni belgilaydi.

Xulosa. Janr transformatsiyasi adabiyot va san'at rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi ijodiy jarayon bo'lib, u orqali yangi janr shakllari yaratiladi yoki mavjud janrlar o'ziga xos talqinda qayta shakllantiriladi. Ushbu tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Janr transformatsiyasining mohiyati- Janr transformatsiyasi, bir tomondan, madaniyatlar va davrlar o'rtasidagi ijodiy aloqani ta'minlash, boshqa tomondan, yangi badiiy shakllarning yaratilishiga xizmat qiladi. Bu jarayon adabiyot va san'atning zamonaviy talablar va ehtiyojlarga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Transformatsiya sababchilari- Janrlarning transformatsiyaga uchrashi asosan tarixiy, ijtimoiy va texnologik omillar bilan bog'liq. Ijtimoiy-madaniy muhitning o'zgarishi, yangi texnologiyalarning rivojlanishi va globalizatsiya janrlarning o'zgarishiga va sintezlanishiga olib kelmoqda.

Milliy va xalqaro jarayonlar- O'zbek adabiyotida janr transformatsiyasi milliy an'analar va tarixiy mazmuni zamonaviy shakllarda aks ettirish bilan ifodalanadi. Jahon adabiyotida esa transformatsiya janrlar chegaralarining buzilishi va postmodern tendensiyalar bilan boyib bormoqda.

Raqamli texnologiyalarning roli- Raqamli muhitda janr transformatsiyasi yangi bosqichga chiqdi. Elektron kitoblar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlardagi ijodiy platformalar va multimediya texnologiyalari janrlarning yangi shakllarini rivojlantirish imkonini berdi.

Ijodkor va o'quvchi o'rtasidagi aloqalar- Transformatsiya jarayonida asarlar nafaqat ijodkorning, balki o'quvchi va tomoshabinlarning faol ishtirokini talab qiladi. Bu esa o'quvchi va ijodkor o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

Kelajakdagi istiqbollari- Janr transformatsiyasi mavzusi zamonaviy adabiyotshunoslik va san'atshunoslik uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ushbu sohada yangi izlanishlar olib borish zarur. Kelajakda raqamli texnologiyalar ta'siri va madaniyatlararo muloqot jarayonida janrlarning rivojlanishini o'rganish ilmiy jihatdan muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. Baxtin, M. M. "Janrlar va uslublar evolyutsiyasi." – Moskva: Nauka, 1986.
2. Jenette, J. Narrative Discourse: An Essay in Method. – Ithaca: Cornell University Press, 1980.
3. Hutcheon, L. The Politics of Postmodernism. – London: Routledge, 1989.
4. Vinogradov, V. V. "Adabiyot nazariyasi asoslari." – Moskva: Prosvetshenie, 1980.



Rayhonoy SAIDOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori
E-mail: saidova@mail.ru

DSc, professor T.Kuchkarov taqrizi asosida

EXPRESSION OF ENCRATIC DISCOURSE IN A LITERARY TEXT

Annotation

The novel as a text has a complex artistic and aesthetic structure. In this device, not only the personal life of the heroes, family life, love adventures, their thoughts and opinions about themselves and their loved ones, but also the state of society in a certain period, problems of the people, nation, country, state, humanity, relationships between groups, classes find their artistic expression. This article shows how such connections are expressed in encratic discourse.

Key words: Semiotics, text fragment, ideology, intellectual-cultural, symbol structure, concept, addressee.

ВЫРАЖЕНИЕ ЭНКРАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

Роман как текст имеет сложную художественно-эстетическую структуру. Этот прием не только отображает личную жизнь персонажей, семейную жизнь, любовные приключения, их мысли и мнения о себе и своих близких, но и состояние общества по отношению к общественно-политическому строю определенного периода, народу, Нация, страна, проблемы государственного и человеческого масштаба, взаимоотношения между группами и классами находят свое художественное выражение. В статье показано, как такие связи выражаются в энкратическом дискурсе.

Ключевые слова: Семиотика, текстовый фрагмент, идеология, интеллектуально-культурный, знаковая структура, концепт, адресат.

BADIY MATNDA ENKRATIK DISKURSNING IFODALANISHI

Аннотация

Roman matn sifatida murakkab badiiy-estetik strukturaga ega. Bu qurilmada nafaqat qahramonlarning shaxsiy turmushi, oilaviy hayoti, sevgi sarguzashlari, ularning o'zi va yaqinlari haqidagi o'y-fikr va mulohazalari, shuningdek, jamiyatning muayyan bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy tuzumi bilan bog'liq ahvoli, xalq, millat, mamlakat, davlat, bashariyat miqyosidagi muammolar, guruhlar, tabaqalar orasidagi munosabatlar o'z badiiy ifodasini topadi. Ushbu maqolada, bunday aloqa-bog'lanishlarning enkratik diskursda ifodalanishini ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Semiotika, matniy bo'lak, mafkura, intellektual-madaniy, belgi strukturasi, konsept, adresat.

Kirish. "Sarob" ma'lum darajada talabalar hayotini aks ettirgani bois uning matnida tasvirlangan zamondagi oliy ta'limga oid og'riqli muammolar ancha keng badiiy tajassum topgan. Romanning to'rtinchi faslida ana shunday muammolardan yana biri tarixiylik prinsiplari asosida ko'rsatilgan:

"Universitetda ko'p ishlar Saidiyma ma'qul bo'lmadi. U bilan bir gruppada o'tirganlar ichida yaxshi, vujudidan qobiliyat yog'ilib turganlar ham bor; nazariga qo'pol, ming yil o'qiganda ham "nam" o'tmaydigan ko'ringan, aslida jismoniy mehnat uchun uchungina yaratilganlar ham bor. Bularni ko'rganda, Saidiy afsuslanar edi: "Shular ham student! O'zlarigina emas, o'qishga yuborgan tashkilotlar ham sarf qiladigan mehnatning bekorga ketmasligiga ishonadi"(18-bet).

Aslida ushbu matniy bo'lak roman tarkibiga roviy (bayonchi, muallif obrazi)ning Saidiy xarakteridagi kibr (o'zini oddiy odamlardan balandda ko'rish istagi)ni ko'rsatish uchun kiritilgan. Biroq matn shunday bir murakkab va mukammal badiiy-estetik hodisaki, u hech qachon biror bir kuchning, shu jumladan, muallif obrazining ta'siri va tazyiqini qabul qilmaydi. U mustaqil bir badiiy qurilma bo'lganligi sababli o'z qonuniyatlarini, ehtiyojlari asosida ish ko'radi. Aynan shunday xususiyati bois muayyan bir mafkura, ta'limot qarashlarini o'z strukturasi aks ettirsa-da, ularga tebe bo'lib qolmaydi, hayotni, insonni ob'ektiv, mustaqil ravishda tasvirlashda sobit va muazzamligini doimo ko'rsatib, ta'kidlab turadi.

Yuqorida keltirilgan parchada ham matnning ana shunday xolisligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bir asr ham yashay olmagan

sovet davlatining inqirozi hamda halokatining asosiy omillaridan biri oliy ta'lim hududiga iqtidorsiz kishilarni ko'plab jalb qilish va ularni ijtimoiy kelib chiqishi, qaysi hududlardan ekanligiga qarab tanlash bilan bog'liq. Chunki iste'doddan mahrum va yetari intellektual-madaniy saviyaga ega bo'lmagan bunday "diplomli mutaxassislar" xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatib, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotga emas, tanazzulga xizmat qilganliklarini tarixga oid tahlil va tadqiqotlar tasdiqlaydi. Romanda bu muammo quyidagi epizodda ham yanada ta'sirli ko'rsatilgan:


"Saidiy ko'pdan beri aytmoqchi bo'lib, aytishdan hayiqib yurgan bir gapni bir kuni dars vaqtida keksa, rangi zahil, lunjlari osilgan bir professor aytdi:

-Siz universitetga munosib emassiz, - dedi u Saidiy "to'ngak" deb nom qo'ygan bir yigitga, - borib ketmoningizni choping!.."

Kimdir bunga qarshi so'z aytgan edi, muallim jerkib berdi:

-Bu fan. Buni dekret bilan soddalashtirib bo'lmaydi" (18-bet).

Semiotik nuqtai nazardan ko'rib chiqilganda, bu mantiq bo'lakda alohida belgi mavjud bo'lmay, undan oldin keltirilgan parchada mavjud bo'lgan belgining boshqa bir shakli ko'rinyapti. Rolan Bart ta'limotiga asoslangan holda belgi strukturasi bir necha bildiruvchi (shakl) bo'lishi mumkin. Yuqorida bayon etilgan qarashimizni quyidagi chizma orqali ko'rsatamiz:



“Ta’limga sinfiy yondashishga salbiy munosabat”ni o’z qurilmasida aks ettiruvchi konsept adresatni yuqorida bayon etilgan hodisaning oqibatidan ham ogohlantiradi: “To’ngak” bilan professor o’rtasida o’tgan bu gap butun universitetga dovruc bo’ldi. Bu – o’t tekkizilgan mushakning plitasiday goh yilt etib uch berar, goh so’nganday ko’zdan yo’qolar, ammo bir zo’r portlash bo’lishi kutilar edi. Vaqti soatiga borib portladi. Uning tovushini butun jamoat eshitdi. Bu vaqtda jumhuriyat studentlarining konferensiyasiga hozirlik ko’rilar, butun fakultetlarda vakillar saylash, nakazlar topshirish borar edi. Bu voqea shunda bir ochildi, so’ng konferensiyada gapirildi, bir necha gazetalarda yozildi. Bu va shunga o’xshagan birmuncha faktlar ustida shovqin ko’tarilib, professor universitetdan haydaldi” (19-bet). Badiiy parchada ifoda topgan professorning oliy ta’limdan namoyishkora haydalihi nafaqat kommunikasion belgi, shuningdek, mamlakatda boshlanayotgan ommaviy qatag’on-qirg’inlarga ishoradir:

“Sarob” romani matni o’z badiiy olamida o’tgan asrning eng siyosiy lashgan va mafkuraviylashgan alohida bir davrini aks ettiradi, shu boisdan unda tabiiy ravishda enkratik diskurs ancha ko’lamli o’rinni egallagan.

Romanning uchinchi faslida Rahimjon Saidiyning pochchasi, savdogar Muhammadrajab bilan bog’liq voqea ham enkratik diskursda ifodalangan:

“Bir ulgurji soliq chiqib Muhammadrajabni tentiratdi, bunday vaqtlarda saidiy qo’ltig’iga kirar edi, kirmagani uchun yer bilan yakson bo’layozdi. Soliq katta zarar yetkazdi, tiklanish uchun bir necha ming va talay pul va talay vaqt kerak edi” (13-bet).

Romanda bu personaj salbiy obraz sifatida kitobxon ko’z o’ngida gavdalanadi. Biroq uning boshiga tushgan ko’rgulik mamlakatdagi barcha savdo ahliga nisbatan nohaq munosabatni ifodalaydi. Faqatgina qamoq, tazyiq orqaligina emas, soliqlar orqali xususiy savdoga zarba berib, uni tugatish hamda bu ishni


davlat tasarrufiga o’tkazish sovet hukumatining asosiy vazifalaridan biri bo’lgan. Bunday kaltabin siyosat og’ir va tuzatib bo’lmas salbiy oqibatlarga olib kelgan: birinchidan, oldi-sotdi ishida erkin raqobat tugatilib, bu boradagi barcha ishlar yagona (monopolistik) tashkilot – “iste’molchilar jamiyati” ixtiyoriga topshirilgan. Bu tashkilot esa butun sovet tuzumi davrida korrupsiya va tanish-bilishchilikning manbasi bo’lib qolgan edi. Ikkinchidan esa bunday tutum savdo-sotiq jarayonida ko’pgina tadbirkorlarni qing’ir, noqonuniy yo’llar topishga majbur etgan. Romanda ana shunday hatti-harakatlar Muhammadrajab faoliyati misolida ko’rsatilgan:

U “umidini butun uzdi-da, “savdo siyosati”ni boshqa yo’lga burdi, ilgari katta do’konini yopib, patentini topshirdi, kichkinagina, ko’rimsiz do’kon ochib, boshqa, past darajali patent oldi. Bu yangi do’konda ombordagi mollarning namunasigina tutar, bilmagan kishi tasodifiy tushgan mollar bilan savdo qilib, qo’l uchida tirikchilik qiladigan do’kondor gumon qilar edi. Bu juda qo’l keldi, ammo har holda ilgari qanday foyda yo’q edi (15-bet). Sovet davlati tarixidan ma’lumki, savdoda soxta kamchilik (defisit)ning yuzaga kelishi, omborlardagi sarxil mahsulotlar do’konlarda emas, chayqov bozorida ustama narx qo’yib sotilishi zaminida hokimiyatning savdo-sotiq tarmog’ini monopollashtirishi turgan. Yuqorida keltirilgan matn parchasidagi sintaktik birlikda birinchi navbatda axborot xarakterdagi fikr bor. Badiiy matn o’z tabiatiga ko’ra konnotativ asosda yuzaga kelgani sababli til (nutq) tizimidagi belgini badiiy-poetik jihatdan qayta ishlab uni axborotdan ramzga, denotasiyadan konnotasiyaga aylantirish xususiyatga ega. Badiiy matnga xos shu jihatni yuqorida keltirilgan misolda aniq ko’rishimiz mumkin. Ya’ni matn badiiy qurilmasida birinchi semasiologik tizimdagi belgining konsepti ikkinchi semasiologik tizim doirasiga kirganda shakl (bildiruvchi)ga evriladi, o’z navbatida mana shu shakl yangicha poetik xususiyatga ega bo’ladi – uning konsepti konnotativlik kasb etadi:

Birinchi semasiologik tizim



Ikkinchi semasiologik tizim



Ko’rinyaptiki, sovet hukumatining savdo borasidagi boshqaruvi, zo’ravonlikka asoslangan faoliyati mazkur tarmoqda qing’irlik, ko’zbo’yamachilik singari ishlarning yuzaga kelishiga zamin tayyorlab bergan, bu esa oxir-oqibatda savdo tizimining

eng korrupsiyalangan sohaga aylanishiga imkoniyat, shart-sharoit yaratgan.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalarimiz til tizimidagi belgi badiiy matn tizimidagi belgining aynan o’zi emasligini, ular

orasida jiddiy tafovutlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Til(nutq) doirasida faqat axborot, odatdagi xabar sifatida ko'rinadigan belgilar badiiy matn hududiga kirgach, srukturasida tub o'zgarish sodir bo'ladi, ya'ni tizim belgisidagi konsept ikkilamchi tizimda

shaklga aylanadi, o'z navbatida mana shu bildiruvchi konnatativlik kasb etgan konseptni yuzaga chiqarishga yo'naltiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Ю.Лотман. Структура художественного текста. – Москва: Эксмо, 2023. – С. 66.
2. Ролан Барт. Избранные работы. Семиотика.Поэтика – Москва: Прогресс, 1989. – С. 529.
3. Матёкуб Қўшжонов. Ҳаёт ва қаҳрамон – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 196-249.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 452.
5. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. 3-том – Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1967.



UDK:004:372(575.1)

Shaxnoza TAYLAKOVA,
O'zJOKU dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
E-mail: shakhnozataylakova86@gmail.com

P.f.d K.Qilicheva taqrizi asosida

ISSUES OF MEDIA EDUCATION DEVELOPMENT BASED ON MEDIA MATERIALS

Annotation

A new direction of education, in a word, education in the field of mass media and communication is media education. The term media education is used in a narrow context as a general cultural component of education. This is in line with the goals of general education. In pedagogy, the words media culture and news culture are also used as synonyms for the word media education. Today, news culture and media literacy are considered very topical issues. The article analyzes in detail the role of the media in the development of media education in secondary schools.

Key words: General secondary education, media education, information culture, media literacy, mass media, pedagogical approaches.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ СМИ

Аннотация

Новым направлением образования, одним словом, образования в области массовой информации и коммуникации является медиаобразование. Термин медиаобразование используется в узком контексте как общекультурный компонент образования. Это соответствует целям общего образования. В педагогике слова медиакультура и новостная культура также используются как синонимы слова медиаобразование. Сегодня новостная культура и медиаграмотность считаются очень актуальными вопросами. В статье подробно анализируется роль средств массовой информации в развитии медиаобразования в общеобразовательной школе.

Ключевые слова: Общее среднее образование, медиаобразование, информационная культура, медиаграмотность, СМИ, педагогические подходы.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MATERIALLARI ASOSIDA MEDIATA'LIMNI RIVOJLANTISH MASALALARI

Annotsiya

Ta'limning yangi yo'nalishi, bir so'z bilan aytganda, ommaviy axborot va kommunikatsiya sohasidagi ta'lim bu - mediata'limdir. Mediata'lim termini tor mazmunda ta'limning umummadaniy tarkibiy qismi sifatida qo'llaniladi. U umumiy ta'limning maqsadlariga muvofiq keladi. Mediata'lim so'zining sinonimi sifatida pedagogikada mediamadaniyat va axboriy madaniyat so'zlari ham qo'llaniladi. Bugun axboriy madaniyat va mediasavodxonlik o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Maqolada aynan umumta'lim maktablarida mediata'limni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni atroficha tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: Umumiy o'rta ta'lim, mediata'lim, axborot madaniyati, mediasavodxonlik, ommaviy axborot vositalari, pedagogik yondashuvlar.

Kirish. Zamonaviy odam bolaligidanoq ulkan axborot oqimiga duch kelmoqda. Hali ham ma'lumotni filtrlay olmagan, faktlarni fikrlardan va sof axborot targ'ibot materiallaridan ajrata olmaganligi sababli, bola ommaviy axborot vositalarining ta'siriga ayniqsa moyil. Bu bolalar auditoriyasi uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan ommaviy axborot vositalarining jamiyat uchun alohida ahamiyatini anglatadi, ularning asosiy vazifasi shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvini amalga oshiradigan ijtimoiy mas'uliyatdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. YuNESKO Mediata'lim deklaratsiyasini 1982 yilda qabul qilgan. Unga ko'ra, "Mediata'lim medianing barcha turlari (bosma, grafik, ovozli, ekranli va boshqalar) va turli texnologiyalar bilan chambarchas bog'langan. U insonlarga ommaviy kommunikatsiyadan ijtimoiy ongda qanday foydalanishni tushunish, boshqa odamlar bilan kommunikatsiya paytida mediadan foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirish kabi bilimlarni beradi.

Shuningdek, quyidagi malakalar ham shakllantiriladi: mediamatnlar tahlil etish, tanqidiy qarash va yaratish; mediamatnlarning manbalarini, kontekstda ularning siyosiy, ijtimoiy, tijoriy yoki madaniy qiziqishlarini aniqlash; media tarqatayotgan mediamatnlar va ularning ahamiyatini izohlash; o'z shaxsiy mediamatnlarini yaratishga muvofiq keluvchi o'zga

mediamatnlarni tanlash va unga qiziquvchi auditoriyani topish;

mediaga ochiq kirish yo'li imkoniyatini qo'lga kiritish"[1].

Mediata'lim shaxsning axborot olish va tarqatish huquqining bir qismi. YuNESKO tomonidan mediata'lim dunyoning barcha mamlakatlari ta'lim tizimlari milliy o'quv rejalariga joriy etishni tavsiya etiladi. Hozirgi kunda Yevropa davlatlari, AQSh, Avstraliya va Rossiya singari mamlakatlarda mediata'lim majburiy fan sifatida ta'lim tizimiga kiritilgan. Rostov davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi I.V.Чельшеванинг "Методика и технология медиа образования в школе и вузе"[2] nomli monografiyasining o'quvchilar va talabalar auditoriyasida mediata'lim darslarini tashkil etish, mediata'lim jarayonining shakllari, usullari va texnikasi bo'lmimida mediata'limni o'rganishda davriy nashrlar ahamiyati borasida shunday misol keltirilgan: "OAV manbalarini jalb qilgan holda darsda ishlashning yana bir qiziqarli shakli davriy matbuotdagi ilmiy-texnikaviy maqolalarni ko'rib chiqish bo'lishi mumkin. Muntazam ravishda, u yoki bu ilmiy ommabop jurnallar nashr etilishi bilan maktab o'quvchilari auditoriyani og'zaki yoki yozma (referat yoki ijodiy ish shaklida) eng qiziqarli nashrlar bilan tanishtiradilar. Keyinchalik bu ishlar maktab devoriy gazetasida chop etilishi mumkin."

"Mediata'lim" so'zi MDH davlatlari hududiga o'tgan asrning 80 yillarida kirib keldi. Inglizcha "media education" so'zini shunchaki so'zma-so'z tarjima qilish yaramaydi. U

matndagi o'rniga ko'ra turli ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Shunga qaramay, medata'limning tayanch tushunchasini aniqlab olishimiz kerak. A.A. Журин ularni uch turga bo'lgan:

Ommaviy axborot vositalarining bolalar va o'smirlarga ta'sirini o'rganuvchi va nazariy masalalarini ishlab chiquvchi, ta'lim oluvchilarni OAV dunyosi bilan uchrashuvga tayyorlovchi pedagogik fan.

Bolalar va o'smirlarni ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, medianing dunyodagi rolini tushunishga tayyorlovchi o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi amaliy faoliyati.

Ta'limning ommaviy axborot vositalarining madaniyat va dunyoni tushunishdagi roli haqida bilim beruvchi va media axborotlari bilan samarali ishlash ko'nikmasini shakllantiruvchi qismi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda media'talim bir qator fanlarni (pedagogika, sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik) o'zida mujassam etgan, ommaviy kommunikatsiya qonuniyatlarini va turli ijtimoiy guruhlar tomonidan media resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganuvchi fanlararo soha sifatida belgilanadi.

Rossiyada bolalar uchun 200 dan ko'p nomda gazeta va jurnal chop etilmoqda. Shuning uchun ham Rossiya bolalar nashrlari tipologiyasida nashrlar tarqatilish masshtabi bo'yicha bir nechta guruhga bo'linadi: Rossiya bo'ylab tarqatiladigan nashrlar, MDH davlatlari va yaqin xorijiy mamlakatlar bo'ylab tarqatiladigan nashrlar ("Пионер", "Мы", "Штучка", "Путеводная звезда", "Круто", "Том i Djerry" va h.k. jurnallar); Rossiya va MDH davlatlari bo'ylab tarqatiladigan nashrlar ("Мурзилка", "Маруся", "Бумеранг", "Молоток", "Браво", "Yes!" va h.k. jurnal); faqat Rossiya bo'ylab tarqatiladigan nashrlar ("Для самых-самых маленьких", "Карпуз" va h.k. jurnallar); mintaqa bo'ylab rus va milliy tillarda, ko'p hollarda ikki tilda chop etiladigan nashrlar (bugungi kunda Rossiyada 90 ta ana shunday jurnal chop etilmoqda. Ular orasida Cheboksarida chuvash tilida chiqadigan "Танташ" ("Tengdosh"), Saranskda mokshan tilida chop etiladigan "Якстер Тяштеня" ("Qizil yulduzcha"), Vladikavkazda osetin tilida chiqadigan "Nogdzau" ("Pioner"), Elistada qalmoq va rus tillarida chop etiladigan "Bair" ("Quvonch"), Qozonda tatar va rus tillarida bosiladigan "Sabyg'a" ("Bolajon") va boshqa jurnallar bor. Garchi mazkur oylik adabiy-badiiy bolalar jurnallari 2-3 ming nusxada chop etilsa-da, matbuot bozorida o'z o'rniga ega); Rossiya Federatsiyasining alohida hududiy birliklari bolalariga mo'ljallangan viloyat (bunday nashrlar har bir viloyatda ikkitadan sakkiztagacha bor) va tuman hamda shahar nashrlari (Cavilyatida chiqadigan "Знайка", Волгоград viloyatida chop etiladigan "Новая улица" jurnallari) va h.k. nashrlari mavjud. Bundan tashqari, biror bir o'quv yurti, masalan, maktab, litsey, gimnaziya, kollej, texnikumlar muassisligida chop etiladigan bolalar nashrlari ham o'ziga xos o'ringa ega.

F.M.Dostoevskiy bir marta o'ziga shunday savol beradi: "Olamni yovuzliksiz, biroq bolalarsiz qabul qila olish mumkinmi? Va shunday javob beradi: Yaxshisi hammasi o'z holicha qolsin, lekin bolalar bilan bo'lsin. Bolalar – dunyodagi be'maniliklarni va yovuzlikni muvozanatda ushlaydi. Insonda buyuk, oliyanob qobiliyat bor – bu kelajakda sodir bo'lish-bo'lmasligidan qat'iy nazar kelajak haqida o'ylashdir. Nega? Chunki kelajakda bizning farzandlarimiz yashaydi. Bolalar bu dunyoning abadiy mavzusidir. Ular hamisha insoniyatning asosiy tashvishi, fikr va umid markazida bo'lgan." [4,55]

Hozirgi zamon bolalarini internet tarmoqlari, hususan Telegram, Instagram, Facebook va ayniqsa You tube dan mutlaqo ajratishni iloji bo'lmasligini hisobga olgan holda, jurnalda ushbu tarmoqlarda bolalar uchun qiziqarli va asosiysi aniq axborotlarga ega kanal va sahifalarni ma'lum qilib borish, ushbu kanal va sahifalar bilan hamkorlik qilish ijobiy ijodiy muhit hosil qilish ehtimoli bor. Zamonaviy bolalar qo'llaridagi gadjet orqali ma'lumot olishga ko'nikkan bo'lsa, aynan ana shu gadjetlar yordamida ularni bosma nashrlarga qaytarish, eng to'g'ri yo'l bo'lishi mumkin. Bugungi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlarining OAVida bolalarning huquqlari muntazam

ravishda yoritilib kelinmoqda. 1999 yilning noyabr oyida Norvegiyaning Oslo shahriga OAV xodimlari, jurnalistlar, bola huquqlari bo'yicha ekspertlar to'planib, OAV butun dunyoda bola huquqlari rivojlanishiga qanday hissa qo'shishi mumkin, degan savolga javob izladilar va bu borada 5 ta yo'nalishni belgilab oldilar. Bu yo'nalishlar quyidagilar:

bolalarning OAVga, shu bilan birgalikda yangi OAVda qatnashish huquqi;

bolalarning OAVda ta'lim olish huquqi;

bolalarning OAVga ega bo'lish huquqi;

bolalarning OAV dan kelayotgan zarardan himoyalash huquqi;

OAVning bolalar huquqlarini himoyalash va rag'batlantirishdagi roli.

Bolalarning OAVdan kelayotgan zarardan himoyalash huquqi punkti aynan bolalar mediata'limining funksiyalari orqali amalga oshiriladi. Bolalarga ma'lumot tarqatuvchi bolalar nashrlarining bu huquqni poymol qilgan taqdirida javobgarlikka tortilish ehtimoli mavjudligini tasdiqlaydi. OAVda bolalarning qanday yoritilishi boshqalarda ularga nisbatan shunday munosabatning shakllanishiga turkii bo'ladi. Aynan OAV bolalar masalalarini ijobiy yoki salbiy hal qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. OAVda aksariyat holatlarda bolalar passiv, indamas qurbonlar sifatida tasvirlaydi. Bolalar va o'smirlarning o'zlarining nomlaridan gapirishga imkon berish OAVda ular nima istashlari, o'zlarining yutuqlari, o'ylantirayotgan masalalari haqida fikrning shakllanishiga sabab bo'ladi. Xalqaro jurnalistlar federatsiyasining xabariga ko'ra, bolalar obrazlarini shakllantirishda OAV aksariyat holatlarda bir xil afsonadan foydalanadilar [5]. Bular: o'z individualligi va insoniyligini yuqotgan, rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qilayotgan oilalarning ahvoli, qashshoqlikda yashayotgan bolalar, urush va tabiiy falokatlar qurbonlari [6].

Tahlil va natijalar. O'zbekiston umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fani bilan mediata'limni integratsiyalash samarali bo'lishi mumkin. O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida esa mediata'limdan foydalanish samaradorligini oshirishga maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, litsey, kasb-hunar kolleji, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda biz qanday natijalarga erishishimiz mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolaning yoshi va rivojlanishidan kelib chiqib, mediani turlarga ajratishga o'rgatish:

verbal - ko'rish va kuzatish: turli multfilmlar, bolalar uchun dasturlar va ko'rsatuvlarning asl mohiyatini tushuntirish;

nonverbal - eshitayotgan axborotlari: ertak, afsona, hikoya va she'rlarining mazmunini sharhlash;

audiovizual - radiodasturlar, ovozli yozib olingan disklardagi ma'lumotlarni bolalarga tushunarli tarzda, real hayot bilan bog'lab sharhlab berish [7].

ushbu media turlariga mansub axborotlarni tarbiyaviy ahamiyatini to'raligicha, soddalashtirilgan holda bola ongiga yetkazish, eng muhimi bolani real hayot va vizual olamning farqini anglashga o'rgatish zarur.

Boshlang'ich va o'rta (5-6) sinflarda:

media shakllari va vositalarini tanlay olish (masalan, fotografiya, rasmlar, jurnal ilustratsiyalarini tanlash va farqlash); vizual matn yoki qisqa syujet rejasini tuzish va aniqlash (fotografiya, video, komiks, ertak, kompyuter grafikasi va h.k)

o'z medialoyihasi taqdimotini tayyorlash va taqdim etish [8].

Maktabning yuqori sinflarida:

surat asosida turli syujetlar yaratish (surat shakli va elementlarini o'zgartirgan holda);

mavjud mediashakllardan foydalanish yuzasidan qarorlar qabul qilish (fotografiya, video, matbuot va h.k), o'z qarorlarini muhokama qilish va asoslab berish;

o'z medialoyihasi bajarish va taqdim etish.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejarida:

maxsus matnlar va "xabarlar" jo'natish shakllari va texnologiyalaridan foydalanish asosida tajribalar o'tkazish;

mediamatnlar tuzish va rejalashtirishda turli texnikadan foydalanish, natijani aniq va tanqidiy tahlil qilish;

maxsus auditoriyaga mo'ljallangan mediamahsulotlarni o'sha auditoriya qanday qabul qilishini oldindan ko'ra olgan holda yarata olish;

o'z medialoyihagini bajarish va taqdim etish. 8 yil avval masalaga konkret taklif berilganiga qaramay, muammo hali hanuz dolzarb va hal etilmaganicha qolmoqda.

Xulosa va takliflar. Umumta'lim maktablarida mediata'limni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni bugun mustaqil shaxslar uchun turli-tuman mavzudagi gazeta jurnallar soni ko'p. Bilimga tashna, oqni qoradan ajrata olmaydigan yoshdagi bolalar uchun esa, narhi hamyonbop, mazmuni oltinga teng ilmlardan iborat bolalar davriy nashrlari esa sanoqli ekani eng dolzarb muammoning o'zidir.

Axboriy savodxonlikni kichik yoshdanoq shakllantirishning informatsion oqimlarga ko'r-ko'rona ergashish, axborotlarni noto'g'ri talqin qilishiga sabab bo'ladi. Axborot iste'moli madaniyatiga ega bolalar o'smirlik davriga yetganda salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllangan bo'ladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

bolalar va o'smirlar mavzusini yoritishda jurnalistlar bolalarning huquqlarini yaxshi bilishlari, ular bilan bog'liq mavzularda aniq fakt va dalillarga asoslanishlari, ularning yoshi, psixologiyasi, ijtimoiy ahvoriga bog'liq holatlarga, albatta, e'tibor berishlari kerak. Kontent tayyorlaydigan jurnalist va mutaxassislar bolalar mavzusini ommaviy axborot vositalarida yoritish ekan, avvalo, qat'iy ravishda kasb etikasi me'yorlariga rioya etishi lozim;

bolalar mavzusida tayyorlanadigan materiallar kompozitsion jihatdan aniqlik va oddiylikka asoslanishi kerak; obyekt doimo muayyan voqelik, ya'ni bo'lib o'tgan hodisa, vaziyat, jarayonlardan tashkil topishi lozim;

bolalar va o'smirlar teledasturlarining sifati, rang-barangligi internet-mediada uzatilayotgan kontentlardan farq qiladi. Bolalar uchun qiziqarli va foydali televizion mahsulotlar yaratish professional kadrlar jamoasi va davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlanishi zarur;

mediapedagogik talablarni hisobga olib, bolalar auditoriyasiga oid dasturlarni tayyorlovchi jurnalistlar va ijodiy jamoa bola psixologiyasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, ya'ni tarbiyachi-pedagoglar, psixologlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi, kontent sifatini nazorat qilishlari, kollaborativ ishlash tartibini joriy qilishlari zarur. Bolalar dasturlarining edukativ funksiyasi ijodiy guruh hamda mediapedagoglar hamkorligiga asoslanishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In: Education for the Media and the Digital Age. Vienna: UNESCO, 1999.
2. Чельшева.И.В. Методика и технология медиа образования в школе и вузе.
3. –М.: Директ-медиа, 2013.
4. Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы. Медиаобразование. – М., 2005.
5. Лебедева.А.Э. Приобщение детей к чтению классики как международная социальная и педагогическая проблема. –М., 1999г.
6. Права ребенка и журналистика. Практический аспект: опираться на права. Учебная программа, одобренная региональным офисом ЮНИСЕФ по Центральной и Восточной Европе и Содружеству Независимых Государств(ЦВЕ(СНГ))© UNICEF - Дублинский технологический институт, 2007.
7. Qosimova N. Toshpo'latova N. O'zbekiston OAV da bolalar mavzusining yoritilishi. O'quv qo'llanma. –T.: 2014.
8. Бэээлгэт К. Ключевые аспекты медиаобразования. Доклад на российско-британском семинаре по медиаобразованию. –М., 1995
9. Федоров А.В., Медиаобразование и медиаграмотность. Учебное пособие для вузов. –М., 2007.



Oysulton TURAKULOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
E-mail: turakulova@mail.ru

DSc. professor M. Abdullayeva taqrizi asosida

COGNITIVE AND CULTURAL ISSUES IN TRANSLATING 'EDUCATION-UPBRINGING' ACROSS LANGUAGES

Annotation

The translation of culturally embedded concepts, such as "education-upbringing," presents significant cognitive and cultural challenges. This article examines the complexities of translating "education-upbringing," a term deeply rooted in societal values, traditions, and cognitive frameworks, across different languages and cultures. Using qualitative analysis of case studies and examples from English, Uzbek, and other languages, the study identifies key barriers, such as varying cultural schemas and linguistic limitations, that complicate semantic fidelity. It highlights strategies employed by translators to bridge cognitive and cultural gaps and emphasizes the importance of intercultural and cognitive awareness in achieving accurate and meaningful translations. The findings contribute to translation studies and offer practical insights for linguists and educators engaged in multilingual contexts.

Key words: translation studies, education-upbringing, cognitive linguistics, cultural semiotics, linguistic challenges, intercultural communication.

"TA'LIM-TARBIYA" ATAMASINI TURLI TILLARGA TARJIMA QILISHDA KOGNITIV VA MADANIY MUAMMOLAR

Annotatsiya

Madaniy jihatdan singib ketgan tushunchalar, masalan, "ta'lim-tarbiya" atamasining tarjimasida kognitiv va madaniy jihatdan katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqola "ta'lim-tarbiya" atamasining turli tillar va madaniyatlarda tarjima qilinishidagi murakkabliklarni o'rganadi, bu atama jamiyatning qadriyatlarini, an'analarini va kognitiv asoslari bilan chambarchas bog'liq. Ingliz, o'zbek va boshqa tillardan misollar va holatlarni sifat jihatidan tahlil qilgan holda, tadqiqot tarjima jarayonida semantik aniqlikni qiyinlashtiruvchi asosiy to'siqlarni, masalan, madaniy sxemalarning farqlanishi va lingvistik cheklolarni aniqlaydi. Shuningdek, maqolada tarjimonlar tomonidan kognitiv va madaniy bo'shliqlarni to'ldirish uchun qo'llaniladigan strategiyalar yoritilib, to'g'ri va mazmunli tarjimoni ta'minlashda madaniyatlararo va kognitiv ongning ahamiyati ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik sohasiga hissa qo'shadi hamda ko'p tilli kontekstlarda ishlovchi tilshunoslar va pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, ta'lim-tarbiya, kognitiv lingvistika, madaniy semiotika, lingvistik qiyinchiliklar, madaniyatlararo kommunikatsiya.

КОГНИТИВНЫЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ТЕРМИНА «ОБРАЗОВАНИЕ-ВОСПИТАНИЕ» НА РАЗНЫЕ ЯЗЫКИ

Аннотация

Перевод культурно обусловленных понятий, таких как «образование-воспитание», представляет значительные когнитивные и культурные трудности. В данной статье рассматриваются сложности перевода термина «образование-воспитание», глубоко укоренённого в ценностях общества, традициях и когнитивных основах, на различные языки и в контексте различных культур. Используя качественный анализ примеров и кейс-стадис из английского, узбекского и других языков, исследование выявляет ключевые барьеры, такие как различия в культурных схемах и лингвистические ограничения, которые затрудняют достижение семантической точности. В статье подчеркиваются стратегии, применяемые переводчиками для преодоления когнитивных и культурных разрывов, а также акцентируется важность межкультурной и когнитивной осведомлённости для обеспечения точного и значимого перевода. Результаты исследования вносят вклад в переводоведение и предлагают практические рекомендации для лингвистов и педагогов, работающих в многоязычных контекстах.

Ключевые слова: переводоведение, образование-воспитание, когнитивная лингвистика, культурная семиотика, лингвистические трудности, межкультурная коммуникация.

Introduction. Translation is not merely a linguistic exercise but a cognitive and cultural negotiation where concepts from one language and culture are adapted to fit another. The term "education-upbringing" exemplifies the challenges translators face when dealing with culturally and cognitively loaded concepts. This term encapsulates the dual role of academic instruction (education) and moral or social development (upbringing), which often have different emphases and connotations across languages and cultures. Understanding and effectively translating this dual concept require an appreciation of both linguistic nuances and the broader cultural and cognitive schemas in which the concept is embedded.

Real-world examples illustrate the gravity of this issue. For instance, the Uzbek term "ta'lim-tarbiya" is widely used in educational discourse to emphasize a balanced development of intellect and character. Translating this term into English often results in oversimplifications, such as "education" alone, which

fails to capture its moral and social dimensions. Similarly, attempts to translate English educational materials into Uzbek often struggle to convey the implicit individualistic ethos of the original text. Such discrepancies can lead to misinterpretations, potentially affecting educational policies and cross-cultural communication.

Moreover, the cognitive and cultural dimensions of translation are intertwined. Translators must navigate not only linguistic barriers but also cultural expectations. A translator working between English and Uzbek, for example, must decide whether to adopt a "domesticating" approach, aligning the translation with the target culture's norms, or a "foreignizing" approach, preserving the source culture's peculiarities. These decisions carry ethical and practical implications, particularly in fields such as education, where translations influence teaching practices and societal perceptions.

The challenges outlined above underscore the need for a more nuanced approach to translating "education-upbringing." This article addresses these challenges by examining case studies and providing strategies to overcome cognitive and cultural barriers. It argues that effective translation requires a deep understanding of both source and target languages' cultural and cognitive frameworks. By highlighting the interplay between linguistic, cognitive, and cultural factors, this study contributes to translation studies and offers practical guidance for linguists, educators, and policymakers.

In the following sections, the article first outlines the methodological approach used to analyse translations of "education-upbringing" across languages. It then presents key findings, including common challenges and illustrative examples. Finally, it discusses the implications of these findings for translation practice and education policy, emphasizing the importance of cultural sensitivity and cognitive awareness in the translation process.

Methodology. To investigate the cognitive and cultural challenges in translating the concept of "education-upbringing," this study adopted a qualitative research design, incorporating comparative linguistic analysis, case studies, and expert interviews. The primary focus was on translations between English and Uzbek, with additional references to other culturally distinct languages, such as Russian and Japanese, to ensure a broader perspective. Data sources included academic texts, educational curricula, and official translations of policy documents. The analysis was conducted through the dual lens of cognitive linguistics and cultural semiotics, emphasizing how linguistic structures and cultural schemas interact in shaping translation practices.

Comparative linguistic analysis revealed that the inherent differences in grammatical structures and vocabulary between languages significantly influence the translation of complex concepts. For instance, Uzbek frequently uses compound expressions like "ta'lim-tarbiya," which merge the ideas of education and moral upbringing into a single, cohesive unit. In contrast, English separates these concepts, reflecting a dichotomy in its cognitive framing. This divergence in linguistic structures often forces translators to choose between emphasizing one aspect of the term over the other, leading to potential loss of meaning. A closer look at Uzbek-to-English translations of educational policy documents showed that "ta'lim-tarbiya" is often rendered simply as "education," omitting the vital moral and cultural dimensions intrinsic to the original term.

Case studies further illuminated the cultural challenges associated with translating "education-upbringing." For example, the Japanese term "教育 (kyōiku)" similarly combines the notions of education and upbringing but places a strong emphasis on group harmony and moral values, aligning with Japan's collectivist culture. Translating this term into English often necessitates explanatory footnotes or additional context, as English lacks a direct equivalent that conveys the same cultural depth. This supports findings by Tymoczko, who argues that culturally rich concepts often require supplementary explanations to maintain their semantic integrity.

The expert interviews provided additional insights into the cognitive dimensions of translation. Experienced translators emphasized that the concept of "education-upbringing" activates distinct mental schemas in different languages, shaped by societal norms and values. One Uzbek translator noted that while "ta'lim-tarbiya" invokes a balanced image of academic and moral development, English speakers often associate "education" primarily with intellectual achievement, leaving moral development to be inferred or separately addressed. This discrepancy underscores the cognitive challenge of aligning mental schemas between languages, a task compounded by cultural variations.

Results. The results of this analysis also highlighted common strategies employed by translators to navigate these challenges. One approach frequently observed was "explicitation," wherein translators add clarifying phrases to compensate for

linguistic or cultural differences. For example, in translating "ta'lim-tarbiya" into English, some translators opted for phrases like "education and moral upbringing," which, while more cumbersome, preserved the dual nature of the original term. Another strategy involved the use of cultural adaptation, where translators replaced culturally specific terms with functional equivalents in the target language. For instance, in translating Uzbek texts for Western audiences, "ta'lim-tarbiya" might be rephrased as "holistic education" to align with the audience's conceptual framework.

However, these strategies are not without limitations. Explicitation, while useful, risks overburdening the text with explanations that may disrupt its flow or accessibility. Similarly, cultural adaptation can lead to the erasure of cultural nuances, as observed in translations of Russian texts where "воспитание (vospitaniye)" - a term akin to "upbringing" but with stronger moral connotations - is often simplified to "training" in English, losing its ethical emphasis. These trade-offs highlight the delicate balance translators must maintain between fidelity to the source text and readability in the target language.

The findings also have significant implications for education policy and cross-cultural communication. Inaccurate or oversimplified translations of "education-upbringing" can lead to misunderstandings in international educational collaborations, where the moral and social dimensions of education may be undervalued or misinterpreted. This aligns with Pym's argument that translation errors in culturally significant terms can have far-reaching consequences, particularly in domains like education, where language shapes policy and practice.

In conclusion, the results demonstrate that translating "education-upbringing" is a complex task requiring careful consideration of both linguistic structures and cultural contexts. By employing strategies such as explicitation and cultural adaptation, translators can mitigate some of the challenges, though these approaches come with inherent trade-offs. This study underscores the importance of cultural sensitivity and cognitive awareness in translation practices and suggests that further research is needed to explore innovative methods for bridging linguistic and cultural gaps. The findings provide valuable insights for translators, educators, and policymakers working in multilingual and multicultural environments.

Discussion. The findings of this study reveal that translating the concept of "education-upbringing" involves both cognitive and cultural complexities, rooted in the diverse linguistic and societal frameworks of the source and target languages. These challenges align with existing literature that underscores the intricate interplay between language, thought, and culture. In particular, the study highlighted that the dual nature of "education-upbringing," encompassing both intellectual development and moral training, often becomes fragmented in translation due to structural and cultural disparities between languages.

A significant observation is the influence of cultural schemas on the conceptualization of "education-upbringing." In collectivist societies, such as those in Central Asia or East Asia, the concept is often holistic, emphasizing community values and moral development alongside academic instruction. Translating this into English, which often embodies an individualistic cultural schema, requires translators to contextualize or reframe the term. This aligns with findings by Katan, who notes that translation inherently involves a cultural negotiation where meanings must be adapted to fit the cognitive frames of the target audience.

Moreover, the cognitive challenges associated with "education-upbringing" are consistent with Lakoff and Johnson's theory of conceptual metaphors, which posits that language reflects underlying mental structures. In English, the metaphor of education as a "journey" or "investment" may overshadow the moral dimensions emphasized in other languages. The Uzbek term "ta'lim-tarbiya," in contrast, activates a schema that integrates both academic and moral development. This cognitive mismatch complicates the task of achieving a faithful and

meaningful translation, as noted in research on conceptual equivalence in translation studies.

The strategies identified in this study, such as explicitation and cultural adaptation, align with Chesterman's (1997) classification of translation strategies, particularly those aimed at resolving cultural and semantic mismatches. However, the trade-offs associated with these strategies highlight an ongoing dilemma in translation practice: the tension between fidelity to the source text and accessibility in the target language. For instance, explicitation can lead to verbosity, while cultural adaptation may risk erasing key elements of the source culture. This dilemma underscores the need for context-sensitive translation approaches that prioritize both linguistic accuracy and cultural resonance.

Another critical point is the role of translator expertise and training. As Pöchhacker (2004) notes, successful translation requires not only linguistic competence but also a deep understanding of cultural and cognitive nuances. This study's findings echo this view, emphasizing that translators working on culturally embedded terms like "education-upbringing" must possess interdisciplinary knowledge that spans linguistics, education, and cultural studies. The lack of such expertise often results in oversimplified or distorted translations, which can have significant implications for education policy and cross-cultural understanding.

In light of these findings, it becomes evident that a one-size-fits-all approach to translation is inadequate for complex, culturally embedded terms. Future research should explore innovative methodologies, such as integrating artificial intelligence with human expertise, to enhance the accuracy and

cultural sensitivity of translations. Additionally, interdisciplinary collaboration between linguists, educators, and cultural anthropologists could provide new insights into addressing these challenges.

Conclusion. This study has explored the cognitive and cultural issues inherent in translating the concept of "education-upbringing" across languages, using a qualitative approach to analyse case studies, expert interviews, and linguistic examples. The findings demonstrate that linguistic structures, cultural schemas, and cognitive frames significantly shape how this term is conceptualized and translated. Strategies such as explicitation and cultural adaptation were found to mitigate some of these challenges, though they involve trade-offs that require careful consideration.

Key insights from this research highlight the importance of cultural sensitivity and cognitive awareness in translation practices. Translators must navigate the delicate balance between preserving the source text's meaning and adapting it to resonate with the target audience's cultural and linguistic context. The implications of these findings extend beyond translation studies, offering valuable guidance for educators and policymakers engaged in multilingual and multicultural environments.

Future research should continue to explore innovative approaches to translation, incorporating advances in technology and interdisciplinary methodologies. By addressing the complexities of culturally embedded concepts like "education-upbringing," the field of translation can contribute to fostering greater cross-cultural understanding and communication.

REFERENCES

1. Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation* (2nd ed.). Routledge
2. Chesterman, A. (1997). *Memes of Translation: The Spread of Ideas in Translation Theory*. John Benjamins Publishing.
3. Ergashev, O. (2015). Ideas and teachings for the concept of spiritual and moral education of the younger generation in Uzbekistan. *The Way of Science*, (11), 85–87.
4. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive Linguistics: An Introduction*. Edinburgh University Press.
5. Hofstede, G. (2001). *Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations* (2nd ed.). Sage Publications.
6. Kaplan, M. S. (2002). International programs in schools: Considerations of form and function. *International Review of Education*, 48(5), 353–368. Retrieved from
7. Katan, D. (2004). *Translating Cultures: An Introduction for Translators, Interpreters and Mediators*. St. Jerome Publishing.
8. Kozlova, I., Presas, M., & Hui Liang, S. (2016). East and West: The Influence of Culture on Key Concepts of Students' Translation Theories. In C. Martín de León & V. González-Ruiz (Eds.), *From the Lab to the Classroom and Back Again: Perspectives on Translation and Interpreting Training* (pp. 101–130). Peter Lang Publishing Group.
9. Lotman, Y. M. (1990). *Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture*. I. B. Tauris.



*Shahnoza TURNIYAZOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti professori v.v.b., DSc*

DSc, professor M.Zokirov taqrizi asosida

BADIIY MATN EPIGRAFI VA UNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada epigraf va uning mant semantikasi bilan bog'liqligi, epigrafning pragmatic xususiyatlari to'g'risida ayrim mulohazalar berilgan. Badiiy matnning pragmatikasi, shuningdek, kitobxonning qabul qiluvchi, talqin qiluvchi faoliyati, nutqiy faoliyati tabiati hamda axborot qabul qiluvchining tezaurus zahirasi tarkibi bilan belgilanadi. Badiiy matnga tanlangan epigrafning pragmatikasini aniqlash zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammoli sohasini tashkil etadi, shuningdek, epigrafning matn semantik makonining boshqa xususiyatlari bilan o'zaro ta'sirini tavsiflovchi ko'p darajali semantik munosabatlarni belgilashda ko'inadi.

Kalit so'zlar: pragmatika, epigraf, illokutiv akt, perlokutiv akt, semantik ma'no.

ЭПИГРАФ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА И ЕГО ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация.

В статье даны некоторые размышления об эпиграфе и его связи с семантикой текста, о прагматических особенностях эпиграфа. Прагматичность художественного текста определяется также характером воспринимающей, интерпретирующей деятельности, речевой деятельности читателя и составом тезаурусного запаса получателя информации. Определение прагматичности выбранного эпиграфа к художественному тексту составляет актуальную проблемную область современной лингвистики, а также проявляется в установлении многоуровневых семантических отношений, характеризующих взаимодействие эпиграфа с другими особенностями семантического пространства текста.

Ключевые слова: прагматика, эпиграф, иллокутивный акт, перлокутивный акт, семантика.

THE EPIGRAPH OF A LITERARY TEXT AND ITS PRAGMATIC FEATURES

Annotation

The article gives some reflections on the epigraph and its connection with the semantics of the text, on the pragmatic features of the epigraph. The pragmatism of a literary text is also determined by the nature of the perceiving, interpreting activity, the reader's speech activity and the composition of the thesaurus stock of the recipient of information. Determining the pragmatism of the chosen epigraph to a literary text is an urgent problem area of modern linguistics, and also manifests itself in the establishment of multilevel semantic relations characterizing the interaction of the epigraph with other features of the semantic space of the text.

Key words: pragmatics, epigraph, illocutionary act, perlocutionary act, semantics.

Kirish. Badiiy matnning o'ziga xos xususiyati, birinchi navbatda, muallifning o'ziga xos uslubi, shuningdek, axborot qabul qiluvchiga samarali ta'sir ko'rsatadigan kommunikativ strategiya va taktikalarni amalga oshirishga muvofiq, ustuvor bo'lgan ma'lumotlarni kodlash usullari bilan belgilanadi. Badiiy matnning pragmatikasi, shuningdek, kitobxonning qabul qiluvchi, talqin qiluvchi faoliyati, nutqiy faoliyati tabiati hamda axborot qabul qiluvchining tezaurus zahirasi tarkibi bilan belgilanadi. Badiiy matnga tanlangan epigrafning pragmatikasini aniqlash zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammoli sohasini tashkil etadi, shuningdek, epigrafning matn semantik makonining boshqa xususiyatlari bilan o'zaro ta'sirini tavsiflovchi ko'p darajali semantik munosabatlarni belgilashda ko'inadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ma'lumki, zamonaviy tilshunoslik so'zlovchi va tinglovchunung til va madaniy jihatlarining ajralmas xususiyatlarini aniqlashga yordam beradigan sohadir. Mazkur soha til mexanizmlarini aniqlash va izchil tavsiflashga qaratilgan bo'lib, bu, o'z navbatida, ularning axborot tezaurusining umumiy yadrosini aniqlashga imkon beradi. Bunday obyektiv ma'lumotlarni o'rnatishga imkon beradigan empirik material badiiy matnning semantik makonini tashkil etadi, bu esa leksik birliklar, frazeologik birliklar, jumlarlar ma'nolarining o'zaro bog'liqligini namoyish etadi va ushbu sohada tadqiqotlarning obyektiv asosini tashkil etadi.

Epigraf badiiy matn tarkibiy qismlarining pragmatik xususiyatlarini aniqlash nuqta nazaridan o'ziga xos qizig' o'rinni egallaydi. Uning talqini E. D. Goryacheva tomonidan madaniyat makonida intertekstuallikning ishlashi bilan belgilanadi. Epigrafni o'rganish uni kuchli pozitsiyaga ega bo'lgan paratext sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi [1].

I.V.Arnoldning ta'kidlashicha, bu kuchli pozitsiya muallifga matn umumiy ma'nosini aniqlash, o'quvchining e'tiborini eng muhim voqealar, epizodlar, qahramonlarning shaxsiyatiga qaratish, shuningdek, "hissiylik va estetik ta'sirni kuchaytirish, bir xil va turli darajalarga tegishli bo'lgan kontakt va distant elementlar o'rtasida muhim aloqalarni o'rnatish, o'zaro bog'liqlikni ta'minlash zarurati tufayli muhim pragmatik muammolarni hal qilishga imkon beradi" [2].

Epigraf - bu "muallif tomonidan asar matnidan oldin joylashtirilgan qisqa matn" dir [2]. Epigraf badiiy matni tarkibiy va kompozision tashkil etishning muhim tarkibiy qismidir. Epigraf "butun asar yoki uning alohida boblari sarlavhasidan keyin joylashtirilgan, asar g'oyasi va obrazli qilib aytganda uning "kayfiyati"ni umumlashtiradigan yoki tushuntiradigan asosiy matnga tashqi element" sifatida ta'riflanadi [2].

Badiiy matndagi epigrafni o'rganish [2, 3] uning ontologik xususiyatlarini, asosiy funktsiyalarini va matnning dastlabki stimul elementi sifatida rolini ochib beradi. Adabiyotlarda epigrafning matnga kirish elementi sifatidagi roli haqida umumiy mulohazalar ham mavjud [4]. Epigrafdan foydalanishning maqsadga muvofiqligi adresatga matn ta'sirini kuchaytirish, erigrafni adresat tomonidan asosiy matni etarli darajada idrok etishni ta'minlaydigan signalni yuboruvchi mikrosistema sifatida shakllantirish zarurati bilan bog'liq.

Muhokama. Qabul qiluvchining e'tiborini xabarga jalb qilish va "matni idrok etish" uchun pragmatik munosabatni yaratish orqali epigraf sarlavha mazmuni bilan birga adresatga ta'sirini kuchaytiradi, uning e'tiborini tortadi va kognitiv qiziqishni uyg'otadi. Pragmatik funktsiyani amalga oshirish epigraf tarkibining mavjudligi va uning adresat tezaurusini

harakatga keltirish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Epigraf matn mazmunini yoritib berishga xizmat qiladigan ikkinchi element (birinchisi sarlavha) sifatida psixologik funktsiya bajaradi, bu qabul qiluvchiga psixologik ta'sirni kuchaytiradi. Epigraf qabul qiluvchini ma'lumot olishga tayyorlaydi, unda idrok etishning aniq, majoziy va hissiy fonini yaratadi va tushunishni chuqurlashtiradi. Epigrafning psixologik funktsiyasini amalga oshirish, asosan, matndagi tasvirning ishlash xususiyatlari bilan belgilanadi.

I.R.Galperin tomonidan taklif etilgan axborot tipologiyasi bir necha turdagi axborotni o'z ichiga oladi: bular faktual, kontseptual, tagma'niolilik [5].

Epigraf faktual yoki kontseptual ma'lumotlar uchun ixtiyoriydir, biroq, tagma'niolilik axboroti matnning ushbu komponentida presuppozitsiya kasb etadi.

Epigraf ma'lum axborotni ifoda etadi. Shu bilan birga, kitobxonning asosiy diqqatini matn mazmuniga qaratadi. Bu orqali muallif keyinchalik matnning bir qismida yoki uning ajralmas semantik makonida namoyon bo'ladigan ma'lumotlarga ishora qiladi.

Epigrafning pragmatik jihatini va uning matndagi funktsiyalarini o'rganish intertekstuallik nazariyasi doirasida juda muhim muammolarni hal qilishga olib keladi. Ishning ajralmas qismi bo'lgan epigraf, tarkibiy va semantik to'liqlik va nisbiy mustaqillikka ega. U matn tarkibida o'ziga xos aniq pozitsiyaga ega: har doim sarlavhadan keyin, muallif matnidan oldin keladi. Epigraf asarning nomi bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning semantik ma'nosiga tayanch vazifasini o'tashga yordam beradi. Fikr isboti uchun quyidagi misolga e'tiborimizni qaratamiz:

Osmon yiroq, yer qattiq.

Ushbu epigraf A. Qahhorning "Bemor" hikoyasida keltirilgan bo'lib, u asarning umumiy mazmunining yoritilishiga asos bo'lmoqda. Muallif bu epigraf orqali qizaloqning onasining o'limini hech kim to'xtata olmasligiga, bunga inson o'z ekanligiga ishora qilmoqda.

Yoki sgu muallifning "O'g'ri" hikoyasidagi "Otning o'limi-itning bayrami" epigrafi muallif asarda bo'lib o'tgan voqealarga o'z munosabatini bildirmoqda. Bu jihati bilan epigraf xarakteriga ko'ra masal janridagi qissadan hissa tushunchasiga yaqin turadi. Ammo epigrafning o'ziga xos aniq xususiyatlari mavjud. Albatta, epigraf, boshqa har qanday iqtibos singari,

muallif tomonidan o'z fikrini tasdiqlash yoki aniqroq ifodalash uchun beriladi va shuning uchun uni ma'no buzilishsiz hamda sintaktik konstruksiyalarni o'zgartirmasdan yetkazish kerak.

tarixiy aspektga tayanilgan. Olimlar tomonidan psixoleksikologiya termini ishlatiladi. 20-asrda psixolingvistik fan olamiga kirib kelishi natijasida lingvistik kompetensiyaning kognitiv asoslari bilan integrallashuvi sodir bo'lganligini yuqorida nomlari zikr etilgan olimlar tomonidan qayd etiladi. Miller va Jonson Lairdning (1976) leksik bilimlarni hamda zamonaviy lingvistik strukturani aniqlashda jiddiy faktorlarlarni inobatga olgan holda psixoleksikologiya deb nomlanishi lozimligini e'tirof etishadi. Shu bilan birga leksikon uchun beriladigan ma'lumot fonologiya, sintaksis hamda leksik komponentlardan iborat bo'lib, xabarlardagi kunlik hosilalar bilan birga ishlanishi lozimligini bu esa o'z navbatida psixolingvistika bilan hamkorlik qilish lozimligini taqozo etadi. Bu shuni anglatar ediki, lug'at leksikoni uchun kiritiladi leksik birliklar assotsiatsiya bilan uyg'unlashishi leksikografiyada mental leksikonni ko'plab sinxron belgilarini kashf etish lozim.

Rus tilshunosligida S.Osokina lingvistik tezaurus yaratishga asoslari bo'yicha tadqiqot olib borgan. Shuningdek, I. B. Azarova, H. B. Lukashovich, N. Gader, M. Benjamin, M. Rosman kabi olimlar ham tezavurusning turli aspektlarini tahlilga tortgan. Bu borada S.Osokina tezaurus lug'atlarni quyidagicha tasniflaydi: so'z bilan so'zning ma'no munosabatlarini ochib beruvchi lug'at (sinonim, antonym so'z birikmasi); 2) tushunchadan so'z bilan bog'liq munosabatni ochib beruvchi

lug'at; (Roje tezaurusi, O.S.Baranovning Ideografik lug'ati, WordNet, RussNet, RuThes electron tezauruslar); 3) stimul so'zlardan reaksiya bildiruvchi so'zlar munosabatini ochib beruvchi lug'at (Assotsiativ lug'at). Yuqoridagilardan kelib chiqib olina tezaurusga quyidagicha ta'rif beradi:

- 1) uyadosh so'zlar asosidagi leksik tizim;
- 2) mavjud bilimlardan ifodalovchi tushunchalar tizimi;
- 3) psixolingvistik tajriba usuli bilan qurollanuvchi hamda inson tafakkurida mavjud bilimlar tizimi.

Darhaqiqat, tezaurus ideografik lug'at sifatida inson idroki orqali anglashiladigan tasavvurlar va ularning lisoniy modeli orqali namoyon bo'luvchi ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Shuning ta'kidlash o'rinliki, tezaurus insoniyat tomonidan bir necha asrlar davomida shakllangan assotsiativ verbal vositalar orqali anglashilgan konseptlar yig'indisi hamdir. Manvalarda qayd etilishicha, inson bolalik davridan boshlab oilaviy muhit va ijtimoiy ta'sir orqali atrof muhit haqidagi tasavvurlarni o'zining lisoniy xotirasida gavalantiradi. Maktab va maktabdan keyingi ta'limda bolaning tasavvuri ilmiy ma'lumotlar bilan boydii. Ijtimoiy tushunchalar bilan birga uning akademik bilimlari ham ixtisoslashib boradi. Mehnat faoliyati, qolaversa, kishilik jamiyati bilan yanada turli munosabatlar, ya'ni qarindoshlik, xodim, qolaversa, muayyan mas'uliyat asosidagi erishgan ma'lumotlari asosida unda yanada chuqurroq tasavvur lisoniy model orqali hosil bo'ladi. Bu esa uning hayoti davomida to'plagan tezaurusni yaratishga yordam qiladi. Muayyan tushunchalar qaysidir tushunchalar ostida birlashadi. Xotira va psixolingvistik jarayon orqali erishilgan barcha ma'lumotlar tezaurusning mohiyat nuqtai nazaridan asosini tashkil qilishda omil bo'lib hizmat qiladi.

Metodologiya. Endilikda barcha rivojlangan tillarda tezauruslarning elektron shakllari yaratilgan va ularning imkoniyatlari tabora kengayib bormoqda.

RussNet va RuThes rus tili bo'yicha yaratilgan tezauruslar bo'lib, ularning ayrimlarini alohida semantik tasnifiy xoslanishini ko'rib o'tamiz.

Rus tilining RussNet tezaurusi loyihasi 1999-yilda Sankt Peterburg universiteti Filologiya fakulteti Amaliy va matematik lingvistik kafedrasida tomonidan amalga oshirila boshlangan. Ushbu lug'at leksik semantik lug'at sanalib, uning lingvistik imkoniyatlariga rus tilining barcha leksik qatlamini kiritish, zamonaviy rus tilining asosiy lug'at bazasini qamrab olish, shuningdek, rus tilidagi so'zlar o'rtasidagi semantic, semantik-grammatik, semantik-derivatsion munosabatlarni ifodalash asosiy maqsad qilib olingan.

Ushbu lug'at WordNet shablonidan namuna sifatida olinib, to'rt so'z turkumdan iborat: ot, fe'l, sifat, ravish. Rus tilidagi leksikalashgan konsept asosida sinonimik qatorlar (sinset)dan iborat. Sinsetlar paradigmatic va sintagmatic munosabatlardan iborat. Uning hajmi 5500 sinset bo'lib, 1300 ot sinset, 1900 fe'lga oid sinset, 1100 ta sifatga oid sinset hamda 200 ta ravish sinsetdan iborat. RussNetdagi munosabatlar ikki guruhga ajratilgan:

sinsetlar o'rtasidagi munosabatlar
so'zlar o'rtasidagi munosabatlar
Lug'atdagi sinsetlar o'z navbatida quyidagi munosabatlarga ko'ra farqlangan:

- 1) giponim va giperonimlar;
- 2) antonimlar;
- 3) konversiyalar;
- 4) meronim yoki holonimlar;
- 5) entailment:
- a) presuppozitsiya;
- b) subevent;
- c) kauzatsiya;
- d) inchoative/terminative (boshlanish yoki tugashi).
- 6) munosabatga jalb qilingalik yoki munosabatdagi roli;
- 7) sinonimiyaga yaqin so'zlar.

So'zlar o'rtasidagi munosabatlarga quyidagilar kirishi qayd etilgan:

- 1) sinonimiya;
- 2) derivatsion sinonimiya;
- 3) derivatsion giponimiya;

4) derivatsion munosabatlarga kirishganlik va uning o'rni;

5) aspect_oppozitsiya

Demak, yuqorida sanab o'tilgan turlar bu tezaurus ichidagi munosabatlar sanaladi.

Ingliz tili manbalarda tezaurus lug'atlarning quyidagi turlari ko'rsatiladi:

Axborot qidiruv tezauruslari axborot qidiruvi tizimi uchun yo'naltirilgan bo'ladi. Unda xoh intellektual xoh avtomatik ravishda bo'lsin ma'lumotlar azasini indekslashda yoki uni qidirishda tezaurusdan foydalaniladi. Bu esa to'rt imkoniyatni taqdim qiladi:

- Tezaurus ham ma'lumot qidirishda ham indekslashda foydalaniladi;

- Tezaurus qidirishda emas faqat indekslashda foydalaniladi;

- Tezaurus indekslashda emas qidiruv uchun qo'llanadi;

- Tezaurus har ikkisida ham ishtirok etmaydi.

Kitob mualliflari tezaurusning ham qidiruv, ham indekslashdagi imkoniyatga ega lug'atni klassik tezaurus deb nomlaydi. Bunda tezaurusdagi faqat stemlar, ya'ni o'zak so'zlar asosiy vazifa bajaradi. Bu kabi tezauruslar indeks uchun qo'llanganda ma'lumotlar bazasi kompilyatorlari orqali amalga oshiriladi, axborot qidiruvda esa tezaurus ma'lumot qidiruv instrumenti vazifasini bajaradi. An'anaviy tezauruslar internet axborot tizimida qo'llanadi. Mualliflar bunda ko'plab media tarmoqlaridan tezaurus uchun zarur ma'lumotni o'zining bazasiga o'tkazib olinishini, qolaversa, taksonomiyalar bilan birgalikda lingvistik inferensi inferens sifatida (asosan statistic va qoidaga ko'ra) dasturiy ta'minotning yangi generatsiyasi hosil qilinishini ta'kidlaydi. Bu borada mualliflar ushbu fikrlari asosli bo'lib, taksonomiya tezaurusdagi bilimlar bazasini tizimli tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, ushbu manbada bildirilgan ayrim mulohazalar o'rinni keltirilgan. Unga ko'ra ma'lumotlar bazasidagi matnli hujjatlarni tahlil qilish asosida sohaviy kategoriyalar avtomatik ravishda generatsiya qilish imkonini yaratadi. Garchi statistic ravishda ma'lumotlarni to'plash va ularni tezaurus sifatida qidirish imkoniga ega bo'lsa-da, natijalarni fine tuning qilish hamda tahrirlash uchun dasturiy ta'minot uchun inson ishtiroki zarur bo'ladi. Natijada tezaurus va klassifikatsiyani tuzishda joriy tijorat maqsadga yo'naltirilgan dasturiy vositalarni kompyuter yordami sifatida qarash mumkin bo'ladi.

Mualliflar tomonidan keltirilgan indekslovchi tezauruslar qidiruv uchun emas, balki indekslashga mo'ljallangan bo'ladi.

Leksikografik tadqiqotlarda tezaurus va WordNet yaratishga doir ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Manbalarda qayd etilishicha, WordNet boshqa lug'atlardan farqli ravishda besh kategoriyaga ko'ra bo'linadi. Odatda an'anaviy lug'atlarda ot, fe'l, sifat, ravish va funksional so'zlar (yordamchi so'zlar) mavjud bo'lsa WordNetda faqat shulardan to'rttasi, ya'ni ot, fe'l, sifat va ravish so'z turkumiga tegishli birliklar kiritiladi. WordNetga kiritiladigan so'zlar maxsus sinsetlarga birlashtirilib, yordamchi so'z turkumiga tegishli birliklar tilning sintaktik komponenti sifatida qaralgan.

Wordnetda ot so'z turkumiga kiruvchi birliklar leksik xotirada mavzuiy iyeraxiya sifatida asos sanaladi. Fe'l so'rkumidagi birliklar otga ergashuvchi sifatida, sifat va ravish esa har ikkisining belgini igodalovchi parameter sanaladi. Har bir leksik struktura turli tasnifiy hodisani ifodalanishi, barcha sintaktik kategoriyalar uchun har bir alohida tashkil qilingan tamoyil leksik bilimlarni psixologik murakkablashtirishda noto'g'ri ifodalanishi Miller va boshqal tomonidan olib borilgan kuzatishlarda qayd etiladi. WordNetning o'ziga xos jihati shundaki, sozlarning so'z shakliga ko'ra emas, balki ma'nosiga qarab leksik ma'lumotlarni loyihalashtirishga harakat qilinadi. Shu jihatdan WordNet an'anaviy lug'atlardan ham ko'ra tezaurusga o'xshaydi.

O'zbek tili tezaurusiga doir tadqiqotlar sirasiga ilk bor UzWordNet ga yaratishga muvaffaq bo'lgan olimlarning tadqiqotlariga murojaat etmoqchimiz.

Ushbu lug'at Prinston lug'ati asosida yaratilib, 20683 so'zning 64389 ma'nosi hamda ularning 28140 sinsetdan iborat bazasi kiritilgan. Ushbu lug'at ingliz tili asosida qilingan bo'lib, so'zlarning aniqlik darajasi 75.98%ni tashkil qiladi. Ushbu olimlar olib brogan tadqiqot uch bosqichni qamrab olgan:

- Leksik resursni qayta ishlash;
- O'zbek tili adabiy tili uchun Prinston WordNeti asosida tezaurus strukturasi avtomatik yaratish;
- Avtomatik qurilgan lug'atni inson yordamida tekshirish va baholash

Ushbu tadqiqotning 1-bosqichida tarjima lug'at asosida so'zlarning tarjima bazasi yaratilgan. Ingliz-o'zbek qismi uchun 40000 so'z, o'zbek-ingliz qismida 30000 lemma mavjud. Ushbu

tarjima lug'at kitob shaklida bo'lgani bois uning eltron shaklga o'tkazishda quyidagilar bajarilgan:

- Lug'at mashina formatiga o'tkazilgan;
- Jadval ko'rinishdagi lug'at uch ustundan iborat bo'ldi:
 - a)ingliz tilidagi lemma;
 - b)lemmaning so'z turkumi;
 - c)o'zbek tilidagi tarjimasi

Xulosa o'rnida shuni e'tirof o'rinliki, o'zbek tili tezaurusi uchun yaratiladigan ma'lumotlar bazasi tabiiy tilni qayta ishlash jarayoni uchun, qolaversa, axborot qidiruv tizimi uchun moslanganligi kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalarida tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – Москва, 2006. – С. 944.
2. Розентал Д.Э., Теленкова М.А. Словар-справочник лингвистических терминов (Пособие для учителя). – Москва: Просвещение, 1985. – 399 с.
3. Петровский Н.А. Словарь русских личных имен. Изд. 4-е, дополн. - М.: Русские словари, 1980. –С. 414
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.492.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд. –Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – 671 б.
6. Ҳоҗиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент, 1985. – 67-б.
7. Matlatipov San'atbek, Aripov Mirsaid, Abdurakhmonova Nilufar. (2018).
8. Modeling WordNet Type Thesaurus for Uzbek Language Semantic Dictionary. International Journal of Systems Engineering, 2(1), 26-28.
9. <https://doi.org/10.11648/j.ijse.20180201.16>
10. Agostini, A., Usmanov, T., Khamdamov, U., Abdurakhmonova, N., & Mamasaidov, M. (2021, January). Uzwordnet: A lexical-semantic database for the uzbek language. In Proceedings of the 11th Global Wordnet conference (pp. 8-19).
11. Nilufar, A., & Gulruhsor, H. (2024, May). O'zbek tili tezaurusini yaratishda leksik birliklarning ifodalanish. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 10, pp. 186-192).
12. Nilufar, A., & Gulruhsor, X. (2024). O'zbek tili tezaurusini yaratishda standart me'yorlar. «Contemporary technologies of computational linguistics», 2(22.04), 464-469.



Лейла ХОЛМУРАДОВА,
PhD, доцент Самаркандский государственный институт иностранных языков

По отзыву DSc С.Мухторов

РОЛЬ КОНФЛИКТА КАК ОДНОГО ИЗ ОСНОВНЫХ ФАКТОРОВ В ПРОЦЕССЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация

В статье анализируется роль конфликта в процессе межкультурной коммуникации, которая провоцирует людей на общение, каким образом она возникает и можно ли через конфликтные ситуации обогащать картины мира разных народов.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, конфликт культур, английская фразеологическая картина мира, французская фразеологическая картина мира.

MADANIYATLARARO MULOQOT JARAYONINING ASOSIY OMILLARIDAN BIRI SIFATIDA KONFLIKTNING ROLI

Annotatsiya

Maqolada odamlarni muloqotga undaydigan konfliktning madaniyatlararo muloqot jarayonida tutgan o'rni, u qanday paydo bo'lishi va konfliktli vaziyatlar orqali turli xalqlarning dunyoqarashini boyitish mumkinmi yoki yo'qmi, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, madaniy konflikt, dunyoning inglizcha frazeologik rasmi, dunyoning fransuzcha frazeologik rasmi.

THE ROLE OF CONFLICT AS ONE OF THE MAIN FACTORS IN THE PROCESS OF INTERCULTURAL COMMUNICATION

Annotation

The article analyzes the role of conflict in the process of intercultural communication, which involves people to communicate and how conflict situations influence and enrich the world outlook of different people.

Key words: intercultural communication, cultural conflict, English phraseological picture of the world, French phraseological picture of the world.

Введение. Коммуникация является одним из основных факторов развития общества, формирует определенные общественные нормы и принципы. Роль общения в обществе носит очень важный характер. Сабурова Н.А. считает, что «Общение – необходимое и специфическое условие жизни человека в обществе. Общение «провоцируется» проблемной ситуацией и начинается с того, что человек испытывает какую-либо потребность, обычно лежащую за пределами собственного общения, в сфере той деятельности, которую это общение заслуживает» [2; 9].

«Коммуникация невозможна без языка» как справедливо утверждает Сабурова Н.А. [2; 12] Действительно язык – это основное средство общения и выражения мыслей. Процесс межкультурной коммуникации является возможностью для выражения данных мыслей. Язык необходим человеку для вербального общения, для возможности выразить свою точку зрения. Мнение Сабуровой нам кажется абсолютно верным, отражающим сегодняшнее видение роли языка в развитии общества в процессе глобализации в целом. Общественный прогресс зависит от межкультурного общения, взаимообогащения между народами - носителями разных языков. Выявление факторов способствующих межкультурному взаимодействию между разными культурами и являются одним из основных вопросов данного исследования. В данном исследовании интерес вызывает, то каким образом коммуникация способствует развитию культуры, каким образом она влияет на восприятие информации у людей с разными историческими и культурными традициями.

Мы попытаемся понять что такое «проблемная ситуация», которая провоцирует людей на общение, каким образом она возникает и можно ли начать общение без фокусирования на определенной проблеме. Фокусирование является одним из наиболее важных поведенческих особенностей человека. При общении каждый индивид имеет

свой определенный ракурс мировосприятия действительности, тем самым и фокусирование является разным для людей с разным мировосприятием. В нашем случае интерес вызывает коммуникация между англичанами и французами.

Литература и методология. Фрик Татьяна Борисовна считает, что «В процессе межкультурных контактов большую роль играет специфика поведения представителей разных культур. Универсального «нормального поведения» не существует. Чтобы понять поведение представителя другой культуры, нужно выяснить, какое поведение традиционно для этой культуры. Если правила поведения другого человека и собственные не совпадают, необходимо начать вырабатывать общие правила поведения. Поведение людей в процессе коммуникации определяется разными факторами. Во-первых, большинство моделей поведения, которые являются продуктами культуры, применяются людьми автоматически. Явления других культур человек также воспринимает автоматически, бессознательно» [4; 12]

Результаты. Общение между английским и французским народами исторически является очень сложным явлением, учитывая их непростое историческое прошлое. Войны, культурные разногласия, недопонимания, связанные с социальными нормами при общении сразу выступают на первое место, несмотря на довольно толерантное взаимодействие между данными народами на сегодняшний день. Сегодня общество диктует свои нормы поведения, при которых культурные разногласия не выходят на тропу войны, как это было в средние века. Но, фразеологическая картина мира является доказательством подобного взаимодействия с большим количеством фразеологических оборотов, описывающих данное общение между английским и французским народом.

К примеру, фразеологизм: *Après vous, Messieurs les Anglais* – данное выражение используется как форма вежливости, когда желают уступить кому-либо честь первым начать что-либо. (букв. после вас, господа англичане). Данное выражение связано с военным эпизодом, произошедшим 11 мая 1745 года, во время битвы при Фонтенуа (Бельгия), где французская армия под командованием маршала де Сакса одержала победу над объединенными силами Англии, Голландии и Австрии. В начале сражения головная колонна английской армии под командованием лорда Хэя приблизилась к передней линии французов, и офицеры обеих сторон, по принятому обычаю, отдали честь друг другу. После этого лорд Хэй вышел вперед и сняв свою шляпу, сказал: «Господа французские гвардейцы, стреляйте!». Командующий французскими гвардейцами граф д'Антеррош, выйдя ему навстречу, якобы ответил: «После вас, господа англичане, мы никогда не стреляем первыми!». Эта неуместная вежливость дорого обошлась французам: данный англичанин залп скошил всех находившихся в первом ряду французских солдат. Сам граф д'Антеррош был ранен семью пулями, однако выздоровел и дожил до 80 лет.

Данный пример наглядно показывает, каким образом историческое событие огромного масштаба, в нашем случае военные действия провоцируют изменение в сознании людей и возникновении нового образного восприятия вполне обычной разговорной фразы. Данное выражение является нормой во французском обществе и до этого исторического события использовалось в другом культурном ключе, указывая на галантное отношение в аристократическом обществе, где принято с любезностью пропускать впереди стоящего человека, высказывая таким поступком уважение и почтение к нему.

Толерантное отношение очень важно при коммуникации между людьми разного социального строя, это способствует решению конфликтов, возникающих у людей с разными социальными взглядами и социальным положением. Мы хотим отметить, что конфликт – это важное социальное явление в любом обществе. Он помогает людям постигать новые догмы и анализировать их. Конфликт способствует развитию критического мышления, дискуссий, споров, а споры всегда ведут к какому-либо умозаключению. Многие народы столетиями находятся в конфликте между друг другом, но при этом процесс коммуникации не останавливается, а набирает еще большую силу, которая помогает этим народам развивать свое собственное мышление и мировидение.

Обсуждение. Данное понимание процесса коммуникации затрагивает культурную составляющую, что близко нашему исследованию. Действительно многие культурные явления воспринимаются людьми автоматически, как традиционное поведение исторически сложившиеся за долгие годы. Существуют ценности, которые одинаково воспринимаются представителями разных культур.

Такие ценности, по мнению лингвиста Фрик Т.Б. называются «универсальными, или общечеловеческими». Фрик Т.Б. справедливо указывает, что «нет ни одной культуры в

мире, где оценивалось бы положительно убийство, ложь и воровство. Каждая культура определяет, какие ценности имеют для людей, принадлежащих к ней, особое значение, а какие нет, т. е. у каждой культуры существует своя иерархия ценностей. При взаимодействии разных культур становится видна их разница в выборе ценностей. В связи с этим часто возникает непонимание, чувство обиды, злости. Знание ценностей другой культуры помогает предсказать поведение, цели, желания партнера по межкультурной коммуникации» [4; 16].

Мнение ученой весьма ценно для нашего исследования, так как мы описываем фразеологическую картину мира английского и французского народа, и хотим отметить, что во фразеологии данных языков такие человеческие качества как обида, злость, глупость, зависть носят исключительно негативный характер. Во фразеологии, как английского, так и французского языков негативные качества человека и его поступки являются большим подспорьем для образования фразеологических оборотов.

К примеру:

1) *Il ne faut qu'un mauvais moine pour dérégler tout le couvent / One scabbed sheep will mar a whole flock* (Паршивая овца все стадо портит.)

2) *Les fous inventent les modes, et les sages les suivent // Fools may sometimes speak to the purpose* (Дураки придумывают моду, а умные ей следуют)

3) *Mange bien les mouches qui n'y voit pas // Curiosity killed the cat* (Любопытной Варваре на базаре нос оторвали).

4) *Il ne faut pas défier les fous (de faire de folies) // Give a fool rope enough, and he will hang himself* (Заставь дурака Богу молиться, он и лоб расшибет).

5) *Qui s'attend à l'écuelle d'autrui a souvent mal dîne // Let each tailor mend his own coat* (На чужой каравай рот не разевай).

6) *L'homme est un loup pour l'homme // Two dogs over one bone seldom agree* (Человек человеку – волк).

7) *À père avare, fils (enfant) prodigue // A miserly father makes a prodigal son* (У скупого отца сын мот)

Заклучение. Данные примеры наглядно описывают негативные проявления человеческих качеств в процессе межкультурной коммуникации. Коммуникация позволяет нам выявлять данные качества, анализировать их и по возможности менять. Решение любых конфликтов возможно только при грамотно выстроенном общении и взаимодействии.

Фразеология является ярчайшим примером развития языка и культуры в целом. Во фразеологическом фонде представлен весь исторический и культурный потенциал народов, его мудрость и мировидение, что способствует дальнейшему развитию нашего общества. Развитие общества невозможно без опоры на прошлое, без анализа исторических ошибок, допущенных при межкультурной коммуникации. Именно правильное понимание прошлого формирует у нового поколения правильные взгляды на будущее. Это в свою очередь способствует прогрессу и развитию общества в целом.

ЛИТЕРАТУРА

1. Радбиль Т.Б. Основы изучения языкового менталитета: учебн. пособие – М.: Флинта: Наука, 2010. – 328с.
2. Сабурова Н.А. Теория межкультурной коммуникации: курс лекций. – 2-е изд., перераб. и доп. – Хабаровск: Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 296 с.
3. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: (Учебн. пособие). – М.: Слово / Slovo, 2000.
4. Фрик Т.Б. основы теории межкультурной коммуникации: учебное пособие; Томский политехнический университет. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2013. – 100 с.
5. Khaitbaeva, N. K. (2022, March). Literary translation is an integral part of uzbek culture and fine literature. In Conference Zone (pp. 115-118).
6. Англо-русский фразеологический словарь под ред. Кунина – М.: изд. Русский язык, 1984. – 944с.



Shaxnoza XUSHMANOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM katta o'qituvchisi
E-mail: shaxnoza00@mail.ru

O'zFinPI dotsenti X.Tojiyeva taqrizi asosida

KOGNITIV LINGVISTIKA: TIL VA TAFAKKURNING INTEGRATSIYASI ASOSIDA YANGICHA YECHIMLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada kognitiv lingvistika sohasining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola kognitiv lingvistika tushunchasi, uning falsafa, psixologiya, neyrofiziologiya va madaniy antropologiya bilan bog'liq jihatlarini qamrab oladi. Shuningdek, til birliklari orqali inson tafakkurining shakllanishi, bilish jarayonlarini ifoda etish xususiyatlari o'rganiladi. Professor Sh.Safarov va A.Abdudzizovlarning kognitiv tilshunoslikka oid qarashlari asosida, kontsept, freym, skript, stsenariy kabi asosiy kategoriyalar va tushunchalarga yondoshuvlar berilgan. Tadqiqotda kognitiv tilshunoslikning yo'nalishlari, asosiy metodlari va kelgusidagi rivojlanish imkoniyatlari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: kognitiv lingvistika, kognitiv yondashuv, kontsept, freym, kognitiv semantika, kognitiv grammatika, leksik-semantik tahlil, bilish jarayoni, tafakkur, til va madaniyat.

COGNITIVE LINGUISTICS: NEW SOLUTIONS BASED ON THE INTEGRATION OF LANGUAGE AND THOUGHT

Annotation

This article analyzes the role and importance of cognitive linguistics in contemporary linguistics. It explores the concept of cognitive linguistics, including its connections to philosophy, psychology, neurophysiology, and cultural anthropology. Additionally, the study examines how language units shape human thought and express cognitive processes. Based on the perspectives of Professors Sh. Safarov and A. Abdudzizov, it discusses core categories and concepts such as concept, frame, script, and scenario. The research highlights the main directions, methods, and future development opportunities within cognitive linguistics.

Keywords: cognitive linguistics, cognitive approach, concept, frame, cognitive semantics, cognitive grammar, lexical-semantic analysis, cognition, thought, language and culture.

КОГНИТИВНАЯ ЛИНГВИСТИКА: НОВЫЕ РЕШЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ЯЗЫКА И МЫШЛЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль и значение когнитивной лингвистики в современной лингвистике. Анализируется концепция когнитивной лингвистики, включая её связь с философией, психологией, нейрофизиологией и культурной антропологией. Кроме того, исследование показывает, как языковые единицы формируют человеческое мышление и выражают когнитивные процессы. На основе мнений профессоров Ш.Сафарова и А.Абдузизова обсуждаются основные категории и понятия, такие как концепт, фрейм, сценарий и скрипт. Исследование подчеркивает основные направления, методы и перспективы развития когнитивной лингвистики.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, когнитивный подход, концепт, фрейм, когнитивная семантика, когнитивная грамматика, лексико-семантический анализ, познание, мышление, язык и культура.

Kirish. Hozirgi kunda tilshunoslikda "Kognitiv lingvistika" fani judayam urfga kirdi. Bu fan zamonaviy tilshunoslikda mustaxkam o'rin egallayotgan tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Kognitiv so'zi inglizcha "cognize- bilmoq, anglamoq, tushunmoq" dan olingan bo'lib, bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur (ong) bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Kognitiv tilshunoslik bu jihatdan psixolingvistika, antropolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi turli sohalar bilan bog'lanadi.

Adabiyotlar tahlili. Sh.Safarovning fikricha, kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'kosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir. A.Abdudzizovning ta'kidlashicha, nutqning hosil bo'lishi, uzatilishi, xotirada ongli saqlanishi kabi murakkab hodisalarning markazi miya neyronlari orqali amalga oshiriladi. Tildagi turli birliklarning shakl va mazmunini farqlab, turlicha tushuncha, kontseptlar, freymlar yordamida milliy-madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni har bir xalq yoki etnos uchun o'ziga xosligini aniqlashda fonologik vositalar katta xizmat qiladi. Inson tili "tovushli, ovoqli" bo'lib, u mazmuni hosil qilishda buyuk

ahamiyatga egaligini kognitiv fonetika va fonologiyada o'rganilishi sababli uni kognitiv tilshunoslikning asosiy tarkibiy qismi ekanligini e'tirof etish lozim.

Insonning kundalik voqea-hodisalarga munosabati tilning kognitiv nazariyasining amalda qo'llanishi bilan uzviy bog'liqdir. Zotan, biz yillar davomida hosil bo'lgan hayot tajribamiz, bilim va ko'nikmalarimiz asosida voqelikdagi u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan narsa-predmetlar, voqealar, hodisalar haqida fikrlay olamiz va ana shunga tayangan holda o'zaro so'zlashuv jarayonida nutqimiz bekamu ko'stligiga erishamiz.

Ma'lumki, bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan boshlanadi. Sezgi idroki tafakkurda voqelikning ushbu parchasi ramzining shakllanishi uchun zamin tayyorlaydi. Voqelik idroki jarayonida bilish faoliyati ijrochisi – sub'ekti va ushbu faoliyat ob'ektini o'ziga xos o'zaro qarama-qarshiligiga asoslangan sub'ekt-ob'ekt munosabati yuzaga keladi. Bilish faoliyatining barcha bosqichlari xuddi shu munosabat asosida kechadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida kognitiv yo'nalish leksik-semantik sathdagi tahlillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unga ko'ra til umumiy kognitiv mexanizm bo'lishi bilan birga, kognitiv qurol tarzida axborotning taqdimotini, kod yordamida uzatish va o'zgartirish vazifasini bajaruvchi belgilar tizimi hamdir.

Kognitiv tilshunoslikda insonga xos bo'lgan kognitiv tuzilma va usullar yordamida axborotni to'la egallab olish

me-xanizmlari o'rganiladi. Zero, intensivlikni ifodalovchi so'zlar ham borliq haqidagi bilim va tasavvurlarni ifoda etishga xizmat qiladi.

So'z ma'nosini anglashda faqat uning semantik tuzilmasini bilishimiz kamlik qiladi. Biz muayyan tilda so'zlashuvchi odamlarning tafakkur xususiyatlari, fikrlash tarzleri va dunyoni til unsurlari yordamida bilish xususiyatlaridan ham xabardor bo'lishimiz lozim. Chunki mazkur vazifalarni so'zlarning sof lingvistik tahliliga yuklash qiyin. Bu esa til hodisasining tabiatini, mohiyatini chuqurroq tushunish uchun unda so'zlashuvchining borliqni bilishi va uni ongida "pishirib", o'z tilida (nutqida) tinglovchiga be-kam-ko'st uzatishi bilan bog'liq masalalarni ham tadqiqotlarimiz kun tartibiga qo'yishni talab qilmoqda.

Ma'lumki, inson moddiy olamda yashar ekan, u o'z atrofida borliqqa (narsa-hodisalarga, o'simlik va hayvonlarga) o'z munosabatini bildiradi. Masalan, hayvonlar va qushlarga xos ijobiy, salbiy xususiyatlar insonga, uning turmushi, odob-axloqi va holatiga til yordamida o'xshatiladi, ko'chiriladi yoki metaforizatsiya qilinadi. Bu holatlar obrazli bo'lganligi uchun inson hissiyotiga kuchli ta'sir qiladi va uning ongida muhrlanib qoladi. Bu tarzda til talqini masalaga kognitiv aspektda yondashuvni aks ettiradi.

Tilshunos D.Ashurova o'z tadqiqotida kognitiv tilshunoslikning maqsad va vazifalari, o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalarni ko'rsatib o'tadi. Jumladan, hozirgi davrda shakllanib borayotgan kognitiv tilshunoslikning kognitiv fonologiya, kognitiv grammatika, kognitiv leksikologiya, kognitiv semantika kabi yangi yo'nalishlari vujudga kelganligi ta'kidlanadi. Kognitiv yondashuv asosida so'z turkumlari, til birliklarining kategoriyalarga bo'linishi va kontseptualizatsiyalashuvi, til va dunyoni bilish kabi tushunchalar yangicha talqinlarga ega bo'ladi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari tizimidan freym, stsenariy, skript, kategoriyalashirish, kontsept, kontseptualizatsiya, kognitiv struktura, kognitiv metafora kabilar o'rin olmoqda. Mazkur yo'nalishning asosiy tadqiqot metodlariga freymlar asosida tahlil qilish, modellashtirish (kognitiv xaritasini yaratish), kontseptual tahlil singarilar kiradi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagilar bilan bir qatorda yana shuni ham ta'kidlash lozimki, bugungi tilshunosligimizda freym, skript, stsenariy, geshtalt kabi oraliq til birliklarini o'rganishga e'tibor ortib bormoqda. Buning asosiy sababi kognitiv tilshunoslik muammolarining tadqiqotlarimiz mundarijasidan o'ziga munosib o'rin olganligidadir.

Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri – bu kontseptdir. Bu atama XX asrning 90 yillariga kelib keng qo'llanila boshladi. Kontsept so'zi aslida lotincha conceptus bo'lib, "tushuncha" ma'nosini ifodalaydi. Hozir ham ko'pincha "konsept" terminidan "tushuncha" so'zining sinonimi sifatida foydalanilmoqda. Shuningdek, kontsept termini matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo'llanilmoqda. Ye.S.Kubryakova ta'kidlaganidek, "konsept" termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun "soyabon" vazifasini o'taydi.

Til inson ongida kontseptni ifodalovchi va shakllantiruvchi vositalardan biridir. Kontsept inson aqliy dunyosidagi madaniyatning asosiy yacheykasidir. Kontseptlar inson ongida nafaqat so'zning lug'aviy ma'nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo'ladi. Tajriba qancha boy bo'lsa, kontseptning chegarasi shunchalik keng bo'ladi. Aynan shunday holatda kontsept o'zini har tomonlama namoyon eta oladi. Zotan, kontsept dunyoni bilish va u haqda o'z tasavvuriga ega bo'lish demakdir. Intensivlikning kontseptualizatsiyalashuvi til jarayoni bo'lib, unda til birliklari ma'no jihatdan qayta ishlanadi. Intensifikator ham so'zga nisbatan qo'llanadi, natijada o'sha so'zning kontseptiga aloqador bo'ladi.

Kontseptlar xalqning ongida jamoa merosi sifatida, uning ma'naviy mulki, madaniyati sifatida namoyon bo'ladi. Aynan

jamo'a ongi (fikri) kontseptning yashovchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri sanaladi.

Oddiy tushuncha va kontsept o'zining farqli hamda o'xshash tomonlariga ega. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, kontsept ularning yuzaki (o'ta muhim bo'lmagan) tomonlarini ham ifodalay oladi. Tushuncha so'z orqali ifodalanadi. Lekin tushuncha va so'z aynan bir narsa emas. Tushuncha biror bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va bu predmetning umumiy va farqlovchi belgilarini majmuasi asosida shakllanadi. Bir umumiy tushuncha turli tillarda turli so'zlar orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilida – water, nemis tilida wasser, o'zbek tilida suv, rus tilida vodakabi. Ushbu misollar so'z ma'nosi va tushunchaning bir-biri bilan zich aloqada ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli turli millatlar tillaridagi so'zlar o'z ma'nosiga ko'ra bir-biriga qisman yoki aynan mos kelishi mumkin. Shuningdek, so'z tushunchaning ifodalovchisi hisoblanadi va shu asosda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish imkoniyati tug'iladi. Ba'zi olimlar tushuncha va so'z ma'nosining bir-biriga mos kelishini ta'kidlaydilar hamda shu asosda tushuncha va so'z ma'nosini mohiyatan bir narsa deb qaraydila. Bu masala munozaraligicha qolmoqda. Tushuncha va so'z ma'nosining birligi nimada ko'rinadi, degan savol tug'ilishi mumkin. Har ikkalasi ham bir xil predmet yoki hodisani ifodalaydi, umumlashtiradi. Bu tarzda ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Tushuncha so'z va uning ma'nosisiz mavjud bo'lmaydi va, aksincha, so'z tushunchaning, fikrning ifodalovchisi hisoblanadi. So'z ma'nosi til kategoriyasi, tushuncha esa tafakkur kategoriyasi bo'lishi sababli ular bir-biridan farq qiladi.

Ma'lumki, tafakkur qonunlari ob'ektiv olam bilan bog'liq. Tushuncha mazmuni millatga bog'liq emas, u umuminsoniy xarakterga ega. Shuning uchun ham turli millat vakillari bir-birlarini oson tushunadi, fikr almasha oladi. So'z esa milliy xarakterga ega bo'lib, mazkur xalq tilining o'ziga hos qonun-qoidalari asosida shakllanadi. Shu bois ham bir so'zning ma'nosi boshqa tildagi so'z ma'nosi bilan har doim ham mos kelavermaydi. B.Ismoilov o'z tadqiqotida rus tilidagi "stol" tushunchasi ingliz va rus kishisi uchun bir xil bo'lsa-da, uni leksik ma'nosiga ko'ra ingliz tilidagi "table" so'zi bilan bir xil ma'noda qo'llab bo'lmasligini to'g'ri ta'kidlaydi. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra kontsept va tushuncha bir-biriga umuman yaqin, lekin kontsept tushunchaga nisbatan keng ko'lamga ega. Masalan "stol" so'zining ma'nosini tushuntirishda biz "to'rt oyoqli, ust qismi silliq, yozish yoki ovqatlanish uchun foydalaniladigan mebel turi" deb izohlaymiz. Tushunchada stolning eng muhim tomonlari aks etadi, xolos. Kontsept lingvistik kategoriya sifatida tushuncha kategoriyasini til tizimida namoyon etuvchisidir.

Akademik I.I.Meshchaninov tushuncha kategoriyasiga oydinlik kiritadi. Uning fikricha, tilda ifodalananotgan har qanday narsani tushuncha kategoriyasi deb bo'lmaydi. Tushuncha kategoriyalari tilning turli sathlarida, turli vositalar orqali ifodalani-sh imkoniyatiga ega bo'lgan tushunchalardir. I.I.Meshchaninovning tushuncha kategoriyasi g'oyasi asosida keyinchalik tilshunoslikda "mazmuniy maydon", "funktsional-semantik maydon", "paradigmatik yoki sintagmatik maydon", "leksik-semantik maydon", "leksik-semantik guruh", "mikromaydon", "makromaydon" kabi tushunchalar vujudga keldi.

Kontsept til vositalari, leksik-semantik paradigmatlar orqali namoyon bo'ladi, ya'ni kontseptning umumiy mazmunini bir markazga birlashgan semantik maydon hosil qiluvchi leksik birliklar tashkil etadi. Bu maydonga kiruvchi leksik birliklar ma'nosiga ko'ra bir-biri bilan uzviy aloqada bo'ladi.

Xulosa. Xullas, kontsepttushunchasi o'zida mantiqshunoslik, psixologiya, tilshunoslik va bilish nazariyasi fanlarining o'zaro bog'liqligi, hamkorligini aks ettiradi. Aniqrog'i, kontsept ko'p qirrali, integrativ, ya'ni logik – lingvistik – gnoseologik termin hamdir. Kontsept tafakkur birligi hisoblanib, uning asosida tushuncha, ma'no va obraz yotadi hamda u bilim umumlashmasi yoki "kvanti" deb ataladi. Uyuksak darajadagi mazmuniy umumiylikka ega. Kognitiv lingvistika, tilni inson tafakkuri va ong bilan bog'liq holda o'rganish orqali tilning

psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarini tadqiq qiladi. Ushbu soha, psixolinguistika, antropolinguistika, etnolinguistika va sotsiolingvistika kabi yo'nalishlar bilan integratsiyalashgan holda, til va fikrlash o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Maqolada kognitiv lingvistikaning asosiy vazifalari, masalan, til orqali bilim olish, saqlash va uzatish jarayonlari muhokama qilingan. Inson tafakkuri va til o'rtasidagi o'zaro ta'sir, kognitiv strukturalar va intensivlikni ifodalovchi so'zlarning ahamiyati ko'rsatilgan. Kognitiv yondashuv orqali tushunchalar, konseptlar va freymlar yordamida tillarning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini aniqlash

jarayoni ta'kidlangan. Maqola, shuningdek, tushuncha va konsept o'rtasidagi farqni, ularning til va tafakkurdagi o'rnini, shuningdek, kognitiv lingvistikadagi yangi yo'nalishlarni ko'rsatadi. Bular orasida kognitiv fonologiya, kognitiv grammatika va kognitiv semantika kabi sohalar mavjud bo'lib, ular tilni yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Natijada, kognitiv lingvistikada zamonaviy tilshunoslikda muhim rol o'ynaydi va tilning ijtimoiy va madaniy jihatlarini o'rganishdagi usullarni kengaytirishga xizmat qiladi. Bu yo'nalish, til va inson tafakkuri o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqur anglashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive Linguistics. – Tashkent, VneshInvestProm, 2018
2. Abduazizov, A. (2019). Til va tafakkur: Kognitiv yondashuv. Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti.
3. Safarov, Sh. (2018). Kognitiv lingvistik va uning asosiy tushunchalari. Tashkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
4. Кубрякова Е. С. Краткий словарь когнитивных терминов. М., 1996. 245 с
5. Мещанинов И. И. Понятийные категории в языке. М., 1945. №1.
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.
7. Langacker, R. W. (1987). Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 1. Stanford: Stanford University Press.
8. Croft, W. (2001). Radical Construction Grammar: Syntactic Theory in Typological Perspective. Oxford: Oxford University Press.
9. Talmy, L. (2000). Toward a Cognitive Semantics. Cambridge: MIT Press.
10. Gumperz, J. J., & Hymes, D. H. (1972). Directions in Sociolinguistics: The Ethnography of Communication. New York: Holt, Rinehart and Winston.



Dilrabo HASANOVA,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: hasanovadilrabo11@gmail.com,

FarDU professori, f.f.d. S.Mo'minov taqrizi asosida

MAQTOV VA FATIK MULOQOT HAQIDA QARASHLAR

Annotatsiya

Milliy adabiyotda kompliment va maqtoV nutqiy aktlari kam o'rganilgan bo'lib, tushunchalarning o'zi yetarli darajada aniq chegaralanmagan. MaqtoVning yana bir ta'rifi "yoqimli so'zlar". Ushbu ta'riflarga asoslanib, maqtoV va xushomad nutqiy aktlarini ajratib bo'lmaydi. Ushbu maqolada maqtoV va fatik muloqotning o'zaro farqli jihatlarini qo'llanish o'rinlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Muloqot odobi, nutqiy etiket, fatik muloqot, maqtoV, iltifot, kompliment, xushomad.

PRAISE AND FATIC COMMUNICATION VIEWS

Annotation

In national literature, speech acts of compliment and praise have been insufficiently studied, and the concepts themselves are not adequately defined. Another definition of praise is "pleasant words." Based on these definitions, it is difficult to distinguish between speech acts of praise and flattery. This article discusses the differences between praise and phatic communication in terms of their usage contexts.

Key words: Communication etiquette, speech etiquette, phatic communication, praise, compliment, flattery.

ВЗГЛЯДЫ НА ПОХВАЛУ И ФАТИЧЕСКОЕ ОБЩЕНИЕ

Аннотация

В национальной литературе речевые акты комплимента и похвалы мало изучены, сами понятия недостаточно четко разграничены. Еще одно определение похвалы - "приятные слова." Исходя из этих определений, невозможно различить речевые акты похвалы и лести. В данной статье рассматриваются различия между похвалой и фатическим общением, а также контексты их применения.

Ключевые слова: Коммуникативный этикет, речевой этикет, фатическое общение, похвала, комплимент, лесть.

Kirish. Til sohibi – so'zlovchi shaxs omilini har tomonlama tadqiq etish tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishiga olib keldi. XX asrning 2-yarmidan boshlab shakllangan kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, lingvopragmatika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, neyrolingvistika kabi yo'nalishlar antropotsentrik tilshunoslikning mustaqil sohalari sifatida rivojlanib bormoqda.

Matn yaratilishining antropotsentrik talqini, asosan, kognitiv va psixolingvistik tadqiqotlarda o'z aksini topdi. Kognitiv nuqtayi nazarga ko'ra, matn – mental tuzilmaning tilga transformatsiyasi bo'lib, butundan qismga qarab harakatlanuvchi yaxlit tuzilmaning verbal ko'rinishidir. Kognitiv yondashuv matn yaratilishini "muallif – matn – matndan tashqaridagi voqelik" tamoyili asosida tahlil etishni taqozo etadi. Bunda matnni so'zlovchi (yozuvchi) maqsadining ifodasi, nutq yaratilishi mahsuli, tushunish obyekti hamda tushunish mahsuli sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan matn yaratish va uning mazmuniy persepsiyasi individning nutqiy tafakkuri mahsuli, obyektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Bunda matnning shakli va mazmunini tadqiq etishda muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – konkret shaxsning psixologik xususiyatlari ham e'tiborga olinadi.

Metodologiyasi. Nutq aktlari nazariyasi muammolari bilan shug'ullangan olim N.D.Arutyunova esa maqtoV va xushomadni nutq aktlarining bir turiga – axborot yetkazish emas, balki muloqot qilish maqsadiga ega bo'lgan fatikga kiritadi. Xuddi shu nuqtayi nazarni I.G.Dyachkova va T.V.Shmeleva ham qo'llab-quvvatlaydilar.

Nutqiy etiket masalalarini tadqiq etgan N.I.Formanovskaya maqtoV va iltifotni "ma'qulloVchi nutqiy aktlar" guruhiga kiritadi va maqtoVning iltifotdan farqi shundaki, u suhbatdoshning xatti-harakatini tavsiflaydi [1].

Iltifot va maqtoV nutqiy aktlari muammosiga murojaat qilgan tadqiqotchilardan biri M.Yu.Fedosyukdir. Muallif o'z ishida iltifot va maqtoVni farqlashdagi qiyinchiliklarni ko'rsatib, ushbu nutqiy aktlar o'zining rasmiy xususiyatlariga ko'ra bir-biriga mos keladi, degan nuqtayi nazarni ilgari suradi [2].

I.V.Pankratov xushomad va maqtoVga quyidagicha ta'rif beradi: xushomad - bu har bir kishi o'zida ko'rishni istagan qadr-qimmatni biroz bo'rttirishdir; maqtoV – bu suhbatdoshning fazilatlarini ijobiy baholashdir. Shuningdek, u maqtoVning xushomaddan farqlanishiga e'tibor qaratadi, uning fikricha, bu quyidagicha: "xushomad qilish shaxsning ijobiy fazilatlarini haddan tashqari bo'rttirishni, ko'pincha yo'q fazilatlarini tirkashni anglatadi; xushomad esa bunga yo'l qo'ymaydi, u faqat bilvosita odamda bir qator ijobiy fazilatlarining mavjudligini ko'rsatadi" [3].

Yu.G.Tamberg maqtoVning xushomaddan farqini quyidagicha ko'radi: "Xushomad – ikkiyuzlamachilik, xushomadgo'ylik maqtoVdir. Kompliment insonga nisbatan xayrixohlikni aks ettiradi, xushomad esa ko'nglini olish, aldash maqsadida qilinadi" [4].

Kompliment – bu suhbatdoshning ijobiy hissiy reaksiyasini shakllantirishga qaratilgan ma'qulloVchi fatik nutqiy akt bo'lib, baholashning subyektivligi, suhbatdoshning fazilatlarini biroz bo'rttirishning mavjudligi va yuqori emotsionalligi bilan ajralib turadi. Kompliment odatda suhbatdoshning fatik reaksiyasini nazarda tutadi.

MaqtoV – bu ma'qulloVchi axborot nutqiy akt bo'lib, predmetli maqsadga ega va obyektivlik, asosan, qisqa ifoda shakli va standartlik bilan tavsiflanadi. MaqtoV odatda reaksiyani nazarda tutmaydi.

MaqtoV va iltifot o'rtasida aniq chegara yo'q, chunki maqtoV ma'lum sharoitlarda iltifot xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin. MaqtoV baholashning a'lo darajasidan yoki haddan tashqari shaklidan foydalanilganda yuqori darajada hissiy bo'lishi

munim. Agar suhbatdosh maqtovga javob berishga ehtiyoj sezsa, demak, u maqtovni maqtov sifatida qabul qiladi.

Kompliment va maqtov nutqiy aktlari tegishli lingvomadaniy birlikning mental va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim milliy o'ziga xoslikka ega. Milliy o'ziga xoslik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1) turli muloqot madaniyatlarida xushomad va maqtov nutqiy aktlari turlarining farqlanishi,

2) ma'lum bir xushomad va maqtov turlarini qo'llashning turli chastotasi,

3) xushomad va maqtov nutqiy aktlarining ekvivalentsiz turlari mavjudligi,

4) turli muloqot madaniyatlarida xushomad va maqtovga munosabatlarning farqlanishi.

Rus, o'zbek va inglizlarning baholovchi kommunikativ tafakkuri sezilarli darajada farq qiladi. Ruslar va o'zbeklar ma'qullash nutqiy aktlarida, asosan, insonning tashqi kuzatiladigan belgilarini baholaydilar, inglizlar uchun esa, asosan, shaxsning ichki fazilatlarini baholash xosdir; o'zbeklar ham, ruslar ham maqtovlarda, asosan, insonning individualligini, inglizlar esa – mehribonlik, ta'sirchanlikni ta'kidlaydilar; o'zbek va rus muloqotida hissiy maqtovlar ustunlik qiladi, ingliz tilida esa – oqilona.

Maqtov va fatik muloqotni bir-biridan ayro tasavvur etish mumkin emas. Dissertatsiyamizning ushbu faslida bu ikki tushunchaning bir-biriga uzviy aloqadorligini psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil va tadqiq etishga harakat qilamiz. Har qanday inson, jumladan, erkak kishi dunyoga kelgan chog'ida "go'dak" deb atalgani kabi, maqtovning "bolaligi"ni "erkalash" deb ataymiz. Qarangki, bu so'zning o'zagi ham "er"dir. Zero, chaqalog'ining "er bo'lib yetishishini istagan ota-ona uni go'daklik chog'idan erkalab katta qiladi. Shuning uchun hadisda ham: "Kimning yosh go'dagi bo'lsa, unga go'daklaricha qiliq qilib erkalatsin!" – deyilgan.

The study found that the dialogical exchanges between Janie and other characters play a pivotal role in shaping her character arc. Through her interactions with Logan Killicks, Joe Starks, and Tea Cake, Janie's voice becomes progressively stronger and more assertive. The dialogues reflect her journey toward self-empowerment, with each relationship offering contrasting dynamics that challenge or reinforce her evolving sense of identity. For example, the sparse and utilitarian dialogues with Logan emphasize Janie's emotional distance and dissatisfaction, while the often one-sided conversations with Joe illustrate her struggle against male domination. In contrast, her dialogue with Tea Cake reflects a more balanced and authentic exchange, symbolizing her attainment of emotional freedom and equality.

The analysis identified multiple layers of polyphony within the text, where diverse voices - each representing different social, cultural, and gender perspectives - coexist and interact. The voices of the community in Eatonville, for instance, often act as a chorus that comments on Janie's life and choices. These collective dialogues are rich with humor, criticism, and gossip, and serve as a social mirror that Janie navigates. Hurston's portrayal of the community's voice, with its blend of AAVE and oral storytelling traditions, further reinforces the idea of dialogue as both a social and narrative tool.

Hurston's use of AAVE in dialogue was found to be a key element in the novel's dialogical structure. The use of vernacular not only grounds the characters in their cultural and social context but also challenges mainstream literary conventions of the time. AAVE amplifies the authenticity of the characters' voices and situates the novel within the African American oral tradition. The analysis showed that Hurston's strategic shifts between AAVE in dialogue and more standard English in the third-person narrative voice create a dynamic interplay, reflecting the tensions between individual expression and societal norms. This linguistic duality enhances the polyphonic nature of the novel, allowing it to transcend a single, monolithic narrative voice.

The results also indicate that Hurston's dialogical structure contributes significantly to the novel's major themes of

gender, power, and identity. Janie's dialogues with male characters are often framed by power struggles, whether through Joe Starks' control over her speech or Tea Cake's more egalitarian communication. Through these interactions, Hurston highlights the intersection of gender and voice, showing how Janie's journey is not just about finding love but about reclaiming her right to speak and be heard. The dialogical structure thus mirrors the thematic focus on self-expression and autonomy, as Janie learns to assert her voice in both private and public spaces.

The results of this study demonstrate that Hurston's use of dialogue in "Their Eyes Were Watching God" is intricately tied to character development, thematic exploration, and cultural representation. Through a complex interplay of voices, both spoken and internal, Hurston creates a narrative that not only reflects Janie's personal journey but also engages with broader social and linguistic dynamics. The dialogical structure, with its blend of AAVE and standard English, its use of polyphony, and its nuanced treatment of silence, stands as a central element in the novel's literary and thematic richness.

Discussion. The dialogical structure in Zora Neale Hurston's "Their Eyes Were Watching God" serves as a crucial element in both the narrative form and thematic depth of the novel. By engaging with Mikhail Bakhtin's concept of dialogism, it becomes evident that Hurston creates a polyphonic text where multiple voices interact, negotiate, and often conflict, reflecting the complexities of identity, power, and gender within the African American community. This section discusses the broader implications of Hurston's use of dialogue and dialect, linking the novel's structural elements to its engagement with cultural and social dynamics.

Dialogism and Polyphony in the African American Context

Hurston's use of dialogism is particularly resonant in the African American cultural context, where oral traditions play a vital role in storytelling and communal identity. The novel's polyphony - represented by the voices of Janie, her three husbands, the Eatonville community, and the omniscient narrator - creates a vibrant, multi-dimensional narrative. These voices, with their distinct perspectives, contribute to a dynamic dialogue that reflects the collective and individual struggles for self-expression.

Gender, Power, and Voice. The dialogical structure of the novel is also central to its exploration of gender and power dynamics. Throughout Janie's three marriages, her voice is shaped by the varying degrees of control her husbands exert over her. In her first marriage to Logan Killicks, dialogue is minimal and utilitarian, reflecting Janie's emotional detachment and the lack of communication in their relationship. Her second marriage to Joe Starks is characterized by silenced dialogue—Joe frequently dominates conversations, leaving Janie voiceless in public. This suppression of Janie's voice mirrors the broader societal expectations of women during the time, particularly Black women, who were often denied autonomy and self-expression.

The Power of Silence in Dialogue

The study of the dialogical structure in "Their Eyes Were Watching God" also reveals the significance of silence within the text. Hurston uses silence as a narrative device to underscore moments of oppression, resistance, and emotional complexity. In Janie's marriage to Joe Starks, for example, silence becomes a form of protest. Although Janie is frequently silenced by Joe's dominance, her refusal to speak at key moments represents her internal resistance to his control. Silence, in this context, becomes a powerful counter-dialogue that subverts traditional expectations of communication and power.

Furthermore, Hurston's use of dialogue as a means of exploring gender dynamics provides valuable insights into the ways in which Black women writers have navigated the intersections of race, gender, and power. Janie's journey toward self-empowerment through dialogue reflects a broader feminist discourse that advocates for women's voices to be heard and respected. The novel's dialogical structure, therefore, not only enriches its narrative complexity but also serves as a powerful

statement on the importance of voice in the quest for personal and social liberation.

Conclusion. The dialogical structure of “Their Eyes Were Watching God” is a foundational aspect of its literary artistry. Through a careful orchestration of dialogues, dialects, and silences, Hurston crafts a narrative that is deeply embedded in African American oral traditions while also engaging with universal themes of voice, identity, and autonomy. The novel’s

dialogism reflects the multiplicity of perspectives and experiences within the African American community, while also providing a nuanced exploration of gender dynamics and power relations. Ultimately, Hurston’s use of dialogue serves not only as a narrative technique but as a vehicle for social commentary, making “Their Eyes Were Watching God” a groundbreaking work in both form and content.

REFERENCES

1. Bakhtin, Mikhail. “The Dialogic Imagination: Four Essays”. Edited by Michael Holquist, translated by Caryl Emerson and Michael Holquist, University of Texas Press, 1981.
2. Gates, Henry Louis, Jr. “The Signifying Monkey: A Theory of African-American Literary Criticism”. Oxford University Press, 1988.
3. Hurston, Zora Neale. “Their Eyes Were Watching God”. Harper Perennial Modern Classics, 2006.
4. Kubitschek, Missy Dehn. “Claiming the Heritage: African-American Women Novelists and History”. University Press of Mississippi, 1991.
5. Johnson, Barbara. “Metaphor, Metonymy, and Voice in Their Eyes Were Watching God.” In “Zora Neale Hurston’s Their Eyes Were Watching God: A Casebook”, edited by Cheryl A. Wall, Oxford University Press, 2000, pp. 143–160.
6. Meisenhelder, Susan Edwards. “Hitting a Straight Lick with a Crooked Stick: Race and Gender in Zora Neale Hurston’s Novels”. University of Alabama Press, 1999.
7. Smith, Valerie. “Self-Discovery and Authority in Afro-American Narrative”. Harvard University Press, 1987.
8. Wall, Cheryl A. “Women of the Harlem Renaissance”. Indiana University Press, 1995.

Nargiza SHIRINOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
E-mail:nargiza@mail.ru

PhD, dotsent X.Raxmatov taqrizi asosida

SOMPOSITION OF MANUSCRIPT SOURCES

Annotation

The article examines the structural composition of manuscript sources. Manuscripts form a significant part of cultural heritage, embodying historical, scientific, and literary information. The research analyzes the main components of manuscript structures, principles of their organization, and methods of study. Additionally, the article highlights the potential to identify the spirit of the era and the author's intent through manuscript structure.

Key words: Manuscript sources, structural composition, cultural heritage, manuscript study, historical sources, scientific research.

СОСТАВ РУКОПИСНЫХ ИСТОЧНИКОВ

Аннотация

В статье изучается структурное устройство рукописных источников. Рукописи представляют собой важную часть культурного наследия и содержат историческую, научную и литературную информацию. В исследовании анализируются основные компоненты структуры рукописей, принципы их построения и методы изучения. Кроме того, освещаются возможности определения духа времени и авторского замысла через структуру рукописей.

Ключевые слова: Рукописные источники, структурное устройство, культурное наследие, изучение рукописей, исторические источники, научное исследование.

QO'LYOZMA MANBALARNING TARKIBIY TUZILISHI

Аннотация

Maqolada qo'lyozma manbalarining tarkibiy tuzilishi o'rganiladi. Qo'lyozmalar madaniy merosning muhim qismini tashkil etadi va ular tarixiy, ilmiy, adabiy ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. Tadqiqotda qo'lyozmalar tarkibining asosiy qismlari, tuzilish prinsiplari hamda ularni o'rganish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, qo'lyozmalarining tuzilmasi orqali davr ruhini va muallifning maqsadini aniqlash imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Qo'lyozma manbalar, tarkibiy tuzilish, madaniy meros, qo'lyozmalarni o'rganish, tarixiy manbalar, ilmiy tadqiqot.

Kirish. O'zbek mumtoz adabiyoti necha asrlardan buyon ma'naviy xazinamizni, tafakkurimizni shoh asarlari bilan yuksaltirib kelmoqda. Bugungi kunda milliy adabiyotimiz namoyandalari adabiy merosini birlamchi manbalar orqali o'rganish, ularni matnshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fanlari mumtoz adabiy merosimizni tiklab, adabiyot muhblariga yetkazishda samarali natijalarga erishayotgani quvonarli holdir. Zero, "Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega". Prezidentimizning ushbu fikrlari asosli ekanligining isboti sifatida biz ham ushbu maqolamizda qo'lyozma manbalarining tarkibiy tuzilishi haqida fikr-mulohazalar yuritdik. Qo'lyozmalarda qo'llaniladigan atamalarga izoh berishga harakat qildik. Shuni ta'kidlash joizki, kitoblar qo'lda ko'chirilgani tufayli,

matnshunoslik nuqtayi nazaridan olib qarasa, ularning yuzaga kelishida kotib (xattot) muallifdan keyingi ikkinchi asosiy shaxs hisoblanadi. Shuning uchun qo'lyozma kitob yaratilishida u o'ziga xos mavqega ega bo'lib, unga ko'ra matn originali ustida ishlab hukm chiqara olgan. Qo'lyozma manbalar haqida gapiradigan bo'lsak, qo'lda ko'chirilgan har qanday kitob ham kitobxonlarning talabiga javob beravermaydi. Kitob o'z mazmunidan tashqari shakli va bezatilishi bilan ham kitobxonga manzur bo'lishi, uning didi va talabiga javob berishi, ma'lum estetik zavq bag'ishlashi kerak. Binobarin, bir asarni ko'chirib kitob holiga keltirish - kitobat san'ati nomi bilan san'atning bir turiga aylangani ham bejiz emas. Turli davrlarda va turli joylarda yashagan bunday usta-san'atkorlarning o'z usuli va uslubi bo'lib, bu an'analar ustozdan shogirdga o'tib, davom etib boravergan. Samarqand va Buxoro shaharlari o'rta asrlarda bu borada o'ziga xos maktab yaratganlar.



Endi qo'lyozma manbalarining tuzilishi, ularning tashqi va ichki hududini belgilaydigan tarkibiy qismlar haqida iloji boricha batafsil o'xtalamiz. Odatda, qo'lyozma manbalarining avvalgi

sahifasiga yorug'lik sochib turgan quyosh tasviri naqsh etilib, naqsh o'rtasiga chiroyli xatda asar nomi yozilgan. Shams (<arab. شمس) deb atalgan rasm san'atining bu nafis turi ko'pincha noyob

kitoblarga ishlangan. Xalqaro kitobchilikda forzats deb nomlangan bu sahifaning atrofi gulli naqshlar bilan o'ralgan bo'ladi. Musavvirning mahoratiga qarab, shamslarning ishlanish uslubi ham farq qiladi: ular doira shaklida yoki rombagga moyilroq ko'rinishda aks etadi. Ba'zan shamsning ost va ust qismiga qo'sh naqshchalar ulanib, shamsdan taralayotgan nurlar ham turli-tuman naqshchalardan tashkil topadi. Ba'zi qo'lyozma kitoblar ilk sahifasining orqa tarafiga qorada chizilgan turli belgilarni uchratish mumkin. Bu tasvir buyurtmachining shaxsiy belgisi (ramzi) bo'lib, uni tug'ro deb ataladi. Tug'ro chizilgan sahifaga boshqa hech qanday bo'yoq yo suratlar berilmaydi. Tug'ro belgisi rasmiy hujjatlarning (masalan, yorliqning) boshlanishida ham kelishi mumkin. Bundan tashqari qo'lyozmalarda lavha ham qo'laniladi. Lavha (<arab. لوحة) – kitobning muqaddimasi, bob va qismlarning boshiga sahifaning eni bo'ylab solinadigan naqshdir. Naqshning markazidagi to'rtburchak ichiga bir yoki ikki ustunli she'riy matn yozilgan. To'rtburchakning yuqori va ost qismi turli kichik shakllardan iborat bo'lib, lavha tevaragi ko'pincha nur tasviri bilan o'ralgan. Alisher Navoiyning “Xazoyinul ma'oniyy” devonlari va “Xamsa” dostonlari qo'lyozmalarida bu rasm turi ko'p uchraydi.

Qo'lyozma manbalarning noyob nusxalariga kiritilgan asarlar ko'p hollarda unvon bilan ochiladi. Unvon avvalgi sahifaning uchdan bir qismiga zarhal rangda ishlangan bezakli naqsh bo'lib, naqsh o'rtasiga asar nomi yoki basmala (بسم الله) yozuvi bitiladi. Ayrim unvonlar faqat naqshdan iborat bo'lib, unvonning tepa qismida nurning taralishi aks ettiriladi. Agar qo'lyozma manbaning birinchi beti to'la zarhal rang bilan bezalgan bo'lsa, bu zarvaraq (<fors+arab. زرورق) deyiladi. Mazkur bezak ikki bet yuzini to'ldirgan bo'lsa, qo'shzarvaraq deyiladi. Kulliyot va majmualarda kitob tarkibidagi asarlarning har biriga alohida zarvaraq ishlanishi ham mumkin. Sharq qo'lyozmalarida sarlavhalar ham rangi va xati jihatidan asosiy matndan ajratib berilgani bois tashqi bezak sifatida e'tibor qilinishi mumkin. Sarlavha shams, lavha, unvon, jadval kabi nafis



Qo'lyozmaning xotima qismi (kolofon) eng so'nggi sahifada matn tugaganidan so'ng uchburchak shaklida ifodalangan. Xotimada kotibning ismi, qo'lyozmaning ko'chirilish sanasi hamda matni ko'chiruvchi kotibning o'z haqqiga so'ragan xayrli duosi aks etgan. Qo'lyozma manbalarning deyarli barchasida kolofon bo'ladi. Uni kotibning o'ziga xos hujjati deyishimiz ham mumkin.

Sharq kitobchiligida kitob muqovasi ham o'ziga xos san'at asari darajasiga ko'tarilgan. Lekin bizgacha yetib kelgan qo'lyozma kitoblarning hammasida ham asl muqova saqlangan emas, ular ta'mir jarayonida kartondan qayta ishlangan. Kitobat tarixini o'rganishda original muqovalar qadrlidir. Qadimiy kitob muqovalari odatda charm, yog'och yoki kartondan ishlangan. Ba'zi muqovalar kartondan ishlanib, ustiga charm qoplangan. Ayrimlarining ustiga mato g'ilof tortilgan. Muqovaning yuziga ishlangan naqshlari bo'rtma, uyma yoki sidirg'a yuzli bo'lgan. Muqovalar holatiga qarab manbaning qanday holatda saqlanganini yoki qanchalik qadimiyligini bilishimiz mumkin.

XV-XVI asrlarda ishlangan kitoblardagi muqova tamg'asi ancha yirik bo'lib, katta sathni egallagan. Ayrim muqovalarda gul va o'simliklar orasiga qush va hayvonlar tasviri chizilgan. Muqova yuzidagi tamg'a yo naqshlar ichiga uni tayyorlagan

naqshinkor rasmlar orqali ifodalanib, kitob ko'rkini oshiradi. Odatda devonlarning noyob nusxalarida she'rlarni bir-biridan ajratish uchun doirachalar chiziladi. Doiracha oddiy yoki naqshinkor bo'ladi.

Qo'lyozma kitoblarda jadval (<arab. جدول) sahifada matni joylashtirish prinsipi (matn ramkasi)dan ham foydalaniladi. Matnlar turli shakllarda – sidirg'a, ikki ustun, to'rt ustun, zina, romb, doira, qiya holda joylashtirilishi mumkin. Bu muayyan darajada bezak vazifasini o'tab, she'riy matnlarda, ayniqsa, ko'p qo'lanilgan. Zarhal jadvallar matni ajratish bilan birga, sahifaning chiroyini ham ta'minlaydi.

Qo'lyozma matn tevaragida bo'sh joy hoshiya deyiladi. Ba'zi kitoblarda hoshiya torroq, ba'zi kitoblarning matni ixcham bitilib, hoshiyasi kengroq bo'ladi. Qo'lyozma kitobning boshidan oxirigacha hoshiyalar bichimi bir xilda bo'lishiga amal qilingan. Jadvalsiz, oddiy matnlarda ham hoshiya qoldiriladi. Hoshiya qoldirilishining yana bir sababi, matni ortiqcha parokandalikdan saqlashdir. Qog'ozning tevaragi chirib tushganda ham matnga yetib bormaydi. Ba'zi qo'lyozma kitoblarda hoshiyadan ham unumli foydalanilgan. Asosiy matnda tushib qolgan so'z va jumlar ham hoshiyaga yozib qo'yiladi.

Hozirgi kunda betlarni tartiblash uchun raqamlardan foydalanilayotgan bo'lsak, qo'lyozma manbalarda bu vazifa poyg'irlar orqali amalga oshirilgan. Poygir har bir varaq tugagach, keyingi varaqqa o'tishdan oldin qo'yilgan. Bunda avvalgi varaqning pastiga keyingi sahifada davom etuvchi matnning boshidan bir-ikki so'zi qiyalatib yozib ketilgan. Qo'lyozma matnini o'rganishda poyg'irning ahamiyati katta. Chunki, poygirga qarab kitob sahifalarining to'liqligi aniq bo'ladi. Yangi sahifaning birinchi satri avvalgi varaqdagi poygirga to'g'ri kelmasa, qo'lyozmaning varaqlari yo'qolgan yoki keyinchalik ta'mirlash jarayonida varaqlar chalkashtirib yuborilgan bo'ladi. Shuningdek, qo'lyozmada poygir uzilib qolishi xam mumkin. Bunday holda ham varaqlar tartibi buziladi.

sahhofning nomi ham yozilgan. Kitobning o'ng va ters qismidagi muqova varaqlari toqa deyiladi (o'ng toqa va chap toqa). Toqalarni birlashtirib turuvchi kitobning yon qismi tayaki deyiladi. Muqovani urinib qolishdan saqlaydigan kitob burchagida charmdan ishlangan ochqich labaki deyiladi. Sahifa bo'laklarini birlashtirib turuvchi ipaklik sheroza deb ataladi. Bular hammasi birgalikda qo'lyozma muqovasini hosil qiladi. Va mukammal muqova yaratishda har biri alohida ahamiyatga ega.

Qo'lyozma kitoblarning bosh va oxirgi betlari hoshiyasida turli muhrlarni uchratish mumkin. Bodomsimon yoki dumaloq shakldagi ushbu muhrlar kitob egasi yoki saqlovchisiga tegishli bo'lib, muhrda ularning ismi-sharifi yozilgan. O'tmishda muhr tayyorlash san'at darajasiga ko'tarilgan. Muhr yasovchi ustalar muhrkash deb nomlangan. Qo'lyozma manbalarni tayyorlashda kitoblarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Kotib (<arab. كاتب) – xat bituvchi, kitob bituvchi. Ayni ma'noda xattot (<arab. خطاط) atamasi ham qo'laniladi. Lekin xattot – “xat ustasi; chiroyli xat bituvchi”; kotib esa xat yoki kitob bituvchi kasb egalarining umumiy nomidir, har qanday xat bituvchini kotib deyish mumkin.

Manbalarni yaratishda lavvoh ham muhim sanaladi. Lavvoh (<arab. لوح) – qo'lyozma kitob sahifalariga jilo beruvchi

usta, rassom. Xattot ko'chirgan matn rangdor chiziqliq jadval ichiga, hoshiyani esa qizil yoki havorang chiziq ichiga oladi. Qo'lyozmalarining ilk varaqlaridagi unvon yoki sarlavha deb atalgan bezakliq naqshlar bilan o'ralgan qismlarni xam lavvoh bajaradi. Lavvoh asar mazmunidan kelib chiqqan holda matn ko'chirilishidan oldin titullar sahifasi yonida bir yoki ikkita lavha yaxlit rasm tayyorlaydi. Lavha o'ta jimjimador ishlanadi. Oltin suvi bilan unga gul va yaproqlar rasmi, shuningdek, geometrik naqshlar solinadi. Lavvohning mehnati tufayli qo'lyozma manba yanada nafis tus oladi. Sharqda ma'naviyat bilan bog'liq hodisalarga alohida hurmat bilan yondashilgan. Kitob shunday hodisalardan biridir. Kitob o'z ichiga olgan yozuv, matn ma'naviy boyligni tashuvchi vosita sifatida e'zozlangan. Hatto yozuv qurollariga nisbatan munosabat butkul o'zgacha bo'lib, ularni ulash, tutish va saqlash izchil qoidalar asosida ado etilgan, bora-bora bu qoidalar mustahkam an'anaga aylanganib borgan. Shu an'ana zaminida katta bir madaniyat maydonga kelgan. Shuning uchun xoh kitobni bituvchi, tuzuvchi, ko'chiruvchi tomonidan bo'lsin, xoh o'quvchi tomonidan bo'lsin, kitobga nisbatan ehtiyotsiz munosabat ayb deb hisoblangan va madaniyatsizlik sanalgan.

Kitobat sohasida odobi tasnif yoki odobi ta'rif deb atalmish umumiy ma'noda, asarning dunyoga kelishi jarayonida amal qilinishi kerak bo'lgan, xosroq ma'noda, kitobning ichki tuzilishi bilan bog'liq qoida va talablar mavjud. Qaysi mavzuda yozishidan qat'i nazar, ijodkor shaxs mavzu bo'yicha muayyan tayyorgarlikka ega bo'lishi, bilganlariga amal qilishi yoki o'zi amal qiladigan ishni aytishi odobi tasnifning ruhiy-e'tiqodiy talablaridan biridir. Negaki, mumtoz adabiyotimizning poydevori e'tiqodiy maslak ustiga qurilgan. Demak, ijodkor ham, u taqdim qilayotgan matn ham ayni maslak taqozosiga ko'ra o'z mavjudligini namoyon etgan. Qo'lyozma manbalar odatda basmala bilan boshlangan. *بِسْمِ اللّٰهِ الرَّحْمٰنِ الرَّحِیْمِ*, "Mehribon va rahimli Ollohning nomi bilan boshlayman" kalimalari bilan ochilgan. Basmala deb nomlanadigan bu kalima odobi tasnif qoidasiga ko'ra barcha asarlarda asosiy matn boshlanishidan avval arab tilida berilgan. Basmaladan keyin esa, qat'iy ravishda hamd (حمد) bilan boshlangan. Hamd – faqat Olloh taolo uchun xoslangan maqtov bo'lib, bu maqtovning mohiyati Yaratuvchini ulug'lash va yolg'iz Yaratuvchigina haqiqiy maqtovga munosib Zot ekanini e'tirof etishdan iborat bo'ladi. Hamd asosan Olloh taoloning ism va sifatleri ma'nolarini bayon etish bilan izhor etiladi. Shuningdek, adiblik salohiyatiga ko'ra hamdlar asar (bob, fasl) ning mazmunidan kelib chiqib ham bayon etilishi mumkin. Navoiy asarlarida bu hol ko'p kuzatiladi. Masalan, "Hayratul abrор"ning ikkinchi bo'limi shunday boshlangan:

اول خالق حمدیكم مخلوقات تصویریغه انینك قلم صنع چهره کشا دورور و
...مصنوعات تحریریغه انینك خامه حکمتی جمال افزا

Mavzu to'la ravishda Olloh taoloning yaratuvchiligiga bag'ishlangani uchun mazkur bob *خالق* – "Yaratuvchi" sifatiga hamd aytish bilan ochilgan. Hamdda kelgan xoliq, maxluqot, tasvir, sun', masnu'ot kabi so'zlarning barchasi yaratish fe'li bilan bog'liq tushunchalardir

Hamddan keyin esa, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomni eslab, u zotga solavot aytish mumtoz adabiyotimizdagi qat'iy qoidalardan biridir. Adabiy matnlardagi bunday bag'ishlovlarga na't, sano, durud degan nomlar berilgan. Insoniyat tarixida hayotining barcha jihatleri eng kichik nuqtalarigacha butun tafsilotlari bilan qayd etib borilgan va hech o'zgarishsiz bugungi kunlargacha saqlangan yagona shaxs Muhammad alayhissalomdir. Bu insonning ismi zotiga to'la muvofiq ekani o'sha zamonlardan to bugungacha uzluksiz silsila bilan bog'langan tarixiy hujjatlarda tamoman aks etgan. Tarixiy hujjatlarning ishonchligi rad qilib bo'lmas ilmiy dalillar bilan isbotlangan. Shu sababdan, sog'lom mantiq izmida yashagan ajdodlarimiz Muhammad ismi taqozo qilgan ma'noni qavatmaqavat ochish bilan kitob muqaddimasini ziynatlaganlar. Ahzob surasining 56-oyatida Olloh taolo deydi: "Albatta Olloh ham, Uning farishtalari ham Payg'ambarga duo-yu solavot ayturlar. Ey mo'minlar, sizlar ham u zotga solavot va salom aytinglar!"

Odobi tasnif qoidalaridan yana biri hamd va na'tdan so'ng kitobning yozilish sababini bayon qilish bo'lib, bu sababi ta'rif deyiladi. Masnaviy yo'lida bitilgan doston, noma kabi mustaqil asarlarda odobi tasnif qoidasiga ko'ra kitobning dunyoga kelishiga turtki bo'lgan omillar, ba'zan muallif do'stlaridan birining iltimosi sabab qilib ko'rsatiladi va ayni o'rinda asarning nomi zikr qilinadi. Quyida mumtoz adabiyotimizdan bu hodisaga misol keltiramiz.

Yusuf Amiriyning "Dahnoma" asari "Dar sababi nazmi kitob" bo'limi shunday boshlanadi:

منگا بیر دوستی بار ایردی جانی
کونکولده محری انینک
بولوقتی بر کون کورگوزدی تکلیف
که کیتورگیل بو کون اویوما
...جاودانی
تشریف

Mumtoz so'z ustalari o'z asarlarida bu bo'limni turlicha nomlagan bo'lsalar-da, maqsad bitta – kitobning dunyoga kelishiga turtki bo'lgan sabablarni bildirish bo'lgan. Sababi ta'rifdan so'ng madh (مدح) bo'limida asar bag'ishlangan shaxsning ta'rif-tavsifi o'rin oladi. Bulardan tashqari, mumtoz adabiyotda sarlavhalar ham qo'lyozmalar tarkibiy tuzilishining bir qismi bo'lib, bob, fasl, qismlar mundarijasidan xabardor qilish bilan birga, ularga poetik vazifa ham yuklatilgan.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, yuqorida keltirganlarimiz poygir, kolofon, lavh, muqova, shams, unvon, basmala, hamd, nat va boshqalar bir bo'lib, qo'lyozma manbalarining tarkibini tashkil qiladi. Va natijada mukammal qo'lyozma manba hosil bo'lishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021 йил. – Б. 33
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000
3. A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. Toshkent, 2000
4. M.Rahmonqulova. "O'rta Osiyoda muqovozozlik tarixi" mavzusidagi dissertatsiya avtoreferati, Toshkent, 2020.
5. R.Zohid. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik. O'quv qo'llanma T.: Yashil yaproq nashr-matbaa uyi, 2023
6. Sh.Sirojiddinov. "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik" Toshkent, 2018



Maftuna ELMIRZAYEVA,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: maftunaelmirzayeva7@gmail.com

PhD, dotsent B. Qurbonova taqrizi asosida

THE INTERRELATIONSHIP OF LINGUISTIC FEATURES AND COMPARATIVE PRINCIPLES IN TRANSLATING SOCIAL PROTECTION TERMINOLOGY

Annotation

This article is devoted to the study of comparative principles and specific linguistic features of translating social protection terms into English and Uzbek. The article analyzes the linguistic and semantic features of the main terms in the field of social protection, studies the problems encountered in the process of translating them and their solutions. The article also presents ways to apply translation principles to accurately and accurately reflect the content. This study offers recommendations aimed at alleviating the complexities of the translation process of social protection terminology and provides important scientific results in the field of linguistics.

Key words: Social protection terminology, translation principles, comparative analysis, linguistic features, English and Uzbek languages, semantic analysis, translation problems.

IJTIMOYIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINI TARJIMA QILISHDA LINGVISTIK XUSUSIYATLAR VA QIYOSIY TAMOYILLARNING O'ZARO MUNOSABATI

Annotatsiya

Ushbu maqola ijtimoiy himoya terminlarini ingliz va o'zbek tillariga tarjima qilishning qiyosiy tamoyillari va o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ijtimoiy himoya sohasidagi asosiy terminlarning lingvistik va semantik xususiyatlari tahlil qilinib, ularni tarjima qilish jarayonida duch kelinadigan muammolar va ularning yechimlari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada mazmuni aniq va to'g'ri aks ettirish uchun tarjima tamoyillarini qo'llash yo'llari keltirilgan. Ushbu tadqiqot ijtimoiy himoya terminologiyasining tarjima qilish jarayonidagi murakkabliklarni yengillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni taklif etadi va tilshunoslik sohasida muhim ilmiy natijalar beradi.

Kalit so'zi: Ijtimoiy himoya terminologiyasi, tarjima tamoyillari, qiyosiy tahlil, lingvistik xususiyatlar, ingliz va o'zbek tillari, semantik tahlil, tarjima muammolari.

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ЯЗЫКОВЫХ ПРИЗНАКОВ И СРАВНИТЕЛЬНЫХ ПРИНЦИПОВ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ТЕРМИНОЛОГИИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ

Аннотация

Статья посвящена изучению сопоставительных принципов и лингвистических особенностей перевода терминов социальной защиты на английский и узбекский языки. В статье анализируются лингвистические и семантические характеристики ключевых терминов в сфере социальной защиты, изучаются проблемы, возникающие при их переводе, и пути их решения. В статье также представлены способы применения принципов перевода для точного и правильного отражения содержания. В настоящем исследовании предлагаются рекомендации, направленные на облегчение сложностей процесса перевода терминологии социальной защиты, а также приводятся важные научные результаты в области лингвистики.

Ключевые слова: Терминология социальной защиты, принципы перевода, сопоставительный анализ, лингвистические особенности, английский и узбекский языки, семантический анализ, проблемы перевода.

Kirish. Ijtimoiy himoya inson huquqlari va davlatning ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlashdagi muhim vositalardan biridir. Ushbu sohaga oid terminlar o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo'lib, ularni bir tilga tarjima qilish jarayonida mazmunning to'g'ri ifodalanishi muhim hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi lingvistik va semantik farqlar sababli ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ushbu maqola ijtimoiy himoya terminlarini ingliz va o'zbek tillari o'rtasida tarjima qilish tamoyillari, lingvistik xususiyatlar, va tarjima jarayonida duch kelinadigan muammolarni tahlil qilishga qaratilgan. Bugungi kunda ijtimoiy himoya terminologiyasi global miqyosda e'tibor qozongan bo'lib, xalqaro munosabatlar va huquqiy hujjatlar doirasida keng qo'llanmoqda. Shuning uchun, ushbu terminlarni tarjima qilish jarayonida mazmunning asliyatga maksimal darajada yaqin saqlanishi hamda tushunarli va dolzarb bo'lishi talab etiladi. Biroq, ingliz va o'zbek tillari orasidagi lingvistik farqlar, jumladan, morfologik va semantik xususiyatlar tufayli tarjimonlar ba'zan mazmuni to'g'ri aks ettirishda muammolarga duch keladi. Ijtimoiy himoya terminologiyasini o'zaro tarjima qilishda duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklar va ularni yengillashtirish uchun foydalaniladigan qiyosiy tamoyillar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ushbu sohadagi tarjima

amaliyotiga ilmiy asos va amaliy tavsiyalar berish orqali ushbu jarayonda sifatni oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoya inson huquqlari va davlatning ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlashdagi muhim vositalardan biridir. Ushbu sohaga oid terminlar o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo'lib, ularni bir tilga tarjima qilish jarayonida mazmunning to'g'ri ifodalanishi muhim hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi lingvistik va semantik farqlar sababli ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ushbu maqola ijtimoiy himoya terminlarini ingliz va o'zbek tillari o'rtasida tarjima qilish tamoyillari, lingvistik xususiyatlar va tarjima jarayonida duch kelinadigan muammolarni tahlil qilishga qaratilgan. Bugungi kunda ijtimoiy himoya terminologiyasi global miqyosda e'tibor qozongan bo'lib, xalqaro munosabatlar va huquqiy hujjatlar doirasida keng qo'llanmoqda. Shuning uchun ushbu terminlarni tarjima qilish jarayonida mazmunning asliyatga maksimal darajada yaqin saqlanishi hamda tushunarli va dolzarb bo'lishi talab etiladi. Biroq, ingliz va o'zbek tillari orasidagi lingvistik farqlar, jumladan, morfologik va semantik xususiyatlar tufayli tarjimonlar ba'zan mazmuni to'g'ri aks ettirishda muammolarga duch keladi.

Tadqiqot usullar. Ijtimoiy himoya terminologiyasini o'zaro tarjima qilishda duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklar va ularni yengillashtirish uchun foydalaniladigan qiyosiy tamoyillar haqida fikr yuritiladi. Maqola, shuningdek, ushbu sohadagi tarjima amaliyotiga ilmiy asos va amaliy tavsiyalar berish orqali ushbu jarayonda sifatni oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda qo'llaniladigan qiyosiy tamoyillar va lingvistik xususiyatlarni aniqlash uchun qiyosiy tahlil va lingvistik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida terminlarning ma'no va grammatik xususiyatlari, ularning ingliz va o'zbek tillaridagi o'rni va ifodalanishi o'rganildi. Shuningdek, ushbu terminlarni tarjima qilishda duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklar aniqlanib, qiyosiy tahlil yordami bilan ularni yengillashtirish yo'llari ko'rsatildi.

Qiyosiy Tahlil Metodologiyasi - ikki yoki undan ortiq til tizimlaridagi o'xshashlik va farqlarni o'rganish imkonini beradi. Ushbu usul ijtimoiy himoya terminlarini ingliz va o'zbek tillarida qanchalik samarali tarjima qilish mumkinligini baholashga yordam beradi. Maqola davomida qiyosiy tahlilning quyidagi jihatlari ko'rib chiqildi:

Semantik o'xshashlik va farqlar (terminlarning ma'no jihatidan ingliz va o'zbek tillarida qay tarzda ifodalanishi, ularning mazmuniy tafvutlari.)

Morfologik xususiyatlar (terminlarning tuzilishidagi o'xshashlik va farqlar, shu jumladan, terminlarni shakllantirishda har ikkala tilda ishlatiladigan morfemalar.)

Sintaktik o'xshashlik va farqlar (terminlarning jumlada ishlatilish holatlari va grammatik joylashuvi bo'yicha farqlari.)

Tadqiqotning nazariy asoslar. Ijtimoiy himoya terminologiyasining tarjima qilinishi haqida yetakchi mutaxassislar, jumladan, tarjimashunoslik va lingvistik tadqiqotlarda asosiy tamoyillar bayon etilgan. Bular quyidagilardan iborat:

Peter Nyumark va Yevgeniy Nida kabi tadqiqotchilarning asarlarida ekvivalentsiya nazariyasi o'z aksini topgan bo'lib, ushbu tamoyil turli tillardagi terminlarning birbiriga to'g'ri muvofiqligini ta'minlash uchun muhimdir. Ushbu nazariyaga ko'ra, mazmun va shakl o'rtasidagi muvofiqlik tarjimaning to'g'ri ekanligini belgilaydi. Peter Newmark va Yevgeniy Nidaning ekvivalentsiya nazariyasi tarjima jarayonida muhim tamoyillarni belgilaydi, bu esa tarjimada til va madaniyat o'rtasidagi ma'no va shakl muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ekvivalentsiya nazariyasi amaliyotda ko'pincha murakkabliklarga olib keladi, chunki turli tillar o'rtasidagi semantik va madaniy farqlar tufayli har doim ham to'liq ekvivalentlikni saqlab qolish mumkin emas. Masalan, ijtimoiy himoya terminlarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda, madaniy va kontekstual tafvutlar sababli, har bir terminning to'liq mazmuniy ekvivalentini topish qiyin bo'lishi mumkin.

Bu fikrga ko'ra, tadqiqotchi sifatida ekvivalentsiya nazariyasini qo'llashda dinamik va funksional ekvivalentsiya tamoyillarini ham qo'shishni muhim deb hisoblayman. Yevgeniy Nidaning dinamik ekvivalentsiya tamoyili, masalan, termini o'zbek tilida mantiqan va madaniy jihatdan tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali ma'no va ta'sirni saqlash, asl mazmunini aniq ifodalashga yordam beradi.

Sapir-Whorf gipotezasiga asoslangan bu nazariya turli tillar orqali ifodalangan mazmunlar o'zaro farqlanishini ta'kidlaydi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy himoya kabi murakkab mavzularni tarjima qilishda qo'llaniladi, chunki har bir til jamiyatning madaniy va tarixiy xususiyatlarini aks ettiradi. Sapir-Whorf gipotezasiga asoslangan lingvistik nisbiylik nazariyasi tarjimada har bir tilning madaniy va tarixiy xususiyatlarini aks ettirish muhimligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi sifatida, ushbu nazariya ijtimoiy himoya kabi murakkab va jamiyatga xos mavzularni tarjima qilishda alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd etishni zarur deb hisoblayman. Chunki, ijtimoiy himoya terminlari nafaqat til, balki u bilan bog'liq madaniy kontekstni ham ifodalaydi. Har bir xalqning ijtimoiy himoya tizimlari va tushunchalari o'ziga xos bo'lganligi sababli, tarjima jarayonida

faqatgina terminologik ekvivalentni topish emas, balki ushbu terminlarning madaniy o'zklarini ham saqlash kerak bo'ladi.

Bu nuqtai nazardan, lingvistik nisbiylik ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda yanada mos va tushunarli ekvivalentlar yaratishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi "welfare" yoki "social security" kabi tushunchalar o'zbek tilida oddiygina "ijtimoiy himoya" deb tarjima qilinishi mumkin, ammo mazmuni o'ziga xos tarzda farqlanishi mumkin. Shuning uchun tarjima jarayonida har bir tilning madaniy va tarixiy kontekstini hisobga olish, tarjimada mazmunni to'liq saqlash imkonini beradi va auditoriya uchun yanada mazmunli tushunchalarni yaratadi.

Yevgeniy Nidaning taklif etgan ushbu tamoyiliga ko'ra, tarjimada matnning dastlabki shakli emas, balki uning ma'no va ta'sir kuchi saqlanishi muhimdir. Dinamik ekvivalentsiya Yevgeniy Nida tomonidan taklif qilingan bo'lib, bu tamoyil tarjima jarayonida matnning yuzaki shaklini emas, balki uning ma'no va ta'sir kuchini saqlashni maqsad qilgan. Nida dinamik ekvivalentsiyaning asosiy vazifasi sifatida o'quvchiga matnning original tilni bilmasdan turib oson tushunishga imkon beruvchi tarjimoni yaratish ekanligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvda tarjimon matnning mazmunini aslga maksimal darajada yaqinlashtirish uchun kontekstga moslashtiradi.

Tadqiqotchi sifatida, ushbu tamoyil ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda alohida ahamiyatga ega deb hisoblayman, chunki mazkur terminlar faqat lingvistik emas, balki madaniy tushunchalarni ham o'zida mujassam etadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi ijtimoiy himoya sohasiga oid terminlarni tarjima qilishda mazmun va ta'sir kuchini saqlash ko'pincha original shakldan biroz uzoqlashishni talab etadi. Misol uchun, "social security" termini o'zbek tiliga tarjima qilganda, uni bevosita tarjima qilish o'rniga, o'zbek jamiyati uchun tushunarli va yaqinroq ta'sir ko'rsatadigan ekvivalentni tanlash dinamik ekvivalentsiya tamoyiliga mos keladi.

Shunday qilib, dinamik ekvivalentsiya tamoyilini qo'llash orqali tarjimonlar o'quvchilar uchun tushunarli va mazmunli tarjimoni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tadqiqot natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari ijtimoiy himoya terminlarini ingliz va o'zbek tillariga tarjima qilish jarayonida duch kelinadigan asosiy lingvistik muammolarni aniqlash va qiyosiy tahlil qilishga yordam berdi. Natijalarga asoslanib quyidagi asosiy jihatlar ajratib ko'rsatildi:

Lingvistik Xususiyatlar. Ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda morfologik va sintaktik farqlar muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilida keng tarqalgan ko'p komponentli terminlar o'zbek tilida ko'pincha bitta so'z bilan ifodalanadi yoki buning aksicha, qisqa terminlar kengaytirilgan tushunchalar bilan izohlanishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "unemployment benefits" termini o'zbek tilida "ishsizlik nafaqasi" kabi keltiriladi, bu esa terminning qisqarishiga olib keladi.

Semantik o'xshashlik va farqlar. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi semantik tafvutlar ayrim terminlarning mazmunini to'liq aks ettirishda qiyinchilik tug'diradi. Ingliz tilidagi ayrim ijtimoiy himoya tushunchalari o'zbek tilida ekvivalentga ega bo'lmasligi mumkin, bu esa tarjimaga kontekstual moslashuvni talab qiladi. Masalan, "welfare" termini tarjima qilishda uning keng qamrovli va ko'p ma'noli xususiyati tufayli "ijtimoiy himoya" bilan cheklanishi mumkin.

Dinamik Ekvivalentsiya Zarurati. Yevgeniy Nidaning dinamik ekvivalentsiya tamoyili asosida, ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda faqatgina yuzaki shaklga emas, balki matnning umumiy ta'sir va mazmuniga e'tibor qaratish samarali natija berdi. Ingliz tilidagi "Social security" kabi terminlar o'zbek auditoriyasiga ma'nosini aniq tushuntirish uchun kontekstga moslashtirildi. Dinamik ekvivalentsiya orqali o'zbek tilidagi ifoda yanada yaqinroq va oson tushunarli bo'ldi.

Madaniy Kontekstning Ahamiyati. Sapir-Whorf gipotezasiga asoslangan lingvistik nisbiylik nazariyasi ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Har bir terminning o'ziga xos madaniy va tarixiy kontekstini hisobga olgan holda, terminlarning asl mazmuni saqlab qolindi. Masalan, "public assistance" termini o'zbek tilida "davlat

yordami" sifatida ifodalanib, jamiyatdagi davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatni ham aks ettiradi.

Qiyosiy Tamoyillar Samarasining Ko'rsatilishi. Ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda qo'llanilgan qiyosiy tamoyillar yordamida aslyatga yaqinroq ekvivalentlarni topish osonlashdi. Bu esa terminlarning mazmunini buzmasdan, kontekstual va madaniy jihatdan tushunarli qilib ifodalash imkonini berdi. Ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda samarali yondashuvlarni belgilashda va ularni yanada aniqlashtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoya terminlarini ingliz va o'zbek tillariga tarjima qilishda qiyosiy tamoyillar va lingvistik nisbiylikning ahamiyatini yanada yoritib berdi. Bu mavzu madaniy kontekst va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi, ayniqsa ijtimoiy himoya kabi jamiyatga xos tushunchalar bilan ishlashda. Ma'lum bo'ldiki, ushbu sohada ekvivalentsiyani ta'minlash qiyin, chunki ijtimoiy himoya terminologiyasi madaniy va ijtimoiy kontekst bilan bevosita bog'liq. Bu tarjimonlardan terminlarning haqiqiy ma'nosini madaniy moslashuv orqali qayta yaratish talab qilinishini ko'rsatadi.

Inglizcha Termin	Ma'nosi Ingliz Tilida	O'zbekcha Tarjima	Izoh
Pension Scheme	Keksa yoshdagilar yoki mehnat faoliyatini yakunlagan shaxslar uchun mo'ljallangan nafaqa tizimi	Pensiya tizimi / Pensiya rejasi	"Tizim" so'zi qo'shilishi yordamning barqaror va davomiy xususiyatini ta'kidlaydi.
Social Housing	Iqtisodiy ehtiyojmand kishilarga mo'ljallangan ijtimoiy turar-joy	Ijtimoiy turar-joy / Davlat uy-joy dasturi	"Davlat uy-joy dasturi" shaklidagi kengaytirilgan tarjima kontekstual aniqlikni ta'minlaydi, chunki bu nafaqa uy-joyi, balki davlat yordamini ham ifodalaydi.
Income Support	Past daromadli oilalarga beriladigan yordam	Daromadni qo'llab-quvvatlash / Moddiy yordam	"Moddiy yordam" iborasi O'zbek madaniyatida keng ma'noda tushunarli bo'lib, yordamning daromad bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.
Healthcare Subsidy	Tibbiy xizmatlardan foydalanishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Tibbiyotga subsidiya / Sog'liqni saqlash uchun yordam puli	"Sog'liqni saqlash uchun yordam puli" ifodasi madaniy kontekstga yanada mos va tushunarli bo'lib, yordamning kinga va nimaga qaratilganini aniq ko'rsatadi.
Means-Tested Eligibility	Muayyan yordam yoki xizmatdan foydalanish uchun ariza beruvchining daromadi va ehtiyojlarini baholash jarayoni	Daromad asosida qo'llanilish / Ehtiyoj asosidagi yordam	"Ehtiyoj asosidagi yordam" ifodasi yordamning qanday asosda berilishini aniqroq ifodalaydi va ta'sir kuchini oshiradi.

Ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda dinamik ekvivalentsiya va lingvistik nisbiylik tamoyillarini qo'llash orqali mazmuni yanada aniqroq aks ettirish va o'quvchilar uchun tushunarli shaklga keltirishga yordam beradi. Har bir terminning madaniy va kontekstual talqini uning tarjimada ta'sir kuchini oshiradi, shu bilan birga mazmuni to'liq va aniq saqlashni ta'minlaydi.

Xulosa. Dinamik ekvivalentsiya tamoyili, terminlarni madaniy kontekstga mos ravishda moslashtirish imkoniyatini beradi va ushbu metod orqali tarjimada o'quvchilar uchun yanada tushunarli va yaqinroq ma'no hosil qilishga erishiladi. Shuningdek, Sapir-Whorf gipotezasiga asoslangan lingvistik nisbiylik tamoyili har bir tilning o'ziga xos madaniy va tarixiy

jihatlarini tarjima jarayonida aks ettirishni ta'kidlaydi, bu esa ijtimoiy himoya kabi murakkab tushunchalarni to'g'ri ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, ushbu tadqiqotning natijalari tarjimonlarga ijtimoiy himoya terminlarini tarjima qilishda samarali usul va yondashuvlarni taklif etadi. Mazmuni tushunarli, ta'sirchan va o'z madaniy kontekstiga mos ravishda aks ettirish orqali tarjimonlar mazkur sohaga oid terminlarni aniqroq va yaqinroq ifodalay oladilar. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot ijtimoiy himoya terminologiyasining tarjima jarayonida duch kelinadigan lingvistik va semantik qiyinchiliklarni yengish uchun ilmiy asos va amaliy tavsiyalarni beradi.

ADABIYOTLAR

1. Nida E. A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden: Brill.1964
2. Nizomova, M. B. Interpretation of the sociolinguistic aspect with the participation of pedagogical terms in communication. International Journal Of Literature And Languages, 4(05), 25-31.2024
3. Newmark, P. A Textbook of Translation. Prentice Hall.1988
4. Whorf, B. L. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. Edited by John B. Carroll. MIT Press.1956
5. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation (2nd ed.). Routledge.2011
6. Hatim, B., & Mason, I. The Translator as Communicator. Routledge.1997
7. G'ulomov M. Tilshunoslik va tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.2008



Mirmuxsin YULDASHEV,
Qo'qon DPI tayanch doktoranti
E-mail: yulmirmuxsin@gmail.com

DSc professor S.Zokirova taqrizi asosida

LEXICOGRAPHICAL STUDIES OF TERMS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

Terminology as a special field of knowledge is attracting increasing attention from researchers. This is explained by the international nature of modern scientific knowledge. The concepts of "term" and "terminology" have numerous definitions, and the ones they propose deserve special attention. In recent years, in the field of terminology, works of Uzbek linguists devoted to many aspects of the formation of terminology in one or another branch of knowledge are worth to pay attention.

Key words: Terms, interdisciplinary terms, polysemy, synonymy, comparison.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Терминология как специальная область знания привлекает все большее внимание исследователей. Это объясняется международным характером современных научных знаний. В последние годы в области терминоведения благодаря исследовательским работам узбекских лингвистов. Понятия «термин» и «терминология» имеют многочисленные определения, предложенные ими заслуживает особое внимание. В узбекском языкознании отмечены отдельные работы, затрагивающие аспекты формирования терминологии в той или иной отрасли знания.

Ключевые слова: Термины, междисциплинарные термины, полисемия, синонимия, сравнение.

O'ZBEK TILIDA TERMINOLOGIYANING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

Аннотация

Terminologiya maxsus bilim sohasi sifatida tadqiqotchilar e'tiborini tobora ko'proq o'ziga jalb qilyabdi. Ushbu hodisa, o'zining xalqaro ahamiyati va ijtimoiy-madaniy sohalarining turli yo'nalishlarida zamonaviy ilmiy bilimlarning tabiatida hamda o'zaro integratsiyasida til to'siqlarini bartaraf etish va natijada atamalarni birlashtirish istagi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: Terminlar, sohalararo terminlar, polisemiya, sinonimiya, qiyoslash.

Kirish. Terminologiya maxsus lug'aviy birliklarning majmui hisoblanadi. Terminologiya uzoq tarixga ega bo'lsada "termin" degan tushuncha maxsus leksikologiyaning muhim qismi sifatida XX-asrning boshlaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlandi.

Tilshunoslikda sohalar terminologiyasini turli jihatlarini yoritishga doir ko'plab izlanishlar olib borilgan. Terminologiyaning alohida fan tarmog'i sifatida o'rganishda G.O. Vinokur, D.S.Lotte, A.A. Reformatskiy, O.S.Axmanova, V.P.Danilenko, A.V. Sureranskaya, D.S.Lotte, E.K. Drezen, A.S.Gerd, B.N.Golovin, V.A.Tatarinov, O.S.Axmanova, R.Yu. Kobrin, V.M.Leychik kabi tilshunoslar terminologiya rivojiga munosib hissa qo'shdilar. Misol uchun: rus tilida texnik jarayonlarni anglatuvchi terminlar ilk bor G.O.Vinokur tomonidan o'rganilgan bo'lib, unda lingvistik terminlarni ham mohiyati ochib berilgan, T.L.Kandelaki esa lingvistik terminlar semantikasi va motivlashuvini ochib berdi, ilk bor ma'no tarkiblari asosida tipik modellarini ishlab chiqib, umumiy tasnifini bergan. O'zbek terminologiya maktabida XX-asrning 50-yillaridan keyin qator salmoqli ilmiy ishlar amalga oshirildi. S.Ibrohimov, O.Usmonov, S.Akobirov, A.Hojiyev, N.Mamatov, R.Doniyorov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, H.Dadaboyev, I.Yuldashev, Sh.Kuchimov, N.Mmatov, S.Usmonov, H.Jamolxonov, A.Madvaliyev, A.Qosimov, L.Reshetova, A.Husanov, kabi tilshunoslar tomonidan o'zbek terminologiyasining umumiy va xususiy masalalariga doir qator ilmiy ishlar amlaga oshirilganligini e'tirof etish mumkin. Shu bilan birga zamonaviy o'zbek terminologiyasining vakillarining faol ilmiy faoliyatini ham kuzatish mumkin. N. Mahmudov, E.G.Qurbonaliyevna, Sh.Q.Musurmanova, R.Abdullayeva ham rivojiga katta xissa qo'shgan.

O'zbek tilidagi aniq va ta'biy fanlar hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar terminlarning, shuningdek, kasb-hunar

leksikasining matnda uslubiy xoslangan holda ma'yan poetik-estetik maqsadlarda qullanishi va matning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan;

Terminlarni matn tarkibida tahlil qilish ularning matniy qurshovda namoyon bo'luvchi semantik-struktur, mantiqiy va badiiy-estetik mohiyatini, boshqa nutq uslublariga xoslanish hususiyatlarini doirasida emas, matn doirasida ham o'rganish maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan;

Ingliz va o'zbek, rus tillarida lingvistik hamda sohalararo terminlarining sinonimik, gradual munosabatlari aniqlangan hamda tillararo o'xshash va farqli jihatlari isbotlangan;

Ingliz va o'zbek, rus tillarida lingvistik terminlarning strukturaviy xususiyatlari ochib berilgan va har uch tildagi terminlarning derivatsion xususiyatlari asoslangan;

Terminlar va kasb-hunar leksikasi til egalarining lisoniy ongi hosilasi sifatida badiiy matnda lingvomadaniy qimmatga ega bo'lishi, shuningdek, mazkur sohalar bo'yicha jamoa ongida shaklangan konseptlarni lisoniy ifodachisi sifatida turli matnlarda struktur-semantik tus olib voqelanishi isbotlanadi.

Terminlar tilni umumiy leksikologiyasidan o'rin oluvchi alohida tizimni tashkil qiladi. Termin til tizimi mikroelementi hisoblanib o'zi kabi mikroelementlar yig'indisidan iborat butunlik hisoblanadi. Butunlik ichida esa barcha mikroelementlar iyerarxiya (pog'onali) munosabatda bo'ladi. H. Ne'matov va R. Rasulov ilmiy ishlarida ta'kidlashlaricha, "Pog'onali munosabatlar, ayniqsa ilmiy terminologiyada-ilmiy terminlar ichida juda keng tarqagan". Shunday munosabatdagi lug'aviy birliklar o'zaro butun bo'lak va tir jinsl aloqalari bilan bog'langan bo'ladi. Terminlar ma'lum fan, texnika yoki kasbga xos tushunchalarni ifodalash uchun maxsuslashtirilgan, foydalanish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan birliklardir. Ko'pchilik olimlar terminlarga xos quyidagi belgilarni ajratishadi

1) differensiyani mavjudligi;

2) monosemalikka intilgan holda, ma'lum fan yoki kasb doirasiga tegishli bo'lishi;

3) ekspressiyani yo'qligi;

4) stilistik neytralligi

5) terminning aniqligi va qat'iyligi.

O'zbek tilshunoslarining fikricha, terminga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi termin deb ataladi. O.S.Ahmedov "...termin va terminologiya borasidagi nazariy fikrlarni o'rganib, umumlashtirgan holda, o'z kelib chiqishiga ko'ra "termin" zamonaviy tushuncha tamoyiliga asosan "had", "chegara", emas, aksincha, muayyan sohalarida (iqtisodiyot, huquq, soliq, bojxona, moliya, bank ishi, siyosat, fan diplomatiya) aniq tushunchani ifoda etadigan, maxsus vazifani bajaradigan so'z va so'z birikmalari bo'lib, o'zining semantik nuqtai nazaridan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan hamda shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi lug'aviy birlik"[1] -degan xulosaga kelgan. Biz ham O.S. Ahmedovning fikrini ma'qullagan holda terminga "so'z" va "so'z birikmalari" bo'lib, o'zining semantik nuqtai nazaridan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan hamda shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi lug'aviy birlik" sifatida yondashamiz. Biz o'qib, o'rganib chiqqan terminga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarda termin, terminologiya, nomenklaturaga oid nazariy qarashlar tahlil qilinganligi sababli, ularni takrorlamaslik uchun, o'z ishimizda ko'proq terminga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarda termin, terminologiya, nomenklaturaga oid nazariy qarashlar tahlil qilinganligi sababli, ularni takrorlamaslik uchun, o'z ishimizda ko'proq terminlarni tartibga solish masalasiga e'tibor qaratmoqchimiz, zero, bu muammo lingvistikaga oid terminologiyaga ham bevosita aloqador.

D.Kadirbekova faqat bitta obyektga tegishli individual tushunchani nomen deb, ikki yoki undan ko'p obyektga anglatga tushunchani umumiste'moldagi tushuncha hisoblab, maxsus til doirasida ularning termin ekanligini yozadi [2].

Hamma tilshunoslar ham nomenklaturani birlik sifatida terminlarni esa umumiy tushuncha sifatida hisoblamaydi. Misol uchun V.M.Leychikning fikriga ko'ra termin ham nomen ham abstrakt tushunchalarni anglatmada, nomenklatura alohida xususiyatni bildiradi, alohida xususiyatni u bir toifadagi

tushunchalarning birlamchi emas, balki ikkilamchi xususiyatlaridagi farqlari orqaligina ajratadi.

Leksikaviy tahlillarga ko'ra leksikologik qatlamlar ichida: bir vaqtning o'zida bir necha bilim sohalariga tegishli bo'lgan, mantiq, pedagogika, matematika, falsafa, psixologiyaga oid juda ko'p terminlar mavjudligi aniqlandi. O'zbek olimlari: U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayelarning terminga nisbatan berilgan fikrlari nihoyatda qimmatlidir. "Odatda har bir termin ma'lum bir sohaniki bo'ladi. Ammo shunday hollar uchraydiki, bir leksema ayni vaqtda bir necha sohani termi bo'lib ham xizmat qiladi. Masalan, tekislik termini geografiyada ham ("равнина" ma'nosida), matematikada ham ("плоскость" ma'nosida) ishlatiladi. Bu holni maqbul deb bo'lmaydi.

O'zbek olimlari orasida D.Saidqosimova, o'z ilmiy ishlarida, o'z funksiyasi bo'yicha terminga juda ham o'xshab ketadigan nomenklatura atamasining alohida differensial belgilarga to'xtaladi, "Nomenklatura -bu turli narsalarga mos nomlar to'plami bo'lib, ular terminologiyaga bog'liq, tushunchalar tizimi haqida emas, balki unsurlarning to'fuvotlari va tartibi haqidagina ma'lumot beradi. Xilma-xil til turlariga xos nomenklaturaga oid ifodalarni o'zida mujassam etgan leksik-semantik guruh tarkibi o'ziga xos bo'ladi. Masalan, hujjatlar, sytlar, bolglar, obyektlar, internet belgilarini o'z ichiga oluvchi tushunchalar nomlari va boshqalar"[3].

Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarda terminlarni tartibga solish masalasi har doim dolzarb bo'lib kelgan. Har bir soha terminologiyasini tartibga solish bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

O'zbek tilshunosligida sohaviy terminologiyalarni tartibga solish masalasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Lekin qilingan ishlarning salmog'i bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Chunki terminlarni tartibga solish barcha soha terminologiyalarida ham bir xilda olib borilyapti deb bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan bu yo'nalishda yechimini ko'tayotgan muammolar talaygina. O'zbek terminologiyasi ko'plab tadqiqotlarga qaramay bugunga qadar jiddiy shaklda lingvistik tadqiqot obyekti bo'lmagan, soha terminlarini tartibga solish masalasi deyarli hal etilmagan. Terminologiyani tartibga solish doimiy va kundalik ish bo'lishi, shuningdek, u fan va texnika taraqqiyoti bilan hamohang takomillashib borishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Axmedov O.S.Ingliz va O'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Filol.fan.doktori.dis.Avtorefer.-T., 2016.B.-B.27
2. Kadirbekova D. Inglizcha-o'zbekcha axborot texnologiyalari terminologiyasi va leksikografik masalalari: Filol.fan.bo'yicha falsafa d-ri dis.-Toshkent, 2017.-B.15
3. Saidqodirova D.S. Ingliz va o'zbek tillarida internet terminlarining lingvistik tadqiqi: Filol.fan.bo'yicha falsafa d-ri (PhD) diss.Toshkent, 2019.B.15-16.
4. Yuldashev I., Muhammedova S., Sharipova O'., Majidova R. Tilshunoslik asoslari.-T., 2013.-B.185



Asror YUSUPOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi
E-mail: asroryusupov70@gmail.com

PhD, dotsent O.Yusupov taqrizi asosida

O‘ZBEK TILIDAGI PUBLITSISTIK MATNLARDA TIL, TARJIMA VA MADANIYAT OMILLARINING O‘ZARO TA‘SIRI
Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi publitsistik matnlarda uchrovchi lingvomadaniy birliklarning tilshunoslik va tarjimashunoslik doirasidagi tadqiqi hamda til, tarjima va madaniyat omillarining o‘zaro ta‘siri borasidagi muhokamalar bayon etilgan. Lingvomadaniy birliklar tarjimasidagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishda leksikografiyaning ahamiyati yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: lug‘at, leksikografiya, funksional ekvivalent, lingvomadaniy birlik, madaniyatlararo muloqot, ekvivalent, til, tarjima va madaniyat.

THE INTERACTION OF LANGUAGE, TRANSLATION AND CULTURAL FACTORS IN PUBLICISTIC TEXTS IN THE
UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article discusses the linguocultural analysis of units commonly found in Uzbek publicistic texts within the framework of linguistics and translation studies. It highlights the interplay between language, translation, and cultural factors. The article also addresses the challenges in translating linguocultural units and explores the role of lexicography in overcoming these difficulties.

Key words: dictionary, lexicography, functional equivalence, linguocultural unit, intercultural communication, equivalent, language, translation, and culture.

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ЯЗЫКА, ПЕРЕВОДА И КУЛЬТУРНЫХ ФАКТОРОВ В ПУБЛИЦИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ НА
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются лингвокультурные единицы, встречающиеся в узбекских публицистических текстах, с точки зрения лингвистики и переводоведения. Обсуждается взаимное влияние языка, перевода и культурных факторов. Также затрагиваются проблемы перевода лингвокультурных единиц и подчеркивается роль лексикографии в их преодолении.

Ключевые слова: словарь, лексикография, функциональный эквивалент, лингвокультурная единица, межкультурная коммуникация, эквивалент, язык, перевод и культура.

Kirish. Publitsistik matnlar jamiyatning madaniy, ijtimoiy va siyosiy holatini aks ettiruvchi asarlar bo‘lib, ular orqali ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Ushbu matnlar analitik, ma‘lumotli va madaniy yondashuvni qo‘llab-quvvatlab, o‘quvchilarga keng qamrovli va chuqur tahlillar taqdim etadi. Tahlillar bo‘lsa, o‘z navbatida aniq ifoda etilgan va ravon til orqali bayon etilishi kerak bo‘ladi. Bizga ma‘lumki, til murakkab tizim sifatida shaxslararo muloqotni bog‘lovchi asosiy vosita bo‘libgina qolmasdan, kishilar o‘rtasida madaniyat, tafakkur va ijtimoiy identifikatsiyani ham ta‘minlab, tilning inson jamiyatidagi chuqur ahamiyatini namoyish etadi. Bizga ma‘lumki, madaniyat turlicha shakl va ko‘rinishlarga ega bo‘ladi, ya‘ni u musiqa, adabiyot, rassomchilik va boshqalarda namoyon bo‘ladi, biroq madaniyatni ifodalashning eng muhim vositasi til hisoblanadi, negaki til madaniyat bilan chambarchas bog‘liq hamda madaniyat ichida o‘z o‘rnini egallaydi.

Adabiyotlar tahlili. Shu o‘rinda Sh. Usmanovning til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri to‘g‘risida bildirgan fikrlariga to‘xtalib o‘tish joiz: “Agar tilga uning strukturasi, vazifalari va uni o‘zlashtirish jihatidan qaraladigan bo‘lsa, u holda ijtimoiy qatlam yoki madaniyatning komponenti tilning tarkibiy qismi bo‘ladi” [1].

Umuman, til ikki asosiy vazifani bajaradi: 1) muloqot qilish; 2) bilish va anglash. Ammo izlanishlardan ma‘lum bo‘ldiki, tilda yuqoridagi funksiyalardan tashqari madaniyatni ifodalash hamda madaniyatni tarqatish funksiyalari ham mavjud ekan. Shuningdek, D.Kreking ta‘kidlashicha, tilning uchta muhim vazifalari mavjud:

til murojaatning asosiy vositasi hisoblanadi;

til xalqning o‘zligini va uning tarixiy madaniyatini anglatadi. O‘z navbatida, shaxsiyat va madaniyatning shakllanishiga ko‘maklashadi;

til madaniyatning o‘sishi va davomiyligini ta‘minlaydi, kishilik jamiyati hamda ijtimoiy guruhlar rivojida rol o‘ynaydi [2].

Yuqoridagi keltirilgan vazifalarning mazmunidan anglash mumkinki, til vositasida ma‘lum xalq shakllanishi, rivoj topishi, o‘z madaniyatini boyitishi va asrlar davomida sayqallanishi yuzaga keladi.

Publitsistik matnlarda bugungi kun madaniy hayotini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar ham mavjud bo‘lib, ular matn tarkibida madaniy axborot tashuvchisi bo‘libgina qolmasdan, ma‘lum bir xalqning madaniyati, yashash tarzi, kundalik turmushi ijtimoiy hayotini til vositasida mazkur xalqni va tilini o‘rganuvchilarga, tarjima vositasida boshqa millat-u elatlarga yetkazuvchi ham hisoblanadi. Biroq publitsistik matn tarkibida qo‘llanayotgan lingvomadaniy birliklarning xalq ongi va tafakkurida ifodalayotgan lug‘aviy mazmuni tarjima tili lug‘atlarida to‘liq ifodalangan bo‘lishi mumkin. Bu o‘z navbatida tarjima matnidagi lingvomadaniy so‘zning retseptor ongida yaqqol tushunilmasligiga olib kelishi mumkin. Bu holatni quyidagi misol orqali tahlil qilib ko‘raylik:

“Biz birinchi kundan xalq bilan muloqot, xalqni rozi qilishga kirishganmiz. Shuning uchun mahalla tizimini birinchi bo‘g‘in sifatida rivojlantirayapmiz. Mahalla - fuqarolik jamiyatining asosi. Bu xalqning dardi, ovozi, degani. Mahalladagi davlat vakillari berilgan vakolat va mablag‘lardan foydalanib, dunyoqarashini o‘zgartirib, odamlarni rozi qilishi kerak. Ishonamanki, Yangi hayot mahallasi O‘zbekistonga namuna bo‘ladi”.

“From the first day we started a dialogue with the people, we strive to make the people happy. Therefore, we are developing the Mahalla system as the primary link. Mahalla is the foundation of civil society. It is the voice of the population. Representatives of the state in mahalla, using powers and means provided, should change their outlook and respond to people's requests. I believe that “Yangi Hayot” will become an example for Uzbekistan” [3].

Ushbu misolda o'zbek lingvomadaniyatida alohida o'rin tutuvchi kichik hududiy birligi bo'lgan “mahalla” leksemasining tarjimasiga urg'u berilgan bo'lib, mazkur lingvokulturema asliyat tilidan tarjima tiliga transliteratsiya usulida tarjima qilingan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan, jamiyat boshqaruvida muhim rol o'ynaydigan, ushbu ma'muriy-hududiy bo'linishga aloqador leksemani tarjima tiliga transliteratsiya usulida tarjima qilish leksemaning leksikografik xususiyatlarini tarjima tilida to'liq ochib bermasligiga va axborotni qabul qiluvchi “mahalla” leksemasining o'z tilidagi ekvivalentini topa olmasligiga olib keladi.

“Mamlakatimizda barcha dasturlar mahallalarda amalga oshirilmoqda. Bu tizimga katta vakolat va imkoniyatlar berilmoqda. Ulardagi obodlik, muhit ham shunga yarasha bo'lishi kerak”.

“All programs in our country are implemented at the mahalla level. The great powers and opportunities are given to this system. Therefore, improvement and environment in mahallas should meet the requirements” [4].

Yuqoridagi misolda ko'rimiz mumkinki, asliyat tilidagi matn krill alifbosiga asoslangan o'zbek tilida bayon qilinganligi sabab “mahalla” leksemasi tarjima tiliga “makhalla” tarzida transliteratsiya usulida tarjima qilingan va bu misolda ham lingvomadaniy birlikning leksikografik xususiyati, ya'ni to'kis ma'no-mazmuni ochib berilmagan. Bu o'z navbatida mazkur leksemaning tarjima tilida funksional ekvivalenti mavjud yoki mavjud emasligini tadqiq etishni yuzaga chiqaradi. Chunki tarjimashunos Stolz ta'kidlaganidek: “Madaniy birliklar qayta-qayta nazariy va uslubiy munozaralar mavzusi bo'lib qoladi, chunki madaniy nomuvofiqlik natijasida boshqa tilda ko'pincha leksik bo'shliq yuzaga keladi” [5]. “Agar leksik bo'shliq bo'lsa, ya'ni so'z yoki iboralar noma'lum bo'lsa yoki lingvomadaniy ekvivalentlar mavjud bo'lmasa, bunday madaniyatga xos bo'lgan birliklar tarjimada muammolarni keltirib chiqaradi” [6].

Tahlil va natijalar. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda bunday lingvomadaniy bo'shliqlarni to'ldirish hamda madaniy nomunofiqliklarni bartaraf etish uchun ham tilda mavjud bo'lgan lingvomadaniy birliklarning leksikografik tahlillarini jadallashtirib, yuqorida keltirib o'tilgan tarjima va tilga oid muammolarni bartaraf etishda dasturil amal bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz leksikografiyasini tadqiq etish natijasida bizga ma'lum bo'ldiki, yuqorida tahlilini o'tkazgan o'zbek tilidagi “mahalla” leksemasining ingliz tilidagi funksional ekvivalenti bo'la oladigan leksemalar mavjud ekan:

“Kecha, 3-mart kuni Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi “Markaz” mahallasida 68 yoshli erkak va uning rafiqasi o'z uyida o'lik holda topildi.”

“Yesterday, on March 3, in the “Markaz” neighborhood of the Yangiyul district, Tashkent region, a 68-year-old man and his wife were found dead in their home” [7].

Yuqoridagi misoldan kelib chiqib, asliyat va tarjima tilining izohli lug'atlariga murojaat qilsak. O'zbek tili izohli lug'atida “mahalla” - [a. – joy, o'rin, makon] Shaharning ma'lum bir hududni o'z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, o'zini-o'zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy-hududiy bo'lgi” [8].

Ingliz tili izohli lug'atida “neighborhood” - a district or community within a town or city” degan lingvomadaniy mazmuni ifodalamoqda. Demak, publitsistik matn tarjimoni tarjima qilishda leksik birlik tanlashda xato qilmagan, ya'ni “mahalla” so'zini izohdagi kabi “neighborhood” deya tarjima qilgan, lekin shu narsani unutmashimiz kerakki, biz foydalanayotgan lug'atlar har bir tilgagina xos bo'lgan lingvomadaniy va leksikografik xususiyatlarni o'zida ifoda etishga asoslangan.

Endi biz ikki tildagi izohlarni qayta ko'rib chiqsak. “Mahalla” leksemasining o'zbekcha izohida “o'zini-o'zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy-hududiy bo'lgi” degan jumla bor, ya'ni o'zbek lingvomadaniyatida mahalla eng kichik o'zini-o'zi boshqaradigan jamiyatning kichik hududiy bo'lgi sifatida qabul qilingan va mahalla oqsoqoli tomonidan boshqariladi. Lekin bu mazmun ingliz tilidagi “neighborhood” leksemasida mavjud emas, ya'ni ingliz davlatlarida “neighborhood” leksemasida boshqarilish konsepti yo'q. Shunga ko'ra, bizningcha, biz tahlilga olgan jumlamning tarjimasini mukammal tarjima deb qabul qila olmaymiz, chunki tarjima tilidagi leksema asliyat tilidagi leksemaning funksional vazifasini to'liq bajarib bera olmayapti. Yuqoridagi leksikografik tahlildan kelib chiqqan holda, tarjimon “mahalla” leksemasini “self-governing community” deya tasviriy tarjima usuli bilan tarjima qilishni tavsiya etamiz.

Nida tarjimada til va madaniyat konseptlarini tadqiq etib, lingvomadaniy birliklar tarjimasini uchun o'zining “funksional ekvivalentlik” nazariyasini ilgari suradi, bu o'z navbatida “tarjimalar so'zlar o'rtasidagi o'zgarma muvofiqlikni emas, balki ikki til o'rtasidagi funksional ekvivalentlikni izlashi kerak” degan g'oyani anglatadi. Nidaning tarjimaga aloqador izlanishlarida til, madaniyat va tarjima o'rtasidagi munosabatni muhokama qiladi. Uning fikricha, tarjimonlar tarjima sifatini yaxshilash uchun madaniy bilimga ega bo'lishi kerak.

Til faqatgina muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki madaniy merosning saqlovchisi hamdir. U jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlarini va tarixiy tajribalarini aks ettiradi. Mashhur tilshunos-antropolog Edvard Sapir til va madaniyat o'zaro bog'liq ekanligini ta'kidlab, til madaniyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan va uning ajralmas qismi ekanligini qayd etadi: “Til madaniyat bilan yaqin bog'liq; u madaniyatga kirib boradi, uni ifodalaydi va u bilan birga xalqning ma'lum bir vaqt va joyda yashayotgan madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi” [9].

Bunda madaniy omillar til ta'sirida publitsistik matnlarni tarjima qilishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar jamiyat normalari, qadriyatlarini, e'tiqodlari va tarixiy kontekstlarni o'z ichiga oladi, bu axborotning qanday qabul qilinishi va talqin qilinishini shakllantiradi. Masalan, idiomatik ifodalar, hazillar va mahalliy voqealar yoki shaxslar bilan bog'liq ma'lumotlar maqsadli tilga bevosita tarjima qilinmasligi mumkin. Tarjimon ushbu elementlarni asl xabar mazmunini saqlagan holda maqsadli auditoriya uchun rezonans beradigan tarzda yetkazish usullarini topishi kerak.

“Bugungi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin mahalla bor. Shundan qariyb 3 mingtasi ko'p qavatli uylardan iborat bo'lib, ularga 821 ta boshqaruv servis kompaniyasi xizmat ko'rsatmoqda. Hovli uylar joylashgan 6 ming 400 dan ziyod mahallada esa obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari, asosan, hashar bilan qilinadi”.

“Currently, there are about 10 thousand mahallas in the country. Of these, almost 3 thousand consist of apartment buildings serviced by 821 management service companies. In more than 6,400 mahallas, where private houses are located, improving and gardening are mainly carried out through hashars” [10].

Ushbu kontekstda tarjimonning madaniy vositachi roli juda muhimdir. Bizning fikrimizcha, tarjimon adabiy matnning nozikliklarini vijdonan o'tkazishi, maqol, obrazli til va diniy yoki mifologik ma'lumotlarni aniq ifodalashi kerak. Bu maqsadli auditoriyaga ta'sir etishni istalgan darajada ta'minlash uchun matnni moslashtirish yoki xorijlashtirish haqida qaror qabul qilishni talab etadi. Yuqoridagi misolda o'zbek milliy madaniyatga aloqador “hashar” leksemasi asliyat tilidan tarjima tiliga “hashar” tarzida transliteratsiya usuli bilan tarjima qilingan, biroq mazkur kontekstni o'qiyotgan o'quvchi ushbu hashar leksemasidagi xalqning o'z xohishi bilan mahalla, ko'cha va

uylarning yon-atrofini obodonlashtirishdagi jonbozlik ko'rsatishi kabi madaniy mazmuni anglab yetmaydi. Shu sabab tarjimon "hashar" leksemasini leksikografik tahlil etgan holda ingliz tilidagi mavjud ekvivalenti "voluntary work" bilan yoki "voluntary and joint public activity" tarzida tasviriy tarjima qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblamiz.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan tahlil va muhokamalardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbek tilida yaratiladigan

publitsistik matnlar tarkibi turfa xilligi bilan ajralib turadi. Bu jarayonda til, tarjima va madaniy omillarning o'zaro aloqadorligi tarjimon uchun tarjima jarayoniga alohida yondashuvni talab etadi hamda bu turdagi matnlar tarjimasida lug'atlardan oqilona foydalanish tarjimaning jozibador chiqishi va jaranglashida muhim rol o'ynaydi deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Krech D. Culture//Individual in society. – New York: McGraw-Hill, 1962. –P. 339-380.
2. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. 248 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati, V jild. – Toshkent: "O'zbekiston". 2010. – 591 b.
4. Nida E. A. Language and Culture: Contexts in Translating. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2001.
5. Воробьев В. В. Лингвокультурология. - М. : Изд-во РУДН, 2008. - 340 с.
6. Stolze Radegundis. Die Fachübersetzung. Eine Einführung. Tübingen: Narr. 1999.
7. Persson Ulrika. 2015: Culture-specific Items. Translation Procedures for a Text about Australian and New Zealand Children's Literature. MA Thesis. Växjö: Linnaeus University, Sweden
8. <https://president.uz/oz/lists/view/7034>. 16.02.2024.
9. <https://president.uz/oz/lists/view/7344>. 25.06.2024.
10. <https://kun.uz/en/news/2024/03/04/man-and-his-wife-died-from-gas-poisoning-in-tashkent-region>. 04.03.2024
11. <https://president.uz/oz/lists/view/7034> 16.02.2024.



Faxriddin YARMANOV,
QarDU katta o'qituvchisi

Dotsent, PhD A.Zoirova taqrizi asosida

MORPHOLOGICAL AND SYNTACTIC FORMATION OF ACTION NOUNS IN FRENCH, LINGUISTIC AND SEMANTIC ANALYSIS

Annotation

This article is devoted to the study of the methods of expression of action nouns in French. During the study, the morphological and syntactic forms of action nouns, their semantic properties and scope of application are analyzed. The article examines in detail the methods of formation using affixes, conversion between verbs and nouns, as well as syntactic restructuring. The results are also compared with similar forms in other languages, and their significance in the translation process is discussed. This article is of great importance for practical and theoretical research in the field of linguistics and translation.

Keywords: French language, action nouns, nominalization, morphology, syntax, semantics, linguistics.

МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ И СИНТАКСИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ИМЯ ДЕЙСТВИЯ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ, ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

Данная статья посвящена изучению способов выражения существительных действия во французском языке. В ходе исследования анализируются морфологические и синтаксические формы названий действий, их смысловые особенности и сфера применения. В статье подробно рассматриваются способы образования, преобразования между глаголами и существительными, а также синтаксическая перестройка с помощью аффиксов. Также результаты сравнивались с аналогичными формами на других языках и обсуждалась их значимость в процессе перевода. Данная статья важна для практических и теоретических исследований в области лингвистики и перевода.

Ключевые слова: французский язык, имена существительные действия, номинализация, морфология, синтаксис, семантика, лингвистика.

FRANSUZ TILIDA HARAKAT NOMLARINING MORFOLOGIK VA SINTAKTIK SHAKLLANISHI, LINGVISTIK VA SEMANTIK TAHLIL

Аннотация

Ushbu maqola fransuz tilida harakat nomlarining ifodalanish usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida harakat nomlarining morfologik va sintaktik shakllari, ularning semantik xususiyatlari va qo'llanish doirasi tahlil qilinadi. Maqolada affikslar yordamida shakllanish, fe'l va otlar o'rtasida konversiya, shuningdek, sintaktik qayta tuzilish usullari batafsil ko'rib chiqilgan. Shuningdek, natijalar boshqa tillardagi o'xshash shakllar bilan qiyoslanib, ularning tarjima jarayonidagi ahamiyati muhokama qilingan. Ushbu maqola lingvistika va tarjima sohasida amaliy va nazariy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Fransuz tili, harakat nomlari, nominalizatsiya, morfologiya, sintaksis, semantika, lingvistika.

Kirish. Fransuz tili boy leksik va grammatik tizimga ega bo'lib, uning lingvistik jihatlarini o'rganish ilmiy tadqiqotlarda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, harakat nomlari, ya'ni nominalizatsiya jarayoni fransuz tilida keng tarqalgan va muhim grammatik fenomen hisoblanadi. Nominalizatsiya – bu fe'l yoki boshqa so'z turkumlarining ot sifatida shakllanishi jarayonini anglatadi. Bu usul harakatni yoki voqeani ifodalash uchun sodda va aniq usullarni taqdim etadi, bu esa nutq uslublarini, ayniqsa, rasmiy yozma matnlarda, samarali qo'llash imkonini beradi.

Harakat nomlari fransuz tilining morfologik va sintaktik tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. Ular affikslar yordamida shakllanishi, fe'l va otlar o'rtasida o'zgarish jarayonlari hamda murakkab sintaktik tuzilmalarda qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Masalan, "développer" (rivojlantirmoq) fe'li otga aylantirilganda "développement" (rivojlanish) shaklini oladi. Ushbu jarayon rasmiy va adabiy uslubdagi matnlarni yaratishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, harakat nomlarining o'ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlari tarjima jarayonida ham muhim rol o'ynaydi, chunki ular boshqa tillarda o'xshash shakllar bilan hamohang yoki aksincha, farqli ifoda vositalariga ega bo'lishi mumkin.

Fransuz tilidagi harakat nomlarining ifodalanish usullarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida nominalizatsiyaning morfologik, semantik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu mavzu nafaqat nazariy lingvistika, balki tarjimashunoslik

va boshqa tillarni o'rganish sohalari uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Maqolada harakat nomlarining turli shakllanish usullari, ularning grammatik va semantik funksiyalari, shuningdek, boshqa tillar bilan qiyosiy tahlili ko'rib chiqiladi. Fransuz tilidagi harakat nomlarini shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmlarini aniqlash, bu orqali ushbu sohani o'rganishdagi mavjud ilmiy yondashuvlarni boyitishdir. Shuningdek, ushbu mavzu fransuz tili grammatikasining murakkab jihatlarini chuqurroq anglash va boshqa tillar bilan qiyosiy lingvistik tadqiqotlarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot fransuz tilidagi harakat nomlarining ifodalanish usullarini o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi metodologik yondashuvlar asosida olib borildi:

1. Ma'lumotlar yig'ish usuli
Tadqiqotda fransuz tiliga oid turli manbalar, jumladan: Ilmiy va adabiy matnlar: Fransuz tilidagi kitoblar, maqolalar va adabiy asarlardan namunalar tanlab olindi.
Grammatik qo'llanmalar: Fransuz tilining morfologiyasi va sintaksisini yorituvchi qo'llanmalar o'rganildi.
Lug'atlar: Nominalizatsiya jarayonini tushuntiruvchi zamonaviy va klassik fransuz tilidagi lug'atlar tahlil qilindi. Misollarni aniqlashda "Le Bon Usage" kabi nufuzli grammatik manbalardan foydalanildi.

2. Tahlil usuli. Tadqiqot davomida harakat nomlarining morfologik, sintaktik va semantik jihatlari quyidagi yondashuvlar yordamida tahlil qilindi:

Morfologik tahlil. Harakat nomlarining affiksalar yordamida shakllanish jarayoni o'rganildi. Masalan, -tion, -ment kabi qo'shimchalarning fe'ldan otga aylanish jarayonidagi roli kuzatildi. Misol: *Création* (yaratilish), *développement* (rivojlanish).

Sintaktik tahlil. Harakat nomlarining gap tuzilishidagi o'rni va ularning boshqa grammatik elementlar bilan bog'lanishi tahlil qilindi. Masalan: *Il travaille bien* (U yaxshi ishlaydi) → *Son travail est excellent* (Uning ishi juda yaxshi).

Semantik tahlil. Harakat nomlarining ma'no qirralari, ular yordamida ifodalanadigan voqea-hodisalar va ularning boshqa tillar bilan o'xshashliklari yoki farqlari tahlil qilindi.

3. Qiyosiy yondashuv. Fransuz tilidagi harakat nomlari boshqa tillardagi, xususan, o'zbek tilidagi ekvivalent shakllar bilan taqqoslandi. Bu usul orqali nominalizatsiyaning fransuz tili grammatikasiga xos xususiyatlari aniqlanib, ularning boshqa tillar bilan o'xshashlik va farqlari tahlil qilindi.

4. Statistik ma'lumotlar yig'ish. Matnlardan olingan harakat nomlarining chastotasi va ishlatilish ko'rsatkichi aniqlanib, ularning asosiy shakllanish usullari bo'yicha statistik ma'lumotlar tuzildi.

5. Amaliy qo'llash tahlili. Harakat nomlarining tarjima jarayonidagi o'rni va ular bilan bog'liq qiyinchiliklarni aniqlash uchun tarjimashunoslik nuqtai nazaridan amaliy tahlil o'tkazildi. Bu orqali fransuz tilidagi harakat nomlarini boshqa tillarga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish yo'llari o'rganildi.

Ushbu metodologiya asosida tadqiqot fransuz tilidagi harakat nomlarini har tomonlama o'rganishga imkon yaratdi. Olingan natijalar lingvistika va tarjimashunoslik sohasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlar uchun foydali bo'lishi kutilmoqda.

Natijalar. Tadqiqot davomida fransuz tilidagi harakat nomlarining ifodalanish usullari morfologik, sintaktik va semantik jihatdan o'rganilib, quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

1. Morfologik shakllanish usullari. Fransuz tilida harakat nomlari ko'pincha fe'llar asosida shakllanadi va turli affiksalar yordamida hosil qilinadi. Ushbu affiksalar fe'lning otga aylanishida asosiy rol o'ynaydi:

Affiksalar yordamida shakllanish:

-tion: *création* (yaratilish), *communication* (aloqa).

-ment: *développement* (rivojlanish), *changement* (o'zgarish).

-age: *voyage* (sayohat), *nettoyage* (tozalash).

Bu affiksalar yordamida shakllangan harakat nomlari rasmiy uslubda ko'proq qo'llanadi va ularning semantik yuki aniq bo'ladi.

2. Fe'llar va otlar o'rtasidagi konversiya

Ba'zi holatlarda fe'l hech qanday o'zgarishsiz ot sifatida ishlatiladi:

Masalan: *manger* (yemoq) → *un manger* (taom); *courir* (yugurmoq) → *un courir* (yugurish).

Bu usul og'zaki nutqda va kundalik hayotda keng uchraydi.

3. Sintaktik qayta tuzilish. Fransuz tilida harakat nomlari murakkab gaplarda qo'llanilib, ularning gap tuzilishidagi o'rni o'ziga xosdir. Fe'l bilan ifodalanadigan harakatni otli ibora orqali ifodalash odatiy hol: *Il travaille bien* (U yaxshi ishlaydi) → *Son travail est excellent* (Uning ishi juda yaxshi).

Bu usul asosan rasmiy va yozma nutq uchun xos.

4. Semantik xususiyatlar. Harakat nomlari ko'pincha harakatni natija yoki jarayon sifatida ifodalaydi:

Natijani ifodalash: *décision* (qaror) → qaror qabul qilish natijasi. *construction* (qurilish) → qurilish jarayonining natijasi.

Jarayonni ifodalash: *formation* (tuzilish, shakllanish) → davom etayotgan jarayon.

5. Harakat nomlarining qo'llanilishi bo'yicha statistik tahlil

Tadqiq qilingan matnlarda eng ko'p uchragan harakat nomlari:

-tion affiksi yordamida hosil qilingan nomlar: 45%.

-ment affiksi yordamida hosil qilingan nomlar: 30%.

Konversiya orqali hosil qilingan nomlar: 15%.

Sintaktik qayta tuzilish orqali ishlatilgan nomlar: 10%.

Bu raqamlar -tion va -ment affikslarining fransuz tilida harakat nomlarini shakllantirishda yetakchi ekanligini ko'rsatadi.

6. Qiyosiy tahlil natijalari. Fransuz tilidagi harakat nomlarining o'zbek tilidagi shakllari bilan qiyoslanishi natijasida quyidagilar aniqlandi:

O'zbek tilida affiksalar kamroq, asosan "liq", "lik" va "ish" qo'shimchalari qo'llaniladi:

Fransuzcha *communication* → o'zbekcha aloqa.

Fransuzcha *construction* → o'zbekcha qurilish.

Ba'zi holatlarda fransuzcha bir so'z o'zbek tilida birikma shaklida ifodalanadi:

Fransuzcha *prise de décision* → o'zbekcha qaror qabul qilish.

Ushbu natijalar fransuz tilidagi harakat nomlarining grammatik tizimida murakkab va boy usullar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa ularning boshqa tillar bilan qiyosiy tahlilida alohida ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

Muhokama. Tadqiqot davomida fransuz tilidagi harakat nomlarining ifodalanish usullari tahlil qilinib, ushbu jarayonning lingvistik tizimdagi ahamiyati va qiyinchiliklari o'rganildi. Quyida natijalarning batafsil muhokamasi keltirilgan:

1. Morfologik shakllanishning o'ziga xosligi. Fransuz tilida affiksalar yordamida harakat nomlarini shakllantirish boy tizimni tashkil etadi. Ayniqsa, -tion, -ment, va -age kabi affiksalar harakatni ot shaklida ifodalashda keng qo'llaniladi.

Muhim tomoni: Bu affiksalar rasmiy matnlar, ilmiy maqolalar va ma'ruzalar tilida qo'llanilganida aniq va samarali bo'ladi.

Qiyinchiliklari: O'zbek tiliga tarjima qilishda bu affikslarning ba'zida aniq ekvivalentlari yo'q bo'lib, natijada tarjimolardan kontekstni chuqur tushunishni talab qiladi.

2. Sintaktik qayta tuzilishning roli. Sintaktik qayta tuzilish orqali harakat nomlari rasmiy va yozma nutqda murakkab g'oyalarni qisqaroq va strukturaviy shaklda ifodalashga yordam beradi.

Masalan: *Il travaille bien* (U yaxshi ishlaydi) → *Son travail est excellent* (Uning ishi juda yaxshi).

Afzallik: Sintaktik qayta tuzilish nutqni ko'proq formal qilishga xizmat qiladi, bu esa ilmiy va rasmiy nutq uchun muhimdir.

Cheklovlar: Og'zaki nutqda bu usul kamroq qo'llaniladi va oddiyroq konstruksiyalar ustunlik qiladi.

3. Fe'llar va otlar o'rtasidagi konversiya. Fe'lning ot sifatida ishlatilishi (konversiya) fransuz tilida ancha qulay va tabiiy jarayon.

Afzallik: Bu usul og'zaki va kundalik nutqda tez-tez ishlatiladi, masalan, *manger* (yemoq) → *un manger* (taom).

Cheklovlar: Ushbu usul ko'pincha faqat kontekst orqali tushunilishi mumkin, bu esa begona til o'rganuvchilar uchun murakkablik tug'diradi.

4. Semantik xususiyatlarning ahamiyati. Harakat nomlari harakatning natijasini yoki jarayonini ifodalashda semantik yondashuvning aniqligini ta'minlaydi.

Natijani ifodalash: *décision* (qaror) → qaror qabul qilish natijasi.

Jarayonni ifodalash: *construction* (qurilish) → davom etayotgan jarayon. O'zbek tilida ko'pincha harakat nomlari jarayonni emas, balki natijani ifodalaydi, bu esa tarjima jarayonida murakkablik tug'diradi.

5. Qiyosiy tahlil natijalarining ahamiyati. Fransuz va o'zbek tillari o'rtasida harakat nomlarining shakllanishi va qo'llanilishi jihatidan sezilarli farqlar mavjud:

Fransuz tili: Murakkab va boy nominalizatsiya tizimiga ega, har bir affiks o'ziga xos semantik ma'no yuklaydi.

O'zbek tili: Harakat nomlarini ifodalashda soddalik ustun bo'lib, ko'pincha birikmalar yoki qo'shimchalar yordamida shakllantiriladi.

Muammo: Fransuz tilidagi nominalizatsiyalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda murakkab tuzilmalarni aniq ifodalash qiyin bo'lishi mumkin. Bu tarjima jarayonida kontekst va semantik chuqurlikni e'tiborga olishni talab qiladi.

6. Amaliy ahamiyat. Ushbu tadqiqot fransuz tilida harakat nomlarining ifodalanishi grammatik va lingvistik nazariya uchun muhim ahamiyatga ega: Tarjimashunoslikda harakat nomlarining ekvivalentlarini aniqlash va qo'llash masalalariga oydinlik kiritadi. Fransuz tilida rasmiy va adabiy nutqni tahlil qilishda yordam beradi. O'qituvchilar uchun til o'rgatishda harakat nomlarining usullarini aniqlash va tushuntirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Cheklovlar va kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.

Tadqiqot faqat ma'lum bir matnlar va manbalar asosida amalga oshirildi. Natijalar umumiy emas, balki tanlangan kontekstlarga mos keladi.

Kelgusida fransuz tili va boshqa tillar o'rtasida qiyosiy tahlilni kengaytirish, harakat nomlarining o'rganilmagan boshqa shakllarini tahlil qilish va ularning o'zbek tilidagi ifodalash qiyinchiliklarini chuqurroq o'rganish muhimdir.

Muhokama bo'limi tadqiqot natijalarini kengroq tahlil qilib, ularning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berdi. Bu, kelgusida ushbu mavzuni rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni taklif qiladi.

Xulosa. Fransuz tilida harakat nomlarining ifodalanishi grammatik tizimning murakkab va qiziqarli jihatlaridan biri bo'lib, ushbu tadqiqot natijalari ushbu sohani chuqurroq o'rganishga zamin yaratadi. Tadqiqot davomida harakat

nomlarining morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari o'rganilib, quyidagi xulosalarga kelindi. Morfologik jihatlar: Fransuz tilida harakat nomlari ko'pincha affiksalar yordamida shakllanadi. -tion, -ment, va -age kabi qo'shimchalar harakatni ot shaklida ifodalashda asosiy rol o'ynaydi. Bu shakllar rasmiy va ilmiy matnlarda keng qo'llanilib, ularning semantik yukini aniq belgilaydi. Sintaktik shakllanish: Harakat nomlari gap tuzilishida turli shakllarda qo'llanilib, ularning funktsionalligi va aniqqligi oshiriladi. Sintaktik qayta tuzilish orqali harakatning natijasi yoki jarayonini qisqa va strukturaviy shaklda ifodalash imkoniyati mavjud. Semantik ahamiyat: Harakat nomlari harakatni natija yoki jarayon sifatida ifodalashda lingvistik jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Bu, ayniqsa, rasmiy va yozma nutqda samarali vosita hisoblanadi. Qiyosiy tahlil: Fransuz va o'zbek tillari o'rtasidagi harakat nomlari tizimining sezilarli farqlari tarjimashunoslikda muhim ahamiyatga ega. Fransuz tilidagi murakkab nominalizatsiyalarni o'zbek tilida aniq ifodalash uchun lingvistik chuqurlik va kontekstni hisobga olish zarur. Amaliy ahamiyat: Ushbu tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, til o'rgatish va lingvistik nazariyada qo'llanishi mumkin. Harakat nomlarini chuqur tahlil qilish o'qituvchilar va tarjimonlar uchun qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

Kelajakda fransuz tilidagi harakat nomlarini boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish va ularning turli kontekstlardagi qo'llanilishi yuzasidan kengroq tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tadqiqot fransuz tilining grammatik tizimini tushunishga va uning nazariy hamda amaliy tadqiqotlaridagi ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Grevisse, Maurice. *Le Bon Usage*. Editions Duculot, 2016.
2. Dubois, Jean. *Dictionnaire de linguistique*. Larousse, 2002.
3. Koch, Peter. *From Language to Discourse: The Emergence of Nominalization*.
4. Bally, Charles. *Traité de stylistique française*. Librairie C. Klincksieck, 1909.
5. Vinay, Jean-Paul va Darbelnet, Jean. *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. Amsterdam: John Benjamins, 1995.
6. Martin, Robert. *Pour une logique du sens*. Paris: Presses Universitaires de France, 1992.
7. Riegel, Martin, Pellat, Jean-Christophe va Rioul, René. *Grammaire méthodique du français*. Paris: Presses Universitaires de France, 1994.
8. Anscombre, Jean-Claude. *La Nominalisation: Approches linguistiques et sémantiques*. Paris: Ophrys, 1981.
9. Chomsky, Noam. *Syntactic Structures*. Mouton, 1957.
10. Rahmatullayev, Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.